

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA
ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMUY DARAJALAR
BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.Fil.19.01 RAQAMLI ILMUY KENGASH**

**Qo'lyozma huquqida
UO'K: 821.512.133.09-1**

ISKANDAROV FAYZULLA MASHRABOVICH

ALISHER NAVOIY DOSTONLARIDAGI NA'TLAR POETIKASI

10.00.02 – O'zbek adabiyoti

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
ilmiy darajasini olish uchun yozilgan
DISSERTATSIYA**

Ilmiy rahbar: Mullaxo'jayeva Karomat,
filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Toshkent – 2023

MUNDARIJA

KIRISH.....	3-13
I BOB. NA'TNING ILMIY-NAZARIY TAVSIFI VA UNING NAVOIY IJODIGACHA BO'LGAN TAKOMIL BOSQICHLARI	
1.1. Na'tning tarixiy-adabiy ildizlari va taraqqiyoti.....	14-32
1.2. Turkiy adabiyotda na't va uning Alisher Navoiy ijodida tutgan o'rni.....	33-46
I bob bo'yicha xulosalar	47-48
II. BOB. DOSTONLARDAGI VASF NA'TLARDA KOMIL INSON G'OYASINING POETIK TALQINI	
2.1. VASF na'tlarning badiiy mazmuni.....	49-60
2.2. Komil xulq tasvirida timsol va badiiy san'atlar tanosubи.....	61-78
2.3. Payg'ambar mo'jizalari tasvirida dostonlardagi o'ziga xosliklar.....	79-98
II bob bo'yicha xulosalar	99-100
III. BOB. ME'ROJ NA'TLARDA DINIY-TASAVVUFİY MAZMUN VA BADİİYAT	
3.1. Me'roj boblarda tungi samo tasviri	101-116
3.2. Me'roj sayri talqinida ma'no, timsol va tasvir vositalari uyg'unligi.....	116-142
III bob bo'yicha xulosalar	143-144
XULOSA.....	145-147
FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR.....	148-164

KIRISH

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon adabiyotshunosligida muayyan ijodkor asarini tarkiblab o‘rganish, tadqiq etilayotgan masalaning asar umumiy mazmunida tutgan o‘rnini belgilash, uning muallif ijodiy niyatini ochib berishdagi muhim jihatlariga poetika masalalari doirasida yondashish tendensiyasi ortib bormoqda. Ayniqsa, Sharqning buyuk mutafakkir shoirlari asarlarida muallif badiiy mahoratini uning dunyoqarashi, ma’rifiy, diniy-tasavvufiy va ijtimoiy-irfoniy masalalarga munosabati bilan bog‘lab, ijodkor yashagan davrda mavjud muhim ijodiy an’analarga asoslanib o‘rganishga intilish kuchayib bormoqda. Zero, har qanday asarda yoritilayotgan mavzu ijodkor shaxsi va uning mahoratiga chambarchas bog‘liq. Ijodkorning e’tiqodi, uning diniy-falsafiy qarashlari u yashagan davrdagi mavjud adabiy an’analar bilan uyg‘unlashib, yangi adabiy hodisalarning vujudga kelishiga sabab bo‘ladi. Sharq kitobotchiligidagi mavjud odobi tasnifga ko‘ra, har qanday asar tarkibida muayyan an’anaviy boblarning taqozo etilishi, o‘ziga xos adabiy hodisa sifatida baholash mumkin bo‘lgan bunday boblarning butun asar mazmuni bilan uyg‘unlashganligini to‘g‘ri idrok etish, qolaversa, uning muallifi – ijodkor shaxsi haqidagi tasavvurlarning to‘g‘ri shakllanishi, orzu-intilishlari, estetik ideali haqidagi fikrlarini anglab yetish zarurati bu masalaga jiddiy e’tibor qaratishni talab qiladi.

Dunyo adabiyotshunosligida muayyan asar poetikasini tekshirish uchun uning muallifi dunyoqarashi, ijodiy olami, ayniqsa, muallif bahramand bo‘lgan manbalarni bilish, ularga murojaat qilish zarurligi muhim vazifa sifatida belgilab qo‘yilgan. Shu jihatdan qaraganda, Sharqdagi ildizlari diniy-tasavvufiy, falsafiy-adabiy manbalarga va xalq ijodiga borib tutashadigan adabiy manbalarni tarkiblab tadqiq etish, ijodkor estetik idealining bugungi globallashuv davridagi muammolarni hal etishdagi hissasini badiiyat qonuniyatlarini tekshirishdan uzoqlashmagan holda ko‘rsatib berish bugungi kunning dolzarb masalalaridandir. Zero, komil inson va mukammal jamiyat haqidagi qarashlar ifodasini o‘zining muhim vazifasi deb bilgan

mumtoz adabiyot, avvalo, shaxsning kamoloti va jamiyatning mukammal bo‘lishi haqidagi masalani muhim masalalardan deb bilgan edi.

O‘zbek adabiyotshunosligida, xususan, navoiyshunoslikda badiiy matnni tadqiq etish tendensiyalari, baholash mezonlari yangilandi. Jumladan, Alisher Navoiy asarlaridagi komillik va komil inson masalasini badiiyatning muhim qonuniyatlariga asoslanib tekshirish ularni to‘g‘ri baholashga imkon beradi. Zero, “Alisher Navoiy asarlarida teran ifoda topgan milliy va umuminsoniy g‘oyalarning jahon tamaddunida tutgan o‘rnini hamda o‘sib kelayotgan yosh avlodning intellektual salohiyatini oshirish, ular qalbida yuksak axloqiy fazilatlarni tarbiyalashdagi beqiyos ahamiyatini nazarda tutib, shuningdek, ulug‘ shoir va mutafakkirning adabiy-ilmiy merosini mamlakatimizda va xalqaro miqyosda yanada chuqur tadqiq qilish va keng targ‘ib etish”¹ muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu jihatdan olib qaralganda, Alisher Navoiyning dunyoqarashi – diniy-tasavvufiy, ma’rifiy-falsafiy hamda ijtimoiy qarashlarini, ayniqsa, komillik, komil inson va mukammal jamiyat haqidagi qarashlarining poetika qonuniyatları bilan muvofiqligini belgilash zarurati dissertatsiya mavzusining dolzarbligini tasdiqlaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 13-maydag‘i PF-4797-son “Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to‘g‘risida”gi Farmoni, 2017-yil 17-fevraldag‘i PQ-2789-son “Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 16-fevraldag‘i 124-F sonli “O‘zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosda o‘rganish va targ‘ib qilishning dolzarb masalalari” mavzusidagi xalqaro konferensiyanı o‘tkazish to‘g‘risida”gi farmoyishi, 2021-yil 4-fevraldag‘i PQ-4977-son “Alisher Navoiy nomidagi xalqaro jamoat fondini tashkil etish to‘g‘risida”gi qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 3-avgustdag‘i ziyorilar vakillari bilan

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning “Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy tavalludining 580 yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi Qarori // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 20.10.2020, 07/20/4865/1395-son.

uchrashuvdagi ma’ruzasi, 2019-yil 15-oktabrda Boku shahrida o’tgan Turkiy davlatlar hamkorlik kengashida so‘zlagan nutqi, 2020-yil 20-mayda Adiblar xiyoboniga tashrifi chog‘idagi adabiyotning ta’sir kuchini yanada oshirish bo‘yicha topshiriqlari, 2021-yil 31-martda Turkiy Kengashning videokonferensiya shaklida o‘tkazilgan norasmiy sammitidagi so‘zlagan nutqi hamda sohaga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarning amaldagi ijrosini ta’minlashda ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning fan va texnologiyalari rivojlanishining ustivor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Alisher Navoiy ijodidagi irfoniy mazmun – diniy-tasavvufiy mavzuga aloqador masalalarning badiiy talqiniga oid ilmiy tadqiqotlar muayyan darajada amalga oshirilgan. Bu masalaga oid fikrlar Navoiy asarlariga bag‘ishlangan katta olimlarning ishlarida informatsion xarakterda e’tibor berilgan bo‘lsa¹, istiqlol davriga kelib, mafkuraviy jihatdan tadqiqotchilar uchun yangi imkoniyatlar ochilganligi bois, shoir asarlaridagi diniy-tasavvufiy, umuman, irfoniy mazmunni badiiyat masalalari bilan uyg‘unlikda o‘rganish o‘z o‘zaniga tusha boshladi. Tadqiqotchilarda Navoiy shaxsiyati, e’tiqodi va ijodiga yondashuv o‘zgardi, shoir asarlarini tadqiq etish, mazmun-mohiyatiga kirib borish,

¹Хайитметов А. Алишер Навоийнинг адабий-танқидий қарашлари. – Тошкент: Фан, 1959; Рустамов Э. Узбекская поэзия в первой половине XУ века. – Москва: Восточная литература, 1963; Исҳоқов Ё. Алишер Навоийнинг илк лирикаси. – Тошкент: Фан, 1965; Ойбек. Навоий гулшани. – Тошкент: Фоур Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1967; Фаниева С. Алишер Навоий (Хаёти ва ижоди). – Тошкент: Фан, 1968; Султон И. Навоийнинг қалб дафтари. – Тошкент: Фоур Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1969; Хайитметов А. Навоий даҳоси. – Тошкент, 1970; Эркинов С. Навоий “Фарҳод ва Ширин”и ва унинг қиёсий таҳлили. – Тошкент, 1971; Абдуғафуров А. Навоий ижодида сатира. – Тошкент: Фан, 1972; Шайхзода М. Асарлар. Олти томлик. Тўртингчи том (Ғазал мулкининг сultonи). – Тошкент: Фоур Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1972; Маллаев Н. Алишер Навоий ва ҳалқ ижодиёти. – Тошкент: Фоур Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1974; Қаюмов А. “Ҳайратул аброр” талқини. Ижтимоий-фалсафий мотивлар. – Тошкент: Фан, 1977; Рустамов А. Навоийнинг бадиий маҳорати. – Тошкент: Фоур Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1979; Исҳоқов Ё. Навоий поэтикаси. – Тошкент: Фан, 1983; Акромов Б. Фасоҳат мулкининг соҳибқорони. – Тошкент: Ўзбекистон, 1991; Хайитметов А. Навоий лирикаси (иккинчи нашр). – Тошкент: “O‘ZBEKISTON” НМИУ, 2015.

ularning zulma'naynlik xususiyatlarini ochishda Qur'oni karim va hadisi sharifga murojaat kuchaydi, ayniqsa, tasavvuf ta'limoti asosidagi yangicha qarashlar navoiyshunoslар imkoniyatlarini kengaytirdi. Navoiy asarlarini o'rganish, tadqiq etish va talqin qilishda butunlay yangicha yondashuvlar davr talabiga aylandi. O'tgan yillarda bajarilgan ishlar samarasi o'laroq, shoir ijodini faqat dunyoviylik yoki g'arbona adabiy oqimlar vositasida o'rganib asl maqsadga, mohiyatga yetib bo'lmasligi oydinlashib qoldi. Shu bois, keyingi yillarda amalga oshirilgan tadqiqotlarda shoir ijodini diniy-tasavvufiy manbalarga tayanib o'rganish, talqin etish zarurligi aniq ko'rindi. Bu o'z navbatida shoir asarlarining ma'no qatlamlarini turli rakurslardan ochishga xizmat qildi va bizningcha, Navoiyni tushunish sari qo'yilgan eng to'g'ri yo'l ekanligi olimlarimizning so'nggi tadqiqotlarida o'z tasdig'ini topmoqda¹. Shoirning e'tiqodi, qarashlari va estetik idealini o'zida mujassamlashtirgan dostonlari debochalarida yaratuvchining "buyukligi, azim-u azamatini ulug'lash, maqtash"² bo'lgan hamd, shoirning "xudoga dil rozi aytish, zorlanish"i³ munojot hamda "Rasululloh haqidagi diniy-so'fiyona bilimlari, qarashlar va tasavvurlari"⁴ni o'rganishda birlamchi manba bo'lgan na'tlarni o'rganishga urinish ham navoiyshunoslikdagi tadqiqotlarning mantiqiy davomidir.

Bu yo'ldagi dastlabki urinishlar ustozlarimiz A.Qayumov, S.G'aniyeva, A.Hayitmetov, A.Rustamov, R.Vohidov, M.Muhiddinov, N.Komilov, I.Haqqul, S.Olim, F.Karimova kabi olimlarimiz o'nlab maqola va risolalarida o'z aksini topgan, muayyan qimmatli fikrlar bildirilgan bo'lsa, keyinchalik ushbu fikrlar D.Salohiy, O.Davlatov, Z.G'afforova, N.Bekova, K.Mullaxo'jayeva, N.G'afforov,

¹ Фаниева С. Навоий насли нафосати. – Тошкент: ТДШИ, 2000; Алибек Рустамий. Ҳазрати Навоийнинг эътиқоди. – Тошкент: Фан, 2010; Ҳаққул И. Навоийга қайтиш З. – Тошкент: Фан, 2016; Алишер Навоий "Навоийдан чу топқайлар навоие". Нашрга тайёрловчи, изоҳ ва таржима муалифлари Ҳасанхон ва Ҳусайнхон Яҳё Абдулмажид. – Тошкент: "HILOL-NASHR" нашриёти, 2014; Имомназаров М. Навоийшуносликка кириш. – Тошкент, 2016; Мухаммаджон Махмуд. Навоий ижодига янгича қараш. – Тошкент: "MERIYUS" XHMК, 2018; Азизов С. Алишер Навоий асарларида фалакиёт сирлари. – Тошкент: "O'ZBEKISTON" НМИУ, 2018; Мадаев О. Навоий сұхбатлари. – Тошкент: "O'ZBEKISTON" НМИУ, 2018; Ismoilov I. Navoiy ijodida Iskandar obrazi talqinlari. – Toshkent: BAYOZ, 2020; Жабборов Н. Маоний аҳлининг соҳибқорони. – Тошкент: "ADABIYOT", 2021; Эргашев Қ. Алишер Навоийнинг наслий услуги масалалари. – Тошкент: "Muharrir nashriyoti", 2022.

² Мухаммад Ғиёсиддин. Ғиёс ул-луғат. Жилди 2. – Душанбе: Адиб, 1988. – С. 73.

³ Фарҳонги забони тоҷики. Иборат аз ду чилд. – Москва: Советская энциклопедия, 1969. – С. 735.

⁴ Муллаҳўжаева К. Алишер Навоий ғазалиётидаги тасаввufий тимсол ва бадиий санъатлар уйғунлиги. – Тошкент: Akademnashr, 2019. – Б. 47.

N.Erkaboyeva¹ va boshqa olimlar tomonidan davom ettirilib, maxsus tadqiqotlar vujudga keldi.

Navoiyshunoslikda shu kunga qadar na'tlarga Navoiyning muayyan masaladagi qarashlarini ko'rsatish, asoslash, mahoratini belgilash, qiyoslash hamda matniy manbalar va boshqa maqsadlar sabab murojaat qilingan². R.Vohidov, M.Muhiddinov, N.Komilov, I.Haqqul, Z.G'afforova, K.Mullaxo'jayeva, O.Davlatov, va I.Ismoilov tomonidan o'r ganilgan. R.Vohidovning "Navoiy va ilohiyot" monografiyasida "Hayrat ul-abror"dagi na'tlar badiiyati tadqiq etilgan bo'lsa, N.Komilov "Sittai zaruriya"³ tahlili va sharhiga bag'ishlangan tadqiqotlarida me'rojning tasavvufiy mazmuniga alohida e'tibor qaratgan. I.Haqqul, Z.G'afforova⁴ ushbu masalani shoir lirik merosi misolida o'rgansa, navoiyshunos K.Mullaxo'jayeva o'z tadqiqotlarida na't g'azallarni tasavvufiy mazmun va badiiy san'atlar uyg'unligida o'rgangan. M.Muhiddinov⁵ Navoiyning komil inson haqidagi qarashlarini Xusrav Dehlaviy va Navoiy "Xamsa"larini birinchi dostonlari asosida, I.Ismolov⁶ Nizomiy va Navoiy iskandarnomalarini qiyosiy o'rganish asnosida me'roj na'tlarga murojaat qilgan bo'lsa, O.Davlatov Qur'on oyatlari va hadislarning badiiy talqinini tadqiq etish jarayonida bu masalaga e'tiborini qaratgan.

O'zbek tadqiqotchilaridan farqli o'laroq, chet ellik olimlar, asosan, me'rojnomalar matni ustida ilmiy-tadqiqiy izlanishlar olib borgan. Jumladan,

¹ Вохидов Р. Алишер Навоий ва илоҳиёт. – Бухоро: Наврӯз, 1994; Олим Султонмурод. Нақшбанд ва Навоий. – Тошкент: Ўқитувчи, 1996; Мухиддинов М. Комил инсон – адабиёт идеали. – Тошкент: Маънавият, 2005; Комилов Н. Хизр чашмаси. – Тошкент: Маънавият, 2005; Ҳаққул И. Навоийга қайтиш 1. – Тошкент: Фан, 2007; Сирожиддинов Ш. Алишер Навоий: манбаларнинг қиёсий-типологик, тестологик таҳлили. – Тошкент: Академнашр, 2011; Комилов Н. Маънолар оламига сафар. Алишер Навоий ғазаллариша шарҳлар. – Тошкент: "Tamaddun" нашриёти, 2012;Faafforov N. Алишер Навоий "Хамса"сида сўфийлар тимсоли. Номзодлик дисс. – Тошкент, 1999; Каримова Ф. Ўзбек адабиётида дебоча. – Тошкент: MUMTOZ SO'Z, 2008; Муллахўжаева К. Алишер Навоий ғазалиётида тасаввufий тимсол ва бадий санъатлар уйғунлиги. – Тошкент: Akademnashr, 2019; Эркабоева Н. Алишер Навоий ижодида муножат. Номзодлик дисс. – Тошкент, 2008; Н.Бозорова. Алишер Навоий ғазалларида кўнгил образи. Номзодлик дисс. – Тошкент, 2002; Ўтанова С. Алишер Навоий ғазалётида ранг символикаси. Номзодлик дисс. – Тошкент, 2007;

² Қобилов У. Нуувват ҳақиқати – бадий ижод руҳи. – Самарқанд, 2021; Давлатов О. Алишер Навоий ижодида Қуръон оятлари ва ҳадисларнинг бадий талқини. PhD дисс. – Самарқанд, 2017; Ҳаққул И. Навоийга қайтиш 2. – Тошкент: Фан, 2011.

³ Комилов Н. Фақр нури порлаган қалб. – Тошкент: Маънавият, 2001.

⁴ Faafforova Z. Навоийнинг ҳамд ва наът ғазаллари. Тошкент: – Маънавият, 2001.

⁵ Мухиддинов М. Алишер Навоий ва унинг салафлари ижодида инсон концепцияси: Филология фанлари докторлик дисс. – Тошкент, 1995. – 269 б.

⁶ Исломилов И. Алишер Навоий "Садди Искандарий" достонининг қиёсий таҳлили. PhD дисс. – Тошкент, 2019.

K.Gruber, J.Morris, M.Tautant, Akar Metin, K.Eraslan, M.Jo'shon, E.Yeneterzi, M.Zakiy, Y.Chetindag', E.Nadjip, A.Abduqodirov¹ kabi olimlarni eslab o'tish mumkin. Turk olimasi E.Yeneterzi² o'zining "Devon adabiyotida na't" mavzusidagi doktorlik ishida turkiy xalqlar og'zaki va yozma adabiyotidagi na'tlarga batafsil to'xtalib, XII–XX asrlar oralig'ida ijod qilgan barcha turkiy devonlardagi na'tlar haqida ma'lumot beradi. Misrlik mashhur adabiyotshunos olim Muborak Zakiy³ nabiy madhini arab adabiyoti misolida maxsus tadqiq etgan.

Biroq mavjud tadqiqotlarda Alisher Navoiy dostonlaridagi na'tlar poetikasi birbutun holda, maxsus tadqiq etilmagan. "Ayni paytda, o'tgan asrning so'nggi o'n yilligi, joriy yuz yillik ibtidosida shakllanib kelayotgan yangi estetik tafakkur Navoiy ijodini jahon, shuningdek, islam Sharqi badiiy voqeligi doirasida o'rganish zaruratini sezyapti"⁴. Shu bois, Nabiy madhi – na'tning Sharqdagi adabiy rivojiga Navoiyning qo'shgan hissasini hamda uning dostonlaridagi na'tlar poetikasini ilmiy-nazariy asosda tadqiq etish dolzarb ilmiy muammolardandir. Navoiy ijodini tushunish, ma'rifatini anglash, uning diniy-tasavvufiy, axloqiy va adabiy-estetik qarashlarini o'rganish hamda shoir ijodini to'g'ri baholashda ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy o'quv yurti ilmiy-tadqiqot rejalar bilan bog'liqligi. Tadqiqot jamiyatimiz ma'naviy-ma'rifiy hayotiga oid qabul qilingan umummiliy dasturlar, shuningdek, "Ta'lim to'g'risida"gi qonun hamda "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da ko'zda tutilgan rejalar bilan, uzviy bog'liq. Dissertatsiya mavzusi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili

¹ Christiane Jacqueline Gruber. The prophet Muhammad's ascension (miraj) in islamic art and literature, ca. 1300-1600. Phd diss. – Pen, 2005; Toutant Marc. Timurid Accounts of Ascensions(mi'raj) in Türki.One Prophet, Two Models. The Presence of the Prohet in early modern and contemporay Islam, BRILL, pp.431-459,2021; Morris J. The Spiritual scension: Ibn Arab and the Mi'raj. Part I, JAOS; 107: 629-652, 1987; Morris J. The Spiritual. Ascension: Ibn Arab and the Mi'raj. Part II, JAOS 108:63-77, 1988; Yeniterzi E. Turk Edebiyatinda Na'tlar: Antoloji. – Ankara: Turkiye Diyanet Vakfi Yayınlari,1993; Sener, Halil Ibrahim. Mi'raciye ve Na't-i Sertfler. – Izmir: Yüksek islam Enstitüsü, İslami Türk Edebiyatı, 1980; Eraslan K. Hakim Ata ve Mi'rac-namesi. – Ankara: Ataturk Üniversitesi Edebiyat fakultesi Araştırma Dergisi, 1979; Akar Metin. Tiirk Edebiyatında Manzum Mi'rac-Nameler. – Ankara: Kültür ve Turizm Bakanlığı Yayınları, 1987; Çetindağ Y. Ali Şir Neval: hayatı, sanatı va eserleri. – İstanbul: Fatih Üniversitesi, 2005; Абдуқодиров А. Навоий ва тасаввубуф. – Хўжанд, 1994.

² Emine Yeniterzi, Divan Şiirinde Na't. Doktora tezi. – Konya, 1989.

³ زکی مبورک. مدح النبي في الأدب العربي. مصر الجديدة ١٩٣٥ء. ١٦٨ رهان

⁴ Жўракулов У. Назарий поэтика масалалари. – Тошкент: Faafur Fulom nomidagi nashriёт-матбаа ижодий уйи, 2015. – Б. 133.

va adabiyoti universiteti “O‘zbek adabiyoti tarixi” kafedrasining “O‘zbek mumtoz adabiyotini tadqiq etish” nomli umumiy tadqiqot mavzusi doirasiga kiradi.

Tadqiqotning maqsadi. Alisher Navoiy dostonlaridagi na’tlar poetikasini o‘rganish orqali Navoiy ijodi poetikasining betakror xususiyatlarini hamda Sharq adabiyoti rivojidagi o‘rnini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

na’t mavzusining tarixiy-adabiy genezisi, lug‘aviy va istilohiy ma’nolarini aniqlash, badiiy adabiyotga kirib kelishi va taraqqiyot bosqichlarini arab va fors adabiyotlari misolida tadqiq etish;

Navoiygacha bo‘lgan turkiy tildagi na’tlarning umumiy tavsifi, badiiy mazmuni, turlari va g‘oyaviy-badiiy xususiyatlarini aniqlab, odobi tasnifdagi o‘rnini baholash;

Navoiyning na’t yozish an’anasidagi o‘rni, mavjud an’anaga kiritgan yangiliklari va rivojlantirishdagi hissasini baholash hamda o‘ziga xos uslubi, tasvirlash tamoyillari, adabiy-estetik, ma’rifiy qarashlarini na’tlar badiiyatini tadqiq etish orqali yoritib berish;

shoirning kosmogonik qarashlarini o‘rganish, Payg‘ambar alayhissalomning kamolot safariga bag‘ishlangan me’roj boblarda tungi samo, yulduzlar, sayyoralar burjlar bilan bog‘liq tasvirlarda betakror o‘xshatishlar, an’anaviy poetik timsollarning yangicha badiiy talqin etilganini ochib berish;

Navoiyning estetik ideal, komil inson haqidagi tasavvurlari hamda komillik haqidagi qarashlarini na’t boblar misolida aniqlab, Nabiy alayhissalom surat va siyrati tasvirida komil insonning navoiyona talqini aks etganini ilmiy-nazariy jihatdan asoslash iborat.

Tadqiqotning obyekti. Alisher Navoiyning o‘n jildlik “To‘la asarlari to‘plami”dan o‘rin olgan “Xamsa” dostonlari va “Lison ut-tayr” dostoni tadqiqot obyekti sifatida tanlab olingan. Shuningdek, ishning mukammaligini ta’minlash maqsadida dostonlarning boshqa nashrlariga ham murojaat qilindi.

Tadqiqotning predmeti. Navoiy dostonlaridagi na'tlar poetikasini mavzu, an'ana, obraz, mazmun va talqinlar kesimida o'rganish, mavzu va an'ana takomilida Navoiyning o'rmini aniqlash, na'tlar badiiyatini tadqiq etish masalalari tashkil etadi.

Tadqiqot usullari. Dissertatsiya mavzusini yoritishda tarixiy-qiyosiy, germenevtik, tarixiy-madaniy metodlar hamda sharhlash va tavsiflash usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

na'tning genezisi, adabiy termin sifatida shakllanishi, badiiy adabiyotga islom tarixi va payg'ambar siyrati sabab kirib kelganligi arab va fors adabiyoti misolida ohib berilgan;

turkiy adabiyotda na'tning yuzaga kelishi, Navoiyga qadar bo'lgan davrda yaratilgan na'tlarning ilmiy, badiiy mazmuni, komillik va komil inson masalasi, dunyoni tasavvufiy-irfoniy bilish, nafsni poklashda shoир qarashlarining g'oyaviy-badiiy xususiyatlarga egaligi aniqlangan;

Alisher Navoiy dostonlaridagi na'tlarning poetik jihatni tekshirilishi orqali ijodkorning tasavvufiy-irfoniy va falsafiy-estetik qarashlari ohib berilib, tasavvufiy timsol va badiiy mazmun uyg'unligi asnosida shoирning poetik mahorati hamda asarning original xususiyatlari nazariy jihatdan asoslangan;

an'anaviy komil inson haqidagi qarashlarning Navoiyga xos badiiy talqini belgilanib, shoирning mazkur masalaga oid qarashlari, tasavvur va bilimlari Nabiy siyrati hamda badiiy obrazlar talqini misolida ohib berilib, vasf va me'roj na'tlarning g'oyaviy-badiiy xususiyatlari har bir doston misolida yaxlit tekshirilib, mavzu va an'ana tarixida yangi adabiy hodisa bo'lganligi isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari: quyidagilardan iborat:

na't va uning genezisi, alohida mavzu sifatidagi taraqqiyoti, adabiy termin va mavzu sifatida adabiyot tarixidan o'rin olishi kabi masalalar bilan tanishtiradi, jumladan, mavzuning Qur'on va hadislardagi asoslari tizimli ravishda ko'rsatib beradi;

na't mavzusi va obrazlar sistemasining Navoiygacha bo'lgan davrdagi turkiy adabiyotga kirib kelishi, ilmiy-nazariy tavsifi, mazmuniy turlari, ijodkorlarning mavjud an'anaga kiritgan o'zgartirish va yangiliklari ishonchli tahlillar va faktlar orqali yoritib berilgan;

Alisher Navoiyning na't yaratishdagi poetik mahorati, timsollar va badiiy san'atlarning uyg'unligini ta'minlashdagi mahoratini tadqiq etish orqali chiqarilgan xulosalar adabiyotshunoslik uchun yangi ilmiy-nazariy ma'lumotlar berib, navoiyshunoslikdagi ayrim yanglish talqinlarni isloh etadi.

Tadqiqot ilmiy natijalarining ishonchliligi. Dissertatsiyada tanlangan muammoning aniq qo'yilganligi, adabiyotshunoslikning eng so'nggi ilmiy yutuqlari va ishonchli manbalarga tayanilganligi, xulosalarning germenevtik, qiyosiy-tarixiy, tarixiy-madaniy, sharhlash va tavsiflash usullar orqali chiqarilganligi, ilmiy yangilik va nazariy xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi, natijalarning tegishli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati Alisher Navoiy falsafiy, adabiy-estetik va diniytasavvufiy qarashlarini o'rghanish, dostonlarini chuqur tahlil va talqin qilish, irfoniy mazmunni tushunish, ayniqsa, komil inson va komillik masalasini yoritishda ilmiy-nazariy asos bo'lib xizmat qilishi bilan belgilaniladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati Alisher Navoiy dostonlarining mazmun-mohiyatini yanada chuqurroq anglash, shoir dunyoqarashini mukammal tushunish, shuningdek, tasavvuf va adabiyot tarixi, adabiyot nazariyasiga doir darslik, o'quv qo'llanmalar yaratishga yordam berishida bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Alisher Navoiy dostonlaridagi na'tlar poetikasi tadqiqi bo'yicha olingan natijalar asosida:

Alisher Navoiy dostonlaridagi na'tlar genezisi va poetikasiga oid yangi ma'lumotlar, an'ana va navotorlik hodisalariga doir ilmiy qarashlar, nazariy fikrlar va yangi manbalarga oid ilmiy xulosalardan Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida 2017-2020 yillarda bajarilgan "OT-FI-030 raqamli "O'zbek adabiyoti

tarixi” ko‘p jildlik monografiyani (7 jild) chop etish” mavzusidagi fundamental loyihaning nazariy qismida foydalanilgan (Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2023-yil 3-martdagи 01/4-477-son ma’lumotnomasi). Natijada loyiha Alisher Navoiy dostonlaridagi na’tlar poetikasiga oid yangi ma’lumotlar, manbalar, shuningdek, ilmiy asoslangan kuzatish va qarashlar bilan boyitilgan;

turkiy na’tlar evolutsiyasi, ularning yetakchi xususiyatlari, mazmun-mundarijasi va obrazlar tizimi, Navoiyning mazkur silsilaga kiritgan yangiliklari va bunga asos bo‘lgan adabiy hodisalarga oid xulosalardan Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2018-2020 yillarda bajarilgan bajarilgan “PZ-20170926459 – Navoiyshunoslik tarixi (XX-XXI asrlar)” (2017-2020) mavzusidagi amaliy loyihada foydalanilgan (Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2023-yil 6-martdagи 01/1-486-son ma’lumotnomasi). Natijada turkiy na’tlarning tadrijiy takomili, Alisher Navoiyning an’anaviy mavzu va obrazlarga doir badiiy kashfiyotlari, na’tlar tadqiqiga bag‘ishlangan tadqiqotlarning asosiy mazmuni kabi masalalarga doir muhim nazariy xulosalar chiqarishga erishilgan;

Alisher Navoiy dostonlaridagi na’tlarning poetikasi: mazmuniy turlari, badiiyati, tili va diniy-tarixiy haqiqatlarning badiiy talqini hamda shoirning komilllik va komil inson haqidagi falsafiy-axloqiy, ma’rifiy qarashlariga doir fikr-mulohazalardan O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining “Mahalla” radiokanalidagi “Ma’rifiy suhbat” eshittirishi ssenariylarini shakllantirishda foydalanilgan (“Mahalla” teleradiokanal davlat muassasasining 2022-yil 19-sentabrdagi 767-son ma’lumotnomasi). Shuningdek, dissertatsiya natijalari asosida O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining “O‘zbekiston” telekanalidagi “Kelajakka yo‘l” ko‘rsatuving maxsus soni tayyorlanib, efirga uzatilgan (O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston” teleradiokanal muassasasi 2023-yil 23-fevraldagи 02-17-301-son ma’lumotnomasi). Natijada eshittirish va ko‘rsatuvning sifati ortgan, Navoiy asarlarining ma’rifiy mazmuni va ahamiyatini idrok etish kuchaygan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 10 ta ilmiy-amaliy anjuman, jumladan, 5 ta respublika hamda 5 ta xalqaro ilmiy-amaliy anjumanda muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 17 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan O‘zbekiston Respublikasining Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, jumladan, 5 tasi respublika hamda 1tasi xorijiy jurnalda nashr qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan tashkil topgan, umumiy hajm 160 sahifadan iborat.

I BOB. NA'TNING ILMIY-NAZARIY TAVSIFI VA UNING NAVOIY IJODIGACHA BO'LGAN TAKOMIL BOSQICHLARI

1.1. Na'tning tarixiy-adabiy ildizlari va taraqqiyoti

Musulmon Sharqi xalqlari madaniyati islom ma'rifati bilan sug'orilgan va bu ma'rifatning ta'siri, ayniqsa, inson his-tuyg'ulari va ilhomining mahsuli hisoblangan badiiy adabiyotda yorqinroq namoyon bo'ladi. Sharq, xususan, o'zbek adabiyotining tadrijiy takomilida islom falsafasi, nubuvvat masalasi va islomiy ma'rifat ta'sirida shakllangan *hamd*, *tavhid*, *munojot*, *Asmoyi husna*, *tafsir*, *siyrat*, *me'rojnama*, *shafoatnama*, *axloq un-nabiy*, *hijrat un-nabiy*, *g'azavot un-nabiy*, *vafot un-nabiy*, *mavlid*, *arba'in* va *qissas ul-anbiyo* kabi asarlarning o'rni beqiyosdir.

Mumtoz turkiy adabiyotimizda ham islom mazmun-mohiyatiga aloqador mavzular, shu jumladan, nubuvvat masalasi, Payg'ambar siymosi hamda U zot bilan bog'liq voqeа-hodisalarining vasfiy bayoni muhim o'rin tutadi. Ushbu mavzu-masalalarni ifodalashda muhim o'rin tutgan va turli she'riy shakl va janrlarga moslashgan asarlardan biri – payg'ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi va sallam madhida bitilgan na'tlardir. Sharqda mavjud odobi tasnif (devon tuzish, kitob yaratish) an'anasisiga ko'ra, Allohga hamd va munojotdan so'ng, Payg'ambarimiz Nabiy alayhissalomga na'tlar bitilgan.

Na't – arabcha so'z bo'lib, tavsif etmoq ma'nosida masdar, sifat va vasf ma'nolarida ism o'laroq qo'llaniladi. Lug'aviy ma'nosи "bir kishidagi bor narsalarni tasvirlamoq, uni mubolag'ali tafsiflash"¹, "VASF, hamd-u sano bilan barobar ta'rif-tavsif etmoq"² yoki "bir narsaning madhini aytib, sifatlashdir"³ degan ma'nolarni anglatadi.

Adabiy tur va janrlar nazariyasiga oid "Türk Halk Edebiyatı El Kitabı"da na't "biror narsani maqtash, sifatlash orqali tasvirlash"⁴ deb izohlansa, "Farhangi zaboni

¹ ابن منظور. لسان العرب. دار نشر "يولاق مصر الماتى الكجرى". مصر ، ٢-١٨٨٣ . - س ٤٠٥

² Şemşeddin Sami. Kamusi Türkî. – İstanbul: İkdam Matbaası, 1978. – S. 1464.

³ Ferit Develli oğlu. Osmanlıca -Türkçe ansiklopedik lügat. – Ankara:Aydın kitabevi, 1979. – S. 906.

⁴ Abdurrahman Güzel. Türk Halk Edebiyatı El Kitabı. Ankara: Akçağ, 2003. – S. 334.

tojikiy”da – madh, maqtash; yaxshi xislatlar vasfi, sifat, go‘zal sifat¹ deb ta’riflanadi.

Shayx Ahmad Taroziy “Funun ul-balogs” asarida shunday yozadi: “Agar Tengri azza va jallag‘a hamd etsalar, oni tawhid derlar. Va agar Muhammad Mustafao sollalohu alayhi va sallamni vasf qilsalar, na’t derlar. Agar Tengri hazratinda tazarru’ qilsalar, munojot o‘qurlar”².

Na’t istiloh sifatida payg‘ambarimiz vasfi, shaxsiyati, payg‘ambarlik faoliyati va me’roj bilan bog‘liq voqeа-hodisalarining romantik ko‘rinishdagi shoirona, so‘fiyona, oshiqona va orifona talqinidir. Ayni paytda, oshiqning ma’shuq vaslida yongan zavq-u shavqi, ishq yo‘lida chekkan azoblari, “hisob-kitob” kuni komillar komili bo‘lgan zotning shafoatiga umid bilan intilgan ko‘ngil nolalarining ramziy-majoziy tasvirlari, ilohiy go‘zallik sirlari kashshofi bo‘lgan ishqning ta’rifi hamda komillikning oliy maqomini egallagan, jisman zaminda, qalban esa Haq huzurida bo‘lgan Zotga bo‘lgan muhabbatdir.

Turk olimi Sulaymon Uludog‘ning “Tasavvuf terminlari lug‘ati”da na’tni shunday izohlaydi: “Arab tilida, alohida bir xususiyat, maqtov ma’nolarini ifodalaydi. Tasavvufda esa, maqtovchi maqtalganni xulq-atvori, tabiatи va axloqini madh etishidir. Na’t, maqtov bilan bir xil ma’noni ifodalaydi, biroq maqtov mujmal, na’t esa aniqligi bilan xarakterlanadi”³.

“Maqtash”, “baho berish”, “sifatlash”⁴ ma’nolarini anglatgan na’t – adabiy atama sifatida Rasululloh sollallohu alayhi va sallamni vasf qilish, yaxshi sifatlar bilan ulug‘lash maqsadida yozilgan nasriy va nazmiy asarlarga berilgan umumiyy nomdir. Zavq ahli uchun tunganmas ilhom manbayi bo‘lgan payg‘ambarimiz sifatlari, shakl-u shamoyili, husn-u xulqi, islom dinnining targ‘ibi yo‘lida ko‘rsatgan jasorati va ayniqsa, me’roj voqeasi cheksiz xazinadir. Shuning uchun “insoniyat tarixida eng fasohatli, balog‘atli va oliymaqom she’riy asarlar “Madiyh un-nabiy” – “Nabiyning madhi” deya atalgan, Nabiy sollallohu alayhi va sallamning madhlarida yozilgan

¹ Фарҳонги забони тоҷики. Иборат аз ду чилд. – Москва: Советская энциклопедия, 1969. – С. 1905.

² Шайх Аҳмад ибн Ҳудойдод Тарозий. Фунулул балога. – Тошкент, 1996. – Б. 32.

³ Uludağ S. Tasavvuf terimleri sözlüğü. – Istanbul: Kabalcı Yayınevi, 1995. – S. 351.

⁴ Алишер Навоий асарлари изоҳли лугати. 2 жилд. – Тошкент: Фан, 1983. – Б. 444.

she’rlardir. Musulmon xalqlarining shoirlari o‘zлari va elatlarining Rasululloh sollallohu alayhi va sallamga bo‘lgan muhabbatlarini u zotning madhlarida bitgan she’rlarida namoyish etganlar. Ularning eng sara she’rlari ham aynan shu mavzuda bo‘lgan... Bundan hatto boshqa din vakillari ham mustasno bo‘lmadi. Bu borada ham Rasululloh sollallohu alayhi va sallamga teng keladigan inson yo‘q. Bashariyat tarixida hech bir inson haqida Nabiy sollallohu alayhi va sallamga atab yozilganchalik ko‘p va xo‘p maqtov she’rlar bitilmagan. Hatto jahon adabiyotida Rasululloh sollallohu alayhi va sallamning maqtovlariga bag‘ishlangan alohida janr – na’t janri yuzaga kelgan”¹. Arab adabiyotida, xususan, “arab poeziyasida she’rlarni janriy xususiyatlarini belgilash, tasnif qilish ularning formasiga qarab emas, balki mazmuniy prinsipiga asoslangan”²ligidan Nabiy madhiga bag‘ishlangan asarlar arab adabiyotida na’t janri doirasida o‘rganilgan. Bizda amalga oshirilgan oxirgi yillardagi tadqiqotlardan birida ushbu asarlar *janriy shakllar ifodasi* deb nomlagan³. Biz bu masalada ko‘plab o‘rganishlardan keyin na’tlarni janrlarga moslashdigan mavzu sifatida baholadik. Ayni paytda, adabiyotshunosligimizda janrlarga qo‘yilgan talablarga ko‘ra aniq doimiy mavzuga, mazmuniy turlarga, obrazlar sistemasi va o‘ziga xos poetik ifodaga ega bo‘lgan na’tlarni janr deyishda u qadar katta mantiqsizlik yo‘q.

“Nabiy madhi” deb nom olgan – na’t mazmunan *vasf* va *me’roj* na’tlarga bo‘linadi. VASF na’tlarda, asosan, payg‘ambarimizning hayoti, bashariy qiyofasi va fazilatlari, payg‘ambarlik sifatlari va mo‘jizalari, payg‘ambarlik faoliyati bilan bog‘liq voqeа-hodisalar, hadislari va u zotning boshqa amallari – barcha-barchasi tuganmas muhabbat bilan ta’rif-u tavsif etilgan, insoniyatga ibrat qilib ko‘rsatilgan. Shu bois badiiy jihatdan mukammal bo‘lgan bu vasflarning tarbiyaviy qimmati beqiyos.

Qur’oni karimning “Sharh” surasi to‘rtinchi oyatida bevosa ita payg‘ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi va sallamga qarata xitob qilinib: “Va Biz sizning

¹ Қаранг: Сайид Жаъфар ибн Ҳасан Барзанжий. Мавлид. Таржима ва шарҳлар муаллифи Ҳасанхон Яхё Абдулмажид. – Тошкент: “HIROL-NASHR” нашриёти, 2015. – Б. 5.

² Орзивеков Р. Ўзбек лирик поэзиясида ғазал ва мусаммат. – Тошкент: Фан, 1976. – Б. 18.

³ Қаранг: Қобилов У. Нубуват хақиқати – бадиий ижод руҳи. – Самарқанд, 2021. – Б. 83.

zikringizni (ya’ni martabangizni) baland qilib qo‘ydik”, – deyiladi. Alouddin Mansur ushbu oyatni o‘z tafsirida shunday izohlaydi: “Darhaqiqat, har bir mo‘min-musulmon qayerda Alloh taoloning nomini yod etsa, U zotni ulug‘lasa, albatta, U zot bilan birga payg‘ambarimiz Muhammad alayhissalomning nomlarini ham zikr qilib, u kishiga salovat va salom aytadiki, bu martabayi oliya payg‘ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi va sallamdan o‘zga hech kimga nasib qilgan emas”¹.

Na’tlarning ikkinchi turkumi payg‘ambarimizga berilgan buyuk maqom – Me’roj – Rasulullohning Makkadan Quddusga tungi sayri (Isro) va Masjid ul-Aqsodan osmonga ko‘tarilish voqeasi tavsifiga, uning badiiy talqiniga bag‘ishlangan.

Me’roj islom tarixida yuz bergan mashhur voqealardan. Ijodkorlar uchun ushbu boblarda payg‘ambarning buyukligi, yuksak sharafi va ulug‘ maqomi ta’rifini keltirish, avvalo, shoirlik burchi va ummatlik vazifasi bo‘lsa, boshqa tarafdan, salaflarga munosib javob berish uchun sinov maydoni ham edi. Ayni paytda, me’rojning eng oliv nuqtasi – “payg‘ambarning Alloh jamoliga yetishish lahzasi bo‘lib, bu islom ta’limotiga ko‘ra eng ulug‘ sharafdir. Bunday sharafning nubuvvat tarixida Muhammad sollallohu alayhi va sallamdan boshqa payg‘ambarga nasib etmagani esa butun musulmon olamining faxri hisoblanadi. Mana shu faxr tuyg‘usi va payg‘ambarga muhabbatni izhor etish istagi me’rojnomalarning islom mintaqasi adabiyoti debochalaridan muqim o‘rin olishiga asosiy omil bo‘lib xizmat qildi”².

Qur’oni karimning “Isro” surasi birinchi oyatining nozil bo‘lishi aynan shu voqeа bilan bog‘liq, ya’ni: “O‘z bandasini kechasi Masjid ul-Haromdan atrofini barakali qilganimiz Masjid ul-Aqsoga mo‘jizalarimizni ko‘rsatish uchun sayr qildirgan Zot pok bo‘ldi. Albatta, U eshitguvchi va ko‘rguvchi Zotdir³. Shu o‘rinda Isro bilan Me’rojni farqlash kerakligini ta’kidlashni istardik. Isro – Masjid ul-

¹ Куръони карим. Таржима ва изоҳлар муаллифи А. Мансур. – Тошкент: “ЧўЛПОН” нашриёти, 1992. – Б. 670.

² Исломов И. Алишер Навоий “Садди Искандарий” достонининг қиёсий тахлили. PhD дисс. – Тошкент, 2019. – Б. 51.

³ Куръони карим ва ўзбек тилидаги маънолар таржимаси. Шайх Мухаммад Содик Мухаммад Юсуф. – Тошкент: “HIOL-NASHR” нашриёти, 2011. – Б. 282.

Haromdan Masjid ul-Aqsoga sayr qildirish bo‘lsa, me’roj Masjid ul-Aqsodan Alloh huzuriga ko‘tarilishdir.

Na’tlarda Rasulullohga muhabbat turli shakl-u shamoyilda namoyon bo‘laveradi¹. Ayniqsa, Isro kechasi va Me’roj mo‘jizalari tasviriga bag‘ishlangan, me’roj boblar “tasavvuf ahli uchun Haqqa yovuqlashish, Alloh bilan muloqotda bo‘lish, Allohnинг buyuk in’om va marhamatiga sazovor bo‘lishdir. Fanolik va baqolikka yetishishning eng haqiqiy va namunaviy ko‘rinishidir”². “Me’roj” tasavvufga oid lug‘atlarda ruhning yuksalishi va ma’naviy yo‘lchilik (yo‘lovchilik), deb talqin etiladi. Butun orzu-istagi, umrining mazmunini Alloh vasliga erishish deb bilgan so‘fiy uchun Me’roj juda katta ruhiy-ma’naviy oziq, quvvatdir. Aynan shu sababli ham Me’roj kechasi haqidagi tasavvurlar ijod ahli uchun alohida ilhom manbayidir³.

Ko‘p tadqiqotchilarda “me’roj” va “me’rojnama” tushunchalari bir xil ma’noda, umumiy an’anaviy mavzu sifatida fikrlar bildirilgan, tahlil qilingan. Bizningcha, devon va dostonlar tarkibidagi Nabiy alayhissalom tungi sayri bilan bog‘liq mavzu me’roj yoki me’roj boblarni mustaqil asar me’rojnomalardan farqlash zarur. Ya’ni, me’roj mavzusi badiiy asarlar tarkibida masnaviy, g‘azal, qasida, qit’a, murabba’, tarji’band kabi janrlarga moslashgan mavzu bo‘lsa, me’rojnomalar esa adabiyot tarixida alohida asar sifatida “Mavlid”, “Arbain”, “Hijratnama”, “Siyrat un-nabiy” kabi payg‘ambar shaxsi bilan bog‘liq mustaqil asarlar qatorida o‘rganilsa, tadqiq etilsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi. Arabiy, forsiy va turkiy adabiyotlarda me’roj bilan bog‘liq alohida “Me’rojnama”larning yaratilgani fikrimiz dalilidir. Shundan kelib chiqib, tadqiqot davomida tahlil obyektiga nisbatan me’rojlar yoki me’roj boblar ifodasi qo‘llaniladi.

Qasida, g‘azal, ruboiy, musammat, mustazod, qit’a, tuyuq kabi janrlarga moslasha oladigan ushbu mavzu – shoir adabiy-estetik, diniy-falsafiy, axloqiy-

¹ Муллахўжаева К. Алишер Навоий ғазалиётида тасаввуфий тимсол ва бадиий санъатлар уйғунлиги. – Тошкент: Akademnashr, 2019. – Б. 61.

² Меърожнома. Нашрга тайёрлаганлар И. Ҳаккул, С. Рафъиддин. – Тошкент: Ёзувчи, 1995. – Б. 4.

³ Муллахўжаева К. Алишер Навоий ғазалиётида тасаввуфий тимсол ва бадиий санъатлар уйғунлиги. – Тошкент: Akademnashr, 2019. – Б. 62.

ta’limiy, tasavvufiy hamda komillik va komil inson haqidagi qarashlarini ifodalashda muhim vosita, ayni paytda, kitobxonga muallif ijodiy laboratoriyasiga kirib borishi, uning dunyoqarashini to‘g‘ri idrok etishi va o‘rganishi uchun muayyan imkoniyatlar yaratadi. Na’tlarda ijodkorlar payg‘ambarimiz hayoti va faoliyati bilan bog‘liq ko‘plab masalalarga e’tibor qaratganlar, bular:

- Rasululloh sollallohu alayhi va sallamning siyrati va shaxsi, faoliyatini tavsiflovchi na’tlar;
- u zotning so‘zлari va amallari muhokama qilingan na’tlar;
- bashariy va axloqiy xususiyatlarini tavsiflovchi na’tlar;
- mavlid va hayotining ba’zi voqealari haqidagi na’tlar;
- ularga yuborilgan mo‘jizalarni madh etuvchi na’tlar;
- ul zotning ko‘rsatgan mo‘jizalari va bashoratini asoslab berish maqsadida bitilgan na’tlar;
- me’roj bilan bog‘liq na’tlar;
- fazilatlari va tug‘ilgan joylari, ota-onalari, ahli ayoli, bolalari, hamrohlari, narsa-buyumlari, qabrlari, masjidlari, vasiyatlari, odob-axloqlari va salovatlariga bag‘ishlab yozilganlar na’tlar.

Shuningdek, turli mavzularda bitilgan mavlid, siyrat un-nabiy, asmoysi nabiy, mo‘jizat-un nabiy, alifnoma, gavhnoma, do‘labnoma¹, me’rojnama, hijratnama, qirq hadis (arba’in), madhiya, marsiya kabi ko‘plab mustaqil asarlarda Rasululloh madhi, surat-u siyrati bilan bog‘liq tarixiy-hayotiy voqea-hodisalar badiiy tasvirlanadi.

Na’t boblar “birinchi navbatda, har bir doston yoxud hikoyatning tub mohiyatini to‘g‘ri tushunishga yo‘l ochsa, ikkinchi tomondan, shoir falsafiy, ijtimoiy va axloqiy qarashlarining muhim qirralarini to‘g‘ri belgilashga yordam beradi”². Ushbu boblarda payg‘ambarimizning islomni joriy etish yo‘lidagi buyuk xizmatlari, payg‘ambarlik sifatlari va faoliyatiga doir lavhalar, u zotning komil

¹ Do‘labnoma - Allohga bo‘lgan ishqni tarannum etuvchi savol-javob tarzida yozilgan she’rlar. Bu haqda qarang: Abdurrahman Güzel. Türk Halk Edebiyatı El Kitabı. Ankara, 2003. – S. 170-172.

² Исломов И. Алишер Навоий “Садди Искандарий” достони қиёсий таҳлили. PhD диссертацияси. – Тошкент, 2019. – Б. 66.

xulqlari, fazilatlari, ularga yuborilgan mo‘jizalar, xususan, me’roj kechasi tasviri keng berilgan va ayni paytda, ularda “shoirning Olloh, olam va odam haqidagi qarashlari Koinot sarvari Rasululloh haqidagi diniy-so‘fiyona qarashlari, bilim va tasavvurlari bilan uyg‘unlashib ketganligini ko‘ramiz”¹.

Dastlab, arab adabiyotida vujudga kelgan na’t bitish an’anasi keyinroq forsiy adabiyotga va bu adabiyotdan turkiyzabon shoirlar ijodiga ko‘chdi.

Yaxshi va chiroyli narsalarni mubolag‘a bilan tasvirlash, bo‘rttirish² ni maqsad qilib olgan na’t arab adabiyotida madh sifatida o‘rganiladi. Arab adabiyotida madhlar ko‘plab janrlarni ilk janriy xususiyatlari shakllanayotgan eng qadimgi davrdan boshlab, mavzu ko‘لامи kengaygan, adabiy tur va janrlar shakllangan islomgacha bo‘lgan davrlardan to keyingi paytlargacha ming yillik rivojlanish tarixiga ega. Shuning uchun ham bugungacha ijodkorlar madhlar bitishga katta e’tibor berishlari, mas’uliyat va jiddiy tayyorgarlik bilan masalaga yondashishlari qadimiylar an’analarning barhayotligini ta’milagan. Qadimgi arab adabiyotida madhlarning asosan ikki xil tarzda bitilgani kuzatiladi. Bularning birinchisi – o‘tgan buyuk kishilar fazilatlarini ulug‘lash, eslash uchun yozilgan marsiya tarzidagi yoki zamon hukmdori yoki qabila boshlig‘ining qahramonliklari haqidagi madhiya-qasidalar bo‘lsa, ikkinchi turdagи maqtovlarda shoirlar o‘z hissiyotlari, muhabbat azoblari-yu quvonchlari, samimiy do‘stlik va turli voqeahodisalar vasfi hamda ezgulikka chorlagan hikmatlarni ta’rif-u tavsif etgan. Shu bois, maqtash yoki madh etish arab adabiyotining qadimiylar va zamonaviy she’riyatidagi muhim va keng tarqalgan mavzulardan biridir. “Bu asli maqtovchining inson yoki xalqda mavjud bo‘lgan ideal fazilatlarga, yuksak insoniy xislatlarga havas qilishining ifodasıdir. Eng yaxshi maqtov – his-tuyg‘u va voqelikning samimiyligidan chiqarilgan *madh* bo‘lib, shoir bunda yolg‘on gapirmaydi, bo‘rttirib ham aytmaydi. Eng go‘zal madh – maqtovchi maqtovga

¹ Муллахўжаева К. Алишер Навоий ғазалиётида тасаввуфий тимсол ва бадиий санъатлар уйғунлиги. – Тошкент: Akademnashr, 2019. – Б. 47.

² <https://islamansiklopedisi.org.tr/nat-1>.

sazovor bo‘lgan kishidan bahramand bo‘ladigan moddiy narsalardan uzoq bo‘lgan holda yaratilgan madhiyadir”¹.

Arab adabiyotidagi madhlarni ikki davrga ajratib o‘rganish mumkin. *Birinchi davr* johiliyat davri adabiyoti hisoblanib, unda “shoirlarining ijodi og‘zaki bo‘lgan: odatda, ular she’riy badihago‘ylik iste’dodi bilan shuhrat qozonganlar. Badaviy jangchining she’r yozish mahorati jasurlikdan kam qadrlanmagan. She’r yozish san’ati avloddan-avlodga o‘tib kelgan. Ba’zi oilalar va urug‘lar doimo o‘z oralaridan ajoyib shoirlarni ko‘tarib chiqqanlar. Shoir jamiyatda yuksak maqomga ega bo‘lgan, chunki u qabilaning qahramonona an’analari kuychisi va saqlovchisi bo‘lgan; qabila dono so‘z bilan o‘z sha’nini himoya qila oladigan va o‘tkir hajv bilan dushmanga tashlana oladigan shoirni qadrlagan”². Islomgacha bo‘lgan arab adabiyotining shakliy jihatdan mukammalligi, janriy xilma-xilligi va mavzu rang-barangligi she’riy tilning uzoq vaqt mobaynida rivojlanganidan dalolat beradi. Aynan islomgacha bo‘lgan davrda arab she’riyatining asosiy usullari ishlab chiqilgan, janrlar taraqqiy etgan. Islomgacha bo‘lgan davrda *hijo* (hajv – doimo qabila dushmanlarini qoralash), *riso* (vafot etgan kishining ayollari tomonidan aytildigan marosimdagи aytuvlari – marsiya), *faxriya* (qahramonni bo‘rttirilgan obrazlar va tantanavor ohangda maqtash), *qit’a*, *madh* (maqtov yoki madhiya), *nasib* (ishqiy lirika), *vasf* (turli voqeа-hodisalar, tabiat va hokazolarni tavsiflash), *xamriyot* (sharob haqidagi she’rlar) va *hikmat* (ezgu fikr va pand-nasihat) janrlari rivojlangan. Qasidalar ushbu davrda sinkretik tabiatga ega janr sifatida rivojlanib, uncha keng tarqalmagan edi. Qadimgi arab adabiyotini o‘rgangan olimlar fikricha, johiliyat davri she’riyatining eng asosiy xususiyatlari quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- she’riyatning sodda arab (sahroyi soddalik) turmush tarzi (badaviy) va tabiat (yashash sharoiti) bilan uyg‘unligi;
- passiv g‘oyaviylik, tematik soddalik, fahshni oshkora aytish va bepardalilik;

¹ ميشال عاصي ود. أميل بديع يعقوب. قاموس اللغة المفضلة والأدب. ج ٢. بيروت ، ١٩٨٧ . - ٣٣ ص.

² Зиявуддина М. Мумтоз араб адабиёти. –Тошкент, 2012. – Б. 10.

- saxiylik, ahdga vafo qilish, mag‘rurlik va o‘z sha’nini himoya qilish hamda ko‘zlagan maqsadidan qaytmaslik kabi xislatlarning ulug‘lanishi;
- oddiy qiyoslar yordamida shakllantirilgan badiiy obrazlarda tashbehning ustunligi;
- an’anaviy va mubolag‘ali madhlarni, asosan, amir yoki qabila boshliqlariga bag‘ishlab bitilganligi;
- kuchli hajv, o‘ta bo‘rttirilgan qahramon va tantanavor intonatsion ohangdorlikka ega bo‘lishi;
- qisqa va lo‘ndalik asosida tarafkashlik, samimiy do‘stlik, muhabbat, ezgu fazilatlar va turli voqea-hodisalarini badiiy-emotsional tavsiflash.

“Islomgacha bo‘lgan shoirlar she’rlaridagi obrazlar, odatda, qiyoslash yordamida yaratilgan. Buning uchun material esa atrofdagi hayotdan olingan. Shubhasiz, tashqi o‘xshashlik asosiga quriladigan ushbu qiyoslashlar ba’zan yorqin tavsiflarga o‘sib o‘tadi hamda arablarga bo‘lgan she’riyatning asosiy go‘zalligini tashkil qiladi. Imr ul-Qays mu’allaqasidan misol keltiramiz.

To‘xtanglar, yorim manzilin eslab, biroz yig‘laylik.

Duxul va Xovmala vodiysi aro.

Yorim izlarin olib ketmabdi,

Janub-u shimoldan esgan ul sabo”¹.

Umuman olganda, islomgacha mavjud bo‘lgan she’riyatda hayot manzarasining jamlanganligi, shoirlar bir necha o‘n baytda butun boshli poetik manzarani ifodalay olganliklari va ushbu manzaralarning betakror ketma-ketligida arablar hayotining turli qirralari o‘z aksini topganligi hamda ijodkorning maqsadi, poetik mahorati va tasvir uslubi va boshqa xususiyatlariga ko‘ra, ushbu davr she’riyati shartli ravishda ikkiga – badaviylik va saroy she’riyatiga bo‘linadi. Ushbu ikki yo‘nalish uzoq davr mobaynida takomillashib borib, ko‘plab iqtidorli shoirlarning yetishib chiqishi va yuksak saviyadagi badiiy asarlarning dunyoga kelishiga zamin yaratgan. An-Nabig‘a Al-Dhubyoniy, An-Nu’mon ibn Al-Munzir,

¹ Зиявуддинова М. Мумтоз араб адабиёти. –Тошкент, 2012. – Б. 16.

Al-Musayyab Ibn Alas, Al-Manxal Al-Yashkariy, Al-Mandaq Al-Abdiy, Al-Horis Ibn Zalim, Al-A’sha, Al-Xutey’, Alba Ibn Arqam va boshqalar, odatda, saroylar shoirlari sifatida tanilgan bo‘lsalar, tabiatan samimiylar, xalqona, chuqur muhabbatga to‘la oshiqona baytlar bitib, do‘stlik, mardlik, jasurlik kabi musaffo tuyg‘ular tarannumidagi she’rlar yaratgan. Zuhayr ibn Abu Salma, Imru-l-Qays, Haram ibn Sinon, Ash-Shanfara, Taabbat Sharra, al-Muhalhil, Tarafa, Antara, Amir ibn Kulsum, Dahes va Al-Horis ibn Xilliza kabilalar badaviy shoirlar sifatida e’tirof etilgan.

Ikkinchi davr – ilk islom va undan keyingi davr arab adabiyotidagi madhlarda esa, Rasulullohning payg‘ambarlik faoliyati, shaxsiyati, mavlidi, siyrati va komil xulqi haqidagi go‘zal maqtovlar va islomiy ma’rifat bulog‘idan suv ichgan hamda ishq olovida o‘rtangan dil izhoridan iborat ulkan ma’naviy xazinani ko‘ramiz.

VII asrga kelib, Arabiston yarim orolida islomning tarqalishi va Payg‘ambarimizning ushbu haq dinning targ‘ibi yo‘lidagi buyuk xizmatlari natijasida Arab jazirasida johiliyatda yashayotgan xalqlar qisqa vaqt ichida payg‘ambarga ergashib, jahondagi eng yuksak madaniyatli xalqlardan biriga aylandi. Ming yillar davomida hukmronlik qilib kelayotgan, ilm-fan, madaniyat, san’at va silivizatsiyalar “o‘chog‘i” hisoblangan xalqlar (forsiyalar, rumliklar, hindlar, misrliklar)ni bunday buyuk o‘zgarishlar ojiz qoldirdi va fath qildi. Bu o‘zgarishlar butun insoniyatga haq bilan botil, harom bilan halol, savob bilan gunoh amallarni ko‘rsatib, jaholat bilan kamolotni, ezgulik bilan yovuzlikni, do‘st bilan dushmanni bir-biridan ajratib, uni komillikka chorlagan haq yo‘li, saodat yo‘li edi. Yaqindagina doimo jaholat hukmron, xurofat kuchga to‘lgan, ibridoiy-badaviy turmush tarzi hamda shunga mos axloq, madaniyat va e’tiqodga ega bo‘lgan arablar – islomni qabul qilib, oradan sal kam yarim asr vaqt o‘tib ham dunyoviy, ham diniy-irfoniy ilmlarni egallab, dunyoning eng peshqadam millatlaridan biriga aylandi. Shubhasiz, bu – sarvari koinot, xotam ul-anbiyo, rahmatil olamin, nabiyyil-azhar va shafoatchimiz bo‘lgan payg‘ambarimiz Muhammad Mustafo sollalohu alayhi va

sallamning cheksiz va buyuk xizmatlari natijasi, mislsiz ta’lim va tarbiyalari samarasi edi.

Islomning ziyosi arablar e’tiqodi, turmush tarzi va axloqini qay darajada yuksaltirgan bo‘lsa, Payg‘ambarimiz madhida bitilgan na’tlar adabiyotni haqiqiy estetik ideal kuychisiga aylantirdi. Badiiy adabiyot o‘z ifoda shakllarini saqlagan holda, mazmun-mohiyatda butunlay yangilandi, haqiqiy ma’nodagi so‘z san’ati va insonshunoslikka evrildi. Komillik masalasi, komil inson vasfi adabiyotning bosh vazifasi o‘laroq, payg‘ambarni madh etish, unga muhabbat izhor qilish, ezgu fazilatlarini ulug‘lash shoirlarning oliy maqsadiga aylandi. Shuning uchun ham, ijodkorlar bu ulug‘ zotning tug‘ilishidan to vafot etguniga qadar bo‘lgan voqealarni, xalqi-yu xulqini asrlar davomida ulug‘lab, madhlar bitib kelmoqda.

“Manbasi arab adabiyoti bo‘lgan va bu adabiyotda “madhiya” nomi ostida bo‘lgan na’tlar saodat asrida yozila boshlagani taxmin qilinsa-da, na’t mazmunli ilk she’r Hazrat Payg‘ambarimizning tug‘ilishlaridan yetti asr oldin yaratilgani misli ko‘rilmagan va qiziqarli voqeadir. Samoviy kitoblarda xabar berilgan oxirgi payg‘ambarimiz Hazrat Muhammad sollallohu alayhi va sallam kelishining bashoratini bilgan As’ad Abu Karib al-Himyoriy, kutilgan payg‘ambar Allohning elchisi ekanligiga ishonganligini va agar o‘z davrida unga yetishsa, buyuk sadoqatli holda bo‘lishini bir necha she’rlarida yozgan”ligini turk olimasi Emine Yeniterzi o‘z ilmiy tadqiqotida keltirgan¹.

Syratshunos olimlar Payg‘ambarimizga atab aytilgan ilk na’t ul zotning tug‘ilishlari bilan bog‘liq holda bitilganligini ta’kidlaydilar. Rasulullohning dunyoga kelishi munosabati bilan bobosi Abdulmuttolib ibn Hoshim xursandchilikdan quyidagi baytlarni aytgan ekan:

وأنت لما ولدت أشرقت
الأرض وضاءت بنورك الأفق
فحن في ذلك الضياء وفي
النور وسبل الرشاد نخترق

¹ Emine Yeniterzi. Divan Şiirinde Na’t. Doktora tezi. – Konya, 1989. – S. 28.

(Mazmuni: Sen tug‘ilganda, yer yuzi porlab, ufq nuring bilan yorishdi. Biz shu nur va uning ichidamiz, Rashodning nurli yo‘llariga kirib boramiz)¹.

Payg‘ambarimizning Makkadan Madinaga ko‘chib kelishlari bilan, islom Madinada tez tarqab, musulmonlar kuchga to‘lib, ilk islom davlati vujudga keldi. Islomga va musulmonlarga qarshi bo‘lgan mushrik arablar, yahudiylar va nasroniyilar Payg‘ambarimiz va musulmonlarga qattiq qarshilik ko‘rsatdi. Oradagi keskinlik ayovsiz janglarni keltirib chiqardi. Natijada ikki o‘rtada islom tarixidagi mashhur Badr, Uhud, Xandaq va Xaybar janglari bo‘lib o‘tdi. Musulmonlarni har tomonlama qiy Nash va mahv etishni xohlagan, dushmanlar, bu yo‘lda har qanday usul va vositalardan foydalandilar. Ana shunday usullardan biri she’riyat edi. Rasululloh bilan Quraysh qabilasi o‘rtasidagi adovat kuchayib, Quraysh shoirlari Abdulloh ibn Az-Zabg‘ariy, Amr ibn al-Os, Abu Sufyon kabilalar o‘z she’rlari bilan Payg‘ambarimizni, musulmonlar jamoasi va islomni kamsitib, masxaralab she’rlar aytib, qattiq haqorat qilardilar. Rasulluloh bir kuni sahabalariga qarata: “Allohga va uning rasuliga qurol-yarog‘i bilan yordam bergen kimsalarga tillari bilan yordam berishga nima to‘sinqilik qiladi?” – dedilar. Ushbu chaqiriqqa “Rasululloh shoirlari” degan unvonga sazavor bo‘lgan Abdulloh ibn Ravoha, Hasson ibn Sobit, Ka’b ibn Molik kabi mashhur sahabalar “labbay” deb javob berdilar.

Abdulloh ibn Ravoha kuchli notiq va buyuk shoir edi va u Payg‘ambarimizga she’r yo‘li bilan hujum qilgan shoirlarga javob she’rlari yozardi. Undan tashqari, kerak bo‘lganida, kofirlarni hajv qilardi. Abdulloh ibn Ravohaning she’rlari haqida gapirgan Nabiy alayhissalom ularni “Quraysh mushriklariga qarshi o‘q yomg‘iridan ta’sirliroq”, – deb maqtaganlar². Yana bir shoirlari Hasson ibn Sobit islomni qabul qilgandan keyin hamisha Rasululloh bilan birga bo‘lib, yonlaridan jilmadi. Garchi yoshi ulug‘ bo‘lsa-da, g‘azotlarda jang qildi, mushriklarga qarshi yozgan she’rlari bilan raqiblar ruhini sindirdi, musulmonlarga katta manfaat keltirdi. Rasuli akram Hasson ibn Sobit uchun o‘z masjidlarida alohida minbar qurdirib berib,

¹ Doktor Abbos al-Jarari. Marokash adabiyoti: uning hodisalari va muammolari. 2-nashr. – Kasablanka: An-Najah New Press, 1982. – B. 142.

² <https://islom.uz/maqola/3566>

mushriklarga qarshi she'r aytishini buyurdilar. Va ul zotni “Ey Alloh, Hassonni Ruh ul-Qudus bilan qo'llagin”, – deb hech bir sahabaga qilmagan duosini qilganlar¹. Payg'ambarimiz vafotidan so'ng, chuqur qayg'uga botgan Hasson ayriliqqa chiday olmasdan ko'zları ko'r bo'lib qoladi. Ko'zları ojiz bo'lishiga qaramay umrining so'ngiga qadar Nabiy alayhissalomga atab ko'plab madhiyalar, marsiyalar, qasida va manzumalar bitadi. Olimlarning ta'kidlashicha, aynan Hasson ibn Sobit ijodi, payg'ambarimiz va islomni ulug'lab bitgan madhiyalar, vafotidan so'ng ayriliq va sog'inch bilan yozgan marsiyalari hamda ul zoti sharifning alohida sifatlari, fazilatlari, mo'jizalari haqida yozgan maqtovlari keyingi davr shoirlari uchun maktab, tasavvufiy she'riyat uchun asos bo'lib xizmat qilgan, badiiy adabiyot olamida payg'ambar madhiga bag'ishlangan alohida na't janrining vujudga kelishiga sabab bo'lган.

Keyingi davr shoirlariga, avvalo, an'anaga sodiqlik, uni munosib darajada davom ettirish va yanada yuksaltirish vazifalari yuklangan bo'lsa, ikkinchi tomondan, ularda iymon talabi – Payg'ambarni sevish va unga muhabbat bilan ergashish istagi mavjud edi.

Qozi Iyoz hazratlari o'zining “Shifo” deb nomlangan asarida shunday yozadi: “Odatda, inson bir kishini uchta sababga ko'ra yaxshi ko'radi:

- tashqi go'zalligi bo'lsa;
- axloqi, ichki dunyosi komil bo'lsa;
- odamlarga yaxshilik qiladigan bo'lsa”².

Payg'ambarimizda ana shu uch xislatning barchasi jamuljam edi. Ya'ni, u zot – *komil inson* edi. Shuning uchun ham, Alloh taolo Kalomullohning ko'p o'rinalrida o'z rasulini madh etgan.

Alloh taolo: “Sizlar uchun Alloh va oxirat kunidan umidvor bo'lган hamda Allohnini ko'p yod qilgan kishilar uchun Allohnинг Payg'ambarida go'zal namuna bordir”, – deb marhamat qiladi Qur'oni karimning “Azhob” surasi 21-oyatida¹.

¹ <https://islom.uz/maqola/3566>

² Қози Иёз. Шифо. Муҳаммад соллаллоҳу алайҳи васалламнинг ҳақларини танитиш. – Тошкент: “HIOL-NASHR” нашриёти, 2022. – Б. 359.

Rasulullohga ergashgan kishi Alloh taoloning muhabbatiga sazovor bo‘ladi. Bu haqda Qur’oni karimning Oli Imron surasi 31-oyatida: “Ayting (ey Muhammad!): Agar Allohnin sevsangiz, menga ergashingiz. Shunda Alloh sizlarni sevadi va gunohlariningizni mag‘firat etadi. Alloh kechiruvchi va rahmlidir”, - deyilgan². Alloh taolo o‘zining ilohiy kitoblari Tavrot, Zabur va Injilda ham kelajakda keladigan, Ahmad (payg‘ambarimizning ismi) ismli payg‘ambar haqida xabar berib, uni madh etadi.

Buyuk muhaddis imom Al-Buxoriy “Al-jome’ as-sahih” asarida quyidagi hadislarni keltiradi: “Nabiy sollallohu alayhi va sallam: “Hech biringiz unga otasiyu bolasidan va barcha odamlardan sevimli bo‘limganimcha mo‘min bo‘la olmas”³. Yana aytgandilarki: “Kimda quyidagi uch xislat bo‘lsa, unga iymon huzur-halovat baxsh etgaydir:

- Alloh va Rasulini hammadan ko‘ra yaxshi ko‘rmoq;
- yaxshi ko‘rgan kishisini faqat Allohnin deb (Alloh yaxshi ko‘rgani uchun) yaxshi ko‘rmoq;
- yomon ko‘rgan kishisini faqat Allohnin deb (Alloh yomon ko‘rgani uchun) yomon ko‘rmoq”⁴.

Tasavvuf mashoyixlariga ko‘ra, payg‘ambarni sevish jannatga yo‘ldir, Allohga bo‘lgan muhabbat uchun eshikdur. Zavq ahli shu sabablarga ko‘ra, asrlar davomida komillar komili haqida minglab na’tlar bitib, insoniyatni u zotning shaxsiyati bilan tanishtirish, u zot siyosini xayolda gavdalantirish, komil axloqini vasf etish, dunyoga kelishi ulkan hodisa va insoniyat uchun buyuk ne’mat ekanligini barchaga uqtirishni o‘zlarining muqaddas vazifalari deb bilganlar. Ayni damda, ushbu na’tlar payg‘ambarga muhabbat qo‘yish, uni sevish bilan Allohga itoat etish, roziligiga erishish hamda qiyomatda shafoat qilinadiganlar umidida yongan yuraklarning oshiqona tasviri hamdir. Saodat asri shoirlari bu buyuk vazifani sharaf bilan

¹ Куръони карим ва ўзбек тилидаги маънолар таржимаси. Шайх Мухаммад Содик Мухаммад Юсуф. – Тошкент: “Sharq”, 2011. – Б. 420.

² Yuqorida manba. – B. 422.

³ Олтин силсила: 1-жуз. Саҳиҳул Бухорий. – Тошкент: “HIOL-NASHR” нашриёти, 2020. – Б. 134.

⁴ Sahihiy Buxoriy. 1-jild. Imom Ismoil al-Buxoriy. Toshkent: Qomuslar Bosh tahririyyati, 1991. – B. 8.

bajardilar. Bu davrga kelib islom diyorlari juda kengayib, endi faqat maqtovlar emas, balki xalqning didi, e’tiqodi, hayotiy qarashlarini yuksaltiradigan, islomiy g‘oyalarini kuylaydigan asarlarga ehtiyoj ko‘paygan edi. Yangi dinning aslini, mohiyati, ma’no-mazmuni va u bilan bog‘liq tarixiy voqea-hodisalarni xalq uchun sodda va tushunarli tilda yetkazish zarurati tug‘ildi. Natijada ruhiy tarbiya, tazkiyat un-nafs bo‘lgan tasavvuf ta’limoti g‘oyalarining badiiy adabiyot vazifalari bilan uyg‘unlashuvi hamda ularning bir-birini to‘ldirib birlashuvi diniy-tasavvufiy adabiyotning vujudga kelishiga zamin yaratdi. Ana shu ehtiyoj forsiylarda so‘fiyona g‘oyalar bilan oziqlangan tasavvuf adabiyotining rivojlanishiga katta xizmat qildi.

Allohning so‘nggi elchisi bo‘lgan Payg‘ambarimiz sollallohu alayhi va sallamning insoniyatga baxt-saodat yo‘lini ko‘rsatib, dunyo xalqlarini zulmatdan nurga olib chiqishi forsiyzabon xalqlarni ham chetlab o‘tmadi. Boy va yuksak gumanistik islom madaniyati tabiatan nozik, she’riy qobiliyatga ega forsiyzabonlarning qalbi va ongini butunlay rom etgan bo‘lsa, Payg‘ambarimiz sollallohu alayhi va sallamning komil inson namunasi sifatidagi buyuk shaxsiyati, husn-u xulqi, surat-u siyrati forsigo‘y shoirlarga ilhom manbayi bo‘ldi va forsiy adabiyotining yuksalishiga ulkan ta’sir ko‘rsatdi.

Islomdan keyingi yangi forsiy adabiyotda nabiy madhi, siyrati va u zot bilan bog‘liq tarixiy voqea-hodisalarga bag‘ishlangan minglab asarlar dunyoga keldi. Ijodkorlar devon va dostonlarining tarkibida Rasuli akram uchun alohida o‘rin ajratdilar. Bundan tashqari, basmala, hamd va Nabiy na’tidan so‘ng, dastlabki to‘rt xalifasi – xalifayi roshidin, imomlar, din peshvolari, hukmdorlar maqtalib, madh etildi. Kitob tuzish talabi, an’anaviy debochalar tartibi takomillashib, barqarorlashdi.

Fors shoirlarining har biri o‘z kamoloti va ilmi darajasida payg‘ambar risolati haqida so‘z yuritib, u zotning buyuk shaxsiyatini madh etib, ulug‘ladi. Shubha yo‘qli, eng go‘zal va nozik she’rlar komillar komiliga bag‘ishlangan na’tlar sifatida shoirlarning devon va kitoblaridan o‘rin oldi. Shoirlar nabiy vasfi, u zotning shaxsiy va ijtimoiy hayoti, olamlar Parvardigori nazdidagi buyukligi, olamlarga rahmat ekanligini ta’kidlab, o‘z asarlarida Sarvari koinotni komil inson namunasi sifatida

madh etishni o‘z maqtovi deb emas, iymonning talabi, odamiylik mezoni deb bildilar. Hazrati Sayyid Abulhasan Nadaviy (r.a.) “Madinaga” deb nomlangan kitobida shunday yozadi: “Islom olami adabiyotidan xabardor bo‘lgan, islom xalqlarining turli tillaridagi adabiyotni o‘rgangan, she’riy didga ega bo‘lgan mutaxassislar juda yaxshi biladilar. Forsiy til nabiylardan madhida boshqa tillarni ortda qoldirgan va bu borada eng boy til hisoblanadi va shuni aytish kerakki, forsiy she’riyat, xoh Eronda, xoh Hindistonda yozilgan bo‘lsin, qimmatbaho marvaridlarga to‘la. Bu marvaridlar – Payg‘ambarimiz sollallohu alayhi va sallamni madh etuvchi ajoyib she’rlardir”¹.

Fors adabiyotida dastlab na’tlar qasida, g‘azal va qit’a kabi janrlarda hamda masnaviy shaklida bitilgan va devonlarda ularga alohida o‘rin berilmagan. Keyinchalik – g‘aznaviylar davrida Firdavsiyning “Shohnoma”sida, Faxriddin Asad Gurgoniyning “Vis va Romin”, Asad Tusiy “Gershaspnomma” dostonlarida (masnaviy) na’tlar hamda Nosir Xusrav devonida “Muhammad” radifli alohida na’t g‘azali bitildi. Dastlab, asosan, didaktik mazmundagi vafs na’tlar yozilgan bo‘lsa, VI asrdan boshlab shoirlar tomonidan me’roj voqeasi tasviriga adabiy an’ana sifatida qaraldi, me’rojga oid ko‘plab asarlar yaratildi. Dastlabki, me’rojlar maktub shaklida yaratilgan bo‘lib, bunday maktublarda “ushbu asarlarni bitgan insonlarning e’tiqodi, diniy qarashlari, ma’naviy qiyofasi yaqqol aks etib, ular ijodkor shaxsiyati, hayotiy prinsiplari va dunyoqarashini o‘rganishda asosiy ko‘makchi hisoblanadi. Garchi bu she’rlarning ifoda yo‘sini va taqdim etish yo‘llari bir-biridan farq qilsada, lekin bu asarlarning mazmuni ko‘pincha o‘xshash va ba’zan bir xil bo‘lib, Qur’oni karimning me’roj voqeasi sabab nozil bo‘lgan oyatlar, ushbu voqeadan ko‘proq ta’sirlangan rivoyatlar, tafsirlar, Nabiylardan alayhissalomning hadislari va tarjimayi holi bilan bog‘liq kitoblar zaminida dunyoga kelgan. Yana bir e’tiborga molik jihat shuki, tasavvufiy-axloqiy she’rlar va Payg‘ambarimiz sollallohu alayhi va sallamning me’rojga oid bashorat va marhamatlarining ta’siri... shoirning

¹ Zubair Husseinpour. Fors she’riyatida go‘zal payg‘ambarning siyoshi// – Baluchi, 2013, <https://www.sunnatonline.org/> sayti.

tafakkuri, turmush tarzi, axloqiy, tarbiyaviy, diniy xususiyatlari va ijtimoiy mavqeyini bilish, adabiy-estetik qarashlarini baholashda muhim vositadir”¹.

Keyingi davr shoirlari Hoqoniq, Anvariq, Ansoriq, Sherorziq, Iroqiy va boshqalar ham bu mavzuda barakali ijod qildilar. Forsiy tildagi so‘fiyona adabiyotning cho‘qqisi hisoblangan Farididdin Attor asarlari – devoni, “Asrornoma”, “Ilohiynoma”, “Musibatnama”, “Muxtornoma” va “Mantiq ut-tayr” dostonlarida, Mavlono Jaloliddin Rumiyning barcha asarlarida payg‘ambar madhida eng go‘zal na’tlar bitildi.

Alisher Navoiy salaflaridan biri – Nizomiy Ganjaviydan boshlangan xamsanavislik an’anasi Sharqda yangi adabiy hodisaga aylandi. “Xamsa”lardagi muqaddima boblar, xususan, hamd va na’tlarni qo’llash prinsiplari, dastlab, Nizomiy dostonlarida shakllandi. O‘zining “Panj ganj” asarida shoir payg‘ambarimiz Muhammad sollalohu alayhi va sallamni madh etib, har bir doston muqaddimasida vasf va me’roj na’tlarni bitadi.

1-jadval.

№	Asar nomi	Vasf na’t	Me’roj na’t	Bob soni	Jami (baytlar soni)
1.	Maxzan ul-asror	120	68	5	217
2.	Xusrav va Shirin	35	-	1	35
3.	Layli va Majnun	50	68	2	118
4.	“Haft paykar”	50	88	2	138
5.	Sharafnama	56	77	2	102
6.	Iqbolnama	28	-	1	28
	Jami	339	301	13	640

Jumladan, “Maxzan ul-asror” ning basmala, Allohga hamd va munojot boblaridan so‘ng Rasululloh madhi bitilgan na’t va me’roj boblari islom dinining, Payg‘ambarimiz xulqi va xalqining nozik ifodalari bilan o‘ziga rom qiladi. Shoirning fikricha, dunyoni bilishda payg‘ambar ma’rifati asosiy kalitdir.

Rasululloh madhini eng go‘zal baytlar bilan yuksaklarga ko‘targan shoir Qur’oni karim va hadislarga tayanib u zotni ta’riflaydi, muhabbatini izhor qiladi.

¹ Hojizoda Majid. Fors adabiyotida tasavvuf. 2 son, 2012. <https://hawzah.net> sayti.

Payg‘ambarga bo‘lgan muhabbat shoir ijodidagi muhim mavzulardan biri edi. Shoir bu ishqning go‘zalligi, ezguligi, o‘ziga xosligi, betakror va doimiy ilohiy ishq yo‘lida vosita ekanligini na’t va me’roj boblarda o‘ziga xos tarzda badiiy talqin etadi. Shoirning har bir dostonida Rasulullohga muhabbat u zotga aloqador ko‘plab voqealarning badiiy tafsilot va talqinlarida nur-ziyo taratadi va bu asrlar o‘tib unga ergashgan Xusrav Dehlaviy va Alisher Navoiy kabi xamsanavislarni ruhlantirdi, ularga o‘z xamsalarida bu mavzuni takomillashtirish uchun ma’naviy kuch va ilhom berdi.

Nizomiy Ganjaviy an’anasining davomchisi Amir Xusrav Dehlaviy beshligidagi har bir dostonda ham komillar komili ta’rifi uchun maxsus –na’t boblar ajratilgan.

2-jadval.

№	Asar nomi	Vasf na’t	Me’roj na’t	Bob soni	Jami (baytlar soni)
1.	Matla’ ul-anvor	66	70	3	136
2.	Shirin va Xusrav	31	41	2	72
3.	Majnun va Layli	21	-	1	21
4.	Oinayi Iskandar	58	27	2	85
5.	Hasht behisht	25	40	2	65
6.	Jami	201	178	10	379

“Xusrav Dehlaviy “Matla’ ul-anvor” dostonida salafidan farqli o‘laroq uchta na’t bob keltirgan. Amir Xusrav na’tlarida payg‘ambar hayotining qismlari, faoliyati davrlari alohida olib bayon etilmaydi. Xusravda payg‘ambar ishlarining konkret jihatini voqealarning sifatida olib tasvirlash faqat me’rojga ko‘tarilish voqeasi tasvirida ko‘rinadi. Avvalgi va uchinchi na’tlar bir-birini to‘ldiradigan bo‘lib, Hazrati Rasulullohning sifatlarini ta’riflovchi baytlardan tashkil topgan”¹.

Charx kaz in son ajad orostand,
Baxri rasuli arab orostand.

¹ Мухиддинов М. Комил инсон – адабиёт идеали. –Тошкент: Маънавият, 2005. – Б. 206.

“Ahmadi mursal”ki nabishta qalam,
Hamd ba nomi vayu ho-mim ham¹.

Rasululloh ta’rifi bilan boshlangan ushbu bobda shoir, butun koinotni arab millatiga mansub Rasululloh uchun shunday ajoyib yaratilganini ta’kidlab, payg‘ambarning ikki sifati: Allohga eng ko‘p hamd etuvchi hamda Allohnинг so‘nggi elchisi – “Ahmadi mursal” ekanligini madh etib, “Haqiqatlar haqiqati” Muhammad Nuriga ishora qiladi. Muhammad Nuri – “falsafiy tasavvufda keng tarqalgan, asos g‘oyaga aylangan e’tiqodlardan biri bo‘lib, unga ko‘ra, Alloh taolo birinchi bo‘lib Rasululloh sollallohu alayhi va sallamning nurlarini yaratgan va boshqa maxluqotlarni ana shu nurdan xalq qilgan”².

Musulmon dunyosida Nabiy siyrati bilan bog‘liq vasflar hamda u zotning tungi sayri - me’roj mavzusida kamdan kam shoir qalam tebratmagan. Payg‘ambarga na’t bitish ming yildan beri shoirlar tomonidan an’ana tarzida uzluksiz davom ettirib kelinmoqda. Ayniqsa, Payg‘ambar alayhissalom kamoloti cho‘qqisi bo‘lgan me’roj – haqning ishqida yongan oshiq uchun katta baxt, so‘fiy uchun oliy maqom bo‘lsa, shoirlar uchun cheksiz ilhom manbayidir. Shu ma’noda, Muhammad alayhissalomga na’t bitishda payg‘ambar kamolotiga bo‘lgan muhabbat, avvalo, Dehlaviyga ruhiy madad bo‘lgan bo‘lsa, ikkinchi tomonidan, shoirning ul zot erishgan oliy maqomga bo‘lgan mustahkam ishonchi cheksiz ilhom manbayi bo‘ldi.

Xulosa qilib aytganda, Amir Xusrav Dehlaviy dostonidagi na’tlar ijodkorning falsafiy-tasavvufiy qarashlarini o‘rganishda katta ahamiyatga ega. Ayni damda, islomning joriy qilinishi, payg‘ambarning insoniyat oldidagi buyuk xizmatlari hamda Komil inson haqidagi qarashlarini o‘rganishda eng asosiy manbadir. Forsiy she’riyatning yirik namoyandalari Alisher Navoiy lirik va epik asarlarining yaratilishiga ko‘p jihatdan ta’sir ko‘rsatdilar. Shu nuqtayi nazardan olganda,

¹ Амир Хусрав Дехлавий. Матлаъул анвор. Составления критического текста и предисловие Тахира Ахмед огли Магеррамова. – Москва : “Наука”, 1975.

² Сайид Жаъфар ибн Ҳасан Барзаний. Мавлид. Таржима ва шархлар муаллифи Ҳасанхон Яҳё Абдулмажид. – Тошкент: “HIOL-NASHR” нашриёти, 2015. – Б. 334.

ayniqsa, tadqiqot obyekti bo‘lgan “Xamsa” dostonlaridagi na’t va me’roj boblarni o‘rganishda ularni nazarda tutish muhim.

1.2. Turkiy adabiyotda na’t va uning Alisher Navoiy ijodidagi o‘rni

Turkiy adabiyotda dastlabki na’t Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u biling” dostonida uchraydi. “Asar sharq kitob tuzilishi usuliga ko‘ra tartib berilgan bo‘lib, dastavval unvon (basmala), so‘ng qisqa nasriy muqaddima bo‘ladi, bunda tangriga hamd, yalavoch (payg‘ambar)ga na’t aytiladi...”¹.

Hajman kichik – 15 baytdan iborat ushbu bob mazmunan vasfiy na’tdir. Shoir ushbu bobda payg‘ambarimizning hayoti, insoniy fazilatlari, sifatlari vasf qilish bilan birga, Nabiyl alayhissalomni barchaga o‘rnak sifatida ko‘rsatib, insonlarga qarata u zotni sevishni, unga munosib bo‘lishga intilish lozimligini uqtiradi. Haqiqiy baxt-saodatga erishmoqchi bo‘lgan insonlarga Payg‘ambarimiz sollallohu alayhi va sallam siyrati, xusn-u xulqi, shakl-u shamoili va qilgan amallari komil inson haqidagi yo‘riqnomalarini ekanligini baytma-bayt tasvirlab boradi.

Islom ta’limotiga ko‘ra, har bir musulmon Allohnini va uning Rasulini sevishi lozim. Hadislarda keltirilishicha, haqiqiy iymon Alloh va uning Rasuliga bo‘lgan muhabbat qolgan barcha narsaga bo‘lgan muhabbatdan ustun bo‘lmog‘i darkor. Haqning oshig‘i bo‘lgan, o‘zini va nafsini tanigan mo‘min bandalariga qarata Kalomullohning “Oli Imron” surasi 31 oyatida Haq taolo: “Alloh sizni sevadir va sizlarning gunohlaringizni mag‘firat qiladir”, - deb marhamat qiladi. Bu har bir komillikka intilgan inson orzu qiladigan baxt-saodatdir. Sababi har bir komillikka intilgan solik uchun Allohnining muhabbatidan ham ulug‘roq baxt, ulug‘roq saodat bo‘lmaydi.

Yusuf Xos Hojib bu ulug‘ zotni ta’riflar ekan, avvalo, uning Rasul(Allohnining elchisi), keyin esa insonlarning eng yaxshisi, komili ekanligini ta’kidlab, bobni ko‘tarinki ruhdagi ushbu bayt bilan boshlaydi:

Sewüg sawci iðti bag‘ırsaq iði,

¹ Тўхлиев Б. Юсуф Хос Ҳожиб ва туркий халқлар фольклори. – Тошкент: BAYOZ, 2013. – Б. 4.

buðunda talusı kiþidä keði¹.

(Mazmuni: mehribon egam sevikli rasul yubordi, (u) xalqlar orasida sarasi va yaxshisi edi).

Doston didaktik xarakterdagи asar bo‘lgani bois, unda boshdan-oxir tanosub san’ati ustuvorlik qiladi. Bu xususiyat asarning na’t qismida ham seziladi. Yuqoridagi baytda ham aynan shuni ko‘rish mumkin.

Barcha insonlarga qarata aytilgan quyidagi baytlarda muallif tashbeh vosisida payg‘ambarning buyuk xizmatlarini shoirona e’tirof etadi:

Yula erdi xalqqa qarañqu tüni
yaruqluqı yaðtı yarutti sanı
Oqıcı ul erdi bayattın saña
sen öträ köni yolqa kirdiñ toña.

Ya’ni, ey sen (inson, xalq – *F.I.*), qorong‘ulikdan (johiliyatdan) yorug‘likka (hidoyatga), to‘g‘ri yo‘lga u (payg‘ambar – *F.I.*) orqali erishding. Chunki u senga Haqni tanitdi, kimligingni bildirdi, natijada unga ergashib baxt-saodatga erishding.

O‘xshatish san’atining ustuvorligi asosida qurilgan ushbu baytlarda Yusuf Xos Hojib so‘zlar zamiriga ichki mantiqiy bog‘liqlik asosidagi so‘zlarni berkitish orqali istioraning go‘zal namunasini beradi. Ya’ni, **qorong‘u tun**, aslida, **johiliyat davri**, **yorug‘lik** esa **hidoyat**. Demak, baytlardagi so‘zlar mohiyati shu shaklda tahlil qilinsagina, mazmun to‘g‘ri anglashiladi.

Muallif payg‘ambarimizni insonlarga o‘rnak qilib ko‘rsatar ekan, ummati uchun, qavmi uchun ota-onasidan ham mehribon ekanligi, ularning rohati uchun kunduzi yemay, kechalari uxmlamay, Allohdan faqat ummatlari uchun yaxshilikni so‘ragan mehribon zot ekanligini ta’kidlaydi. Poetik fikrlarni ifodalashda shoir hamma uchun tushunarli va sodda bo‘lgan **ota-ona**, **kun-tun** juft so‘zlardan o‘rinli foydalananib, badiiy ta’sirchanlikni oshirgan. Bu esa kitobxonada katta badiiy-estetik zavqni uyg‘otadi.

¹ Yusuf Has Hacib. Qutadg‘u bilig. I jild. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston milliy kutubxonasi nashriyoti, 2010. – B. 65. Keyingi o‘rinlarda ham ushbu nashrdan foydalandik.

Seni qoldı tün kün bu emgæk bilä
anı ög sen emdi sewinçin tilä.

Qamuğ qađgusı erdi ümmät üçün
qutulmaq tilär erdi rahat üçün.
Atada anada bağırsaq bolub
tilär erdi tutçı bayattın qolup.

Nabiy alayhissalomning bevosita payg‘ambarlik faoliyati bilan bog‘liq ushbu misralarda ijodkor o‘zi qo‘ygan masala mohiyatini anglatishda tazoddan mohirona foydalanadi. Tasavvuf mashoyixlari har qanday masalaning mohiyati uning ziddi bilan ayon bo‘lishini ko‘p marotaba tasdiqlaganlar. Ayni baytda ham Muhammad sollallohu alayhi va sallamning sifatlari tazod san’ati misolida ochib berilgan. **Kun** va **tun, qayg‘u** va **sevinch** so‘zlarining ishlatalishi bu badiiy hodisani yuzaga keltiradi. Payg‘ambarimizning ota-onadek har ummati uchun qayg‘urish xususiyatining tashbeh san’ati orqali berilishi esa baytning poetik jihatdan mukammal chiqishiga zamin yaratgan. Dostonda komil inson va komillikka alohida o‘rin bergen shoir fikricha, inson komil bo‘lishi uchun, avvalo, komil sifatlarga ega bo‘lishi, ko‘ngli, tili va fe’li rost bo‘lishi zarur. Shoir ta’riflagan sifatlar egasi, yakka-yu yagona komil inson Muhammad sollallohu alayhi va sallam edilar.

Bayat rahmati erdi xalqı üzä
qılınçı silig erdi qılqı tüzä.

Tüzün erdi alçaq qılınçı silig
uwutluğ bağırsaq aqı kej elig.

Yagız yer yaşıl köktä erdi kösus
ajjar berdi tanrı ağırlıq öküş.

“Alloh taolo Qur’oni karimning “Qalam” surasi 4-oyatida Rasululloh sollallohu alayhi va sallamga xitob qilib: “Albatta, Siz buyuk xulq uzradirsiz”, - degan. Bu oyati karima Payg‘ambar alayhissalom uchun katta va oliy bahodir. Alloh u zotga xitob qilib, u kishining xulqlarini ulug‘lik bilan sifatamoqda. Oysha onamizdan u kishining xulqlari haqida so‘raganlarida “xulqlari Qur’on edi”, - deb javob bergenlar. Ya’ni,

Muhammad alayhissalom Qur'ondagi oliy xulqlar bilan xulqlanganlar. U zot sollallohu alayhi va sallam Qur'ondagi barcha yaxshi odob-axloqni o'zlariga singdirganlar”¹.

Shunga aynan muvofiq tarzda bitilgan yuqoridagi baytlarda Yusuf Xos Hojib uchun Kalomulloh va payg‘ambar hadislari tayanch manba bo‘lish bilan birga, bitmas-tuganmas ilhom manbayi, odob-axloq qomusi bo‘lib ham xizmat qilganligi shubhasizdir. Ijodkor baytlarda insonlarga u zotning mukammal insoniy fazilatlarini ko‘rsatish bilan birga, qanday komil sifatlarga ega bo‘lganliklarini tashbeh va tanosub san’ati misolida chiroqli tasvirlay olgan. Dostonning 64-bobida “O‘zg‘urmish O‘gdulmishga bu dunyodan yuz o‘girib, u dunyoga moyil bo‘lmoqlik haqida” ko‘p nasihatlar qilib, bu dunyoning o‘tkinchi va bevafoligi ta’kidlaydi:

Qani u tayog‘i ilon bo‘lguvchi,
Dengizni yorib yo‘l solib kelguvchi?
Qani dev, pari, qush, hayvon, neki bor,
Podshohi bo‘lgan ul go‘zal fe’l-atvor?
Qani o‘likka jon bergen kishi,
O‘limga asirlik oxiri ishi.
Qani odamzot nuri bo‘lgan zot,
Kemtik dunyo to‘la bo‘sh qoldi, hayhot².

O‘tmishdagi payg‘ambarlarga xos bo‘lgan fazilat va mo‘jizalar haqida so‘zlab, Rasululloh madhidagi baytda shoir Nuri Muhammadiyani esga oladi. Yuqoridagi baytga hamohang tarzda keladigan na’t bobdag'i quyidagi misralarda ham barcha boshchilarga avvaldan boshchi ekanligi hamda ularning so‘nggi – tamg‘asi ekanligini ta’kidlaydi. Dunyoning asosida Muhammad nuri yotadi degan tasavvufiy qarashni yana bir bor esga oladi:

Başı erdi öндün qamuğ başçıqa
кедин boldи tamğa qamuğ sawçıqa.

¹ Шайх Мұхаммад Содик Мұхаммад Юсуф. Ҳадис ва Ҳаёт. 34-жуз. Яхшилик ва ахлоқ. – Тошкент: “HIOL-NASHR” нашириети, 2016. – Б. 273.

² Юсуф Хос Ҳожиб. Қутадғу билиг. Ҳозирги ўзбек тилига табдил қилувчи Ф. Равшанов. – Тошкент: Фан, 2015. – Б. 508.

Hadislardan birida shunday deyilgan: “Menga Rabbim odob berdi va odobimni go‘zal qildi”¹. Alloh taolo: “Sizlar uchun Alloh va oxirat kunidan umidvor bo‘lgan hamda Allohnini ko‘p yod qilgan kishilar uchun Allohning Payg‘ambarida go‘zal namuna bordir”, – deb marhamat qiladi Qur’oni karimning “Azhob” surasi 21-oyatida². Bu dunyoda inson nimagadir ishonib, e’tiqod qilib, kimgadir taqlid qilib yoki kimdandir o‘rnak olib yashaydi, ya’ni komillikka intiladi. Tasavvuf ta’limotiga ko‘ra, tariqat yo‘liga kirgan murid murshiddan ta’lim olib, komillik sirlarini o‘rganib, komil inson darajasiga yetadi. Bu darajaga yetish oson emas. Chunki bu yo‘lning o‘ziga xos qiyinchiliklari, shartlari, tartib-qoidalari bor. Mana shu yo‘lga kirgan solik kimgadir suyanishi yoki o‘rnak olishi zarur bo‘lsa, shaksiz, u zot, komillar komili – Hazrati Muhammad sollallohi alayhi va sallamdu. Navbatdagi baytlarni shoir aynan shu masalaga daxldor fikrlari bilan davom ettiradi:

Köñül badım emdi anıñ yolına
sewip sözi tuttum bütüp qavlına.
Ilahi küdəzgil meniñ köñlümi
sewüg sawcı birlä qopur qopğumi.

Ya’ni, ko‘nglim bilan, jon-u dilim bilan uning yo‘liga (islom dini –F.I.) yurdim. Har bir so‘zini qalbimda tutdim (saqladim). Yo Rab, mening ko‘nglimni o‘zing ehtiyot qilib, (qiyomatda) meni sevimli qil.

So‘nggi baytlar muallifning o‘z-o‘zini sarhisob qilishiga imkon bergen. Shoir Yaratgandan o‘ziga toza va chin iymon so‘raydi. “Köñül badım emdi anıñ yolına” – “Chin dildan uning yo‘liga yurdim”, “sewip sözi tuttum bütüp qavlına” – “Uning har bir so‘ziga xursandchilik bilan itoat etdim” misralarida tashbehning go‘zal namunalaridan foydalanadi.

Na’t so‘ngida shoir Yaratganga yolvorib, qiyomat kuni unga mehr ko‘zi bilan boqishini, vaslidan benasib qilmay, shafoat etilganlar qatoriga qo‘yishini so‘raydi:

Qiyamatta körkit tolun teg yüzin

¹ Шарипов С. Расулуллоҳда гўзал ўрнак бор. Тошкент: “HIOL-NASHR” нашриёти, 2020. – Б. 32.

² Қуръони карим ва ўзбек тилидаги маънолар таржимаси. Шайх Мухаммад Содик Мухаммад Юсуф. – Тошкент: “Sharq”, 2011. – Б. 420.

elig tuttacı qıl ilahi özin.

Ushbu baytda ham “tolun teg yüzin” – to‘lindek, yorug‘ yuzi, vasli birikmalarida tashbehning go‘zal namunasini ko‘rish mumkin. Yuqorida tahlil etilgan oxirgi uch bayt na’t bobni yakunlovchi xarakterga ega bo‘lish bilan birga ijodkor ruhiy-ma’naviy olami, axloqiy-didaktik va adabiy-estetik qarashlarini o‘zida yaqqol aks ettirgan.

Bunday boy va teran ildizlarga ega mumtoz adabiyotimiz islom dini va uning ahkomlariga qalbidagi ulkan muhabbat bilan bog‘langan zotlar o‘z his-tuyg‘ularini bildirish uchun adabiyotdan bir vosita sifatida foydalanganlarki, natijada betakror obrazlar, zavq-shavqqa to‘la lirizm, rang-barang romantizmga ega she’riyat, komil inson va komillik kabi yuksak gumanistik g‘oyalarni ulug‘lovchi tasavvuf adabiyoti vujudga kelgan.

Turkiy adabiyot tarixida na’t bitish an’anasini Ahmad Yugnakiy, Sulaymon Boqirg‘oniy, Ahmad Yassaviy, Xorazmiy, Sayfi Saroyi, Rabg‘uziy, Xo‘jandiy, Said Ahmad, Lutfiy kabi keyingi davr shoirlari munosib davom ettirdilar.

Ahmad Yugnakiyning bizgacha yetib kelgan ta’limiy-ma’rifiy dostoni “Hibat ul-haqoyiq”da payg‘ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi va sallamga bag‘ishlangan besh baytdan iborat na’t bob mavjud. Mazmunan vasf na’t bo‘lgan bobning ilk baytidanoq muallif o‘z maqsadini aniq ifodalar ekan, kitobxonning diqqatini tortadi:

İşit imdi kaç beyt Ḥabīb fazlidin
Ukuş hūş bititip sözümni oña¹.

Tabiatan didaktik ruh yetakchilik qiladigan dostonda markaziy o‘rinni inson shaxsi, uning axloqiy-ma’naviy qiyofasi hamda shaxsni kamolotga yetkazishni ta’minalash masalasi asosiy o‘rinda turadi. Musulmon millati tarbiyasi va uning kamolotini o‘ylagan ijodkor uchun butun umrini ummat tarbiyasi, baxt-u saodati uchun baxshida qilgan payg‘ambarimiz siyoshi o‘rnakdir. Hayot yo‘li tunganmas

¹ Edîb Ahmed Yüknekî. ATEBETÜ'L-HAKÂYIK. Yayına Hazırlayan Dr. Serkan Çakmak. — İstanbul: Türkiye Yazma Eserler Kurumu Başkanlığı, 2019. — S. 71.

ibrat, butun insoniyat uchun ko‘zgu ekanligi bobning quyidagi baytlarida ta’kidlanadi:

Ol ol ҳалқа yigi kişi kutluғı
Töremişde yok bil aña tuş teñe
Resüller örүн yüz bu ol yüzge köz
Yā eñler kızıl iñ bu eñe meñe.

Ya’ni:

El aro yaxshilarning yaxshisidur,
Payg‘ambarlar ichra ham naqshi shudir.
Rasululloh yuzida nur porlagan,
Hidoyatga, ibodatga chorlagan¹.

Odatda, didaktik asarlarda o‘zga bir shaxs fazilati, axloqi ibrat sifatida ko‘rsatilar ekan, shoirlar, asosan, tashbeh, o‘xshatish, tanosub va talmehga murojaat qiladilar. Bunda bildirilayotgan fikrning ta’sirchanligi ortib, tinglovchi masalani mohiyatini oson va tez angraydi. Ana shunday sodda va qisqa, ortiqcha badiiy hasham dor bo‘yoqlarsiz Rasulullohni madh etar ekan ijodkor, payg‘ambar tarixi yoki mo‘jizalarini ta’riflamaydi, tarjimayı holini bayon etmaydi, balki muayyan badiiy timsollar (**nur**, **ko‘z**), qiyoslar (**yaxshilarning yaxshisi**, **payg‘ambarlar naqshi**) asosida komil inson suratini tasvirlab beradi.

Anıñ medhi birle tatır bu tilim
Anıñ medhi bolsa şeker şehdi aña.
Bu kün mendin tigsün dürûd ol yarına
İlig tutaćımğa egirse muña².

Inson kamolotini ilm o‘rganish, tavoze’li bo‘lish va go‘zal xulqni egallahsha deb bilgan adib asarning boshidan-oxirigacha buyuk islomiy e’tiqodga tayanadi, fikrlarini Kalomullohning muborak oyatlari, Rasululloh sollallohu alayhi va sallamning sara hadislari bilan dalillaydi. Ilm va tavoze’ning manfaati, jaholat, kibr

¹ Аҳмад Юғнакий. Ҳибатул ҳақойик. Ҳозирги ўзбек тилига Баҳром Ғойиб табдили. – Тошкент, 2002. – Б. 25.

² Edîb Ahmed Yüknekî. ATEBETÜ'L-HAKÂYIK. Yayına Hazırlayan Dr. Serkan Çakmak. – İstanbul: Türkiye Yazma Eserler Kurumu Başkanlığı, 2019. – S. 71.

va harislikning zarari, tilni tiyishning foydasi, mol-dunyo to‘plashning salbiy oqibatlaridan insonlarni ogohlantirgan adib, ilk bor payg‘ambar hadislarini turkiy tilda she’riy yo‘l bilan sharhlaydi. Barcha ijodkorlar kabi Ahmad Yagnakiy ham bob so‘ngida qiyomat kuni shafoat etiladigan insonlar qatorida bo‘lishini istab, u zotga cheksiz durud-u salovotlar yo‘llaydi.

Turkiy adabiyotning yirik vakili bo‘lgan, “sulton ul-orifin”, “piri Turkiston” nomi bilan ulug‘langan, turkiy tasavvufiy adabiyotning rivojiga o‘z hikmatlari bilan juda katta ta’sir ko‘rsatgan Xoja Ahmad Yassaviyning “Devoni hikmat”i dunyoga kelishi bilan turkiy xalqlar o‘zining mustaqil tariqat kitobiga, tom ma’nosi ila Ma’rifat, Haqiqat, Ruhoniyat qomusiga sohib millat o‘laroq e’tirof etilgan. Ahmad Yassaviydan keyingi turkiy xalqlarning tarixi – ma’naviy-axloqiy hayotda yangi yo‘nalish, yangi ilohiy nuqtayi nazar shakllangan, komil inson haqidagi tasavvurlar to‘la oydinlashgan tarix erur”¹. “Devoni Hikmat”da Rasululi akramga bag‘ishlangan, u zotning muborak siyratlari, axloqi, ko‘rsatgan mo‘jizalari hamda islomning ravnaqi yo‘lidagi mislsiz jasoratlari vasfiy hikmat na’tlarda vasf qilinsa, “Hikoyati me’roj”da me’roj voqeasi qalamga olinib, unda shoir me’roj bilan bog‘liq ruhiy-ma’naviy yuksalishni yuqori pardalarda kuylaydi.

Xudovandim ato qildi anga me’roj,
Rahmat bahri to‘lib-toshib urdi mavvoj,
Qo‘ydi ani boshi uzra “laamruk” toj,
Chin ummatsen, eshtib durud ayting, do‘stlar².

Ahmad Yassaviy hikmatlarida inson va uning yashashi, tom ma’noda komil inson bo‘lib shakllanishi uchun zarur yo‘l-yo‘riqlar ko‘rsatiladi. Shoirning bu masalani ko‘proq komil inson sifatlari bilan bog‘lab yoritishi, ayniqsa, nafshi malomat qilishga undashi, jumladan, komillikka intilgan odam, avvalo, nafsini jilovlashi, uni o‘ziga bo‘ysundirishi haqidagi fikrlari ustuvor. “Nafshi tepkil”, aks holda, seni “rasvo qilur”, “gumroh qilur” va oxir borib shaytonga “hamroh qilur” deb uqtiriladi hikmatlarda. Bu yo‘lda Muhammad sollallohu alayhi va sallamning

¹. Иброҳим Ҳаққул. Аҳмад Яссавий. – Тошкент: Фан, 2001. – Б. 63.

² Аҳмад Яссавий. Ҳикматлар. – Тошкент: Faafur Fулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1991. – Б. 208.

hayot yo‘li, insoniy sifatlari-yu qilgan amallari hamda sunnatlaridan o‘rnak olishi lozimligi uqtiriladi. Chunki inson Alloh buyurgan ishlarni qilib, qaytarganlaridan qaytib, Rasululloh o‘rgatganlariga tobe bo‘lib yashasa, yuksalib boraveradi, insonlar orasida azizligi ortaveradi. Bunday insonni nafaqat odamlar balki, butun koinot alqaydi. Ana shunday inson, shubhasiz, komil insondir.

Ahmad Yassaviy me’roj kechasini tasvirlar ekan, bir tomondan komillar komili uchun, uning tashrifi uchun Koinotdagi barcha jismlar, farishtalar-u maloyikalar mushtoqligini ko‘rsatsa, ikkinchi tomondan ijodkor o‘zining ushbu voqeaga cheksiz ehtiromini, adoqsiz mehrini bag‘ishlagan oshiq misol, me’roj bilan bog‘liq barcha voqea-hodisalarni katta hayajon bilan ta’riflab, kitobxonda ham mana shu tuyg‘ularni uyg‘otadi.

Keyingi – Oltin O‘rda davri adabiyotining asosiy janrlaridan bo‘lgan noma janridagi asarlarda ham Nabiy alayhissalom madhi muhim o‘rin tutadi. Jumladan, Xorazmiyning “Muhabbatnoma”, Xo‘jandiy “Latofatnoma”, Said Ahmad “Taashshuqnomma”, Yusuf Amiri “Dahnama”da madhlarga alohida e’tibor qaratganlar. Xorazmiy “Muhabbatnoma”ning kirish qismidagi bobda Allohga ham va payg‘ambarga maqtovlar aytish asnosida Rasulullohni shunday ta’riflaydi:

Muhammad anbiyoga shoh bo‘ldi,

Muhabbattin Habibulloh bo‘ldi.

Muhammaddin muhabbat bo‘ldi paydo,

Meni mundoq muhabbat qildi shaydo¹.

Adabiyotimiz tarixida ilk noma sanalgan ushbu asarda payg‘ambar madhi uchun alohida bob ajratilmagan bo‘lsa, Xo‘jandiy “Latofatnoma” o‘n uch baytni, Said Ahmad “Taashshuqnomma”da yetti baytni, Yusuf Amiri “Dahnama”da yigirma bir baytni na’tlar uchun ajratib, payg‘ambarni madh etadi. Dastlabki, nomalardagi na’tlar ta’rif-tavsifdan iborat bo‘lib, ularda, asosan, payg‘ambarning mo‘jizalari va buyuk payg‘ambarlik sifatlari ulug‘lanadi. Yusuf Amiri “Dahnama”da na’tga

¹ Ўзбек мумтоз адабиёти намуналари. II жилд. Тузувчи Н.Рахим. – Тошкент: Фан, 2007. – Б. 98. (Ушбу матн “Мұхаббатнома”нинг аввалги нашрларда учрамайды).

alohida e'tibor beradi. Asardagi dastlabki bobning o'n baytida vasf mazmunidagi baytlar kelsa, keyingi o'n bir bayt me'roj voqeasi talqiniga bag'ishlangan.

Bashorat berdikim: "Otlan ravona,
Kim anda muntazirdurlar jahona.
Bu to'qqiz hujradin oshmoq keraksen,
Maloik birla bulg'ashmoq keraksen".
Eshitgach Mustafo bo'ldi ravona,
Bo'libon "qabo qavsayni" nishonda¹.

Dastlab, Xorazmiy asarida umumiy madhlar ichida kelgan na'tlar, keyingi davr ijodkorlari asarlari tarkibida alohida – nabiy madhi va me'roj voqeasi bilan bog'liq boblar shaklida asar debochasidan mustahkam o'rin oldi.

Ushbu davrga mansub Nosiruddin Burhoniddin o'g'li Rabg'uziyning "Qisasi Rabg'uziy" asarida ana shunday tartiblash kuzatiladi. Muallif Rasulullohni "qutlug' yuzlig'", "laamruka tojlig'", "subhona allazi me'rojlig'", "ul o'zi muti'", "zikri rafi'" va "ummatic'a shafi'" kabi ko'plab sifatlar bilan maqtaydi. Ayni damda, o'z his-tuyg'usi va payg'ambar alayhissalomga bo'lgan muhabbatini yanada ishonchli, ta'sirli, mukammal bo'lishi uchun 6 baytdan iborat "Mustafo" radifli she'riy madhiya bitadi.

Din sha'riyat ro'yati oliy qilg'on Mustafo,
Kufri zulmat tug'larin yerga cholg'an Mustafo².

Asarda insoniyatning yaratilishidan toki payg'ambarimiz tug'ilishigacha bo'lgan tarixiy payg'ambarlar qissasi, Ul zotning dunyoga kelishi, payg'ambarlik faoliyati hamda islomning keng tarqalishi, bu yo'lda Sarvari koinot ko'rsatgan mislsiz jasoratlari Qur'on, hadis va folklor asosida bayon qilingan. Qissalarning dastlabki qismida ijodkor oldingi davr payg'ambarlariga oid qissalarni bayon etsa, keyingi qismni to'laligicha Sarvari koinot siyratiga bag'ishlaydi. Adib nabiy madhiga bag'ishlangan bobni "ul la'amruka **tojlig'**... kuntu nabiyyan va Adamu baynal-maii vat-tiynn **yoshlig'**, vaz-zuha **elinlig'**, val-layl iza saja **sochlig'**,

¹ Ўзбек мумтоз адабиёти намуналари. II жилд. Тузувчи Н.Рахим. – Тошкент: Фан, 2007. – Б. 187.

² Носируддин Рабгузий. Қисаси Рабгузий. Биринчи китоб. – Тошкент: Ёзувчи, 1990. – Б.10 .

yaquluna huva uzunun **quloglig**‘, fa ravhan va rayhanun **burunlig**, qad naro taqalluba vajhaka **yuzluk**, la ta’du aynaka **ko‘zluk** va ma yantiq-u anil-hava **so‘zluk**¹ kabi Rasululloh shakl-u shamoyili vasfi bilan boshlab, tavsifni lirik parcha bilan yakunlaydi. Oldingi nasriy tavsifda boshlangan Nabiy madhining davomi sifatida muallif “Na’t-u oxirun nabiy Alayhis-salom” nomli qirq to‘rt misradan iborat nazmiy parchada Muhammad sollallohu alayhi va sallam siyratiga doir qisqa-qisqa – tezis vazifasini bajaruvchi fikrlarini bayon qiladi. Bu kitobxonga payg‘ambar tarixi va faoliyati bilan bog‘liq eng muhim sanalarni esga olish, xotirlash imkonini bersa, ayni paytda, ushbu bobning siqiq tarhi sifatida kitobxonda keyingi voqealar haqidagi tasavvurlarni uyg‘otadi.

Insonlarga murojaat qilib, yaxshilikka undab, yomonlikni tark etishga chaqirar ekan, asar muallifi insoniyatning baxtli va saodatli yashashi uchun o‘rnak bo‘lgan yagona komil zot Rasululloh Muhammad sollallohu alayhi va sallam ekanligini alohida ta’kidlaydi. Qayta-qayta nasihat qilib, til uchida iymon deb, dilda boshqani tutmaslikni uqtiradi, yomon ishlarning oxiri “voy” ekanligidan qat’iy ogohlantiradi:

Man Muhammad ummatiman teyu yolg‘on so‘zlama,
Ne Ug‘on topug‘un qilursen, ne Rasulning sunnatin.

Shuningdek, payg‘ambar timsolida komil insonni “o‘zi to‘lun oy mengizlik yulduz erdi tegrasa”, deb tasvirlasa, “O‘zi Farshda, oti Arshda himmati andin adiz” kabi misralarda u zotning ma’naviy suratini chizadi. Insonlarga:

Fag‘islu aning amrini tut, hofizo‘ hukmin kezar,
Andin aning ummati bo‘l top sahoba suhbatin²,
deb nasihat qiladi. Komillikka intilgan har bir insonga zarur dastur amalni ko‘rsatib, bu yo‘lning to‘g‘ri va haqligini asoslash uchun Nabiy alayhissalomni o‘rnak qilib ko‘rsatadi.

Xullas, nubuvvat ma’rifatini o‘zida jamlagan payg‘ambar madhlari Alisher Navoiy davrigacha o‘zbek mumtoz adabiyotining barcha janrlariga moslashib,

¹ Носируддин Рабгузий. Қисаси Рабгузий. Иккинчи китоб. – Тошкент: Ёзувчи, 1991. – Б.100.

² Носируддин Рабгузий. Қисаси Рабгузий. Иккинчи китоб. – Тошкент: Ёзувчи, 1991. – Б. 101.

“tarixiy, memuar, biografik va esdalik xarakteridagi asarlar, dostonlar, lirik janrlar, g‘azal, qasida, qit‘a, masnaviy, soqiynoma va boshqa janrdagi asarlar silsilasining mavzuga doir”¹ ajralmas qismiga aylandi. Adabiy janr xilma-xilligini boyitgan na’tlar adabiyotda nubuvvat ma’rifati, islom falsafasi, tasavvuf ta’limotining mustahkam o‘rin olishida asosiy badiiy-estetik hodisa bo‘lib xizmat qildi. Ayni shu badiiy-estetik hodisa islom asoslarini adabiy g‘oyalar bilan uyg‘unligini ko‘rsatibgina qolmay, asrlar davomida insonni tarbiyalashda, ruh kamoloti va nafsni yengishda asosiy vosita sifatida xizmat qilib, ijodkorlarni yangi-yangi asarlarni yaratishga ilhomlantirib kelmoqda.

O‘z asarlarida inson kamolotini muhim masala sifatida badiiy talqin etgan Alisher Navoiy ijodida ham Rasululloh madhi muhim o‘rin tutadi. Shoир devonlarida ushbu mavzudagi o‘nlab g‘azallar mavjud bo‘lsa, dostonlarining har birida bu masalaga alohida e’tibor qaratilgan. Aytish mumkinki, Navoiyning har bir asarida nabiylar madhi, vasfi va u zot bilan bog‘liq tarixiy voqealar, jumladan, me’rojga alohida o‘rin ajratilgan. Dostonlaridagi muayyan boblarda shoир payg‘ambarning siyrati va ilohiy mo‘jizalarini maxsus badiiy tadqiq etib, o‘zining komil inson haqidagi adabiy-estetik va diniy-tasavvufiy qarashlarini talqin etishga yo‘l topadi. “Xamsa” dostonlarining muqaddima qismidan mustahkam o‘rin olgan ushbu boblarda Alisher Navoiy uchun u zotning buyukligi, yuksak sharafi va ulug‘ maqomi ta’rifini keltirish, avvalo, shoirlilik burchi va ummatlik vazifasi bo‘lsa, ikkinchidan, salaflarga munosib javob berish uchun yana bir sinov maydoni edi.

Turkiy adabiyotda payg‘ambarimiz Muhammad alayhissalomga Alisher Navoiydek ko‘p madhlar – na’tlar bitgan shoир bo‘lmasa kerak. Shu jihatdan, Navoiy na’t shoiri unvoniga loyiq shaxs sifatida e’tirof etiladi. Devon adabiyotidagi na’t she’rlarni o‘rgangan turk olimi Emina Yeniterzi shunday yozadi: “...Chig‘atoy adabiyotining eng yuqori pog‘onasiga ko‘tarilgan Alisher Navoiy o‘zining barcha devon va masnaviyatlari hamda nasriy asarlaridagi ko‘plab na’tlar bilan **na’t shoiri**

¹ Кобилов У. Нубувват ҳакиқати – бадиий ижод руҳи. – Самарқанд, 2021. – Б. 83.

unvoniga loyiq shaxs bo‘lganligi diqqatga sazavordir”¹. Nabiy madhi kuychisi hisoblangan Navoiy “Xamsa”ning barcha dostonlari muqaddimasida an’anaviy hamd va munojotlardan so‘ng shoir o‘z ideali, sevgan insoni – komillar komili payg‘ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi va sallamni vasf etadi.

Rasululloh insoniyatni to‘g‘ri – haq yo‘lga da’vat etarkan, avvalo, o‘zi o‘zgalarga namuna bo‘ldi, husn-u xulqdagi go‘zalligi, muomala odobi, din-u diyonati, hadislari va surat-u siyrati bilan barchani chin yo‘lga boshladи. Bunday zotlarni ulug‘lash, uning vasfini bitish bir tomondan, kitob bitish, uni tartiblash bilan bog‘liq talablar bo‘lsa, ikkinchi tomondan, bu vasflarni yozish jarayonida ijodkor o‘zini, dunyoni mukammalroq anglay boshlaydi va bu holatni boshdan kechirishni kitobxonga ham o‘tkazadi. Adabiyot tarixida juda ko‘plab sabablarga ko‘ra minglab na’tlar yozilgan. Hammasidan maqsad bitta – payg‘ambar shafoatiga erishish, bu orqali Allohga itoatda bo‘lib, uning jamoliga yetishishdir. Navoiy barcha masnaviyalarida Rasulullohni madh etarkan, dostonlarining har birida alohida vasf va me’roj na’tlarni bitadi. Jumladan, “Hayrat ul-abror” dostonida 173 bayt, “Farhod va Shirin” dostonida 103 bayt, “Layli va Majnun” dostonida 150 bayt, “Sab’ai sayyor” dostonida 142 bayt, “Saddi Iskandariy” dostonida 178 bayt, “Lison ut-tayr” dostonida 81 bayt vasf va me’roj na’tlari kiritilgan. Shoir hatto “Xamsa”sining yozilishida Rasululloh va uning ahli oilasi madad bergenini bir g‘azalida shunday e’tirof etadi:

Bo‘limg‘ay erdi tuyassar “Xamsa”, ya’ni panj ganj,

Qilmasa erdi madad holimg‘a besh oli abo.

“Alisher Navoiy “Saddi Iskandariy” dostonining muqaddima qismida bu masalaga maxsus to‘xtalib, “Xamsa”ning har bir dostoni yozilishini kunning ma’lum vaqtlarida o‘qiladigan sahar (fajr), peshin (zuhr), asr, shom va xufton namozlari bilan qiylas etadi hamda “Xamsa”ni buyuk tog‘ cho‘qqisiga ko‘tarilish

¹ Emine Yeniterzi. Divan Şiirinde Na’t. Doktora tezi. – Konya, 1989. – S. 53.

mobaynida besh o‘rinda to‘xtab, nafasni rostlash uchun bino etilgan besh oromgohga o‘xshatadi”¹.

Chiqar yo‘lida to‘rt oromgoh,
Beshinchisi maqsad biloishtiboh.
Har oromgohida yuz nav’ ranj,
Vale tutqach orom zimnida ganj².

Adabiyotshunos Ziyoda G‘afforova ma’lumotiga ko‘ra, “Xazoyin ul-maoniy”da shoirning jami 43 na’t g‘azali joy olgan. Ular devonlarda quyidagi miqdorda taqsimlangan: 1.“G‘aroyib us-sig‘ar”da 11 na’t g‘azal, shundan 6tasi – vasm, 5tasida esa me’roj talqini berilgan; “Navodir ush-shabob”da 7 na’t g‘azal, shundan 3tasi – vasm, 4tasida esa me’roj qalamga olingan, “Badoe’ ul-vasat”da 9 na’t g‘azal, shundan 6tasi – vasm, 3tasi me’roj mavzusiga bag‘ishlangan, “Favoyid ul-kibar”da 7 na’t g‘azal, shundan 4tasi – vasm, 3tasida me’roj tasvirlanadi”³.

“Shoirning na’t g‘azallarida, bir tomondan, payg‘ambarimizning hayoti, uning payg‘ambarlik faoliyati bilan bog‘liq voqeа-hodisalardan xabar topsak, ikkinchi tomondan va asosan, u zotga bo‘lgan munosabat – adoqsiz mehr-muhabbat, uning shafoatiga muyassar bo‘lish istagida yongan yurak evrilishlarining badiiy ifodasiga duch kelamiz. Bu turkum g‘azallarni yaratish shoirga nechog‘li ichki xotirjamlik, ruhiy quvvat baxsh etganini bir g‘azalida o‘zi shunday ifodalaydi:

Navoiy, nabiy na’tidin jam qilg‘il
Parishon esa xotiri xarzagarding ”⁴.

Alisher Navoiy ijodida Payg‘ambar siymosi juda ko‘p tavsif etilsa-da, shoir har bir janrdagi na’tga janrning xususiyatlari va talabidan kelib chiqib, alohida falsafiy-ma’rifiy funksiyalarni yuklaydi. Tiriklikning sababi, olamlarning asosi bo‘lgan nubuvvat ma’rifati mohiyati, Xoliqning sifatlari, vahdat xazinasi, ilohiy ishq

¹ Имомназаров М. Маънавиятнинг ривожланиш тарихи. Тошкент, 2008. – Б. 148.

² Alisher Navoiy. Saddi Iskandariy. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006. – В. 25.

³ Гаффорова З. Навоий наът ғазалларининг ўзига хос жиҳатлари// Ўзбек тили ва адабиёти. 2010 йил, №4, 45 б.

⁴ Муллахўжаева К. Алишер Навоий ғазалиётидаги тасаввуфий тимсол ва бадиий санъатлар уйғунлиги. – Тошкент: Akademnashr, 2019. – Б. 47.

talqini, tavhid g‘oyalari batafsil yoritilgan, badiiy tasvir vositalariga boy, boshqa kishilarga nasib etmagan Tangrining ehsoni – “Xamsa” fikrimiz dalilidir.

“Xamsa”dagi na’tlarga bag‘ishlangan muqaddima boblar ularga yuklangan vazifalar bois ulkan ahamiyat kasb etgan. “Xamsa” dostonlaridagi muqaddimalar, shu jumladan, na’tlar voqelikka shunchaki an’anaviy kirish bo‘lmay, balki dostonlardagi katta mazmunning ochqichi hamdir.

I BOB BO‘YICHA XULOSALAR

1. Na’tlarning ilk namunalari dastlab qadimgi arab adabiyotida vujudga kelgan. Bunda na’tlarga asos bo‘lgan madh mazmunidagi badiiy matnlarning, asosan, ikki xil turi kuzatiladi. Ularning birinchisi – o‘tmishda yashab o‘tgan yoki zamonaning buyuk kishilarini, shu jumladan, hukmdorlarni eslash, ulug‘lash mazmunidagi madhiya-qasidalar bo‘lsa, ikkinchi turkum madhlarda shoirlar turli munosabat bilan samimiyl do‘stlik, muhabbat va ezgulikka chorlovchi hikmatlarni ta’rif-tavsif etganlar. Islom ziyosi arablar e’tiqodi, turmush tarzi va axloqini qay darajada yuksaltirgan bo‘lsa, Payg‘ambarimizning madhida bitilgan na’tlar adabiyotni haqiqiy estetik ideal kuychisiga aylantirdi. Badiiy adabiyot o‘z ifoda shakllarini saqlagan holda, mazmun-mohiyatda butunlay yangilandi, haqiqiy ma’nodagi so‘z san’ati va insonshunoslikka aylandi. Komillik masalasi, komil inson vasfi adabiyotning bosh vazifasi o‘laroq, payg‘ambarni madh etish, unga muhabbat izhor qilish, ezgu fazilatlarini ulug‘lash shoirlarning oliy maqsadiga aylandi.

2. “Nabiyl madhi” degan umumiyl nomni olgan na’tlar, dastlab, arab adabiyotida, keyin forsiy adabiyotda, so‘ngra turkiy adabiyotda yaratila boshlandi. Arablarda na’tlar alohida madh janri sifatida shakllanib, Abdulloh ibn Ravoha, Hasson ibn Sobit, Ka’b ibn Molik kabi shoirlar arab adabiyotidagi eng go‘zal madhlarni bitdi. Forsiy adabiyotda Firdavsiy, Rumiy, Hoqoniy, Anvariyy, Ansoriy, Sheroziy, Iroqiy, Nizomiy, Attor, Dehlaviy, Jomiy va boshqa shoirlar o‘z asarlarida ushbu an’anani davom ettirdilar va na’tlarni g‘oyaviy-badiiy jihatdan yuksalishi yo‘lida xizmat qildilar.

3. Qur'on qissalari asosida ko'plab badiiy asarlar yaratila boshlandi. Hazrat Payg'ambar siyrati, tarjimayi holi, ijtimoiy-siyosiy faoliyati va hadislari asosida ko'plab asarlar bitildi, janrlar kashf qilindi. Ijodkorlar uchun alohida ilhombaxsh mavzuga aylangan na't o'z tabiatiga ko'ra barcha janrlarga moslasha oladigan mavzu sifatida hikmat, g'azal, qit'a, mustazod, qasida, musammat kabi lirik janrlarda barqarorlashdi, dostonlar (masnaviy) boblarida, she'riy parchalarda hamda nasriy asarlarning kirish boblarida mustahkam o'rin egalladi.

4. Masnaviylarda Payg'ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi va sallamning hayoti, payg'ambarlik faoliyati, insoniy sifatlari-yu qilgan barcha amallari keng yoritilgan vasflar, Rasulullohga berilgan buyuk in'om – me'roj va u bilan bog'liq voqealar-hodisalar alohida boblar sifatida odobi tasnif an'anasidan mustahkam o'rin oldi.

5. Turkiy adabiyotda bitilgan ilk na'tning namunasini Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" dostonida ko'rishimiz mumkin. Tabiatan didaktik xarakterdag'i ushbu bob mazmunan vasfiy na't hisoblanadi. Ahmad Yugnakiy va Ahmad Yassaviy ham o'z asarlarida payg'ambarimizga mutlaq komil inson sifatida qarab, komillik sifatlarini vasf etishga katta e'tibor qaratdilar. Na'tlarning mavzu va mazmun jihatidan boyishi, g'oyaviy-badiiy jihatidan takomillashuvi, yangi-yangi janrlarga moslasha oladigan mavzu sifatida taraqqiy etishiga katta hissa qo'shdilar. Yassaviyning turkiy tildagi ilk me'rojga bag'ishlangan "Hikoyati me'roj" hikmati ana shu katta hissaning buyuk natijasi o'laroq yaratildi.

6. Oltin O'rda davri adabiyoti vakillari nomalarida umumiy madhlar ichida kelgan na'tlar, temuriylar davriga kelib Xo'jandiy, Said Ahmadning nomalarida alohida boblar shaklida uchraydi. Na'tlarning bunday alohida boblar sifatida shakllanishi temuriylar davrida boshlanib, mazmuni, g'oyaviy-badiiy xususiyatlarining takomili Navoiy ijodida o'zining yuksak pog'onasiga ko'tarildi. Temuriylar davrigacha, asosan, didaktik xarakterga ega bo'lgan na'tlar, Navoiy ijodida shoirning adabiy-estetik, diniy-tasavvufiy va komil inson haqidagi qarashlarini belgilovchi asosiy omillardan biriga aylandi.

II. BOB. DOSTONLARDAGI VASF NA'TLARDA KOMIL INSON G'oyasi va uning badiiy talqini

2.1. VASF NA'TLARNING BADIY MAZMUNI

Alisher Navoiy dostonlarining har birida na'tlarni ikki masala doirasida alohida-alohida sarlavhalar, vASF va me'roj mavzusiga bog'lab taqdim etadi. Bunda shoir o'zigacha mavjud an'analar chambarida turib o'zining muhim fikrlarini aytishga muvaffaq bo'lgan. VASF na'tlarda payg'ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi va sallamning tarjimayi holi, ijtimoiy faoliyati, umuman olganda, Rasulullohga tegishli barcha shakliy, qavliy, xalqiy, xulqiy va fe'liy masala hamda sifatlar madh etilgan. Shoir o'zining komillik va komil inson haqidagi diniy-tasavvufiy, falsafiy-estetik qarashlarini san'atkorona bayon etib, har bir bobga alohida vazifani yuklaydi.

"Xamsa" tarkibidagi na'tlar garchi hammasi umumiyligi ma'noda Rasulullohni vASF etib, me'roj voqeasini badiiy tasvirlasa-da, ayni paytda, Navoiy har bir dostonda so'z yuritilayotgan mavzu tabiatiga uyg'un holda, na'tlarda ham alohida – o'ziga xos masalalar talqinini beradi.

Jumladan, "Hayrat ul-abror" yaxlit "Xamsa" uchun kengaytirilgan rejanoma bo'lish bilan birga, ilk bobidan boshlab, butun "buyuk beshlik"ka ishora qiladigan "xizr chashmasi"dir. Alisher Navoiy "Hayrat ul-abror" dostonida nabiy vasfi uchun to'rt na't bobni ajratgan. Ushbu vasfiy boblar mavzu ko'لامи, kompozitsion qurilishi, badiiyati hamda baytlarning miqdoriga (1-na't – 26 bayt; 2-na't 28 bayt; 3-na't – 32 bayt; 4-na't – 34 bayt) ko'ra bir masalaning turli jihatlarini yoritishda garchi xususiylikka ega bo'lsa-da, mazmunan Nabiy madhiga bag'ishlangan ushbu boblarning obrazlar tizimi va badiiy-tasviriy vositalari bir-birini to'ldiradigan, biri ikkinchisini talab qiladigan mantiqiy bog'langan umumiylikka ham ega. Ushbu boblarda Navoiy, bir tomondan, payg'ambarimizning islom dinini joriy etish yo'lidagi buyuk xizmatlari, payg'ambarlik sifatlari va faoliyatiga doir lavhalar, u zotning komil xulqi, fazilatlari, ularga yuborilgan mo'jizalar, xususan, me'roj

kechasi tasviri keng berilgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, ularda “shoirning Alloh, olam va odam haqidagi, koinotning sarvari Rasululloh haqidagi diniy-so‘fiyona bilimlari, qarashlari va tasavvurlari bilan uyg‘unlashib ketganligini ko‘ramiz”¹.

Mazkur dostonning besh bobini Rasululloh vasf-u madhiga bag‘ishlagan shoir, har bir na’t bobda muayyan g‘oyani badiiy talqin etadi. Har bir na’t yaratilishi, mavzu ko‘lami, g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari va mazmuniy joylashishiga ko‘ra ham o‘z tartibiga ega. Garchi na’t boblar yoritilayotgan mavzu va badiiy xususiyatlariga ko‘ra bir-biridan farq qilsa-da, ularning barchasini Rasulullohni ulug‘lash va u zotning buyuk shaxsiyati hamda ijodkorning u zotga bo‘lgan cheksiz muhabbatি birlashtirib turadi. Jumladan, komillar komiliga bag‘ishlangan na’t boblarning birinchisi – “**Avvalg‘i na’t**”da shoir u zotning nuri haqida xabar berib, olam yaralishi haqidagi o‘zining diniy-tasavvufiy qarashlari, inson va u bilan bog‘liq insonshunoslik masalalari, komillik hamda komil inson haqidagi tasavvurlarini bayon etadi.

“Ul hazratning nuri qadamiyatidakim zot bahrining avvalg‘i junbushida ul durri bebaho lam’asi xafo rishtasin uzdi va ul gavhari yakto ashi’asi lam’a ko‘rguzdi va durjdin durjg‘a intiqol etti to Safiyullohdin Abdullohg‘a yetti”² sarlavhasi bilan boshlangan **Avvalg‘i na’t**ni muallif “Haqiqatlar haqiqati” haqidagi xabar bilan boshlaydi.

Ey qilibon lam’ai nurung zuhur,
Andaki ne soya bor erdi, ne nur.
Nurunga tob ikki jahondin burun,
Harne yo‘q ondin burun, ondin burun³.

Navoiy dastlabki baytlardanoq, murakkab mazmun bilan aloqador tashbehlар, sifatlash-u o‘xshatishlar asosida misralar zimmasiga katta ma’nolarni yuklaydi. Ya’ni birinchi baytdanoq ilohiy nur – Payg‘ambarimiz nurlari haqida xabar berib, “u paytda **nur** – soya, **ma’rifat** – jaholat, yaxshi – yomon, yer – osmon degan narsalar

¹ Муллахўжаева К. Алишер Навоий ғазалиётида тасаввуфий тимсол ва бадиий санъатлар уйғунлиги. – Тошкент: Akademnashr, 2019. – Б. 47.

² Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006. – B. 27.

³ Yuqoridagi manba. – B. 27.

“zuhur” qilmagan, yuzaga chiqmagan, bularning barchasi Allohning o‘zida pinhon edi. Xoliqning ilk yaratig‘i Muhammad alayhissalomning nurlari bo‘lib, u o‘zida ma’rifat ummonini mujassam etgandi”¹. Ushbu baytlardagi **nur** va **soya** timsollari ziddiyati misralar ma’nosini ochishda kalit vazifasini o‘tasa, ayni tasvirlar kitobxonga Navoiy tafakkur olamining kengligi, diniy-falsafiy qarashlari quvvatini idrok etishga imkon beradi. Nuri Muhammadiy – dunyoning asosi. Shoir ushbu qarashlarini qabul qila olmaganlarga qarata shunday deydi:

Kimki munga da’viyi hujjat etar,
“Kuntu nabiyyan” anga hujjat yetar².

“Muhammadiy haqiqat” islomiy tasavvuf adabiyotida keyingi davrlarda paydo bo‘lgan istilohdir. Unga ko‘ra, Nabiy sollallohu alayhi va sallam nurdan yaratilgandirlar, u zotning nuroniy haqiqati ruhoniy maxluqotlar ichidagi ilk mavjudotdir. Uning nuridan dunyo va oxirat yaratilgan. U nur hayotning asli hamda barcha borliq, dunyoviy va uxroviy mavjudotlarda sizib yuradi”³.

“Sharq xalqlari badiiy adabiyotida bu haqda turli qarash va talqinlar mavjud bo‘lib, ularda “nur” mohiyatan yaratilish ibtidosi deb baholanadi. Hatto, “nur” farishtalardan oldin yaratilganligi darj etiladi”⁴. Bir rivoyatda keltirilishicha, kunlardan bir kuni Jabroil alayhissalom Muhammad alayhissalomning oldiga tashrif buyuradi. Muhammad alayhissalom o‘rnidan ham turmaydi. Jabroil: “Nega o‘rningdan turmading yoki meni kelishimdan bezor bo‘ldingmi?” - deydi. Muhammad alayhissalom: “Ayt-chi, odobga binoan yoshi ulug‘ turadimi yoki yoshi kichik?” - deydi. Jabroil: “Albatta, yoshi kichiklar turishi kerak”, - deydi. Muhammad alayhissalom: “Unda oldin sen izzat ko‘rsatishing kerak ekan”, - deydi. Jabroil sababini so‘raydi. Shunda Sarvari koinot Ruh-ul amindan yaratilgan paytda Arshga osilgan “nur” haqida so‘raydi. Jabroil tasdiqlag‘ach, Sarvari koinot yana so‘raydi: “Agar ana shu nurni yana ko‘rsang, taniysanmi?” Jabroil alayhissalom:

¹ Jo‘raqulov U. “Hayrat ul-abror”da na’t // Alisher Navoiy va XXI asr. Xalqaro ilmiy-nazariy anjuman materiallari. – Toshkent, 2020. – B. 79.

² Yuqoridagi manba. – B. 27.

³ Саййид Жаъфар ибн Ҳасан Барзанжий. Мавлид. Таржима ва шархлар муаллифи Ҳасанхон Яҳё Абдулмажид. – Тошкент: “HIOL-NASHR” нашриёти, 2015. – Б. 82.

⁴ Кобилов У. Нукуват ҳакиқати – бадиий ижод руҳи. – Самарқанд, 2021. – Б. 172.

“Ha”, – deydi. Shundan Muhammad alayhissalom tirkonig‘idagi “nur”ni ko‘rsatadi. Jabroil ko‘radiki, bu o‘sha Arshda osilib turgan nur edi. Muhammad alayhissalom: “O‘sha Arshda osilib turgan nur men edim”, - deydi. Jabroil o‘rnidan turib Muhammad sollallohu alayhi va sallamni ulug‘laydi¹.

Ikkinchi na’tda Sarvari koinotning bolalik yillari, dastlabki hayot tarzi, shuningdek, payg‘ambarlik sifati berilgunga qadar o‘tgan davr voqeа-hodisalari badiiy tasvirlangan. **Uchinchi na’tda** payg‘ambarlikning dastlabki yillarini qalamga olgan Navoiy, Rasulullohning islomni yoyish, odamlarni haqqa da’vat etish, haqiqat va iymon yo‘lida tortgan azob-uqubatlari, ko‘rsatgan mo‘jizalarini tasvirlasa, **to‘rtinchi na’tda** komil jamiyatning barpo bo‘lishi, Nabiy alayhissalomning payg‘ambarlik va insoniy sifatlari madhi, sahabalar vasfi, haqning g‘alabasi va dunyodaadolatning o‘rnatalishi bayon qilingan. Ko‘plab qalam ahlining ilhom manbayi bo‘lgan Me’roj kechasi va u bilan bog‘liq mo‘jizaviy hodisalar **beshinchi na’tda** batafsil yoritiladi. Ushbu boblarda shoir payg‘ambarimiz hayotini “tarixiy-biografik yo‘sinda besh na’t doirasida qayta hikoyalab, har bir na’t doirasida komil odamga xos aniq konsepsiyanı ilgari surishga”² muvaffaq bo‘lgan.

Mazkur besh bobda fikrlar ijodkorning keyingi dostonlardagi falsafiy, diniytasavvufiy qarashlarini o‘rganishda, dostonlar mohiyatini anglash va shoir ilgari surgan g‘oyalarni tushunish hamda shoir poetik mahoratini tahlil qilishda kalit vazifasini o‘taydi.

Irfon, ishq va komillikka yetish yo‘lidagi kurash – nafsn yengish, ilm olish va hunar egallah kabi muhim sifatlar targ‘ibi va talqiniga bag‘ishlangan “shavq dostoni” – “Farhod va Shirin”da nabiy madhi uchun ikki bob – 35 bayt vasf va 68 bayt me’roj – jami 103 bayt ajratilgan. Nabiullohning komil xulqi ta’rifiga bag‘ishlangan dostonning uchinchi bob – vasf na’t “Ul quyosh ruxsori vasfidakim, tun kibi gisu quyoshig‘a soya soldi va “Vash-shams” bila “Val-layl” surasini aning yuz quyoshi bila zulfi tuniga o‘xshatilg‘onidin har biri bir biyik poya oldi, agarchi ul

¹ Ибн Касир. Рассказы о пророках (Кисас ул-анбиё). – Москва: Умма, 2012. – С. 987.

² Jo‘raqulov U. “Hayrat ul-abror”da na’t // Alisher Navoiy va XXI asr. Xalqaro ilmiy-nazariy anjuman materiallari. – Toshkent, 2020. – B. 79.

quyoshqa soya yo‘q erdi va ul kechaga manzil quyosh ustida-o‘q erdi. “Va sallallohu alo shamsi jamolihi va zilli kamolihi”¹ sarlavhasi bilan boshlanadi. Sarlavha – asarning siqiq mazmuni va u shoirga alohida mas’uliyat yuklaydi. Chunki, sarlavhani shakllantirishdagi eng qiyin vazifa, bu – muallifning ko‘zlagan adabiy maqsadini yangi ifodalar orqali qisqa jumlalarda ko‘rsatib berishdir. Alisher Navoiy barcha asarlarida “katta mehnat va mahorat bilan kichik bir sarlavhani o‘sha bob mazmuniga ham, butun asardan ko‘zlangan maqsad va mavzuga ham muvofiqlashtirishga intiladi” hamda “sarlavhaga axborot berishdan tashqari, mazmunni yangicha obrazli ifodalash, estetik zavq berish, badiiy mahoratni ko‘rsatish singari funksiyalarni yuklaydi”². Odatda, asosiy g‘oyani sarlavhadan boshlaydigan Navoiy, bobning ilk jumlasidanoq, Rasululloh sollallohu alayhi va sallamning komil xalqlari – shakl-u shamoyili, tashqi ko‘rinishlari vasfiga oid poetik informatsiyani beradi. “Ul quyosh ruxsori vasfidakim, tun kibi gisu quyoshg‘a soya soldi...” jumlesi surlavhadagi asosiy tezis bo‘lib, **quyosh, tun, soya** obrazlari tanosubida bobdagi muhim fikrlar badiiy talqin etiladi. Komillar komilining yuzini quyoshga, sochining qorasini tunga o‘xshatgan Navoiy u zotning go‘zalligini “Vash-shams bila Val-layl” suralariga mengzaydi.

Ushbu suralarda Alloh taolo quyosh va uning ziyosi, uning ortidan kelgan oy, quyoshni ravshan ko‘rsatgan nahor va uni qoplagan tun, osmonlarning bino qilinishi-yu yer va uning to‘shalishi hamda nafs va uning mukammal qilinishi bilan qasam ichadi. “Bunda, avvalo, qasam ichiladigan narsalarga e’tibor tortish bilan bir qatorda, ularning ketidan zikr qilinadigan xususiyatlariga ham e’tiborni tortish qasd qilingandir... Bu bilan inson, Alloh taologa taqvo qilsa, najot topishi, tug‘yon va isyonga ketsa, ziyonga uchrashi ta’kidlanadi”³. Ayni paytda, “Alloh taoloning shuncha narsalar bilan qasam ichishidan maqsad – ulardan keyin keladigan masala, ya’ni inson nafsining pok bo‘lishiga e’tiborni tortish, uning ahamiyatini

¹ Alisher Navoiy. Farhod va Shirin. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006. – B. 12.

² Испоилов И. Алишер Навоий “Садди Искандарий” достони қиёсий таҳлили. PhD дисс. – Ташкент, 2019. – Б. 44.

³ Шайх Мухаммад Содик Мухаммад Юсуф. Тафсири ҳилол. Олти жуз. Олтинчи жуз. – Ташкент: “Sharq”, 2008. – Б. 640.

orttirishdir”¹. Suralarning keyingi oyatlarida insonlar nafsning ikki yo‘li: fujur va taqvo haqida ogohlantirilib, yaxshilik va yomonlik orasi aniq ko‘rsatiladi. Yuqoridagilarga amal qilganlar esa, “Batahqiq, kim u (nafs)ni poklasa, yutuqqa erishi”²shi uqtiriladi.

Navoiy ushbu nozik ma’nolar orqali dostondagi asosiy masala – komillik yo‘lidagi Farhod bilan nafs yo‘lida andarmon Xusrav orasidagi azaliy kurashga ishora qiladi.

“Layli va Majnun”dagi vasf bobni shoir “Ul risolat sipehrining quyoshi” deb boshlarkan, olamni zulmatdan nurga, insonlarni kufrdan iymonga yetaklagan Nabiy alayhissalomni “Kash-shamsi nisfunnahor”³ deb ta’riflaydi. Ya’ni, ushbu bobda shoir komillar komilining payg‘ambarlik maqomi hamda buyuk va betakror fazilatlariga to‘xtaladi.

Ey rif’ating ollida falak past,
Ummatlaring anbiyog‘a hamdast.
Olamda isolating navidi,
Odamg‘a shafoating umidi⁴.

Garchi ummiy bo‘lsa-da, “kalomi mo‘jiz” sohibi, ilmi laduniy egasi ekanligi, ilm ahli esa, uning oldida “kalomi o‘jiz” maktab o‘quvchilaridek bo‘lganligini shunday tasvirlaydi:

Ey ilm sanga laduni anjom,
Maktab sori ranja aylamay gom.
Ollingda vale kelib muaddab,
Ilm ahli nechukki, tifli maktab.

“U zotga Alloh taolo purma’no so‘zlar, xislatli hikmatlar, balog‘atli va’z-nasihatlar bilan xitob qilish iste’dodi, muhkam (aniq, ishonarli, qat’iy – ta’kid bizniki. F.I.) dalillar bilan uzil-kesil hukm chiqarish mahoratini ato qilgan edi.

¹ Шайх Муҳаммад Содик Муҳаммад Юсуф. Тафсири ҳилол. Олти жуз. Олтинчи жуз. – Тошкент: “Sharq”, 2008. – В. 595.

² Yuqoridagi manba. – В. 595.

³ Навоий А. МАТ. 20 томлик. Т.9. – Тошкент: Фан, 1992. – Б. 15.

⁴ Yuqoridagi manba. – В. 15.

Payg‘ambar alayhissalom shunday marhamat qilganlar: “Men ummiy (o‘qish-yozishni o‘rganmagan) payg‘ambar – Muhammadman (buni uch marta aytganlar), mendan keyin birorta payg‘ambar bo‘lmaydi. Menga kalomning boshi-yu oxiri va javome’lari ato qilindi. Boshqa bir rivoyatda kelishicha, Rasululloh sollallohu alayhi va sallam minbarda turib: “Ey insonlar! Menga purma’no so‘zlar va ularning xotimalari ato etilib, men uchun juda muxtasar qilindi”¹, - deganlar.

Vah-vah, ne kalomi mu’jizoyin,

Yo‘q o‘yla rusulg‘a hargizoyin.

Ahkomi bila jahon nizomi,

Nazmi iki olam intizomi²

Ya’ni, qalam ushlagagan bo‘lsa-da, mo‘jiz kalomi bilan xalqni haqqa yo‘llab, olam tartibini izga solib, ikki jahonda intizomga o‘rnatganini ta’kidlaydi. Ul zotning har bir so‘zini qadrlab, baxt-saodatga erishish va komili mutlaq bo‘lish uchun:

Ey zumrayi anbiyo shafii,

Olam eli buyrug‘ung mutii.

Buyrug‘laring elga qarz yanglig‘,

Sunnatlarining elga farz yanglig‘ –

deya itoat etib, chin qalbdan muhabbat bilan ergashish lozimligini uqtiradi. Nabiy ma’rifatini o‘zida aks ettirgan ushbu bobda Rasulullohning ham buyuk insoniy xulqlari, ham payg‘ambarlik sifatlari madh etilib, o‘zining kamoloti nuri bilan Mashriqdan Mag‘ribgacha barchani Quyosh kabi yoritib, kufr va jaholat uzra islam shamini manguga yoqishini “ishq yo‘lida erkiga qarshi bo‘lgan hamma to‘sinqi chetga uloqtirib tashlashga jahd”³ qilgan oshiqlar shohi Majnun qismatiga mengzash mumkin.

Yettiliklar asosiga qurilgan “Sab’ai sayyor” dostoniga Alisher Navoiy qadimiyligi Eron shohi Bahrom Go‘r bilan bog‘liq afsonalarni asos qilib olgan. O‘zining kuchli romantik qarashlari va jozibador tashbehlari zaminiga avvalgi ikki

¹ Сайид Мухаммад Ҳасаний. Икки олам сарвари. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2019. – Б. 67-68.

² Alisher Navoiy. Layli va Majnun. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2020. – B. 16.

³ Ҳаккулов И. Навоийга қайтиш 4. – Тошкент: “TAFAKKUR” нашриёти, 2021. – Б. 227.

dostondan farqli o‘laroq, insoniy muhabbatni asos qilib olgan shoir bu ishqiy sarguzashtlar qolipi vositasida o‘zining davlat boshqaruvi, shaxsiy manfaat hamda ijtimoiy adolat haqidagi fikrlarini aytishga muvaffaq bo‘ladi, ijtimoiy-siyosiy, axloqiy-maishiy va boshqa dolzarb masalalarni ko‘tarib chiqadi, dostondagি asosiy mavzuning bayoni asnosida ularning yechimini ham ko‘rsatib beradi. Aynan davlatning boshqaruvi va ijtimoiy adolat, shohning xulq-atvori va raiyatga munosabati haqidagi tasvirlar dostonning debochasiдagi “Ul shohi risolatpanoh na’tikim, “lavloka” livoyi bila “ana afsahu” alifi aning sipohi davlatig‘a live keldi, “va mo tag‘o” to va g‘ayni bila “asro” rosi aning misoli subutig‘a tug‘ro va ul misolda ikki olam saltanati mubayyan va ul misol yuzi mehri nubuvvat bila muzayyan” na’t bilan hamohang”¹.

Bob boshlanmasidagi ilk so‘zlaridanoq, ijodkor masalani ko‘ndalang qo‘yib, payg‘ambarlar shohi, ikki olam sababchisi – Sarvari koinotning barcha zamonlar uchun ideal shoh,adolatli hukmdor sifatida o‘rnak ekanliklarini madh etadi. Buning isboti sifatida “lavlok”² va “ana afsah”³ hadislari hamda Kalomi sharifning “Isro” va “Najm”⁴ suralaridagi oyatlar dalil qilinadi. Bobni Rasulullohga salom yo‘llash va cheksiz hurmat va muhabbatini izhor qilishdan boshlagan Navoiy, u zotning nasabiyu zoti, oilasi, qabilasi-yu urug‘i, tug‘ilgan yurti, manzili – barchasini yoddan chiqarmaydi. Nur bo‘lib kelib, dunyoni nurga to‘ldirgani, ikki dunyo sohibi ekanligini tantanavor ruhda bayon etadi:

Olam ahli raiyatting bo‘lubon,
Borig‘a din vasiyatting bo‘lubon.
Bu raiyatqa rahmat aylab Iloh,
Kim, berib boshlarig‘a sen kibi shoh⁵.

¹ Alisher Navoiy. Sab’ai sayyor. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006. – B. 13.

² Lavlok - Lavlaka lama xalaq tul-aflaak, - ya’ni, Sen bo‘Imaganingda men falaklarni yaratmagan bo‘lardim. Hadis.

³ Ana afsah – ana afsahu Quroyshin kullaho va afsahuha ba’diy Abbon ibn Said ibn Oss,- ya’ni, Men Qurayshning eng fasih so‘zlovchisiman, so‘ngra sahabalarimdan Abbon ibn Said ibn Ossdir. Hadis.

⁴ Va mo tag‘o – Ma zog‘al basaru va ma tog‘o, - ya’ni, nigoh burilmadi ham, haddidan oshmadi ham. Najm surasi 17-oyat.

⁵ Alisher Navoiy. Sab’ai sayyor. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006. – B. 14.

Alloh taolo Qur’oni Karimning “Anbiyo” surasi 107-oyatida shunday marhamat qiladi: “(Ey Muhammad,) Biz sizni (butun) olamlarga ayni rahmat qilib yuborganmiz”¹. Darhaqiqat, Rasululloh sollallohu alayhi va sallam barcha olamlar – farishtalar, jinlar, insonlar, hayvonot, o’simliklar, jonsiz narsalar olamiga, xullas, jamiki maxluqotlarga rahmat bo‘lib kelganlar. Olamlarga rahmat bo‘lish bilan birga, qo‘l ostidagilar – ja’mi ummatlariga ham mehribon va o‘ta rahm-shafqatli zot ekanliklari haqida Qur’oni Karimning “Tavba” surasi 128-oyatida Alloh taolo shunday marhamat qiladi: “Batahqiq, sizlarga o‘zingizdan bo‘lgan, sizning(saodatga yetishishingizga) tashna, mo‘minlarga marhamatli, mehribon bo‘lgan Payg‘ambar keldi”². Yuqoridagi misralar orqali shoir Bahromning fojiali qismatidan ogoh etib, odamlar orasida bugun o‘z qimmatini yo‘qotib borayotgan silayi rahm, hayo, mehr-muhabbat tuyg‘ulari inson komoloti uchun naqadar zarurligini uqtiradi.

Dunyo xalqlari tarixida muhim o‘rin tutgan, madhida minglab asarlar yozilgan, ko‘plab tortishuv va munozaralarga sabab bo‘lib kelayotgan Iskandarning faoliyati, uning jahongirligi, donishmand va hakimligi yoritilgan yakunlovchi – beshinchи dostonda o‘zining shohlik, ijtimoiy adolat va komillik hamda mukammal jamiyat haqidagi falsafiy, ijtimoiy-siyosiy, axloqiy-tasavvufiy qarashlarini bayon etgan Navoiy Iskandar obrazining mukammal bo‘lishini istab, salaflardan farqli ravishda, uning ham hukmdor, ham hakim, ham jangovor sarkarda sifatidagi xususiyatlarini ta’rif-u tavsif etgan.

Hayoti ibrat, ko‘rsatgan yo‘li yashash tarzi, o‘rgatgan ta’limoti hayotiy e’tiqod bo‘lgan buyuk zot, komillik timsoli – Hazrati Muhammad alayhissalom Navoiy uchun ideal edi. Har bir dostonda nabiy madhiga bag‘ishlangan na’tlarni yaratishga jiddiy mas’uliyat bilan yondashgan shoirning “Saddi Iskandariy” dostonida mas’uliyati yana ham ortadi. Ham dostonlarning, ham payg‘ambar madhining yakunlovchi xarakterdagi ushbu doston va undagi na’t boblar hajman,

¹ Abdulaziz Mansur. Qur’oni karim ma’nolar tarjiması. – Toshkent: “Sharq”, 2004. – B. 216.

² Шайх Мухаммад Содик Мухаммад Юсуф. Қуръони Карим ва ўзбек тилидаги таржимаси. – Тошкент: “Sharq”, 2011. – Б. 207.

shaklan hamda mazmunan salmoqliligi, boy poetik tasvir vositalariga ega badiiy mazmuni bilan ham alohida ajralib turadi.

Zihi anbiyo xaylining sarvari,
Boshing uzra sarxaylliq gavhari.
Demay anbiyo qavmu xayling sening,
Bori ofarinish tufayling sening¹

baytlari bilan boshlanadigan ushbu bob “Ul Rasuli amin na’tikim, risolat xutbasida muborak alqobi sayyid ul-mursalin keldi va ul shafe’ ul-muzannibin vasfikim, humoyun sifoti “Va mo arsalnoka illo rahmatan lil-olamin” yozildi, “alayhi afzal us-salavot va akmal ut-tahiyot”² sarlavhasidayoq shoir Sarvari koinotning muborak nomlari “Sayid ul-mursalin”, “shafe’ ul-muzannibin” va “rahmatan lil-olamin” sifatlarini esga olib, doston umumiy mazmuniga o‘ziga xos ishoralar beradi. Navoiy Iskandarning ham hukmdor, ham hakim, ham jangovor sarkarda sifatidagi ta’rif-u tavsif etarkan, Rasululloh siyratidan ilhomlangan undan ta’sirlanganini ushbu bobda ko‘rishimiz mumkin.

Dostonning tabiatiga xos jangovorlik va tantanavorlik ruhi ustunlik qilgan ushbu bobda ham shoir Rasulullohning payg‘ambarlik, hukmdorlik va mohir qo‘mondonliklariga katta urg‘u bergen. “Aytgin: “Allohim! Barcha podshohlikning egasi! Xohlagan kishingga podshohlik berursan va xohlagan kishingdan podshohlikni tortib olursan, xohlagan kishingni aziz qilursan, xohlagan kishingni xor qilursan. Barcha yaxshilik Sening qo‘lingda. Albatta, Sen har bir narsaga o‘ta qodirsan”³(Oli Imron surasi 26-oyat).

Yuqoridagi oyatlarning nozil bo‘lishiga sabab bo‘lgan voqeа haqida Shayx Muhammadjon Rustam o‘g‘li shunday yozadi: “Vaqtiki, munofiqlar ta’na qilib

¹ Alisher Navoiy. Saddi Iskandariy. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006. – B. 14.

² Yuqoridagi manba. – B. 14.

³ Шайх Мухаммад Содик Мухаммад Юсуф. Тафсири хилол. Олти жуз. Биринчи жуз. – Тошкент: “Sharq”, 2008. – Б. 640.

aytdilarki: “Muhammad Makka mushriklaridan qo‘rqib, Madina atrofiga xandaq kovlaydi. “Eron va Rumni olaman”, – deb da’vo qiladi”¹.

Oyatning nozil bo‘lishiga sabab bo‘lgan Xandaq (Ahzob – guruhlar urushi deb ham nomlanadi) urushi islom tarixida juda katta ahamiyatga ega edi. Makka mushriklarining kutilmaganda Madinaga urush qilishlari haqidagi xabar ham lashkar, ham urushga tayyorgarlik jihatidan kuchsiz bo‘lgan madinaliklarni ochiq maydonda jang qilishdan ko‘ra, shaharni mudofaa qilishga kirishishga majbur qildi. Salmon Forsiy taklifi bilan arablarda kuzatilmagan himoya xandag‘i qazildi. Xandaq qazish ishlari juda issiq va qumli, toshloq joyda bir necha kun tinimsiz, qattiq azob bilan davom etdi. Ushbu mashaqqatli ishga boshchilik qilgan Rasululloh sollallohu alayhi va sallam sahabalar bilan birgalikda ishladi, yer qazidi, tuproq tashidi. Ular bilan birgalikda barcha qiyinchiliklarni boshidan o‘tkazdi.

Imom Buxoriy Baro ibn Ozibdan rivoyat qiladi: “Men Rasululloh sollallohu alayhi va sallam xandaq tuprog‘ini tashiyotganlarini ko‘rdim, qorinlarining terisi changdan ko‘rinmay ketgan edi... Abu Tolha aytadi: “Biz Rasululloh sollallohu alayhi va sallamga ochlikdan shikoyat qilib, qorinlarimizga bittadan tosh bog‘lab oqanimizni ko‘rsatdik. Shunda u zot qorinlarini ochdilar, qarasak ikkita tosh bog‘lab olgan ekanlar”².

U Zotning ushbu urushdagi siyratlarida nazar tashlasak, “Rasululloh sollallohu alayhi va sallam xandaq qazishda musulmonlarga buyurib qo‘yib, o‘zлari baland qasrlarda o‘tirmadilar... Balki sahabalar bilan barobar ishga kirishib ketdilar, ust-boshlari changga belandi. Bu vaqtda ul zotni oddiy kishilardan ajratib bo‘lmassi. Sahobalar bir-birini g‘ayratlantirish uchun she’rlar o‘qishsa, ul zot ham ular bilan birga o‘qir edilar, ularning ichida eng qiyinalgani va och qolgani Rasululloh sollallohu alayhi va sallam”³ edilar. Insonlarning barchasi Allohning huzurida teng ekanligi, hukmdorlar barcha hukmi ostidagi insonlar uchun doimo ibrat bo‘lishi

¹ Шайх Мухаммаджон Рустам ўғли. Куръони Карим оятлари маъноларининг изоҳли таржимаси. – Тошкент: “MUNIR” нашириёти, 2022. – Б. 86.

² Сафиюраҳмон Муборакфурий. АР-РАХИҚУЛ АЛ-МАҲТУМ (муҳрланган жаннат шароби). Расулуллоҳ соллаллоҳу алайҳи вассаллаҳ сийратлари. – Самарқанд: Имом Бухорий маркази, 2019. – Б. 300.

³ Шайх Мухаммад Саид Рамозон Бутий. Сийратни англаш. – Тошкент: “Sharq”, 2020. – Б. 266.

Payg‘ambarimiz alayhissalom va Ul zotning muborak siyratlari misolida ko‘rsatilib, doston voqealariga ishora qilinadi. Aynan Iskandarning qo‘l ostidagilarga munosabati va devor qurilish lavhasi fikrimiz isbotidir. Chunki Navoiy ham “Iskandarni hukmdorlikdan tashqari, valiy, tabiat hikmat bilan oshno, qolaversa, nubuvvat chirog‘i ko‘zini yoritgan zot deb tasavvur qilgan”¹.

O‘zining barcha dostonlaridagi an’anasiga sodiq qolgan Foniy umrining so‘nggi yillarida yozilgan tasavvufiy-falsafiy dostoni “Lison ut-tayr”da ham Komillar komilini vasf va me’rojlarda madh etadi. Doston muqaddima boblaridan o‘rin olgan “Bu nomig‘a Saidul-mursalin na’ti bila tug‘ro tuzmak va shafi’ul-muzannibin madhi bilan ziynat ko‘rguzmak” nomli uchinchi bob 28 baytdan iborat bo‘lib, boshqa dostonlardagi na’tlardan farqli o‘laroq, ushbu vasf bobda Navoiy Rasululloh sollallohu alayhi va sallamning nur ko‘rinishidagi paytidan dunyoning yaratilishi, barcha maxluqlarning xalq qilinishi, Muborak nurni Odamda zuhur qilishi, Ul zotdan Havvoga, undan Shisga, undan esa avloddan-avlodga o‘tib Abdullohga yetib kelganini tasvirlaydi:

Ulki Odamdin burun ul bor edi,
Ham Nabi ham sohibi asror edi...
Be nihoyat yil topib haqdin nazar,
Toki haq mavjud qildi Bulbashar.
Bulbashar ruxsori chun tutti jamol,
Kavkabi ul nurdin topti kamol.
Chunki ul Havvog‘a bo‘ldi mutaqil,
Jabhasidin mehr erdi munfail.
Shisning topti vujudi chun vuqu‘.
Ul quyosh qildi jabinidin tulu‘.
Bordi ondin mahrami dilbandig‘a,
Ondin o‘ldi mutaqil farzandig‘a...
Bir-biriga bu sifat tekurdilar,

¹ Ismoilov I. Navoiy ijodida Iskandar talqinlari. –Toshkent: BAYOZ, 2020. – B. 121.

Toki Abdullohg‘a topshurdilar.¹

Talmeh san’ati vositasida Navoiy har bir baytlarga olam-olam ma’nolarni joylab, ushbu ma’nolar bilan bog‘liq islom tarixidagi voqealar, qahramonlar, joy nomlarini esga olish vositasida tarixga, insoniyat o‘tmishiga san’atkorona nazar tashlaydi. Insonni o‘ylashga, fikrlashga va tafakkur qilishga majbur qiladi. Bobning dastlabki 13 bayti oldingi zamon tasviri bilan bog‘liq bo‘lsa, keyingi baytlar yangi dunyo – u zotning “orazida” “nubuvvat nuri fosh” bo‘lishi, islomning tarqalishi va haqning qaror topishi va bu yo‘ldagi payg‘ambarimizning mislsiz jasoratlari tasvirlanadi. Doston tabiatidan kelib chiqib, Navoiy Haqni tanish va unga yetishish uchun Haqda bo‘lish hamda uning yo‘lida yurish lozimligini uqtiradi. Haqni tanish uchun inson, avvalo, uning “chorasi Rasuli akram sollallohu alayhi va sallamning “Nafsini bilgan Robbini bilur” hadislarining mag‘zini chaqish, nafsga taslim bo‘lmaslikda Haq madad tilash”², bu yo‘lda Nabiy alayhissalom siyratiga ergashish eng to‘g‘ri yo‘l ekanligini ta’kidlaydi. Doston so‘ngida qushlar bir qancha dovonlar osha ming xil azoblar chekib, o‘zini tanib haqni topganidek, bu yo‘lga otlangan solik ham mudom qalbini poklab, zohir-u botinda go‘zallikni, barkamollikni qasd qilib, surat-u siyratda Rasulullohga ergashsa, komillik maqomiga erishishi ko‘rsatiladi. Natijada qushlar kabi solik ham haqqa erishgan, moddiy dunyoning tuzoqlaridan qutulgan, ilohiy ishq sharobidan ichgan ozod va hur insonga aylanishi tasvirlanadi.

2.2. Komil xulq tasvirida timsol va badiiy san’atlar tanosubi

“Hayrat ul-abror” yaxlit “Xamsa” uchun kengaytirilgan rejanoma bo‘lish bilan birga, o‘sha nodir ma’naviy xazinada badiiy talqinini topgan son-sanoqsiz mavzular mohiyatini chuqur anglash yo‘lini ochadigan kalit”³ vazifasini o‘taganidek, ushbu dostondagi na’t boblar keyingi dostondagi na’tlar mazmunini ochishga yordam beradi.

¹ Алишер Навоий. Лисон ут-тайр. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2019. – Б. 10.

² Ҳаккулов И. Навоийга қайтиш 4. – Тошкент: “TAFAKKUR” нашриёти, 2021. – Б. 102.

³ Вохидов Р. Алишер Навоий ва илоҳиёт. – Бухоро: Наврӯз, 1994. – Б. 45.

Payg‘ambarimiz nurlari – Nuri Muhammadiy va Odam Atoning dunyoga kelish tarixi badiiy tasviri bilan boshlangan “Avvalg‘i na’t”da, shoir bashariyat tarixidagi juda katta davrni aniq, ixcham va ishonarli tarzda dalillarga tayanib, realistik tarzda tasvirlaydi. Zamon-makon munosabatiga ko‘ra ushbu bobdagi voqeа-hodisani mazmun-mohiyatiga ko‘ra quyidagicha tasniflash mumkin:

1. **Eng qadimgi davr** – butun koinot, olamlar va odam yaratilgungacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi.
2. **Qadimgi davr** – Olamlar va odamning yaratilishi hamda yer yuzida insoniyatning ko‘payishidan toki saodat asrigacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi.
3. **Yangi davr** – ya’ni payg‘ambarimizning tug‘ilishlari bilan boshlangan davr.

Muallif eng qadimgi davrni tasvirlashga kirishar ekan, poetik mahoratini ko‘rsatib, to‘g‘ridan-to‘g‘ri ushbu bobda yoritilishi kerak bo‘lgan masalani aniq timsol va o‘xshatishlar vositasida tasvirlaydi:

Zoviyai jismg‘a har zotdin,
Ruh yoqib sham’ bu mishkotdin.
Topti azal subhi chu bazming charog‘,
Ne tong agar yorusa yuz ming charog^{‘1}.

Ushbu baytlardagi poetik timsollar “had-hudud bilmaydigan ilohiy nur – mishkotga, osmon gumbazi esa qandil – sham qo‘yiladigan tokchaga nisbat berilayotir”². Ya’ni, barcha jismlarning asosi bo‘lgan ruh hayot sham’ini (Muhammad nurini – F.I) yodqi. Azal subhi bazming chirog‘ini qo‘lga kiritganda, yuz minglab chiroqlar charaqlab ketgan bo‘lsa, ajab emas.

Alisher Navoiy butun hayoti va faoliyati davomida islom diniga e’tiqod qilib, uning rivoji, farz-u ahkomlarining keng yoyilishi hamda insonlarning qalbidan oson joy olishi yo‘lida o‘z asarlari bilan katta fidokorlik ko‘rsatdi. Payg‘ambar alayhissalomning xalq-u xulqiga muvofiq yashagan Hazrat ijodining asosini, shaksiz, islom falsafasi va islom madaniyati, ma’nolar ummoni Qur’oni karim va

¹ Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006. – B. 27.

² Вохидов Р. Алишер Навоий ва илоҳиёт. – Бухоро: Наврӯз, 1994. – Б. 79.

hadislar tashkil etadi. Tasavvuf ahli va Navoiyning qat’iy ishonchiga ko‘ra, Hazrat payg‘ambarimiz dastlab nur sifatida yaratilgan. Mana shu nur sabab olam va odam yaratilgan.

Bo‘ldi sanga Odam satqatnamo,
Avval o‘g‘ul, so‘ngra gar bo‘lsa ato.
Naslida har kim anga payvand o‘lub,
Borchasi farzandinga farzand o‘lub¹.

Barcha ahli kitoblar e’tiqodiga ko‘ra, Odam Ato birinchi yaratilgan inson bo‘lib, dunyodagi barcha insonlarning otasi hisoblanadi. Bayt mazmuniga ko‘ra, Odam Safiyulloh yaratilishidan oldin ham, nur ko‘rinishida Muhammad alayhissalom mavjud bo‘lgan. Shunga ko‘ra Odam Ato Muhammad alayhissalomga ham o‘g‘il ham ota maqomidadir. Ana shu voqeaga Navoiyning ishonchi qat’iy, chunki Alloh buyukdir. Nima xohlasa, shuni amalga oshiradi. “...U biron ishni qilmoqni istasa faqat unga “Bo‘l”, – der. Bas (o‘sha ish) bo‘lur”² oyati (Maryam surasi, 35-oyat) hamda “Qachon nabiy qilingansiz?”- dedim. U zot : “Odam ruh bilan jasad o‘rtasida ekanida”, - dedilar”, – degan hadis (Ahmad va Termiziy rivoyati) ijodkor uchun dalil-hujjat. Shoир fikrini davom ettirar ekan, baytma-bayt ta’rif va tavsif kuchayib, beqiyos tashbeхlar ortib borayotganiga guvoh bo‘lamiz. Navbatdagi baytlarda Navoiy **kitobat** vositasida o‘z fikrini dalillaydi:

O‘zga dalil istasa tab’i saqim,
Basdur Odamda “alif”, “dol”u “mim”.
Barchasi Ahmadda topib izzu shon,
O‘g‘lida uch harf, atodin nishon³.

Ushbu baytlarda “Odam Safiyulloh va Muhammad Rasululloh harflar bilan bog‘langanligi mohiyatiga nazar tashlansa, fikr Odam alayhissalom “alif” singari

¹ Yuqoridagi manba. – B. 27.

² Куръони Карим. Таржима ва изохлар муаллифи А. Мансур. – Тошкент: “ЧЎЛПОН” нашриёти, 1992. – Б. 273.

³ Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006. – B. 27.

nubuvvat maqomi va bashariyat boshlanishi, Muhammad alayhissalom esa “mim” xotimasi ekanligiga, “ho”si Haq habibi ekanligiga ishora etadi”¹.

Odam so‘zi arab alifbosida alif – ՚, dol- ՚ va mim – ՚ harflaridan iborat bo‘lib, **Odam** – ادم tarzida yoziladi. Ayni shu harflar **Ahmad** – احمد ismida ham mavjud. Ahmad – Allohga ko‘p hamd aytuvchi ma’nosini anglatgan Payg‘ambarimizning nomlaridan biridir. Otadagi sifatlar biologik tomondan o‘g‘ilda namoyon bo‘lishi ochiq haqiqatdir. “Ahmad” so‘zidagi uch harf alif, dol va mim “Odam” so‘zida ham mavjud ya’ni, otadan farzandga o‘tgan belgidir. Shoир so‘zlarning yozilishidagi shakliy o‘xshashlikdan ham ma’no axtaradi. Bunda shoир **iyhom** va **lutf** san’atiga tayanib, o‘z maqsadiga erishgan.

“Ho”i muhabbat anga – o‘qdur nasib,

Kim seni haq dedi o‘ziga habib.

Har neki haq vajhi aro mubham ul,

Zohir etib yuzda habibi hamul.

Shohid etib chehra bu ko‘zgu anga,

Ul ne qilib, ko‘rguzubon bu anga².

Yolg‘iz “**ho**” harfi zimmasiga katta ma’noni yuklagan shoир, bu orqali ko‘p maqsadlarni ko‘zlaydi. Payg‘ambarimizning “Habibulloh – Allohning do‘sti” ismiga ishora qilish bilan birga **haq**, **habib** va **muhabbat** so‘zlaridagi “**ho**” bilan **Allohn**i yodga soladi. Ya’ni, kim seni haq desa, o‘ziga habib, do‘stdir. Haqdagi yashirin har narsa borki, yolg‘iz habibida zohir etgan. Bu go‘yoki, ko‘zguga tutgan narsani uni aks ettirishi kabidur.

Qaysi nur, ulkim yuz izzi noz,

Ul kelib ma’shuqu Xoliq – ishqboz³.

Ya’ni, bu “nur” haq huzurida benihoya izzat va qadr topadi, u ma’shuq, Xoliq esa unga oshiq bo‘ladi. Xoliqning borliqni yaratish ishtiyoqi behad baland bo‘lganligidan “nur” azizligi ortadi, sevimli bo‘ladi”¹.

¹ Қобилов У. Нубувват ҳақиқати – бадиий ижод руҳи. – Самарқанд, 2021. – Б. 171.

² Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006. – В. 28.

³ Навоий А. МАТ. 20 томлик. Т.12. Лисон ут-тайр. – Тошкент: Фан, 1996. – Б. 11.

Ushbu baytning mazmunidan ma'lum bo'ladiki, Haq taolo barcha maxluqotlardan oldin sof nурдан “Muhammadiy Haqiqati”ni paydo qildi. Keyin undan barcha olamlarni shilib oldi. Keyin Alloh taolo unga payg‘ambarligining ilgaridan tayin qilib qo‘yilganini bildirdi va unga risolatining buyukligi bashoratini berdi. Bularning bari bo‘lgan paytda Odam hali yo‘q edi. So‘ng undan ruhlarning buloqlari zohir bo‘ldi. Shunday qilib, u yuqori to‘pda asl bo‘lib, barcha olamlarda sizib, zohir bo‘ldi”².

Ayladi chun odami xoki zuhur,
Soldi anga partavin ul pok hur.
Nur dema, boriqai sarmadiy
Boriqa yo‘q, sha’sha’i Ahmadiy.
Bo‘ldi chu Odamda bu partav nihon,
Anda nihon, lek yuzida ayon.
Egniga yopilda davoji sharaf,
Qildi makon boshig‘a toji sharaf.
Taxti risolat uza shoh o‘ldi ul,
Xayli maloyikka panoh o‘ldi ul³.

Yuqoridagi misralar bilan bobning insoniyat tarixidagi “qadimiy davr”i – Odam atoning yaratilishi va u bog‘liq jarayonlar tasviri boshlanadi. Alloh taolo “Hijr” surasi 26-oyatida: “Batahqiq, Biz insonni quruq loydan, o‘zgartirilgan qora balchiqdan yaratdik”⁴, – degan bo‘lsa, “Rohman” surasi 16-oyatida: “Insonni sopolga o‘xhash qurigan loydan yaratdi”, – degan⁵.

Odamning yaratilishi bilan bog‘liq tasvirlarda **talmeh**dan ustalik bilan foydalangan shoir o‘z maqsadini **ruju’** yordamida ifodalaydi. Tuproqdan yaratilgan

¹ Кобилов У. Нубуват ҳакиқати – бадиий ижод руҳи. – Самарқанд, 2021. – Б. 174.

² Саййид Жаъфар ибн Ҳасан Барзанжий. Мавлид. Таржима ва шархлар муаллифи Ҳасанхон Яҳё Абдулмажид. – Тошкент: “HIOL-NASHR” нашриёти, 2015. – Б. 81.

³ Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror. Nashrga tayyorlagan Vahob Rahmon. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006. – В. 28.

⁴ Куръони Карим ва ўзбек тилидаги маънолар таржимаси. Шайх Муҳаммад Содик Муҳаммад Юсуф. – Тошкент: “Sharq”, 2011. – Б. 263.

⁵ Куръони Карим ва ўзбек тилидаги маънолар таржимаси. Шайх Муҳаммад Содик Муҳаммад Юсуф. – Тошкент: “Sharq”, 2011. – Б. 531.

Odam xokiyga ul pok nur (Nuri Muhammadiy – *F. I.*) o‘z uchqunini joylashtirdi. Ichida pinhon bo‘lsa-da, bu nur yuzida nihon bo‘ldi. Shu sababdankim, Odam egniga shon-sharaf libosi yopildi, boshiga sharaf toji kiygizildi. Yakunda u Alloh elchilarining shohi (boshlovchisi) va farishtalar guruhiga panoh bo‘ldi. Ushbu parchalarda “nur va uning talqini bilan aloqador jihatlar zanjir xalqalari singari misralarni birlashtirib turadi. Bobdag'i mazmun va uni ro‘yobga chiqarishda xizmat qiluvchi bosh manba vazifasini ham o‘sha nur bajaradi”¹.

Istadi Havvo bila chun ittisol,
Ayladi Havvog‘a bu nur intiqol.
Pok-u jamil ayladi Havvo yuzin,
O‘ylaki haq partavi havro yuzin.
Shisqa chun bo‘ldi yana muntaqil,
Oyni qilur erdi yuzi munfail².

Mazkur parchada diniy rivoyatlarni tashbehli baytlarda tasvirlarkan Navoiy, insoniyat tarixidagi muhim voqealarni badiiy talqin etarkan, ushbu o‘rinlarda o‘zining insoniyatning ibtidosi – Nuri Muhammadiy haqidagi diniy-tasavvufiy qarashlarini bayon etadi. Odamdan Havvoga o‘tgan bu nur, vaqtlar o‘tib, Shis alayhissalomda namoyon bo‘ldi.

“Qobildan kezin yuz o‘tuz yil kechdi, Shis tug‘urdi. Shis sarboniy tilincha “Hibatulloh” temak bo‘lur, ya’ni Tengri atosi. “Hobilni oldim ersa aning o‘rning‘a Shisni berdim”, – tedi. Mustafoning nuri Odam elindin Havvo rahminga bordi. Shis tug‘di ersa ul nur Shis elinga keldi. Odam Shisni g‘oyat sevardi. Xitob keldi: “Ey Shis, bu nur habibim Muhammad Mustafoning nuri turur. Vasiyat qilg‘il o‘g‘lonlaringga juftlarini nikoh qilsunlar. Sevmak birla qovishmasunlar!”³

Siyratshunos olimlarning fikricha, Payg‘ambarimiz bilan Odam alayhissalom orasida taxminan 500 nafar ota-bobo o‘tgan. Alloh taolo Sarvari koinotning nasabini Odamdan toki Abdullohgacha yer yuzidagi eng ulug‘ qavmlar qatorida qildi.

¹ Вохидов Р. Алишер Навоий ва илохиёт. – Бухоро: Наврӯз, 1994. – Б. 69.

² Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006. – B. 28.

³ Носируддин Рабгузий. Қисаси Рабгузий. Биринчи китоб. – Тошкент: Ёзувчи, 1990. – Б. 33.

Nasabini toza, e’tiqodini pok saqlab, o‘z davrining halol, to‘g‘riso‘z, adolatli, ornomusli, jasur va donishmand hakim ajdodlarga avlod qildi. “...Albatta, Alloh xaloyiqni xalq qilganda meni ularning eng yaxshilaridan qildi. Eng yaxshi firqalardan qildi. Ikki firqaning yaxshisidan qildi. So‘ngra qabilalarni tanladi va meni eng yaxshi qabiladan qildi. Keyin xonadonlarni tanladi va meni eng yaxshi xonadonlardan qildi. Bas, men nafs jihatidan ham, xonadon jihatidan ham ularning eng yaxshisiman”¹.

Bundan ko‘rinadiki, Alloh o‘z rasulini har tomonlama komil bo‘lmog‘ini ta’minladi. Bu nurni o‘z hikmati bilan pok saqladi va nasldan- naslga sof yetib borishini ixtiyor etdi. Odamdan to Abdullohgacha pok saqladi.

To atodin ato, anodin ano,
Bir ano kim yo‘q edi andoq ano.
Bo‘ldi risolat durining maxzani,
Balki nubuvvat gulining gulshani.
Emdiki raf’ etti yuzidin niqob,
Tug‘madi andoq yana bir oftob².

Talqinlarda keltirilishicha, “Abdullohga “nur” yetib kelgach, nubuvvat maqomi komil darajaga yetadi. U nubuvvatni boshlaydi va xatm qiladi, oldin mavjud edi, endi vujudga aylanadi. Alloh borliqni yaratish uchun “nuri”ni sevimli qiladi”³. Olamning barpo etilishidan maqsad odam edi. Olamlar yaratilishi asosida ishq yotadi degan tasavvufiy qarash tarafdori bo‘lgan Navoiy, payg‘ambar uyining yoritilishini olam uyiga yorug‘lik yetishi sifatida tasvirlaydi.

Tarixiy haqiqatlarni badiiy-xronologik yo‘sinda bayon qilib, muxtasar va ishonarli tarzda “Yangi davr”ga bog‘laydi. Otadan otalar, onadan onalar dunyoga keldi. Bir sadaf ketsa, o‘rniga boshqa gavhar keldi. Bir ona borki, undan boshqa ona yo‘q dunyoda. Ya’nikim, Nabiy alayhissalomdan oldin necha minglab rasullar, payg‘ambarlar o‘tgan. Muhammad sollallohu alayhi va sallam ularning so‘nggisi

¹ Шайх Мухаммад Содик Мухаммад Юсуф. Хадис ва Ҳаёт. Оламларга раҳмат пайғамбар. 19 жуз. – Тошкент: “Sharq”, 2011. – Б. 27.

² Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006. – B. 28.

³ Қобилов У. Нубуvvat ҳакиқати – бадиий ижод руҳи. – Самарқанд, 2021. – Б. 175.

edi. Omina onamiz ham qiyomatga qadar so‘nggi payg‘ambarni dunyoga keltirgan ona bo‘lib qoladilar.

Ushbu bobning yana bir xususiyati – undagi har bir baytni komillar komiliga tegishli lavhalar birlashtirib turadi. Buni yana bir bor “Avvalg‘i na’t”ning yakunida ham ko‘rishimiz mumkin:

G‘am tunini nursirisht ayladi,
Yer yuzini bog‘i bihisht ayladi¹.

Bobning boshida bitilgan yaratilish asosi va buyuk ishq ifodasi bo‘lgan ilohiy nur – Nuri Muhammadiy yakunda ham kuylanadi, uning maqtovi inson qiyofasida dunyoga kelish shodiyonasi bilan yakunlanadi.

Islomshunos olimlarning fikricha, yetuklik mustahkamlik, mukammallik va abadiylik sifatlariga ega bo‘lsagina komillik kasb etadi. Allohning oxirgi haq dini – islom aynan shunday ilohiy ta’limotdir. “Islomni yetkazish vazifasi har tarafdan mustahkam, mukammal, saqlangan va abadiy bo‘lgani uchun Allah tarafidan yuboriladigan elchi va Allahning diniga chaqiruvchining o‘zi ham kamida shu darajada mukammal bo‘lmog‘i lozim, chunki elchi bu vazifaning qiyinchiliklarini ko‘tarishi lozim edi. Ayni shu sababdan, Rasululloh sollallohu alayhi va sallam insoniy komillikning eng yuqori cho‘qqisiga yetganlarida Robblari u zotni ilohiy risolatni yetkazish uchun tanlab oldi”².

“Avvalg‘i na’t”ning mazmuniy-mantiqiy davomi bo‘lgan ushbu na’tda shoir “aning navras niholi jahon gulshanin sarsabz qilib, qirq yilg‘acha andin hayo va adab gullari ochilib, andin so‘ngra nubuvvat mevasi bergani, dog‘i shox va bargin sidra shoxidin o‘tkarib, ikki olam ahli soyai rahmatig‘a kirgani” haqida badiiy mushohada yuritib, u zotning komil xulqlarini ulug‘laydi.

Ey, ko‘runub g‘urra kibi tiflzod,
Tifli rahing charxi qadimiylar nihod.
Insu malak joniyu jononasi,

¹ Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006. – B. 29.

² Сайид Мухаммад Ҳасаний. Икки олам сарвари. – Тошкент: Фафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2019. – Б. 19.

Ikki jahon gavhari yakdonasi.

Mahd sanga lavhai firuza rang,

Kim harakatdin anga bo‘lmay darang.

Sen kibi bu gulshan aro toza vard,

Umrida ko‘rmay falaki solxo‘rd¹.

So‘nggi payg‘ambarning insoniyatga yuborilishi odamzot uchun katta saodat edi. Muhammad sollallohu alayhi va sallam zulmatga cho‘kkan dunyoni nurga to‘ldirib, g‘aflatda qolib adashganlarni haq yo‘lga boshlab, “odamzotning changakda qolgan fikratini ozodlikka chiqarib, tuman va zulmat ichidagi qalblarni nur va yog‘du ila najot yo‘liga chorladilar”². Rasululloh odam bolasiga berilishi mumkin bo‘lgan barcha ezgu fazilatlar bilan xulqlangan edilar. Hazrat Navoiy ushbu masalaga alohida e’tibor qaratib, avval nur ko‘rinishida bo‘lgan zotning inson sifatida dunyoga kelishini **g‘urra**, uning bolalik paytini esa **navras niholga** qiyoslaydi. “Navras nihol go‘daklik, o‘sib-ulg‘ayishning istiorasidir. Bu nihol qirq yilgacha qiyg‘os gulladi. Gullari hayo va adabdan iborat edi. Qirq yoshida baquvvat daraxtga aylandi, u daraxtda nubuvvat – payg‘ambarlik mevasi bitdi”³. Zikr etilgan go‘zal baytlarda Navoiy Nabiy alayhissallomni butun ins-u malakning joni va jononasi deb ulug‘laydi. “Lavhai feruzarang” osmon “ikki jahon gavhari yakdonasi” bo‘lgan “g‘urra kibi tiflzod”ga beshik bo‘lib xizmat qilardi. Tashbehi tomm deyish mumkin bo‘lgan “Lavhai feruzarang” osmonning sifati bo‘lishi bilan birga, payg‘ambar beshigi hamdir. Koinotni tasvirlar ekan shoir Nuri Muhammadiyaga ishora qilib, bu nur uchun butun osmon beshik bo‘lganligini ta’kidlaydi.

“Payg‘ambar bir toza Gul. Tashbeh san’ati yana ishga solingan. Ammo bu Gul falak bahrida ochilgan. Tashbeh kengayib romantik tasvirni vujudga keltirgan. Payg‘ambarning tug‘ilishi, go‘dakligi tasvirini qalamga olgan Navoiy shunday

¹ Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006. – B. 29.

² Алишер Навоий. Ҳайратул аброр. Биринчи китоб. – Тошкент: “Тамаддун” нашриёти, 2021. – Б. 141.

³ Yuqoridagi manba. – B. 142.

san'atlarni tizib tashlaydi. Muhammadning surati go'dak, ammo haqiqatda falak beshigida u bir Aqli kulldir”¹.

Surat aro tifl, vale aqli kull,

Qavlung aro g‘ayri yali lam-yakul².

Barcha uchun ibrat bo‘lgan zot bolaligidanoq hammadan ajralib turardi. Garchi o‘zi bola bo‘lsa-da, bu muborak bola jismida “aqli kull” mujassam edi. “Aqli kull” istilohi nihoyatda ulkan qamrovga ega. Bu istiloh mazmun-mohiyatiga ko‘ra “uch olam”ni qamrab olgan aqlni bildiradi. Aqli kull shunday narsaki, unga inson na tajriba, na hissiy idrok, na tafakkur va mushohada bilan yetisha oladi. Aqli kull kamdan-kam odamlarga Alloh tomonidan beriladigan noyob ne’matdir. Muhammad alayhissalomga esa bu ne’mat fitratan va mukammal tarzda berilgan edi”³.

Gar otadin yo‘q esa bahrang ne tong,

Odam o‘g‘ul bo‘lsa, kim o‘lg‘ay otang?

Gavhari zotingg‘a sadafsiz ne biym,

Itti sadaf, chiqtı chu durri yatim.

Durg‘a sharaf bor o‘zining zotidin,

Tong yo‘q anga or sadaf otidin⁴.

Tarixdan ma'lumki, Sarvari koinotning otalari u zot tug‘ilmasdan oldin vafot etgan. Onasi va bobosi qaramog‘ida bo‘lgan Hazrati Payg‘ambarimiz olti yoshligida onasidan, sakkiz yosh paytida bobosidan ajrab butkul yetim bo‘lib qolgandi. “Ulamolarimiz Payg‘ambarimizning yetimlikda o‘sishlariga Alloh taoloning hikmati, deb qaraydilar. Agar u zot yetim holda o‘smaganlarida, payg‘ambarlik kelganida dushmanlar “Ota-onasidan yoki bobosidan o‘rganib olgan narsalarni aytib, “Men payg‘ambarman”, demoqda”, – deyishlari mumkin edi. Yetim o‘sgan kishining oliymaqom ta’limotlarni keltirishi esa ana shu ta’limotlar Alloh taolodan

¹ Мухиддинов М. Комил инсон – адабиёт идеали. – Тошкент: Маънавият, 2005. – Б. 51.

² Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006. – B. 29.

³ Jo‘raqulov U. “Hayrat ul-abror”da na’t // Alisher Navoiy va XXI asr. Xalqaro ilmiy-nazariy anjuman materiallari. – Toshkent, 2020. – B. 79

⁴ Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006. – B. 29.

ekanligiga dalolat qiladi”¹. Yuqoridagi baytlarda buyuk tug‘ilishga ishoratlar bergan Navoiy, ma’no ostiga ma’no yashirib, Rasulullohni durga, otalarini sadafga qiyoslab, Ilk nurga ishora qilmoqda. Otangiz bo‘lmasa, buning ajablanarli joyi yo‘q, axir Odam sizga farzand-ku! Ya’ni, asl gavharing sadaf (ota)siz qolsa, buni qo‘rinchli yeri yo‘q. Sadaf yo‘q bo‘lsa-da undan eng qimmatbaho dur chiqdi-ku! Odatda, bitta sadafdan minglab dur chiqishi mumkin. Lekin bitta dur bilan minglab sadaf sharaflanishi ham mumkin. Komillar komili shunday sharaqli “durri yatim” edilar:

Garchiki ming dur chiqorur bir sadaf,
Bir dur ila ming sadaf aylar sharaf².

Komillar komilining siyratlaridan bizga ma’lumki, u zotning tug‘ilishidan to vafotiga qadar muborak hayotidagi har bir lahma Allohnинг nazarida va tarbiyasida bo‘ldi.

Yo Rasululloh, alfa-alfa salom,
Bika min zil-jaloli val-ikrom.
Qurashiy asl, Abtahiy mahmil,
Hoshimi kish, Yasribiy manzil.
Ul quyoshkim, arabqa berding zayn,
Ul sifatkim, arab boshi uza ayn.
Lek chunkim quyoshing etti zuhur,
Qilding ikki jahonni g‘arqai nur³.

Islomiy odobga ko‘ra, Rasululloh nomini eshitganda yoki zikr qilganda, albatta, u zotga salomlar yo‘llanadi. Alloh taolo: “Albatta, Alloh va Uning farishtalari Nabiya salovot ayturlar. Ey iymon keltirganlar! (Siz ham) unga salovot ayting va salom yo‘llang”, – degan (“Ahzob” surasi, 56-oyat). Shunga muvofiq keladigan Termiziyy va imom Nasoiy rivoyat qilgan hadislarda: “Kimning huzurida men zikr qilinsam-u u menga salovat aytmasa, o‘sha odam baxildir”, – deganlari

¹ Шайх Мухаммад Содик Мухаммад Юсуф. Ҳадис ва Ҳаёт. 19-жуз. Оламларга раҳмат Пайғамбар. – Тошкент: “Sharq”, 2011. – Б. 71.

² Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006. – B. 29.

³ Alisher Navoiy. Sab’ai sayyor. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006. – B. 13.

keltiriladi¹. Dastlab, payg‘ambarning Quraysh qabilasining Hoshimiylar oilasida, Makkaning Abtahiy degan joyida tug‘ilib, Madinani manzil qilgani bayon etiladi. Ul zotning tug‘ilishi arablarga qanchalik zeb bergen bo‘lsa, Quyoshing chiqishi (porlashi) bilan ikki jahon shunchalik nurga to‘ldi:

Makka yorub bu nuri a’lodin.

Tur ul nav’kim tajallodin.

Ko‘runub yetti ko‘k ravoqi ham,

Bal Madoyin minori toqi ham...

Lot, Uzzoga purshikast bo‘lib

Kim, bori tiyri yerga past bo‘lib².

Siyrat kitoblarida bitilishicha, Rasululloh tug‘ilishi onlaridan oldin dunyonи nubuvvatga tayyorlash va Nabiy alayhissalomni Haq taoloning tanlangan so‘nggi payg‘ambari ekanligini e’lon qilish uchun turli g‘aroyib hodisalar yuz berdi: “Osmonning muhofazasi kuchaytirildi va undan sarkash jinlar, shaytoniy nafs egalari, haydaldi. Olovli yulduzlar har bir mardudni (osmonga) chiqqan zahoti toshbo‘ron qiladigan bo‘ldi”³.

Rasululloh sollallohu alayhi va sallam tug‘ilganlarida “U zot bilan birga bir nur chiqib, u sababli Shom o‘lkasidagi qaysariylarning qasrlari ham yorishib ketdi. Hovlisi, uy-joyi Makka vodiylarida bo‘lgan kishilar ham uni ko‘rish”⁴gani haqida, Kisro Anushirvonning mustahkam saroyi zilzila va momoqaldiroq tufayli yorilib, o‘n to‘rtta ayvoni qulab tushgani, Fors imperiyasidagi majusiylarning ming yildan beri o‘chmay kelayotgan “muqaddas olov”lari o‘chib qolgani va Sova ko‘lining suvi yerga singib ketib, uning atrofidagi cherkovlar”⁵ qulab tushgani haqida juda ko‘plab rivoyatlar bor.

¹ Шайх Мухаммад Содик Мухаммад Юсуф. Тафсири ҳилол. Олти жуз. Тўртинчи жуъз— Тошкент: “Sharq”, 2008. – Б. 638.

² Alisher Navoiy. Sab’ai sayyor. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006. – В. 14.

³ Сайид Жаъфар ибн Ҳасан Барзаний. Мавлид. Таржима ва шархлар муаллифи Ҳасанхон Яҳё Абдулмажид. – Тошкент: “HIOL-NASHR” нашириёти, 2015. – Б. 103.

⁴ Yuqoridaǵi asar. – В. 103.

⁵ Абдул Азим Зиёвуддин. Расулуллохнинг туғилиши билан боғлиқ “ажойиботлар”. <https://siyrat.uz/maqola/65>.

Payg‘ambar tug‘ilishi bilan bog‘liq ko‘plab asossiz rivoyatlar ham paydo bo‘lganligi va afsuski, ularning mo‘tabar kitoblarga kirib qolishi, ayniqsa, ayrim so‘fiylar orasida keng tarqalganligi ham bor haqiqat. Bu borada arab olimi Muborak Zakiy shunday yozadi: “Kim payg‘ambarning tug‘ilgan kunlarini ko‘zdan kechirsa, ular afsonalar va aldanishlar bilan to‘lib-toshganini, odamlar uzoq vaqt davomida ularning qalbakilashtirilishiga chidashganini ko‘radi... Ushbu afsonalar hamma narsaga ishonadigan xalq tilidagi muhitdan boshqada emas, balki o‘zlarining ruhi va uslubiga uyg‘un bo‘lgan eski urf-odatlari asosiga joylashtirib tasvirlanganligi ularning yashovchanligini uzaytirdi... Lekin musulmonlar o‘n ikki asrdan ortiq vaqtdan buyon gapirib, tinglab kelganlari uchun ularning didi buzilmagan, iymoni zaiflashgani yo‘q... O‘zlari tarqatgan afsonalar bir tomondan dinga, payg‘ambar shaxsiga xizmat bo‘lsa, ikkinchi tomondan, bu – Rasulullohning ulug‘lashning o‘ziga xos turi bo‘lib, so‘fiylar uchun iltijo va iltijoning bir ko‘rinishidir”¹.

“Mukammallikka, komil xulqqa erishish uchun intilayotgan har bir so‘fiy Rasuli akramni o‘ziga ibrat, namuna deb bilar ekan, aynan mana shu jihatga ham ko‘p e’tibor bergan. Nainki oddiy kishilar – mo‘min-musulmonlar, balki ular uchun tanlab olingan zotlar – payg‘ambarlar orasida ham ulug‘lik namunasi ekanligini ta’kidlagan shoир Rasulullohning insoniyat taqdiridagi o‘rni, ahamiyatiga e’tiborni ”² qaratib shunday deydi:

Hayi jabhang alarg‘a moi main,
Tori zulfung alarg‘a habli matin.

Hay demay, qatrai zuloli hayot,
Tor yo‘q, rishtai kamandi najot.

Dema gisuki topting ikki kamand,
Qilg‘ali ikki dahr saydini band³.

Ya’ni, sening komil xulqing “hayi jabhang” barcha uchun hayot suvi, zulflingning bir tori esa, haq yo‘lida mustahkam tutqichdir, – deb **tashbeh** qilgan

¹ زکی مبورک. مدح النبي في الأدب العربي. مصر الجديدة ١٩٣٥، ١٦٨ رهان

² Муллахўжаева К. Алишер Навоий ғазалиётида тасаввуфий тимсол ва бадиий санъатлар уйғунлиги. – Тошкент: Akademnashr, 2019. – Б. 57.

³ Alisher Navoiy. Sab’ai sayyor. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006. – B. 14.

shoir, o‘zidan qoniqmay keyingi baytda **o‘xshatishni** yanada mukammallashtiradi. Bunda shoirga ko‘makchi bo‘lgan **ruju’** baytlar orasidagi **tashbihi tafsilga** sabab bo‘ladi. Shoир qiyosni yanada chiroyli dalillar bilan bo‘rttirib, bu fe’l emas, balki hayot zilolining qatrasи, sochning tori emas, balki najot ipining rishtasidir, – deb payg‘ambar siymosi tasviri misolida har bir uzvga ma’no yuklaydi.

Payg‘ambarimizning sochlari silliq ham, jingalak ham bo‘lmagan, balki to‘lqinsimon – biroz buralgan bo‘lganligini qayd etgan siyratshunos olimlar, ba’zan sochlarini o‘stirib quloqlarini yumshoq joylarigacha tushirgan bo‘lsalar, ba’zan butunlay oldirib tashlaganliklarini ham siyrat kitoblarida keltirishadi. Siyrat ilmidan yaxshi xabardor bo‘lgan Navoiy, ikki dunyo sohibining ikki chekkasidan tushib turgan sochini ikki dunyo halqasiga mengzaydi.

Ochib ul chehr dilkushoy ichra,
Laylat ul-qadr iki oy ichra.
Yo iki af’iyi muanbar de,
Ganji zotingg‘a ikki ajdar de.
Yo Muhammad hurufi chun ochilib,
Ikki mimi etaklari osilib.
Kufr elining savodi motami ul,
Din elining savodi a’zami ul¹.

Jobir ibn Samura roziyallohu anhudan shunday rivoyat qilinadi: “Men Rasululloh solallohu alayhi va sallamni oydin kechada ko‘rdim. Ustlarida qizil libos bor edi. Shunda bir u zotga, bir oyga qaray boshladim. Nazarimda, u zot oydan ham chiroyli edilar”². Ul zoti muborak Qadr kechasidagi oydan ham chiroyli edi.

Qadr kechasi va u bilan bog‘liq voqeа-hodisalar musulmon xalqlari uchun ulug‘ vaqtlardan biri hisoblanib, Kalomi sharifning ushbu kechada nozil qilinishi, ro‘za ibodatlari uchun ham shu oyning tanlanishi kecha fazilatini yanada oshiradi. Imom Ahmad Nabiy alayhissalomdan qilgan rivoyatiga ko‘ra: “Albatta, Qadr

¹ Alisher Navoiy. Sab’ai sayyor. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006. – Б. 14-15.

² ИМОМ ТЕРМИЗИЙ. Шамоили Муҳаммадия 1. Таржима ва шарх муаллифи Зиёвуддин Раҳим. – Тошкент: “Sharq”, 2020. – Б. 39.

kechasinging alomatlari shuki, u musaffo, yop-yorug‘, xuddi sukunatga o‘ralgan yog‘duli oy charaqlab turgandek bo‘ladi. U kechada (o‘ta) sovuq ham, (juda) issiq ham bo‘lmaydi. O‘sha kechada tonggacha yulduzlar otilishiga yo‘l qo‘yilmaydi. Yana uning alomatlaridan biri quyosh ertalab o‘n to‘rt kechalik oyga o‘xshab, nursiz – charaqlamasdan chiqadi. O‘sha kuni shaytonlar chiqishiga ham yo‘l qo‘yilmaydi”¹.

Oydek jamoling xazinasiga ikki xoling ikki ajdar misol qo‘riqchi, – deb ta’riflagan shoir, navbatdagi baytda **harfiy** san’atning san’atidan san’at kashf etadi. Muhammad ismining arabcha “محمد” yozilishidagi ikki mim – “م”ning bosh shaklidan poetik obraz sifatida foydalangan shoir tarixiy haqiqatni badiiy talqin etadi. Ya’ni, “Muhammad” harflarining ochilishi, ikki “mim”ining etaklararo tushishi kufr elining motamiga, din elining ulug‘lanishiga sabab bo‘ldi. Ushbu baytdagi azaliy ikki raqib: yovuzlik va ezgulik, johillik va ziyokorlik, do‘stlik va dushmanlik, xiyonat va vafo, komillik va nomukammallik o‘rtasidagi kurashning tasviri **tazodning** go‘zal namunasi – “kufr eli” va “din eli” ziddiyatida aks etgan.

Nur va soya Navoiyning eng ko‘p va xo‘p qo‘llagan obrazlaridan. Na’tlardagi poetik fikr, poetik joziba va zulma’naynlikni ta’minalash bilan birga, shoir qarashlarini ifodalashda ushbu juftlikning ziddiyatidan katta-katta g‘oya va maqsadlarini ifodalashda ustalik bilan foydalanib, poetik kashfiyotlar qiladi. Tabiiyki, bunday shoirona kashflarga nabiy siyrati ilhom manbayi bo‘lib xizmat qiladi.

Nubuvvat kishvarining taxtgiri,
Risolat taxtining sohib sariri.
Saririg‘a to‘quz aflok o‘lub farsh,
To‘quz aflokni qo‘yg‘il, degil Arsh.
Solib ham Arshu Kursiyga soya,
Bo‘lib Kursiy aning taxtig‘a roya.
Dema **soya**, degilki zilli raf‘at,

¹ Ўрозов А. Кадр кечасининг белги ва аломатлари// <https://siyrat.uz/maqola/8237>.

Ne zillu qaysi raf'at, **nuri** rahmat¹.

Payg‘ambar oshig‘i bo‘lgan Navoiy u zotning madhida **rujuga** ruju qo‘yib, koinot **tanosubini tashbeh** bilan bezaydi. Butun olamlar, to‘qqiz falak, Arsh va Kursiyni ham uning poyiga tashlaydi. Bundan ham qoniqmay, soya dema, balki mehribonlik soyasidir. Mehribonlik soyasi ham emas, balki rahmat nuridir, – deb ulug‘laydi.

Yuzi gisuni chun piroya aylab,

Ul oqshom kun yuziga soya aylab.

Ayog‘in o‘rgali gar tushti gisu,

Bo‘lur doim charog‘ osti qarong‘u².

Rahmat nurli yuziga bezak bo‘lgan sochi, kundek yuzini berkitdi, ya’ni soya bo‘ldi. Odatda, o‘sgan soch pastga qarab tushadi. Ana shu tasavvurdagi manzarani tavsiflashda Navoiy, aslida, soching muborak oyog‘ingni o‘pish uchun tushdi, – deb **irsoli masalga** ham murojaat qilgan. Har doim o‘zidan nur taratib turgan Nabiyning yuzini nurga (chiroqqa), sochini soyaga (chiroq tubiga) o‘xshatib, o‘z ijodiy niyatiga erishgan. Ayni damda, nur va soya juftligi baytlararo mantiqiy-mazmuniy uyg‘unlikni ta’minlasa, ular orasidagi doimiy ziddiyat – tanosubiy tasvirlarga boy go‘zal kecha, tashbehli peyzaj, betakror o‘xshatishlar kitobxonaga katta estetik zavq beradi. Baytlar mazmunini tushunish, mohiyatini anglash, ijodkor boshidan o‘tkazgan ruhiy holatlarni his qilish imkonini beradi.

Syratshunos ulamolarning yozishicha, Sarvari koinotning istaklari muborak yuzlaridan bilinar, bir narsadan xursand bo‘lsalar, mammunliklari ko‘rinib turar edi. Haq yo‘lida biror-bir voqeа sabab g‘azab qilsalar ham go‘zal chehralarida sezilardi. Vujudlari doimo pokiza, xushbo‘ylik ufurib turar edi. Ko‘zlari katta-katta, tim qora va oq qismida qizillik bor edi. Bu arablarda maqtalgan va mahbub ko‘rilgan sifat edi. Boshlari o‘rtachadan kattaroq, peshonalari keng, qoshlari uzun, yoysimon va ingichka, biri-biriga tutashmagan, qirra burunli edi. Muborak og‘izlari o‘rtachadan keng va kattaroq bo‘lib doimo xushbo‘y xid kelardi. Tishlari oppoq, oralari ochiq

¹ Alisher Navoiy. Farhod va Shirin. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006. – B. 13.

² Yuqoridagi manba. – B. 13.

edi. Yuzlari tiniq, oq rangli va go‘zal bo‘lib, yanoqlari tekis, qarashlari o‘ychan va mulohazali edi. Shuningdek, kunduz kuni qanday ko‘rsalar, kechasi shunday ko‘rardilar. Orqa yoki yon tomonlariga to‘liq burilib qarar, oldi tomonlarida qanday ko‘rsalar, orqa tomonlarida ham shunday ko‘rardilar¹.

Payg‘ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi va sallamning eng go‘zal xulqi: o‘ta rahmdil va barchaga barobar mehribonliklari “Saddi Iskandariy” dostonidagi vasfiy na’tda qalamga olinadi. Ul zotning Olamlarga rahmat ekanliklarini “risolat xutbasida muborak alqobi sayyid ul-mursalin keldi va ul shafe’ ul-muzannibin vasfikim, humoyun sifoti “Va mo arsalnoka illo rahmatan lil-olamin” yozildi”² deb ta’kidlab, go‘zal **tamsil** qilib, **talmeh** vositasida Kalomulllohga nigoh tashlaydi.

Ayni shu oyatlarga hamohang tarzda keladigan imom Buxoriy va Muslim rivoyat qilgan hadislarning birida Rasuli akram qiyomat kunidagi voqealarni so‘zlaydilar. Unga ko‘ra qiyomat qoim bo‘lganda xaloyiq biri-biri bilan aralashib ketadi. Hamma qattiq hayajon va qo‘rquvga tushib, najot topish umidida Odamga boradi. Odam ularni Ibrohimga, Ibrohim Musoga, Muso Iysoga, Iyo alayhissalom esa, menga jo‘natishadi. Shunda meni oldimga kelib najot so‘raganlarga: “Sizlarni shafoat qilaman deyman” va Allohning izni bilan qalbida xantalning urug‘i va undan ham kichik zarradek iymoni bo‘lganlarni jahannamdan qutqaraman, – deganlar³.

Siyrat ilmining bilimdoni Navoiy u zotning komil xulqini madh etar ekan, barcha “kutubi osmoniy”lar shoir uchun talmehli dalil bo‘lib xizmat qiladi:

Nechakim kutubi osmoniy kelib,
Borisinda sendin nishoniy kelib.
Bo‘lub chun zuhuri valodat sanga,

¹ Имом Абу Исо Мухаммад Термизий. Шамоили Мухаммадия 1. Таржима ва шарҳ маллифи Зиёвуддин Раҳим. – Тошкент: “Sharq”, 2020. – Б. 33-34.

² Alisher Navoiy. Saddi Iskandariy. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006. – В. 14.

³ Сайид Мухаммад Ҳасаний. Икки олам сарвари. – Тошкент: Faafur Fулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2019. – Б. 124-125.

Bo‘lub fosh nuri saodat sanga¹.

Payg‘ambarni dalillash usuli bilan vasf qilarkan, sening zoting aql egalarini lol qilsa, mo‘jizalaring oldida ular, hatto payg‘ambarlar ham hayratda qoladilar, chunki ularga nozil qilingan ilohiy kitoblarda ham sening zikring mavjud:

Chu Musog‘a “Tavrot” etib Haq bayon,

Sanga ul bayon ichra mu’jiz ayon.

Bo‘lub chunki Dovud qismi “Zabur”,

Sening mu’jizing anda aylab zuhur.

Chu Isog‘a “Injil” nozil bo‘lub,

Haq anda sifotingga qoyil bo‘lub.

Kalomeki sendin topib intizom,

Aning lafz bar lafzi mu’jiznizom².

Payg‘ambarlar tarixi qissalaridan bizga ma’lumki, Haq taolo Muso alayhissalomga Tavrot, Dovud payg‘ambarga Zabur va Iso Masihga Injilni nozil qilgan. Ushbu “kutubi osmoniy”larda ham payg‘ambarimiz sifatlari keltirilgan. Tavrotda: “Uning ovozi juda shirin, O‘zi esa har jihatdan maftunkor. Ey Quddus qizlari, mana shunday yigit Mening sevgilim, do‘stimdir”³(Qo‘shiq, bob 5/16), – deb ta’riflanadi. Shuningdek, “Yuxanno Injilida: “Agar menga muhabbat qilsalaringiz, vasiyatlarimni tutinglar: men otadan sizlar bilan abadiy sobit bo‘lish uchun Forqilotni talab qilaman”, – deyilgan. Zamondoshlarimizdan ustoz Ahmad Najjor G‘arb olimlaridan biri doktor Karlu Nilinudan: “Forqilotning ma’nosi nima?” deb so‘rasalar... “Bu so‘zning asl ma’nosi “hamd”, ya’ni “ko‘p shukr”, debdi. So‘ngra ustoz Najjor: “Arabcha “hamd” so‘zining Ahmad ishlatalishiga to‘g‘ri keladimi?” desalar, doktor Karlu: “Ha” deb javob qilibdi”⁴. “Iysu ibn Maryam: “Ey Bani Isroil, albatta, men o‘zimdan oldin kelgan Tavrotni tasdiqlovchi va mendan

¹ Alisher Navoiy. Saddi Iskandariy. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006. – B. 14.

² Alisher Navoiy. Saddi Iskandariy. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006. – B. 15.

³ Injilda Rasululloh sollallohu alayhi va sallam haqida. <https://savollar.islom.uz/s/155721>

⁴ Шайх Мухаммад Содик Мухаммад Юсуф. Ҳадис ва Ҳаёт. 19-жуз. Оламларга раҳмат Пайғамбар. – Тошкент: “Sharq”, 2011. – Б. 38.

keyin keluvchi Ahmad ismli Rasulning bashoratini beruvchi, Alloh sizlarga yuborgan Payg‘ambarman”, - deganini esla” (Saf surasi, 6-oyat)¹ .

Navoiy barcha dostonlardagi na’tlarda bo‘lganidek, ushbu vasfiy bobda ham kuchli dalil keltirish va Rasululloh madhida qat’iy izchillikka muhabbat bilan amal qilgani sezilib turadi. Bob so‘ngida shoir u zotni ulug‘lab, barchani unga salovat aytishga undaydi. Har tomonlama yetuklikka erishgan, Komillar komiliga buyuk elchilik – payg‘ambarlik maqomi berilishini ko‘tarinki ruh bilan tasvirlaydi:

“Azzama qadrah” – bu ne xulqi azim,

“Karrama vajhah” – bu ne nafsi karim.

“Hodiyuno kavkabu iqbolih,

Sallu alayhu va alo olihi”².

ya’ni, bu qanday buyuk xulqki, Alloh uni yuksaltirgan, bu qanday go‘zal shaxsiyatki, Alloh uni poklagan! Bizga iqboli yo‘lboshchi bo‘lganga va uning oila a’zolariga salovatlar bo‘lsin.

Hazrat Alisher Navoiy Nabiylari alayhissalomni vasf qilarkan, ham adabiyotni, ham tasavvufni, ham o‘zining idealini ul zotning sur’at-u siyratida ko‘radi. Shuning uchun shoir Muhammad sollallohu alayhi va sallamni Komillar komili – mutlaq komil inson – estetik ideal sifatida madh etib, komillik sifatlarini quyidagi to‘rt yo‘nalishda ta’riflaydi:

- komil xalq;
- komil xulq;
- komil qavl;
- komil fe’l.

Boblarning so‘ngida karamli axloqlar sohibi, olamlarga rahmat bo‘lgan zot – Allohnинг rasulida go‘zal o‘rnak borligini yana bir bor e’tirof etadi. Ul zotni xulqi bilan xulqlanish, sunnatlariga amal qilish, ibratga to‘la hayotini o‘qib-o‘rganish va doimo unga amal qilish komillik sharti, baxt-saodat kaliti ekanligini uqtiradi.

¹ Yuqoridagi manba. – B. 37.

² Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006. – B. 30.

2. 3. Payg‘ambar mo‘jizalari tasvirida dostonlardagi o‘ziga xosliklar

“Hayrat ul-abror”dagi uchinchi va to‘rtinchi na’t boblar payg‘ambar mo‘jizalarining badiiy talqiniga bag‘ishlangan bo‘lib, avvalgi na’t boblarning mantiqiy-mazmuniy davomidir. Ayni paytda, o‘z yaratilish tabiatidan kelib chiqqan holda xususiy jihatlari – o‘zining muayyan tasvir obyektiga, poetik timsollar, betakror o‘xshatishlar, g‘oya va badiyatiga ko‘ra ham boshqa na’t boblardan ajralib turadi. Unda avvalgi ikki bobda aytilgan umumiylik fikrlar davom ettirilib, ijodkor ulardagi umumiylik fikrlarni konkretlashtiradi. Avvalgi boblarda uchragan poetik timsollar zimmasiga aniq vazifalarni yuklab, zarur xulosalar chiqarib, ijodiy maqsadini aniq ifodalaydi.

Uchinchi na’t “Ul nubuvvat quyoshining soyasizligining poyasi, balki quyosh bo‘lmoq aning soyasi va besh barmog‘iga qalam tutmay aqolimi sab’ani yakqalama qilg‘oni, balki jami’ milal avroqig‘a nasx qalami chekkoni”¹ sarlavhasi bilan boshlanib, nubuvvatning ilk yillari qalamga olinadi. Bobni payg‘ambarlik madhi bilan boshlangan Navoiy o‘zi ko‘zlagan va yoritmoqchi bo‘lgan masalani aniq va ravshan belgilab olib, tarixiy-hayotiy voqealarni badiiy tahlil qilishda tarixiy prinsiplarga ham, badiiylik mezonlariga ham qat’iy amal qiladi. Shuning uchun g‘oyaviy jihatdan pishiq, badiiy yuksak, mazmunan teran, tasviriy vositalarga boy va betakror poetik timsollarga ega shohbaytlar bitadi:

Ey sharaf avjida yuzung sham’i mehr,

Soyadek ul shamg‘a niliy sipehr.

Soyalig‘ing bo‘lmasa gar varzishi,

Tushmak ayog‘ingga nedindur ishi.

Turfaki sha’m’ingga biyik poyadin,

Or o‘lubon sham’ kibi soyadin².

Bizga tanish bo‘lgan “soya va nur” ziddiyati ushbu bobda ham, umumiyligi kompozitsiya doirasida asosiy poetik obraz vazifasini bajarib, na’t boblarning orasidagi mazmuniy bog‘liqlik, o‘ziga xos jihatlarni ifodalashga xizmat qiladi.

¹ Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006. – B. 31.

² Yuqorida manba. – B. 31.

Oldingi boblarda kelgan ta’rif-u tavsiflar ushbu bobda yanada yorqinroq ifoda topadi, mukammallahadi.

Rasululloh tasvirida shoir an’anaviy **nur** va **soya** timsollariga murojaat qiladi. “Nur manbayi sifatida sham’, quyosh – mehr, Risolatpanohning chehrasi qalamga olinadi. Ana shu uch timsol misralar aro vobastalik, mazmuniy aloqadorlikni vujudga keltiradi. Ya’ni, sening yuzing Quyosh sham’i yanglig‘. Ko‘k osmon esa, yuzingdan taralgan nurning soyasidir. Shuning uchun ham hamisha oyog‘ing poyiga tushadi. Sening sham’ing buyukligidan, soyadan or qilsa bo‘ladi”¹. “Layli va Majnun” dostonida ayni shu aytilgan fikrlarga hamohang baytlarda his tuyg‘ularning yanada balandroq pardalarga ko‘tarilganini kuzatish mumkin:

Ey jilvagahing sipehri axzar,

Raxshing izi rashki mehri anvar.

Ey mash’ali mehr sha’mi johing,

Bal mehru sipehr xoki rohing.

Bukim sanga charx xoki rahdur,

Me’roj tuni munga guvahdur².

Nabiy sollallohu alayhi va sallam vasfida, asosan, **tanosub va tazod** she’riy san’atlaridan muntazam foydalangan shoir quyosh, mehr, oftob, soya, tun, kecha, nur, yulduz, sha’m, mash’al, oy, falak, sayyoralar kabi samoviy jismlarga va borliqdagি boshqa ashyolarga murojaat qiladi. Ushbu samoviy jismlar xususiyatlarini **tashbeh** va **sifatlash** vositasida o‘z maqsadi yo‘lida chiroyli dalillash (**husni ta’lil**) yo‘li bilan mohirona tasvirlaydi. U zotning yuzini quyoshga, ko‘m-ko‘k osmonni undan taralgan nurning soyasiga o‘xshatgan Navoiy bunday ham qanoatlanmaydi. Balki osmon-u quyosh uning yo‘lidagi chang-g‘uborlardir. Bunga dalil guvoh esa, me’roj tuni. Misradan misraga, baytdan baytga, dostondan dostoniga yuksalib borgan komillar komili tavsifi “Lison ut-tayr” dostonida eng yuksak darajaga ko‘tarilgan. Butun dunyoning yaratilishiga sabab bo‘lgan zot –

¹ Вохидов Р. Алишер Навоий ва илохиёт. – Бухоро: Наврӯз, 1994. – Б. 80.

² Alisher Navoiy. Layli va Majnun. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006. – B. 12.

Buyuk Yaratilmishga Yaratguvchi ham oshiq ekanligi “Qush tili”da shunday bayon qilinadi:

Nuri mavjud ofarinishdin burun,
Ki edi xalqig‘a muddat olti kun.
Qaysi nur, ulkim topib yuz izzu noz,
Ul kelib ma’shuqu, holiq ishqiboz...
Ra’yi chun ko‘rguzdi sha’mi mo‘jizot,
Partavidin ravshan o‘ldi koinot¹.

Payg‘ambarimizning o‘qish-yozishni bilmagan, ummiy bo‘lganlarini Alloh taolo “A’rof” surasining 157-oyatidada: “Ular o‘z huzurlaridagi Tavrot va Injilda yozilgan holida topiladigan, ularni yaxshilikka buyurib, yomonlikdan qaytaradigan, ularga pokiza narsalarni halol qilib, noplarni narsalarni harom qiladigan, ustilaridagi yukni yengillatib, kishanlarni yechadigan ummiy Nabiy, Payg‘ambarga ergashurlar...”², – degan. Yuqorida zikr qilingan oyatlardagi “**ummiy**” so‘zining ikki xil ma’nosи bor. Birinchisi – o‘qish-yozishni o‘rganmaganlik. Ikkinchisi – Alloh taolo tomonidan kitob tushirilmaganlik. Islomgacha arablarda ikki ummiylik ham bor edi. Qur’oni karim nozil bo‘lgandan keyin kitob tushirilmaganlik ummiyligi yo‘q bo‘ldi. O‘qish-yozishni bilmaslik ummiyligi esa, ta’lim bilan yo‘q bo‘ldi. Bu ummiylik oddiy kishilarga nisbatan ayb va nuqsondir. Payg‘ambarimiz sollallohu alayhi va sallamning ummiyliklari esa, maqtov va faxrdir³. Shuningdek, “Baqara”, “Oli Imron”, “Niso”, “Hijr”, “Al-Isro” va boshqa suralarda ham ana shu oyatga hamohang – Qur’oni karimning nozil bo‘lishiga doir lavhalar – oyatlar mavjud. Shubhasiz, bunday ishonchli manbadagi oyat-dalillar Alisher Navoiyga ilhom baxsh etadi:

Zoting edi javhari ulviy najod,
Tutmadi yer soyasi birla savod.

¹ Алишер Навоий. Лисон ут-тайр. – Тошкент: Faafur Fулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2019. – Б. 10 -11.

² Куръони Карим ва ўзбек тилидаги маънолар таржимаси. Шайх Мухаммад Содик Мухаммад Юсуф. – Тошкент: “Sharq”, 2011. – Б. 170.

³ <https://savollar.islom.uz/s/4617>

Qayda savod etgali chekkay raqam,
Qoldi chu mahrum iliyingdin qalam¹.

Garchi u zot xat-savodsiz va o‘qish-yozishni bilmagan bo‘lsa-da, barcha sohada komil, barchaga ibrat ko‘rsatgan inson edi. “Tarixi Muhammadiy” asari va boshqa diniy kitoblarda so‘nggi Payg‘ambarning ummiy bo‘lishini Allohning o‘zi xohlagani, bunda katta-katta ma’nolar borligi ta’kidlanadi. Bu go‘yo Alloh yuborgan “Qur’on”ni Muhammad to‘qib chiqargan degan ig‘volardan, shuningdek, unga bo‘lgan ishonchszlikdan saqlash uchun oldindan qilingan choradek tuyuladi. Shu bois ham u zot: “Men ummiy payg‘ambar – Muhammadman, menden keyin boshqa birorta payg‘ambar bo‘lmaydi. Menga kalomning boshi-yu oxiri va javome’lari ato qilindi”, – deb marhamat qilganlar².

Alisher Navoiy Payg‘ambar sollallohu alayhi va sallamni vasf qilar ekan, u zotning tarjimayi holi va payg‘ambarlik mo‘jizalarini asosiy manba sifatida oladi. Jumladan, uning qalam ushlamagan qo‘llari va noma yuzini qaro qilmagan barmoqlari oyni ikkiga bo‘la olish imkoniga ega ekanligi shunday tasvirlaydi:

Bo‘lmadi gar xoma boshin yormog‘ing,
Yordi qamar xomasini bormog‘ing³.

Hayrat ul-abror”dagi mazkur bayt “Farhod va Shirin” dostonidagi quyidagi baytlarga ishora, tezis vazifasini o‘tagan:

Gar ilgi xoma sori qilmayin mayl,
Qo‘yib xattig‘a boshin yuz tuman xayl.
Necha choki giribon qildi xoma,
To‘kub ashkini afg‘on qildi xoma.
Ochib og‘zin qilay deb dastbo‘si,
Muyassar bo‘lmayin bu orzusi.
Chu bu davlatqa bo‘lmay komron ul,
Qaro og‘riqqa bo‘ldi notavon ul.

¹ Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006. – B. 31.

² Саййид Мухаммад Ҳасаний. Икки олам сарвари. – Тошкент: Ғафур Ғулом нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2019. – Б. 67.

³ Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006. – B. 31.

Dema noleki sihhat topmayin hech,
 Tushubtur rishtai jonig‘a yuz pech.
 Emas tirnog‘i uzra xoma gar shaqq,
 Bo‘lub barmog‘i no‘gidan qamar shaqq.
 Ilik tig‘inki tortib fil-ishora,
 Qamar qolqonin aylab ikki pora.
 Bo‘lub qursi mahi tobонни ikki,
 Kishi andoqki bo‘lg‘ay nonni ikki¹.

Ushbu baytlardagi chiroyli dalillash (**husni talil**), obrazli o‘xshatish (**tashbeh**), ziddiyat (**tazod**) asosiga qurilgan qiyosiy jonlantirish (**tashxis**) va navoiyona nazokat kitobxonga bir tomondan, buyuk siyrat haqida ma’lumot bersa, ikkinchi tomondan, tarixiy haqiqatlarning badiiy talqini orqali qalblarda u zotga muhabbatni yanada yuksaltiradi. Aslida, shoirning maqsadi ham shu – Rasulullohni madh etish orqali unga bo‘lgan muhabbatini izhor qilish, u zotning buyuk hayotidan o‘rnak olib yashashni targ‘ib etib, qiyomatda esa shafoatiga erishishdir.

“Imom Buxoriy rivoyat qilishlaricha, Makka ahli Muhammad alayhissalomdan haqiqiy payg‘ambar ekanliklariga dalil sifatida hujjat – mo‘jiza ko‘rsatishni so‘radilar. Rasululloh sollallohu alayhi va sallam duo qildilar. Alloh taolo u kishining duolarini qabul qildi va oy ikkiga bo‘lindi. Ikki bo‘lak orasida Xiro tog‘i ko‘rinib turardi... Yaqinda Hindistonda tarixiy yodgorliklarni o‘rganish jarayonida bir ibodatxonaning qurilish tarixiga oid hujjatlar ko‘rib chiqildi. Buni qarangki, mazkur hujjatda “Bu ibodatxona oy yorilgan kechaning ertasi kuni qurila boshlangan”, – deb yozilgan ekan².

Rasulullohning go‘zal ko‘rinishlari va komil shamoillari vasfida “**nur**” va “**soya**”dan foydalangan Navoiy, Ul zotning payg‘ambarlik sifatlari madhida “**xoma**” va “**noma**”ga murojaat qiladi. Ushbu istioraviy juftlik payg‘ambar tarixini ochuvchi, asosiy axborot beruvchi hamda misralar orasidagi mantiqiy bog‘liqlikni

¹ Alisher Navoiy. Farhod va Shirin. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006. – B. 14.

² Шайх Мухаммад Содик Мухаммад Юсуф. Ҳадис ва Ҳаёт. 19-жуз. Оламларга раҳмат Пайғамбар. – Тошкент: “Sharq”, 2011. – Б. 584.

ta'minlagan muhim obrazlardir. Shoir poetik fikrini davom ettirar ekan, tarixiy haqiqatlarni g'oyaviy-badiiy jihatdan g'oyatda go'zal baytlarga ko'chiradi. Kichik jumllalarga katta ma'nolar yuklab, teran fikrlashni talab qiladigan dalillash san'atining ustasi sifatida namoyon bo'ladi:

Qo'yjadi gar bu qalaming bir nuqat,
Lek milal nasxig'a ko'p chekti xat.
Yuz qarolig' xoma kibi qildi fosh,
Kimki xatingdin chiqorur bo'ldi bosh.
Tig'i siyosat boshin etti qalam,
Kimki chiqordi raqamingdin qadam¹.

Haqiqatan ham, Payg'ambarimiz sollallohu alayhi va sallam ummiy bo'lsalar-da, o'zidan oldin kelgan ahli kitoblar e'tiqod qilayotgan ilohiy kitoblarga e'tiqod qilishni man etdi. Insonlarning nasxi yo'lida "ko'p chekib xat" hidoyat yo'liga boshladi. Agar bu yo'lda kim adashsa yoki bu yo'lni tark etsa, u xuddi qalam kabi o'zining qoraligin fosh etdi va albatta, munosib jazolarini oldi.

Itsa qalam qayda g'am o'ldi sanga,
Chunki jahon yakqalam o'ldi sanga.
Xattinga bosh qo'ydi Ajam to Arab,
Tutmasang ilginga qalam ne ajab.
O'pmadi ilgingni chu nolon qalam,
Motamiy aylabtur oni bu alam².

"Mazkur satrlar g'oyaviy mazmunining qay tomonga og'ishidan qat'i nazar, ular avvalo, yuksak san'at asari sifatida diqqatni jalg etadi. Alisher Navoiy sohir qalamining mo'jizasi ularda namoyon. Janobi Rasulullohning ummiyligini ulug' shoir o'ta nozik o'rovlardan beradi. "Itsa qalam" ayni o'sha vazifani ado etmoqda. Ibora misrada o'z ma'nosida (qalamning yo'qolishi) emas, majoziy mazmunni (savodning yo'qligini) ifodalab kelayotir"³. Shuningdek, "yakqalam o'ldi",

¹ Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006. – B. 31.

² Yuqoridagi manba. – B. 32.

³ Вохидов Р. Алишер Навоий ва илохиёт. – Бухоро: Наврӯз, 1994. – Б. 84.

“Xattinga bosh qo‘ydi”, “nolon qalam” iboralari ham majoziy ma’noda qo‘llanib, shoir ijodiy maqsadini ifodalashda, baytlardagi poetik fikrni anglash va tushunishda muhim kalit vazifasini o‘tayotir. Bir maqsad atrofida hammani birlashtirmoq, ergashtirmoq degan ma’noni anglatgan – **“yakqalam qilmoq”** iborasi zimmasiga shoir butun payg‘ambarlik missiyasini yuklaydi. Ya’ni, sen butun xalqlarni bir Islom tug‘i ostida birlashtirding, arab ham, Ajam (arab bo‘lmaganlar) ham sening bayrog‘ing ostida birlashdi. Ijodkor keyingi baytlarda o‘z fikrini davom ettirib, “qalam”, “noma”, “xoma” so‘zlariga ko‘p murojaat qiladi. Ular zimmasiga ko‘p ma’nolar ifodalash vazifasini yuklaydi. Ayni paytda, misralardagi tayanch so‘zlearning takrori baytlarga o‘zgacha shukuh bag‘ishlaydi, poetik ifodadagi muhim vositaga aylanadi:

Ey yovumay nomag‘a xomang sening,
Xoma yo‘qu haq sori nomang sening.
Haq azaliy zahmati jovidni sen,
Noma qaro qilg‘on el ummidi sen.
Kimki amal nomasin aylab qaro,
Sen kirib oning qaro joni aro¹.

Hazrat Navoiy xotam ul-anbiyoning o‘qish-yozishni bilmagani – ummiyligini hech qabul qilolmaydi, hatto qattiq afsuslanadi. Oxiri o‘zining xotirjamligiga sabab topadi. Ko‘plarning taqdirini qaro qilgani uchun u zot qalamni qo‘liga olmaydi.

Yuqoridagi baytga kelsak, uning mazmuni shunday: “Sening qalaming yo‘q, ammo sening nomalaring Allohga yaqin. Ya’ni, sen o‘zing ummiy bo‘lsang ham, qilgan ishlaring Alloh oldida eng maqbulidir. Baxtiqarolar uchun azaliy va qadimiy bo‘lgan zot – Alloh tomonidan yuborilgan rahmatsan. Umidsizlikka, baxtiqarolikdan ishonchsizlikka tushganlar joniga oro kirding, ularni hidoyatga boshlading. Sen keltirgan noma – shariat baxtiqarolar uchun zulmatdan chiqqan nurdir”. Ko‘rinadiki, noma so‘zi o‘z ma’nosidan tashqari ham shariat, ham taqdir ma’nolarida kelib, tajnisning mumtoz namunasini hosil qilyapti.

¹ Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006. – B. 32.

Zulmati kufr ulki bo‘lub jam’ anga,
 Har “alif” isloming aro sham’ anga.
 Barcha milolg‘a chu yurub himmating,
 “Lom” ila “te”din lat urub millating.
 Lotki andin edi dinga balo,
 Sen ushotib poyasini bo‘ldi lo¹.

Johiliyat davrida Makka shahridagi odamlar sanam va butlarga sig‘inishgan. Aksariyat odamlar butparast bo‘lib, har bir oilaning o‘z butlari bo‘lgan. Lot arablarning eng mashhur va katta butlaridan bo‘lib, ular butparastlar uchun qadrli va muqaddas iloh darajasiga ko‘tarilgan edi. Shoир Arabiston yarim orolida Islomning yoyilishi, yakka xudolikning targ‘ibi bilan bog‘liq tarixiy voqea-hodisalarini tasvirlar ekan, **iyhom, harfiy, talmeh, tazod** va **husni talil** kabi she’riy san’atlardan unumli foydalanadi. Jumladan, **kufr** va **islom** so‘zlarini bir-biriga qarshi qo‘yish orqali tazodning go‘zal namunasini ko‘rsatadi. Kufr – johiliyat, zulmat manbayi timsoli bo‘lsa, Islom – hidoyat yo‘li, nur manbayi va timsolidir. Islom so‘zi arabcha yozilganda (اسلام) alif harfi bilan boshlanadi. Har doim tik holda satr ustida yoziladigan “alif” harfi badiiy adabiyotda majoziy ma’noda rostlik, to‘g‘rilik, yorug‘likni ifodalashda qo‘l keladi. Shunga ko‘ra, islom (so‘zning arabcha yozilishi nazarda tutilyapti) bag‘rida aliflar go‘yo sham kabi yorug‘lik taratdi. Harfiy san’atdan so‘ng shoир keyingi baytlarda iyhomga murojaat qiladi. Lot so‘zi arabcha لَتْ tarzida yoziladi. Lotdan **te** - ت ketsa, “**la**” ya’ni, arabcha “**yo‘q**” qoladi. Seni himmating sabab kufr (jaholat, zulmat) yo‘qolib, odamlar hidoyatga (islom, yorug‘likka) erishdi.

Kufr eliga ulki bor edi Manot,
 Bo‘ynini sen sidurubon bo‘ldi mot.
 Kufr boshin kesding etib qahr fosh,
 Boshig‘a far qolmadi, jismig‘a bosh².

¹ Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006. – B. 32.
² Yuqoridagi manba. – B. 32.

Johiliyat davridagi mashhur butlardan yana biri – Manot Navoiy komillar komili madhida qo‘llagan **kitobat** san’ati uchun xizmat qiladi. Manot arab yozuvida **منات** tarzda yoziladi. Undan “**nun – ڏ**” harfi olib tashlansa (bo‘yni sindirilsa), **mot – مات** qoladi. “**Mot**” so‘zi shaxmat o‘yinida ishlatiladigan atama va odatda, raqib shohining har tomondan yo‘li berkitilib, uni o‘rab olish, ya’ni, uning yurishiga imkon qoldirmaslikdir. Taslim qilish – yengishdir. Ya’ni, sen kufr eli butlarini yakson qilib, ularni imkonsiz qoldirding. Kufr xalqi kofirlari boshini kesib, ularni boshsiz qilding.

Muhammad sollallohu alayhi va sallamga berilgan payg‘ambarlik jismoniy belgilaridan biri – nubuvvat muhri edi. Bu muhr haqida boshqa dostonlardan ko‘ra “Saddi Iskandariy” dostonida ko‘proq va batafsil so‘z yuritgan Navoiy: “Seni Alloh azaldan to abad shoh qilib yaratgandir. Buning dalili – nabiylilik muhringdir”, – deydi. Bu shunday yulduzki, quyosh nuriga nishon bo‘lgan, balki yulduz emas, Haqning hukmi bitilgan uzukdir. Bu shunday uzukki, sening vujuding sirlari bitilgan oddiy jiism emas, shohlar xazinasidir. Kimgaki shunday uzuk berilsa, bu uzukning ko‘zida yer-u osmon aks etsa, xayron bo‘lmaslik kerak. Sababi – bu uzuk emas, aslida, oy yuzidagi bezakdir, yohud quyosh ustidagi soyadir:

Falak bu baxshish qilurg‘a ne had,
Seni Haq shah etmish azal to abad.
Guvah o‘ldi toji futuvvat munga,
Dalil o‘ldi muhri nubuvvat munga.
Bu muhriki naqshin tutub ul kitif,
Quyosh ichradur axtari munxasif.
Ne axtarki, bir xotam etmish nishon,
Yadulloh aro xotam o‘lg‘on nihon.
Vujudungni chun qildi Haq ganji roz,
Haqiqat duru la’lidin yo‘q ma’joz.
Qilib fosh mahfuzi asror fanin,
Zaruratki muhr etti o‘z maxzanin.

Demay jismkim, ganji shohiydur ul,
Ne xotam, nigini ilohiydur ul.
Angakim ilig bersa mundoq nigin,
Niginida tong yo‘q zamonu zamin.
Gini yo‘qli, oy uzra piroyadur,
Quyosh ustida mushkdin soyadur¹.

Nubuvvat muhri avvalgi samoviy kitoblarda Muhammad sollallohu alayhi va sallam sifatlari qatorida zikr etilgan. Ahli kitoblar orasida ilmli bo‘lgan kishilar buni yaxshi bilganlar va u sabab ba’zilari islomni ham qabul qilgan. Nubuvvat muhri – payg‘ambarimizning ikki kuraklari orasida joylashgan, kabutar tuxumidek kattalikda, atrofi no‘xot donasiga o‘xhash qizil rangdagi xollar va tuklar bilan qoplangan, rangi tanalarining rangi bilan bir xil bo‘lgan, bo‘rtib o‘sib chiqqan bir bo‘lak go‘sht – o‘simtadir.

Jobir ibn Samura roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: “Rasululloh sollallohu alayhi va sallam ikki kuraklari orasidagi kabutar tuxumidek (keladigan) muhrni – qizil g‘uddani ko‘rdim”. Abu Nazra Avaqiydan rivoyat qilinadi: “Men Abu Said Xudriydan Rasululloh sollallohu alayhi va sallam muhrlari haqida so‘radim. U: “(Nubuvvat muhri) u zot orqalarida bo‘rtib chiqqan bir parcha go‘sht edi”, - deb javob berdi².

Payg‘ambarimiz muborak hayotining tarixiy voqealar tasviri bilan uyg‘un davom ettirgan vasflar “Hayrat ul-abror”dagi to‘rtinchi na’tda keladi. Unda, asosan, u zotning payg‘ambarlik mo‘jizalari, payg‘ambarlik faoliyatining qizg‘in davrlari, namozning farz bo‘lishi, xalifayi roshidinlar qalamga olinadi. Islom dinining odamlar qalbiga mustahkam o‘rnashib, yer yuzida keng yoyilgani tarannum etiladi. Payg‘ambar sahabalari, Qur’oni karim, hadislar va unga bog‘liq voqealar badiiyat talablari doirasida baytlarga singdirib yuboriladi:

Ey nafasing moyai e’joz o‘lib,

¹ Alisher Navoiy. Saddi Iskandariy. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006. – B. 16.

² Имом Абу Иса Мухаммад Термизий. Шамоили Мухаммадия 1. Таржима ва шарх маллифи Зиёвуддин Раҳим. – Тошкент: “Sharq”, 2020. – Б. 50.

Ruhi qudus nutqunga hamroz o‘lub.

Gohi takallum sanga mu’jiz kalom,

Nazmi kalomning bori mu’jiz nizom¹.

Payg‘ambarimizga berilgan mo‘jizalardan yana biri, eng ulug‘i bu kalomi sharif – Qur’oni karimdir. Ushbu ilohiy kitob Rasulullohga 22 yil davomida goh 2-3 oyat, ba’zan undan ham ko‘proq hamda to‘liq sura shaklida farishta Ruh ul-Qudus – Jabroil alayhissalom orqali nozil qilingan. O‘z navbatida Muhammad sollallohu alayhi va sallam buni barcha odamlarga Jabroil alayhissalomdan qanday olsalar, shunday yetkazganlar. Yuqoridagi misralarda shunga ishora qilinmoqda.

Barcha payg‘ambarlarning Alloh tomonidan inoyat etilgan betakror fazilatlari bo‘lgani kabi komillar komilining ham betakror, eng go‘zal sifatlaridan biri – xushkalomlikdir. Alloh taolo Hazrat Rasuli akramga shunday ta’sirchan nutq va yoqimli ovoz bergen ediki, eshitgan odam ularga oshufta bo‘lib qolardi. Payg‘ambarimiz qisqa va lo‘nda jumlalar orqali olam-olam ma’nolarni ifodalagan. Faqat haqiqatni aytib o‘z nutqi bilan barchani o‘ziga qarata olgan, shuhrat qozongan. O‘z navbatida, Qur’oni karimdagি islomiy aqidalar, Allohnинг sifatlari, vahdat va tawhid g‘oyalari, mo‘min-musulmonlikning shartlari, falsafa va hikmat ilmi, oldingi o‘tgan nabiyalar va xalqlar tarixi, g‘ayb asrori ifodasi bo‘lgan tilsimli ma’nolar, shuningdek mo‘minlarning kundalik hayotida zarur, doim murojaat etiladigan masalalarni sodda qilib, barchaga tushuntirib bera olgan notiq ham bo‘lganlar.

Nukta fasohatda munaqqah sanga,

Shohidi da’vo: “Ana afsah” sanga.

Sihhati hukm ichra hadising sahih,

Arzi fasohat kaloming fasih.

Nutq aro chun zohir o‘lub mu’jizing,

Ahli fasohat bo‘lubon ojizing².

¹ Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006. – B. 33

² Yuqoridagi manba. – B. 33.

Keltirilgan she’riy parchada ijodkor u zotning yana bir ma’naviy xazinasi, inson kamoloti uchun dastur ul-amal bo‘lgan mo‘jizaviy kalomi, barcha ahloqiy-ma’naviy masalalar yechimi nabaviy hikmatlar – “Hadis”larga ishora qiladi. Hadislar – Qur’oni karimdan keyingi eng mo‘tabar manba hisoblanib, inson hayotining barcha jabhalari: jismoniy, axloqiy, ma’naviy va ruhiy holatini doimiy yoritib turuvchi, tarbiyalovchi nabaviy chiroqdir. Johiliyat paytida arablar orasida adabiyot, ayniqsa, she’riyat juda rivojlangan, ilmi balog‘a va ilmi fasoha yuksak darajaga yetgan edi. Rasululloh ularni haqqa da’vat etar ekan, ummiy payg‘ambar nutqini, va’zini eshitgan fasohat egalari lol qoldilar. Shunga muvofiq keladigan hadislarning birida: “Men arablarning fasihog‘i – ulardan go‘zalroq so‘zlaguvchisi bo‘ldim. Qurayshdanman, Ba’ni Sa’dda ulg‘aydim, Bani Zuhrada emizildim”, - deganlar¹.

Zoting o‘lub bahri javohir nishon,
So‘z aro bahrin kafi gavhar fishon.
Kaf neki, bahre bo‘lub ul panj shox,
Yetti hubob ul suvg‘a bu yetti kox².

Mazmuni: “Seni asling javohirlarga boy dengiz bo‘lib, so‘zlashganda bu dengizning kafi gavharlar sochadi. Bu kaf ham emas, besh shoxdan iborat bahr bo‘lib, yetti osmonni yetti pufakchani yutgandek yutib yuboradi³. Go‘zal tasvirlar va o‘xshatishlar, javohirlarga to‘la dengiz tasviri bilan shoir kitobxonni Arabiston o‘lkasiga, saodat asriga yo‘llaydi.

Jobir roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: “Hudaybiya kuni odamlar chanqab qoldilar. Nabiy sollallohu alayhi va sallamning oldilarida meshcha turardi. Bas, u zot tahorat qildilar. Odamlar u zot tomon shoshildilar. Shunda u zot: “Sizlarga nima bo‘ldi?” - dedilar. “Bizda huzuringizdagidan boshqa tahorat qilishimizga ham, ichishimizga ham suv yo‘q”, - deyishdi. Bas, u zot qo‘llarini meshcha ichiga soldilar. Shunda barmoqlari orasidan xuddi buloqlarga o‘xshab, suv

¹ <https://siyrat.uz/> maqola/10292.

² Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006. – B. 33.

³ Yuqoridagi manba. – B. 259.

otilib chiqa boshladi. Biz ham ichdik, ham tahorat qildik”. “Necha kishi edinglar?” - dedilar. “Yuz ming bo‘lsa ham yetar edi. O‘n besh yuzta (bir ming besh yuzta) edik”, - dedi¹. Uning kichik ko‘ringan, besh dengizga o‘xhatilgan besh barmog‘i oldida, yuksaklarni poyon etgan yetti qavat falak, aslida, yettita pufak kabidir.

Payg‘ambarimiz sollallohu alayhi va sallam odamlarni johiliyatdan hidoyat sari boshlar ekan, bu yo‘lda bosiqlik, xushmuomalalik, go‘zal xulq va sabr bilan ularning ishonchi – iymonini mustahkamladilar. Hidoyat topganlar safi ko‘payib, insonlar hayotiga qiyinchilik tug‘dirmay yangi islom shariati asta-sekinlik bilan olib kirildi, islomning boshqa ruknlari ham navbatma-navbat insonlarga o‘rgatila boshlandi. Ayniqsa, mo‘minlarning me’roji bo‘lgan – namoz farz bo‘lganida muslimmonlar uni bayramdek kutib olgani, kofirlar uchun esa namozning bitmas dardga aylangani “Hayrat ul-abror” dostoni shunday ta’riflanadi:

Xamsa salotingg‘a chu navbat bo‘lub,

Panjayi islomg‘a quvvat bo‘lub.

Kufr qo‘lu panjasini ranja bil.

Bois aning ranjig‘a bu panja bil.

Faqr aro ul panja qabul etdi ranj,

Lek haqiqatda erur panj ganj

Panjai islom chu mahkam solib,

Kufr eti qo‘rg‘onidin xums olib².

Navoiy qo‘lga kiritilgan besh vaqt namozni besh xazina (panj ganj) deb ta’riflaydi. Me’roj tunida muslimonlarga farz bo‘lgan namoz Islom panjasini (dini) tabora mustahkamlanib borayotganiga dalil bo‘lib, ko‘plab sirdan muslimon bo‘lib yurganlarni ham fosh etdi. Faqirlik, Allohga haqiqiy qullik qilish oddiy odamlar uchun ranj, azob ko‘rinsa-da, aslida, insonning Xoliqqa o‘zini xoksor tutib, har kuni besh mahal namozda yuzlanishi eng katta boylikdir. Shuningdek, namoz muslimonlarni bir kunda besh mahal bir yerga to‘plib, ularni birlashtirgan – eng

¹ Шайх Муҳаммад Содик Муҳаммад Юсуф. Ҳадис ва Ҳаёт. 19-жуз. Оламларга раҳмат Пайғамбар. – Тошкент: “Sharq”, 2011. – Б. 496-497.

² Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006. – В. 33.

ulug‘ va yagona ibodat bo‘lib, musulmon jamiyatining ma’naviy hayotida katta ahamiyatga ega edi. Namoz sabab musulmonlar bir-birining kundalik hayotidagi barcha yaxshi-yu yomon, g‘am-u qayg‘u, shod-u xurram kunlarida doimo yonida bo‘lib, haqiqiy ahvollaridan ogoh edi. Hadislarda keltirilishicha, nomozda ko‘rinmay qolgan sahobalarni Rasululloh sollallohu alayhi va sallam so‘rar, ba’zan yonlariga chaqirtirar, agar kasal bo‘lsalar holidan xabar olgani borardilar. Namozga beparvo bo‘lgan shaxslarning hatto guvohligini ham qabul qilmasdilar. Namozning ana shunday katta ijtimoiy-ma’naviy foydalarini bilgan Navoiy yuqoridagi misralarda ta’kidlanganidek, namozni jamiyat va millatni bir davlat sifatida birlashtiradigan, bir maqsad sari yo‘llaydigan Allohning insonlarga bergen eng buyuk ma’naviy panj ganjlaridan biri deb biladi.

Makkadan Madina hijrat qilgan musulmonlar juda oz sonli va kambag‘al bo‘lib, hijratning dastlabki yillarida hamisha dushmanlarining kutilmagan urushidan cho‘chib yashadilar. Madinadagi katta va serhosil yerlarga egalik qiladigan yahudiylar ham, musulmonlar bilan garchi oralarida tinchlik shartnomasi bo‘lsa-da, unga xiyonat qilardi. Natijada Islom tarixidan ma’lum va mashhur bo‘lgan Xaybar urushi bo‘lib o‘tdi. Musulmonlar yahudiylarning yetti qal’asini fath etdi. Ya’ni, shoir tili bilan aytganda, hatto kofirlardan soliq – xums¹ undiradigan bo‘ldi. Islomshunos olimlarning fikricha, aynan Xaybar urushidan keyin musulmonlar Arab jazirasidagi tengsiz kuchga aylandilar. Islom oldida biror jiddiy xavf qolmagan, barcha dushmanlar sindirilgan edi. Keltirilgan parchaning so‘nggi baytida aynan ushbu voqeа badiiy tasvirlanadi.

Panja timsoli zimmasiga ko‘p vazifalarni yuklab, uni dastlab namoz, so‘ng xazina deb ta’riflagan shoir, ushbu badiiy tasvirlarni davom ettirar ekan, navbatdagi misralarda panja timsoli orqali payg‘ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi va sallamning mo‘jizalariga ishora qiladi:

Dema ilik, tig‘eki bir bormog‘i,

Oyni iki bo‘ldi ishora chog‘i.

¹ Xums – urushda qo‘lga kiritilgan o‘ljaning beshdan biriga teng bo‘lgan qismi.

Tong emas ar ul kafi mu'jiznamoy,
Qilg'ach ishorat iki ayrilsa oy.
Noqasi yer uzra chu raftor etib,
Har izi "Shaqqol – qamar" izhor etib¹.

Hazrat Alisher Navoiy ushbu bobda payg'ambar va islom tarixi bilan bog'liq voqealari ketma-ketlikda, izchil yoritadi. Bobning dastlabki qismidagi nabiylar u zotning xulqiy mo'jizalari, uning davomidan xalqiy – amaliy mo'jizalari madh etiladi. Bob yakunida "Ul risolat sipehrining... "as'hobi kan-nujum"² bo'lgan sahabalari, ularning din yo'lida ko'rsatgan jasoratlari qalamga olinadi. Albatta, ularning faoliyati batafsil bayon qilinmaydi, balki muayyan poetik timsollar ishorasida shoir islom shariatini joriy etish yo'lidagi buyuk jasorati va xizmathlarini tezis ko'rinishida baytlarga ko'chiradi.

Xasmidin o'lg'onda anga parda g'or,
Og'zida o'rgamchi bo'lub pardador.
Aylamasun deb el ila parda sayr,
Bayzasidin tugma toqib anda tayr.
Pardasi jon rishtasidin tor o'lub,
Tugmalari gavhari shahvor o'lub.
Qo'ydi chu ul dom ila ul dona g'or,
Ko'rki ne davlat qushun etdi shikor.
G'orda yori bilan ul tez xush,
Tog' ichida o'ylaki oltun-kumush³.

Yuqoridagi baytlarda Makkadan Madinaga hijrat qilgan ikki do'st – Rasululloh sollallohu alayhi va sallam va uning xalifasi bilan bog'liq hadis va ilohiy kalomlarga ishora bor. Aynan ushbu voqeaga dalil ma'nolar ummoni – Kalomi sharifning Tavba surasi 40-oyatida keltiriladi. "...Ular ikkovlon g'orda turganlarida, hamrohiga: "Mahzun bo'lma, albatta, Alloh biz bilan", – dedi. Bas, Alloh uning

¹ Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006. – B. 33.

² Yuqoridagi manba. – B. 33.

³ Yuqoridagi manba. – B. 34.

ustiga o‘z sakinatini nozil qildi va uni siz ko‘rmagan lashkarlar bilan qo‘lladi. Kufr keltirganlarning kalimasini past qildi. Alloh kalimasi o‘zi oliydir. Alloh Aziz va Hakimdir”¹.

Imom Buxoriy Anas roziyallohu anhudan, u Abu Bakr roziyallohu anhudan rivoyat qiladi: Rasululloh sollallohu alayhi va sallam bilan birga g‘orda edim. Boshimni ko‘tarib qarasam, odamlarning oyoqlari ko‘rinyapti. Rasululloh sollallohu alayhi va sallamga: “Yo Rasululloh, agar ular shundoq pastga qarasalar, bizni ko‘radilar”, – dedim. U kishi: “Jim bo‘ling, ey Abu Bakr, ikki kishining uchinchisi Allohdir”, – dedilar. Boshqa rivoyatda: “Uchinchisi Alloh bo‘lgan ikki kishi haqida nima deb o‘ylasiz”, – deyilgan². Komillar komili yaqin safdoshi Abu Bakr bilan birga kofirlardan qochib g‘orga yashirinadi. G‘orga yaqin kelganda, kofirlar ularning izlarini yo‘qotadi. Chunki Allohning inoyati bilan Payg‘ambarimiz va Abu Bakr berkingan g‘or og‘zini o‘rgimchak o‘z to‘ri bilan berkitadi. Kabutar esa shu to‘r ustiga in qurib tuxum qo‘yadi. G‘or oldiga kelgan mushriklar bu manzarani ko‘rib, bu yerga hech kim anchadan beri kelmaganiga ishonch hosil qilib, hafsalalari pir bo‘lib ortlariga qaytadilar.

Navoiy uchun aynan shu oyat va hadislar hujjat-dalil bo‘lib xizmat qilgan. Ijodkor voqeani aynan keltirmaydi. Bu uning maqsadi ham emas. Balki ulug‘ shoир tarixiy voqealarni badiiy sayqallab, navoiyona ta’rif-u tavsif bilan, badiiyat mezonlariga asosan qayta tasvirlaydi. Komillar komilining ushbu holatiga kitobxonni ishontira oladigan va zavqlantira oladigan betakror o‘xshatishlar va tashbehlarga to‘la manzara yorqin bo‘yoqlarda shoир mohir rassomdek tasvirlab beradi. “O‘rni kelganda, mubolag‘aga zo‘r bergen ulug‘ shoир, vaziyat talabiga ko‘ra kichraytirish san’atiga ham tayanadi. O‘rgimchakning tortgan to‘ri – parda, kabutar ini va tuxumi uni shamol tajovuzidan himoya qiluvchi – tugma. Biroq oddiy matodan yasalgan tugma emas. Oliy navli gavhardan bunyod etilgan. Parchada

¹ Шайх Муҳаммад Содик Муҳаммад Юсуф. Ҳадис ва Ҳаёт. 19-жуз. Оламларга раҳмат Пайғамбар. – Тошкент: “Sharq”, 2011. – Б. 209.

² Сафиюраҳмон Муборакфурӣ. АР-РАХИҚУЛ АЛ-МАҲТУМ (муҳрланган жаннат шароби). Расулуллоҳ соллаллоҳу алайҳи васаллам сийратлари. – Самарқанд: Имом Бухорий маркази, 2019. – Б. 161.

nozik qochirimlar mavjud. Buyuk odamlarning poyi qadami tekkani uchun u manzil hashamli qasr tusini oldi”¹.

Kufr chu e’loyi livo aylabon,
Nusrat uchun ding‘a duo aylabon.
Kim iki tandin birin et tojvar,
Biri Abu Jahlu birisi Umar.
Qismati avvalg‘i o‘ldi azob,
Bo‘ldi ikinchida duo mustajob².

Muhammad alayhissalom islom dinini targ‘ib etishning dastlabki yillarida Makka mushriklari tomonidan qattiq tazyiqqa uchraydi. Ul zot yashirinib dinni qabul qilgan ozchilik musulmonlar bilan tog‘-u toshlarda, g‘orlarda ibodat qiladi. Ana shunday kunlarning birida Rasululloh sollallohu alayhi va sallam Allohga yolvorib ularga qarshilik qilayotgan Makkaning ikki buyuk shaxsi yo Abu Jahl yo Umar ibn Xattobni islomga doxil qilishlarini so‘rab duo qiladi. Baytlarda ta’kidlanganidek, Abu Jahlning qismati ayanchli bo‘ldi. Ya’ni, Payg‘ambarimizning amakilari bo‘lmish asli ismi Abd al-Uzzo bo‘lgan bu shaxs islom tarixida Abu Lahab – do‘zax o‘tining otasi laqabi bilan esga olinadi. Butun faoliyatini islomga va uning targ‘ibotchisiga qarshi kurashga bag‘ishlagan, musulmonlar boshiga bitmas-tuganmas balolar yog‘dirgan bu shaxs va uning ayoli muqaddas kitob Qur’oni karimda ham la’natlanadi. “Masad” surasining birinchi va uchinchi oyatlarida aynan ularning xatti-harakatlari bayoni keltiriladi.

Baytlarda ta’kidlangan shaxslarning ikkinchisi – Umar ibn Xattob bo‘lib, u islom dinining targ‘ibi, uning yoyilishiga katta hissa qo‘sghan va jannatga kirishi bashorat qilingan o‘n sahobadan biri, payg‘ambarimiz tomonidan Foruq unvoniga sazovar bo‘lgan, Abu Bakr Siddiqdan keyin 634–644 yillari xalifalik qilgan sharif inson edi. Manbalarda keltirilishicha, Umar roziyallalohu anhu islomga kirgandan so‘ng, islom dini tarafдорлари ko‘payib, musulmonlar ancha-muncha tazyiqlardan qutulgan ekanlar. Hatto Umar ibn Xattob taklifi bilan doim yashirin qilinayotgan

¹ Воҳидов Р. Алишер Навоий ва илоҳиёт. – Бухоро: Наврӯз, 1994. – Б. 86.

² Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006. – B. 34.

ibodatlar, jumladan, namoz ham ochiq-oydin – hammaning ko‘z oldida – Baytullohda o‘qiladigan bo‘lgan ekan.

Abu Jahl va Umar (r.a.) shaxsiyati orqali **talmehma** murojaat qilgan shoir, ularni bir-biriga qarshi qo‘yib, **ezgulik** va **yovuzlik** o‘rtasidagi kurashni **tazod vositasida** tasvirlaydi. Ushbu na’tning keyingi baytlarida xalifalardan – Usmon ibn Affon hamda Hazrati Ali haqida ham xabarlar keltiriladi, ularning din yo‘lidagi xizmatlari olqishlanadi.

Buki kalomulloh angadur nasib,
Kim yo‘q anga mu’jiza andin g‘arib..
Sunbulidek borchha parishon edi,
Jomi’ anga jomii Qur’on edi..
Makkani chun qildi juda dayrdin,
Tig‘ suyi birla yudi g‘ayrdin.
Bo‘ldi vale manzaradin but figan,
So‘ngra nabi haq evida but shikan.
Na’lini gar toji sharaf qildi arsh,
Qildi Ali na’lig‘a egnini farsh¹, –

deya shoir Usmon ibn Affonning Qur’oni karimni jamlab, Mus’hof holiga keltirishi va Hazrat Alining Makka butlarini yo‘q qilishiga ishora qiladi. Payg‘ambar ishining davomchilari bo‘lgan to‘rt sahabani tavsiflar ekan, Payg‘ambar sollallohu alayhi va sallam ruh bo‘lsa, ular to‘rt unsur degan go‘zal qiyosni topadi:

Ruh edi ul bahri nubuvvat duri,
To‘rt rafiqi tananing unsuri², –

Na’t bobning so‘nggida islomning butunlay rivoj topgani, dunyoga yoyilgani faxr bilan tilga olinadi va ularning oila a’zolari, yaqin qarindosh-urug‘lariga rahmatlar va salomlar yo‘llaydi. “Mumtoz badi’ ilmi talablari bo‘yicha, bir necha qismidan iborat bo‘lgan va katta hajmdagi janrlarda mavzu va ohang jihatidan turlicha bo‘lgan qismlarni bir-biriga mantiqiy bog‘lash va yangi maqsadga ko‘chish

¹ Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006. – B. 34.

² Yuqoridagi manba. – B . 46.

uchun bir yoki bir necha taxallus bayti yozmoq lozim bo‘lgan. Dostonlar muqaddima boblarining oxirida ham kelgusi bob uchun debocha vazifasini bajaruvchi baytlar keltirilgan”¹. Hazrat Navoiy ham ilmi badi’ talablariga rioya qilgan holda vasfiy na’t boblar so‘nggida undan keyin keladigan mavzu va yoritiladigan masalaga kitobxonni oldindan tayyorlash, diqqatini tortish maqsadida quyidagi mazmundagi baytlarni bitadi:

Barchaning farqi uzra bo‘lmoq toj,
Sanga fosh etti laylat ul-me’roj².

Aytish mumkinki, barcha na’t boblar kabi ushbu bobda ham Sarvari koinotning din va hidoyat yo‘lidagi faoliyati badiiy talqin etilgan. Ushbu mashaqqatli yo‘lda mislsiz azob chekib, uni sabr va bardosh bilan yengib o‘tgan, butun insoniyatni haqqa chorlab, saodatga boshlagan komillar komilining fazilatlari barchaga o‘rnak sifatida ko‘rsatilib, komillik sari intilish, kamolotga erishishda u zotning siyratlari muhim va buyuk maktab ekanligi mahorat bilan asoslab berilgan.

¹ Давлатов О. Алишер Навоий ижодида Куръон оятлари ва ҳадисларнинг бадиий талқини. PhD диссертация авторефарати. – Самарқанд, 2017. – Б . 46.

² Alisher Navoiy. Sab’ai sayyor. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006. – B. 25.

II BOB BO‘YI CHA XULOSALAR

1. Har bir dostonida na’tlarni ikki masala – vasf va me’roj mavzulariga ajratib, alohida-alohida sarlavhalar ostida kitobxonga taqdim etgan shoir o‘zigacha mavjud an’analar doirasida turib, ular vositasida o‘zining muhim fikrlarini aytishga muvaffaq bo‘lgan. VASF na’tlarda payg‘ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi va sallomning tarjimayi holi, ijtimoiy faoliyati, umuman olganda, u zotgaga tegishli barcha shakliy, qavliy, xalqiy, xulqiy va fe’liy masala hamda sifatlar madh etilgan. Masmunan bir-biriga yaqin bo‘lgan mazkur boblarda muallif o‘zining diniy-tasavvufiy, ijtimoiy-siyosiy va axloqiy-ta’limiy qarashlarini badiiy talqin etgan. Har bir dostonidagi na’t boblarda, doston tabiatidan kelib chiqib, uning mavzusiga uyg‘un muayyan dolzarb masala ko‘tariladi va har bir bobda o‘rganilayotgan mavzu turli rakursda talqin etiladi.

2. “Hayrat ul-abror” dostonida shoir Rasulullohni to‘rt vasfiy bobda madh etar ekan, na’t boblar yaratilishi, mavzu ko‘lami, g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari va mazmuniy joylashishiga ko‘ra ham qat’iy tartibga rivoya etadi. Komillar komiliga bag‘ishlangan na’t boblarning birinchisi – “Avvalg‘i na’t”da u zotning nurlari haqida xabar berib, o‘zining olamning yaratilishi haqidagi diniy-tasavvufiy qarashlari, inson va u bilan bog‘liq insonshunoslik masalalari, komillik hamda komil inson haqidagi tasavvurlarini bayon etadi.

3. Ikkinci na’tda Sarvari koinotning bolalik yillari, dastlabki yashash tarzi, shuningdek, payg‘ambarlik sifati berilguncha o‘tgan davr voqeа-hodisalarini badiiy tasvirlaydi. Uchinchi na’tda payg‘ambarlikning dastlabki yillarini qalamga olgan Navoiy, Rasulullohni islomni yoyish, odamlarni haqqa da’vat etish, haqiqat va iyomon yo‘lida tortgan azob-uqubatlari, ko‘rsatgan mo‘jizalarini tasvirlasa, to‘rtinchи na’tda komil jamiyatning barpo bo‘lishi, Nabiy alayhissalomning payg‘ambarlik va insoniy sifatlari madhi, sahobalar vasfi, haqning g‘alabasi va dunyoda adolatning o‘rnatalishi bayon qilinadi.

4. “Farhod va Shirin” dostonidagi na’tda Rasulullohning komil xulqlari – shakl-u shamoyili, tashqi ko‘rinishlari vasf etilsa, “Layli va Majnun” dostonidagi

bobda komillar komilining Payg‘ambarlik maqomi va buyuk, betakror xalqiy fazilatlari haqida to‘xtaladi.

5. Payg‘ambarlar shohi, ikki olam sababchisi Sarvari koinotning barcha zamonlar uchun ideal rahbar ekanliklarini “Sab’ai sayyor”da madh etilsa, “Saddi Iskandariy”dagi vasf na’tlarda ul zotning “kutubi osmoniy”da kelgan sifatlari, ul zotga berilgan Saidul-mursalin va Shafi’ul-muzannibin maqomlari hamda amin sifatiga alohida to‘xtaladi. “Lison ut-tayr” dostonidagi vasfiy na’tda Olam yaratilishidan boshlab Rasulullohning muborak hayotining so‘ngigacha bo‘lgan tarixiy voqeа-hodisalar haqidagi qisqa xulosaviy baytlarda, Navoiy Haqni tanish va unga yetishish uchun, Haqda bo‘lish hamda uning yo‘lida yurish lozimligini uqtiradi.

6. Payg‘ambarning jismoniy sifatlari, siyrati bilan bog‘liq o‘rinlarda “dur”, “sadaf”, “gavhar” “durri yatim”, “nur”, “soya” kabi poetik timsollaridan foydalangan shoир, u zotning tashqi ko‘rinishi, shakl-u shamoyilini tasvirlashda “nur va soya”, “quyosh”, “mehr”, “yulduz”, “oy”, “falak”, “sha’m”, “chiroq”, “kun va tun”, soch, yuz kabi obrazlarga murojaat qiladi. Payg‘ambarlik sifati, islom dini g‘alabasi, yangi shariatning joriy etilishi va Arab va Ajamga yoyilishi, payg‘ambar mo‘jizalari bilan bog‘liq tasvirlarda Navoiy “noma”, “xoma”, “qalam”, panja, barmoq poetik obrazlaridan unumli foydalangan.

7. Navoiy Nabiy alayhissalomni mutlaq komil inson – estetik ideal sifatida xalqiy sifatlarini tasvirlangan tashbeh, o‘xshatish, husni ta’lil; xulqiy sifatlarini tasvirlarkan iyhom, lutf, ruju; shakl-u shamoyili tasvirida tazod, mubolag‘a, tashxis, harfiy, tanosub san’atlardan foydalansa, amaliy faoliyati hamda mo‘jizalari bilan bog‘liq tasvirlarda talmeh, tamsil va kitobat san’atlariga murojaat qiladi.

III BOB. ME'ROJ NA'TLARDA DINIY-TASAVVUFİY MAZMUN VA BADIYAT

Na'tlarning ikkinchi turkumi – me'roj mavzusi Me'roj voqeasi tavsifiga, uning badiiy talqiniga bag‘ishlangan. Me'roj islom tarixida yuz bergen mashhur voqealardan. Asar muqaddimasida ushbu mavzuga murojaat, avvalo, har bir ijodkor kabi Alisher Navoiy uchun ham Rasulullohning buyukligi, yuksak sharafi va maqomini ta'riflash, vaf etish shoirlik burchi va ummatlik vazifasi bo‘lsa, ikkinchi tomondan, xamsanavis salaflariga munosib javob berishda sinov maydoni edi.

Shoirning adabiy-estetik, diniy-tasavvufiy, axloqiy-ta’limiy va ayniqsa, kosmogonik qarashlarini ifodalashda muhim vosita hisoblangan me'roj na'tlarning shoir ijodidagi o‘rni beqiyos. Shu o‘rinda me'roj haqida muayyan tasavvurga ega bo‘lish talab etiladi.

“Qur’on”i karimning “Al-Isro” surasining 1-oyatida Me'roj kechasi mana shunday berilgan: “(Olloh) bir kecha, O‘z bandasi (Muhammad)ni unga oyat-mo‘jizalarimizdan ko‘rsatish uchun (Makkadagi) Masjid al-Haromdan (Quddusdagi) Biz atrofini barakotli qilib qo‘ygan Masjid al-Aqsoga sayr qildirgan (barcha ayb-u nuqsondan) pok zotdir. Darhaqiqat, U eshitguvchi, ko‘rguvchi zotdir”¹.

Bu oyatga tafsirchi shunday izoh beradi: “Bu – me'roj, ya’ni Olloh huzuriga ko‘tarilish qissasi bo‘lib, u Payg‘ambarimiz solallohu alayhi va sallamning Madinaga hijrat qilishlaridan bir yil ilgari voqe bo‘lgandir. Rasululloh aytadilar: “Bir kecha Masjid al-Haromda ekanman, banogoh huzurimga Jabroil Buroq ismli otni yetaklab keldi va meni o‘sha otga mindirib samoga olib chiqib ketdi. Bir zumda Quddus shahriga yetib keldik. Bu yerdagi Masjid al-Aqsoda ikki rakat nafl namozini o‘qigach, yana Buroqqa minib, Jabroil bilan osmonga yo‘l oldik...”².

Alisher Navoiy asarlari lug‘atida me’rojning quyidagi uchta ma’nosi berilgan:

1. Narvon, shoti. 2. Yuqoriga ko‘tarilish. 3. Muhammad payg‘ambarning

¹ Куръони Карим. Таржима ва изохлар муаллифи Алоуддин Мансур. – Тошкент: Чўлпон, 1992. – Б. 245.

² Yuqoridagi manba. – В. 246.

Makkadan Quddusga borishi va Quddusdan ko‘kka chiqishi¹.

Mana shu ilohiy voqea vaqtlar o‘tgani sayin har bir mo‘min-musulmonni hayajonga solgan bo‘lsa, ijodkorlarni qo‘liga qalam olib ijod qilishga undagan ilhom manbayi bo‘ldi.

Alisher Navoiy ham o‘z asarlarida bu mavzuga bot-bot murojaat etadi. O‘zining barcha asarlarida bu voqeani ta’rif-u tavsif qiladi. Xoh nasriy, xoh nazmiy asarida bo‘lsin, har safar ushbu mavzuni yangi-yangi tasvirlar bilan boyitadi, axloqiy-ma’rifiy qarashlarini betakror tashbehlarga boy misralarda bayon qiladi.

3.1. Me’roj boblarda tungi samo tasviri

Alisher Navoiy “Xamsa”sining barcha dostonlari muqaddima qismida alohida-alohida me’roj boblar mavjud. Ular “Hayrat ul-abror”da 53 bayt, “Farhod va Shirin”da 68 bayt, ”Layli va Majnun”da 100 bayt, “Sab’ai sayyor”da 92 bayt, “Saddi Iskandariy”da 122 bayt va “Lison ut-tayr”da 53 baytni tashkil etadi. Yaxlit kompozitsion qurilishga ega bo‘lgan masnaviyalar tarkibidagi me’roj boblar mazmunan quyidagi uch qismdan tashkil topgan.

3-jadval.

Nº	Asar nomi	Tun tasviri	Me’roj voqeasi tasviri	Yakunlovchi bayt(maqta’)lar	Jami (baytlar soni)
1.	Hayrat ul-abror	6	44	3	53
2.	Farhod va Shirin	8	55	5	68
3.	Layli va Majnun	27	68	5	100
4.	Sab’ai sayyor	14	71	7	92
5.	Saddi Iskandariy	7	111	4	122
6.	Lison ut-tayr	–	48	5	53
	Jami	62	397	29	488

Payg‘ambarning tarjimayi holi, ijtimoiy faoliyati, umuman olganda, u zotga tegishli barcha – shakliy, qavliy, xalqiy, xulqiy va fe’liy jihatlar madh etilgan vasfiy na’tlar nabiy haqidagi Navoiy qarashlarining nazariy qismi bo‘lsa, amaliy qism

¹ Алишер Навоий асарлари тилининг изохли луфати. Тўрт жилдлик. Иккинчи жилд. – Тошкент: Фан, 1983. – Б. 299.

“Haqqa yovuqlashish”, “Alloh bilan muloqotda bo‘lish”, “Fanolik va baqolikka yetishishning namunaviy ko‘rinishi”¹ bo‘lgan – me’roj boblarda aksini topgan. Me’rojlarda shoir o‘zining diniy-tasavvufiy, adabiy-estetik va kosmogonik qarashlarini o‘ta bo‘yoqdor peyzaj fonida **tanosub**, **tashxis**, **tazod** va **tashbeh** orqali san’atkorona tasvirlab (**husni ta’lil**), dostonida fikr yuritmoqchi bo‘lgan asosiy maqsadini qorong‘u kechaning ajoyibotlariga guvoh sifatida samoviy jismlar orasiga yashiradi.

Qalam ahli uchun ilhom manbayi bo‘lgan me’roj kechasi va u bilan bog‘liq mo‘jizaviy hodisalarni “Hayrat ul-abror” dostonida beshinchi na’t – Me’roj bobida batafsil tasvirlaydi. “Me’roj kechasi ta’rifidakim, karimai: “Subhonallazi asro” anga musaddaqi durur va “bi-abdihi laylan minal-masjidil haromi ilal-masjidil-aqso” aning subutig‘a ikki guvohi sodiq”² tezisi bilan boshlangan ushbu bobning sarlavhasidayoq shoir o‘zining asosiy fikrini rad etib bo‘lmas dalillar bilan boshlaydi. Dastlabki olti bayt qorong‘u kecha, keyingi qirq to‘rt bayt me’roj voqeasi tasviriga bag‘ishlansa, yakuniy uch bayt bobning xulosalovchi xususiyatga ega.

“Hayrat ul-abror”dagi me’rojga bag‘ishlangan XI bobning dastlabki olti bayti qorong‘u kecha tasviriga bag‘ishlangan va uni bobning debochasi deyish mumkin. Ushbu na’t bob zulmat qoplagan kecha tasviri bilan boshlanib, unda shoir quyosh botib, qorong‘ulik chulg‘agan osmon manzarasini yaqqol gavdalantiradi:

Bir kecha zulmatqa qolib koinot,
Mehr nihon o‘ylaki aynul-hayot.
Garchiki ul chashma nazardin qochib,
Xizr ko‘k uzra qatarotin sochib³.

Mehr (quyosh – F.I.) botishi bilan tunning boshlanishi – har doim takrorlanadigan tabiiy jarayon. Navoiy ushbu tabiiy jarayondan mohirona foydalani, chiroyli dalillash vositasida tabiiy narsani g‘ayritabiiy holatda (**husni ta’lil**) tasvirlaydi. Hayot manbayi bo‘lgan mehr (quyosh) ko‘zdan yashirinib, butun

¹ Uludağ S. Tasavvuf terimleri sözlüğü. – Istanbul: Kabalcı Yaynevi, 1995. – S. 604.

² Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006. – B. 34.

³ Yuqoridaq manba. – B. 35.

olam – koinotni zulmat qoplagan bo‘lsa ham, garchi ul chashma ko‘zlardan qochgan bo‘lsa-da, Xizr ko‘k uzra qatralar (yulduzlar – *F.I.*) sochib, yangicha go‘zallik yaratardi. Shoир “quyosh”, “yulduз”, “kecha”, “koinot” obrazlari **tanosubidan** foydalanib, qorong‘u kechani tasvirlar ekan, Xizr haqidagi rivoyatga ishora qilib, **talmehdan** mohirona foydalanadi. “Ulug‘ shoирning badiiy tafakkurida biz uning o‘zgacha jiloda tovlanishini ko‘ramiz. Zulmat va Xizr egizak tushunchalar. Iskandar va Xizr o‘sha zulmat qa’ridan obi hayvon – boqiylik suvini izlashdi. Rivoyatga ko‘ra, uni qo‘lga kiritish Xizrga nasib etdi. Alloh inoyati tufayli uning taqdiriga mangulik bitildi”¹.

Xizr haqidagi ma’lumotlar dastlab, islomiy manbalarda Qur’oni karimning Kahf surasi 60-82 oyatlaridagi “Muso alayhissalom va solih banda” haqidagi qissasi hamda payg‘ambarimiz hadislarida beriladi. Sharq adabiyoti, xususan, Navoiy ijodida ham Xizr obrazi va u bilan bog‘liq voqeа-hodisalar, poetik obraz sifatidagi majoziy-irfoniy talqinlarning asosi ham Kalomullohdagi yuqoridagi oyatlari hisoblanadi. Shu o‘rinda aytish mumkinki, “Muso alayhissalomning Xizrn ni istashi va u bilan muloqoti tasavvuf adabiyotida ham timsol-tamsillik, ham ramz-majozlik bobida muhim o‘rin tutadi. Bunda Muso sayr-u sulukni ixtiyor etgan solik, Xizr esa murshidi vali timsolida anglanadi”². Avval bo‘lib o‘tgan va keljakda sodir bo‘ladigan voqealar ilmidan boxabar bo‘lgan Xizr siymosi adabiyotda xayr-u baraka, baxt-u saodat timsoli bo‘lib, tasavvuf istilohi sifatida “tiriklik suvi”, “hayot manbayi”, “tuganmas ilm” ma’nolarini ifodalab, “hayot chashmasi” – ilohiy ma’rifat bulog‘i, ilhom manbayini anglatib kelsa, Xizr shu ma’rifatga undovchi piri aziz timsolidir. Shoир ijodida “chashmayi hayvon”, “obi hayot”, “Xizr suyi”, “obi hayvon”, “hayvon suyi” kabi obrazlarning yuqoridagi ma’nolarda bot-bot qo‘llanganligiga amin bo‘lamiz.

Keyingi misralarda shoир, sevgan insonini intazorlik bilan kutayotgan inson holati va his-tuyg‘ularini samo jismlariga **tashxislab** **tashbehlaydi**. Koinotdagи barcha samoviy ashyolar: o-yu quyosh, yulduzlar, burjlar, yetti qavat osmon ya’ni,

¹ Воҳидов Р. Алишер Навоий ва илоҳиёт. – Бухоро: Наврӯз, 1994. – Б. 61.

² Кобилов У. Нубуvvat ҳакикати – бадиий ижод руҳи. – Самарқанд, 2021. – Б. 236.

koinotdagi eng kichik zarradan ulkan sayyoragacha – hamma-hammasi ilohiy voqeani ko‘rishga tayyorlanadi, komillar komili, xotam ul-anbiyo yo‘liga intazorlik bilan boqadi.

Tun qilibon gardini anbarsirisht
Butratibon yerga nasimi behisht.
Yer kuraviy shakl ila mijmar bo‘lub
Kecha savodi anga anbar bo‘lub¹.

Ushbu uchrashuvga har bir ishtirokchi munosib tayyorlanayotgan edi. Ya’ni, tun changlarini anbarga aylantirar, jannat shabadalari uni yer ustidan sochardi. Yumaloq shakldagi yer mijmar – cho‘g‘don, xo‘shbo‘y idishga aylanib, tun o‘z qorong‘uligidan unda go‘yo anbar tayyorlayotgandek edi.

O‘t kibi yer mijmari ostida mehr,
Yopib etak mijmari uzra sipehr.
Yog‘ubon oromu sukun yog‘ini,
Past qilib hodisa tufrog‘in.

Ya’ni, yer idishi ostida quyosh o‘t yoqayotgan, idishni esa Osmon o‘z etagi bilan yopib turgandek ko‘zga tashlanardi. Orom va tinchlik yomg‘iri yog‘ib, yuz berayotgan hodisalar to‘zonini pasaytirishga intilardi². Qorong‘u kechani tasvirlar ekan, Navoiy nafaqat iste’dodli shoир, balki, ilmi nujum, falakiyat, riyoziyot kabi ilmlarning ham bilimdoni sifatida gavdalanadi.

Navoiyning komillik va komil inson haqidagi asosiy qarashlarini bayon etgan “shavq dostoni” “Farhod va Shirin”dagi me’roj ham qorong‘u kecha tasviri bilan boshlanadi. “Ul shahsuvor vasfidakim, qarong‘u tunda tiyra xokdondin Buroqi barqvash uzra chiqqoni “Min az-zulumoti ilan-nur”din muxbir erdi, balki ul rokibning pok zoti ostidag‘i pok oti, bila “nurin alo nur”din xabar berdi va bu nurlar malakut shabistonini munavvar va malak”³ sarlavhasi bilan boshlangan ushbu 68 baytdan iborat na’tning dastlabki sakkiz bayti tun tasviri, ellik olti bayti me’roj

¹ Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006. – B. 35.

² Yuqorida manba. – B. 261.

³ Alisher Navoiy. Farhod va Shirin. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006. – B. 14.

voqeasi va so'nggi besh bayti shoirning shafoat umididagi iltijolaridan iborat. Sarlavha asarning siqiq mazmuni bo'lib, bu har bir shoirga alohida mas'uliyat yuklaydi. Chunki, sarlavha yaratishdagi eng qiyin vazifa – shoir ko'zlagan adabiy maqsadni yangi ifodalar orqali muxtasar taqdim etishdir. Alisher Navoiy barcha asarlarida "katta mehnat va mahorat bilan kichik bir sarlavhani o'sha bob mazmuniga ham, butun asardan ko'zlangan maqsad va mavzuga ham muvofiqlashtirishga intiladi..." hamda "sarlavhaga axborot berishdan tashqari, mazmunni yangicha obrazli ifodalash, estetik zavq berish, badiiy mahoratni ko'rsatish singari funksiyalarni yuklaydi"¹. O'zining asosiy maqsad va g'oyasini sarlavhadan boshlaydigan Navoiy, bobning "*qarong'u tunda tiyra xokdondin Buroqi barqvash uzra chiqqoni "Minaz-zulumoti ilan-nur" din muxbir erdi*" jumlasidayoq, yoritilishi kerak bo'lган masalani aniq va ravshan bayon etib, nafaqat ushbu bob, balki butun bir doston uchun ishora qiladigan xabarni beradi. "Min az-zulumoti ilan-nur" din muxbir erdi" jumlesi sarlavhadagi asosiy tezis bo'lib, komillar komilining "nodonlik, jaholat, g'azab, hasad, makr... bir so'z bilan aytganda yovuzlik in qurgan tuproq olamidan chiqib, Ilohiy nurga g'arq malakut va lohut olamlarini sayr etgani va olamdagи osiy bandalarga ayni shafoat bo'lib qaytgani Farhoddek Ilohiy Haqiqat va Muhabbat yo'lidagi soliklarga ibrat namunasi sifatida"²gi talqinidir.

Ul aqshomkim, yuzida lu'bati Chin,
Eshib marg'ula yoydi zulfi mushkin.
Nasim ul mushk isin butrotti har yon,
Havo ra'nolarig'a sotti har yon³.

Chin go'zali mushkini atrofga yoygan oqshom chiroyi bilan boshlangan ushbu bobda shoir tun tasviri berilgan ilk baytlardanoq, voqealar joyi bo'lib o'tadigan makon – Chin yurti, uning bosh qahramoni Farhodga ishora bo'lган

¹ И smoилов И. Алишер Навоий "Садди Искандарий" достони қиёсий таҳлили. PhD диссертацияси. – Тошкент, 2019. – Б. 44.

² Давлатов О. Алишер Навоий ижодида Куръон оятлари ва хадисларнинг бадиий талқини. PhD диссертация авторефарати. – Самарқанд, 2017. – Б. 46.

³ Alisher Navoiy. Farhod va Shirin. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006. – B. 15.

tasvir vositalari va obrazlardan foydalanadi. Ijodkor kitobxonga asar haqidagi dastlabki informatsiyalarni bera boshlaydi. Lu’bati Chin – “chin go‘zali tunning rashkini keltirib, mushkin sochlarini olam uzra yoydi. Sabo mushk hidini qanotiga olib, havo ra’nolariga tortiq qildi”¹.

Yoshundi mushk ichinda Chin g‘azoli,

Dema Chinkim, falak zarrin g‘azoli.

Qayu zarrin g‘azola, turki chin de,

Qaro tufroqqa kirgon mahjabin de².

Tun tasviridagi obrazlar va sujet detallaridagi o‘xshashliklar, asar kompozitsiyasini shakllantirishda ijodkor yaxlit uyg‘unlikka intilganidan dalolatdir. Xushbo‘y mushk tarqatib tun rashkini qo‘zg‘agan Chin g‘izoli mushk ichiga berkindi. Aslida, bu Chin g‘izoli emas, falak zarrin g‘izolidir. Qorong‘u kecha tasvirini berarkan, shoир kuchli **mubolag‘a** asosida **rujuga** ruju qo‘yadi. Ya’ni, buni nainki zarrin g‘izol, Chinning go‘zali, balki qaro yerga kirgan oy yuzli deydi.

Qo‘yosh so‘gi ishi kirgach arog‘a,

Falak lu’batlari kirdi qarog‘a.

Ne so‘gu ne qaro, iqbol shomi,

Jahonning asru farruxfol shomi,

Bo‘lub har shabnami Nohid yanglig‘,

Yorub har axtari xurshid yanglig³.

Quyoshning botishi bilan kirgan shom motam kabitdir. Aslida, bu motam emas, balki uzoq vaqtidan beri kutilgan “iqbol shomi”, jahonning “farruxfol shomi” – eng baxtiyor kechasi edi. Har bir shabnam Nohid (Zuhra) misoli yorug‘, yulduzlar quyosh singari porloq edi. O‘ta bo‘yoqdor, tashbehli tasvirlar Me’roj tunidagi osmon jismlarining barchasini ko‘z oldimizda yaqqol gavdalantiradi. Ushbu uchrashuvni sabrsizlik va xursandchilik bilan kutayotgan samoviy jismlar holatini

¹ Алишер Навоий. Фарход ва Ширин. Тўлиқ насрий табдил муаллифи Манзар Абдулхайр. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2021. – Б. 16.

² Alisher Navoiy. Farhod va Shirin. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006. – B. 15.

³ Yuqoridagi manba. – B. 15.

tungi mehmon yo‘lini poylagan yuz ming ochiq yuzli hurlarga qiyoslab shoir qorong‘u kecha tasvirini yakuniga yetkazadi:

Yorug‘luq muncha yo‘q anjumg‘a maqdur,
Ochib ruxsori sham’in yuz tuman hur¹.

“Xamsa”sining uchinchi dostoni – “Layli va Majnun”ni Navoiy “Firoqnama”, “Nomayi dard” deb ataydi, uni katta dard bilan boshlab qayg‘u bilan yakunlaydi. “Hayrat ul-abror” va “Farhod va Shirin”dagi kabi dostondagi IV me’roj bobি qorong‘u kecha tasviri bilan emas, balki g‘am shomi xayolida mashaqqat chekayotgan kishi holati tasviri bilan ochiladi.

G‘am shomida zoru ranjparvard,
Kezmak necha oy xayoli shabgard.
Necha g‘am aro tuzub tarona,
Bu shomdin aytmoq fasona².

Navoiy ushbu dostonida bir oz lirik chekinish qilib, dastlab, o‘zining ruhiy holatini tasvirlaydi. Bu fasonani aytishidan maqsadi, bu yo‘ldagi qiyinchiliklar, “umrning befoyda o‘tgan lahzalaridan pushaymonlik, ertangi kun iztirobi, ruhiy tushkunlik va umidsizlikdan qutulmoq yo‘llarini axtarish kabi holatlarni tasvirlagan”³ hamda bu shom afsonasini “fasonasi uzun”, “qayg‘usi fuzun”, savdosida “ko‘z bo‘lur qorong‘u” deb tariflaydi:

Kim, tuli hayotim etti nobud,
Savdosida hech topmadim sud.
Vah, ne kechakim, qaro baloyi,
Kun ganjini ko‘mgan ajdahoyi.
Dilbar sochidek harosi jonda,
Men munda, nechukki ko‘nglum onda.
Bu shom fasonasi uzundur,
Haddin qaro qayg‘usi fuzundur.

¹ Alisher Navoiy. Farhod va Shirin. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006. – B. 15.

² Alisher Navoiy. Layli va Majnun. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006. – B. 15.

³ Давлатов О. Алишер Навоий ижодида Куръон оятлари ва ҳадисларнинг бадиий талқини. PhD диссертация авторефарати. – Самарқанд, 2017. – Б. 46.

Fikriga tutar ko‘ngilni qayg‘u,
Savdosiga ko‘z bo‘lur qorong‘u,
Jon mehnati keldi zikri oning,
Umr ofati bo‘ldi fikri oning¹.

Bobning ilk jumlasidanoq dostondagi voqealarga ishora qilgan Navoiy, bobni qorong‘ulik, zulmat bilan qoplangan shom tasviri bilan boshlab, birgina “g‘am shomi” jumlesi orqali butun asar ruhiyatini ko‘rsatib, kitobxonni sergaklantiradi. Kelgusidagi voqealarga ishora qiladi. Odatda, salbiy ma’no ustuvorlik qiladigan shom paytiga xalqimiz orasida ham, hadislarda ham alohida e’tibor beriladi. Jobir ibn Abdulloh raziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: Payg‘ambarimiz sallallohu alayhi va sallam: “Idishlaringiz ustini yoping, qopning og‘zini bog‘lang, eshiklarni qulflang, shom kirganida bolalaringizni qaytaringlar. Sababi, (bu paytda) jinlarning tarqalishi va tez harakatlanishi bor...” (Imom Buxoriy, Imom Abu Dovud va Imom Ahmad rivoyati)².

Bobning boshida o‘zining ruhiy holati va kechinmalarini g‘am shomi bahona to‘kib, ruhiy ko‘tarinkilikka erishgan shoir to‘qqizinchi baytdan boshlab, “Bu kechaga yakun istasang, undan – u shomdan hikoyatni boshlagin”, – deb qorong‘u kecha – tun tasviriga o‘tadi:

Bu shomg‘a istasang nihoyat,
Ul shomdin aylagil hikoyat.
Kim rangi edi chu mushki nobi,
Har yulduzi rashki oftobi.
Shabnamlarikim, sochib zaroyir.
Olamni tutub nujumi soyir.
Tun gardin shabnami qilib gum,
G‘am tiyralig‘in dog‘i ul anjum³.

¹ Alisher Navoiy. Layli va Majnun. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006. – B. 15.

² <https://hidoyat.uz/>

³ Alisher Navoiy. Layli va Majnun. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006. – B. 15.

Rangi mushk kabi qora tun quyosh rashk qiladigan yulduzlar bilan to‘la. Shabnamlar sochgan zarralar osmonni egallagan yulduzlar somoniga o‘xshaydi. Ilmi nujum fanidan ma’lumki, bir necha minglab yulduzlarning bir doirada joylashuvi somon yo‘li deyiladi. Falak ilmidan ham xabardor bo‘lgan Navoiy Quyoshning rashkini (**tashxis**) keltirgan somon yo‘lini **tanosub** peyzajida chiroyligi (**husni ta’lil**) tasvirlab, tun changini shabnam yopganidek, g‘am-qayg‘u zulmatini yulduzlar aritganini aytadi. Tashxisli tasvirlar davom ettirilar ekan, unda samo, kecha va kunduzning bu uchrashuvga qanday tayyorgarlik ko‘rishi, kechaning yuzidagi xolini artishi-yu bundan kunduzning uyalib xijolat chekishi ham, ularning ishidan zangori osmon tishlarini ko‘rsatib kulishi ham chetda qolmaydi.

Gardun chiqorib kecha palosin,

Davrong‘a yopib sahar libosin.

Tun dahr yuzidin oritib meng,

Kunduzni o‘ziga tutmayin teng.

Kunduz uyolib bu holatidin

Kim, yerga kirib xijolatidin,

Bu ishga kulub sipehri xazro

Kim, tishlarin aylab oshkoro¹.

Ayniqsa, yulduzlarning sho‘x-shodon bo‘lib “Val-layl”ni takror-takror o‘qishlari, ularning sho‘xliklari haddidan oshgandan so‘ng, qismat ustoziga oyoqlaridan falaqqa bog‘lab jazolashi kabi tasvirlarida hayotiy detallardan ustalik bilan foydalangan shoir bu go‘zal ifodalari bilan kitobxonni ortga, o‘tmishga nazar solib, keljak uchun to‘g‘ri xulosa chiqarishga undayotgandek, go‘yo:

Atfoli nujum aylabon mayl

O‘qurg‘avu o‘qumog‘i “Val-layl”².

Chun la’bu nishot alarg‘a ortib,

Ustodi qazo falaqqa tortib,

Yo‘qkim bori ranju g‘ussadin shod,

¹ Alisher Navoiy. Layli va Majnun. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006. – B. 16.

² Val-layl iborasi, Kalomullohning 92 - “Layl” surasining ilk oyatlardan.

Ya’niki falak g‘amidin ozod¹.

Ushbu kechaning yana bir qahramoni – Iso alayhissalom zulmat o‘rnini yuz minglab hurlar nur sochib turgan osmon, shudringlardan yog‘ayotgan obihayotdan taajjubda edi. Samoning har tarafini kezib yurib, bot-bot jon bag‘ishlovchi nafas chiqarsa, olamda hayotbaxsh shabada esardi.

Qolmay falak ichra zulmat oti,

Borin supurub, malak qanoti.

Degilki havoda yuz tuman hur,

Orazlaridin sochar edi nur.

Oraz xayidin sochib nihoni,

Shudrun kibi obi zindagoni.

Isoni taajjub aylabon lol,

Haryon falak uzra muztarib hol.

Bot-botki olib dami ravonbaxsh,

Olamg‘a esib nasimi jonbaxsh².

Islomiy ta’limotga ko‘ra, Iso alayhissalom, Muhammad alayhissalomdan oldin rasul qilib yuborilgan payg‘ambarlardan biri bo‘lib, yahudiy va nasroniyalar Iso alayhissalomning o‘ldirilganligini da’vo qiladilar. Haqiqatda esa Alloh taolo Qur’oni karimning Niso surasi 157-158-oyatlarida shunday marhamat qiladi: “Albatta, biz Allohnинг Rasuli Iyso Masiyh ibn Maryamni o‘ldirdik”, – deganlari uchun... uni aniq o‘ldirmadilar. Balki, Alloh uni O‘ziga ko‘tardi”³.

“Umm ul-ma’no”ga tayangan Navoiy uchun Iso alayhissalomning samoda kezishiga hech bir monelik yo‘q. Shuning uchun tun tasvirini yakunlar ekan, shoir, **rujuga** murojaat qilib, ko‘tarinki kayfiyatda, oqshomni oqshom emas, umid tongi, balki mangulik tongi degin, ushbu kechada jilvalanuvchi shamni sham emas, balki, Taroz mash’alasi, mash’al ham emas, munavvar oy yoki nurli quyosh bilgin, degan xulosaviy baytlarni bitadi:

¹ Yuqorida manba. – B. 16.

² Alisher Navoiy. Layli va Majnun. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006. – B. 16.

³ Шайх Мухаммад Содик Мухаммад Юсуф. Ҳадис ва Ҳаёт. 20 жуз. Анбиёлар қиссаси. – Тошкент: “HIOL-NASHR” нашриёти, 2020. – Б. 567.

Oqshom demagilki, subhi ummed,

Ne subhi umed, subhi jovid.

Mundoq kecha sham'i jilvasozi.

Ne sham'ki, mash'ali tirozi.

Mash'al demagil, mahi munavvar,

Ne mash'alu mahki, mehri anvar¹.

Alisher Navoiyning yana bir sevgi qissasiga bag'ishlangan dostoni –“Sab'ai sayyor”dagi me'roj bob ham qorong'u tun tasviri bilan ochiladi. Boshqa dostonlardan farqli o'laroq, shoir ushbu bobning sarlavhasida, ilohiy yoki hadislardan iqtibos keltirmagan “Ul musofiri bavodiypaymo, balki ul rokibi samovotpaymo me'roji kechasining ta'rifikim, buroqi barqgomliq va payki buroq xiromliq qildi va ul raxsh bila payk xayol yetmas yergacha chopti va ul chopmoq bila hakimi xirad fahmi bovar etmas nimalar topti” sarlavhasi bilan boshlanadi. Ushbu dostonda ijodkor kecha tasviriga 14 bayt ajratgan. Kechaning betakror ta'rifi va buyuk voqeaga butun koinotning tungi tayyorgarligi tasviri ushbu bobni ochuvchi baytlar hisoblanadi va o'z o'rnida ushbu baytlardan shoirning bu ilohiy voqeaga cheksiz ishonchi, muhabbatи hamda alohida daqiqlik, nazokat va ehtiyyotkorlik bilan yondashganiga amin bo'lamiz:

Ul kechakim edi abir sirisht,

Qadr aro g'ayrati savodi bihisht,

Hur gisularin jahong'a ochib,

Anbari mushkin osmong'a sochib.

Gisuyi mushkbo' jahonni tutub,

Mushkining atri osmonni tutub².

Odatda, qorong'ulikdan so'ng hamisha yorug'lik kelganidek, Navoiy ushbu bobni qorong'u kecha tasviridan boshlab, “mushk”, “mushk anbar”, “mushkbo”, “gisu” kabi obrazlar bilan kecha “zulmatiga zulmat qo'shib”, o'quvchini buyuk “yorug'likka” – hidoyatga tayyorlaydi. Bu yo'lda jannat hurlari va samo jismlari

¹ Alisher Navoiy. Layli va Majnun. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006. – B. 16.

² Alisher Navoiy. Sab'ai sayyor. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006. – B. 16.

yordamga shoshiladi, buyuk voqea guvohi va ishtirokchisi bo‘lishga intilib, barchasi o‘zi xos tayyorgarlik ko‘radi. Tabiat xushbo‘y hid taratib, jannat kishvari g‘ayrat qiladi. Hurlar kokillarini yoyib, anbar-u mushkini olamga sochdi, sochingning xushbo‘y atri esa butun osmonni egalladi. Ushbu tasvirlarda shoir yana bir bor **tanosub** va **tashxis** uyg‘unligidagi go‘zal kechani tasvirlab, **tashbeh** vositasida unga jon bag‘ishlaydi:

Shom zebolari qilib zohir.

Tun shabistonida bo‘lib soyir.

Ochibon har charog‘i kofuriy,

Dud ila bir niqobi zanburiy.

Tun dumog‘i isi bila masrur¹.

“Kecha hurlari chiqib, tun qorong‘uligida sayr eta boshladilar. Oq chiroqlar chiqib zambarak tutunlaridagi kabi parda hosil qildilar. Tutun emas, xushbo‘y tutatqi tarattilar, bundan tunning dimog‘i chog‘ bo‘ldi”². Charx esa bu xo‘shbo‘y tutun va mushk atri uchun kuldon tutib, yer yuziga falak eshiklarini ochdi:

Charx mijmar yoyib bu dud uzra,

Atri mushku buxur ud uzra.

Charxi atlaski bu riyoh topib,

Atlasin buyla mijmar uzra yopib.

Yer yuziga malak bo‘lib nozil,

Charx abvobi fath o‘lub hosil³.

“Me’roj kechasiga oid bo‘lgan oyatlarda malaklarning yerga nozil bo‘lishi haqida hech qanday ishora yo‘q. Faqat Qur’oni karim nozil bo‘lgan qadr kechasi ta’rifidagi surada farishtalar o‘z Robbilari amri bilan yerga nuzul etishi to‘g‘risida oyat mavjud. Navoiy ta’vil yo‘li bilan borib, me’roj kechasi ham o‘z ahamiyati va mo‘jizaviyligi bilan qadr kechasidan kam emasligini hisobga olgan holda

¹ Alisher Navoiy. Sab’ai sayyor. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006. – B. 16.

² Yuqoridagi manba. – B. 295.

³ Yuqoridagi manba. – B. 16.

farishtalarning yerga tushishlarini tasvir etgan”¹. Navoiy uchun payg‘ambarimiz bilan bog‘liq barcha voqeа-hodisalar, u zot ko‘rsatgan mo‘jizalar va qoldirgan boy ma’naviy merosi tuganmas ilhom manbayi, cheksiz ma’nolar xazinasi bo‘lib xizmat qilgan. Nabiy hayotini har bir mayda detallargacha puxta o‘rgangan va to‘g‘ri idrok etgan shoir na’tlarda ham poetik, ham estetik jihatdan mukammal shohbaytlarni bitadi, u zotga bo‘lgan adoqsiz muhabbatini eng go‘zal ta’rif-u tavsiflarda izhor etadi. Ana shunday haroratli baytlarga “Saddi Iskandariy”dagi kecha tasvirida ham duch kelamiz. Qorong‘u kecha ta’rifidagi dastlabki baytda bu kechani butun koinot jamoliga xol bo‘lgan eng baxtiyor kecha, go‘zal kecha deb ta’riflasa, keyingi baytda mubolag‘ani kuchaytirib, tashbehga ruju qo‘yadi, balki u xol emas, butun borliqqa xushbo‘y is taratayotgan kokildir, – deb tasvirni bo‘rttiradi:

Ne shom ul shabistoni farxundafol,

Bulub ofarinish uzorig‘a xol.

Demay xolkim, gesuyi mushkrez,

Qilib ofarinish uza mushkrez².

Ya’ni, kecha ham ilohiy uchrashuvga o‘ziga xos tayyorlanayotgan edi. Kecha taratgan mushk hidi Sarvari koinotning jamoliga mushtoq bo‘lgan tun mezbonlari kutayotgan onlar kelganini oshkor etdi.

Chu oning bo‘lub oshkorosi isi,

Jahonni tutub mushkisoro isi.

Taaniy bila junbush aylab nasim,

Yoyib mushk zimnida avroqi sim.

Ne simin varaq, balki yuz lam’a nur,

Qilib ul shabistonda xar yon zuhur³.

Navoiy ta’rificha, olamlar sarvari bo‘lgan zotning rahmatiga erishish uchun butun koinotdagi yaratilmishlarga uning ushbu tungi sayri katta imkoniyat va baxtdir. Shuning uchun, buyuk voqeaga guvoh bo‘lishga shoshilgan koinot jismlari,

¹ Давлатов О. Алишер Навоий ижодида Қуръон оятлари ва ҳадисларнинг бадиий талқини. PhD дисс. автор. – Самарқанд, 2017. – Б. 46.

² Alisher Navoiy. Saddi Iskandariy. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006. – B. 17.

³ Yuqoridagi manba. – B. 17.

o‘zini har jihatdan, ushbu uchrashuvga mukammal tayyorlayotgan edilar. Shamol ohista esib, falak uzra mushk hidini yoydi. Butun koinotga yorug‘lik baxsh etdi. Har yondan tarala boshlagan yuzlab nurlar qorong‘u kechani charog‘on qilib, yer yuzini ham yoritdi. Nafaqat yer yuzini, balki butun koinotni yoritdi. Bu yorishishdan falak gulshani jannat bo‘stoni bo‘ldi, samo yulduzlari esa jannatmakon bo‘ldilar, mazmunidagi vasflarini shoir shunday izhor qiladi:

Ul anvordan jirmi g‘abro yorub,
Ne g‘abro, shabistoni xazro yorub.
Falak gulshani ravza bo‘stonidek,
Sipehr axtari xuld rizvonidek¹.

Salaflari ijodiy an'analarini munosib davomchisi bo‘lgan Alisher Navoiy, an'anani buzmagan holda, buyuk beshlikning yakunlovchisi “Saddi Iskandariy” dostonida ham qorong‘u kecha tasvirini original tashbeh, navoiyona nazokat va betakror tavsiiflar bilan buyuk rassomdek ish tutadi. Islom g‘oyalarini targ‘ib etishni muhim maqsadlaridan biri deb bilgan Navoiy uchun hayoti ibrat, ko‘rsatgan yo‘li yashash tarzi, o‘rgatgan ta’limoti hayotiy e’tiqodiga aylangan buyuk zot – Hazrati Muhammad sollallohu alayhi va sallamning komilliklari yuksak bir ideal edi. Shuning uchun shoir Rasululloh bilan bog‘liq bo‘lgan har bir tasvir va tavsiifa mukammallikka intilgan va ishning o‘zining eng sharafli ishi deb bilgan.

O‘zining an’anasiga sodiq qolgan ijodkor, Foniy taxallusi bilan yozilgan falsafiy-tasavvufiy dostoni – “Lisonut tayr” da me’roj voqeasiga alohida to‘xtalib, ushbu bob va unda yoritilayotgan masalaga katta e’tibor qaratgan. Sababi – boshdan-oxirigacha ramziylikka asoslangan bu doston, shoir ijodining xulosasi, qaysidir ma’noda uning ishq, iloh, oshiq va ma’shuq haqidagi qarashlarini o‘zida to‘liq mujassam etgan buyuk muhabbatining hosilasidir.

Doston tabiatidan kelib chiqib, ilohiy nur – Nuri Muhammadiyga alohida e’tibor qaratgan, dastlab, nur ko‘rinishidagi zotning tug‘ilishi, olamlarni shu zot sabab munavvar bo‘lishi, zulmat chekinib haqning qaror topishini vasf etsa, me’roj

¹ Alisher Navoiy. Saddi Iskandariy. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006. – B. 18.

bobda ushbu ilohiy nurning yuksalishi va samoga inson qiyofasida ko‘tarilishi hamda erishgan oliv martabasi oldida samo ahlining ojizligi sabab Navoiy qorong‘u kecha tasviriga to‘xtalmaydi.

3.2. Me’roj sayri talqinida ma’no, timsol va tasviriy vositalar uyg‘unligi

Me’roj “Navoiy – Foniyning alohida sevgan mavzusidir. Chunki Navoiy ham, boshqa so‘fiy yoki mutasavvuf shoirlar ham Payg‘ambar Me’rojida tasavvuf g‘oyalariga yaqin narsani va so‘fiylarning ruh uruji (ko‘tarilish), tariqat maqomlarini egallab, Parvardigor huzuriga musharraf bo‘lish g‘oyasining isbotini ko‘radilar. Shu bois Me’roj kechasi Rasuli Akramning koinot bo‘ylab sayri, Buroq otida Jabroil (AS) jilovdorligida etti qavat osmondan oshishi va Arshga yaqinlashib, Olloh bilan suhbatlashishi katta zavq-u shavq, qaynoq ilhom bilan tasvirlananadi. Bu tabiiy, chunki ushbu mavzu o‘z xususiyati va mohiyati bilan shoironadir”¹. Ana shunday shoirona romantikaga boy misralar dastlab “Hayrat ul-abror” dostonidagi me’rojga bag‘ishlangan bobda uchraydi.

Ushbu bobni qorong‘u kecha tasviri bilan boshlagan shoir kitobxонни **qorong‘u kecha** go‘zalligi madhi bilan rom etadi. Samo ahlining bo‘lajak uchrashuvga o‘ziga xos tayyorgarligi, butun koinot jismlarini bazm qatnashchilaridek yasanishi, atrofni shod-u xurramlik nashidasи tutgani tasvirlanadi. Betakror kecha tasviri manzarasi asta-sekin kitobxонни ilohiy uchrashuv – “Haqqa yovuqlashish”, “Olloh bilan muloqotda bo‘lish”, “Fanolik va baqolikka yetishishning namunaviy ko‘rinishi”²ni amaliy qismi bo‘lgan, nabiyning eng buyuk mo‘jizalaridan bo‘lgan – Me’roj sari yetaklaydi. Voqealar ketma-ketligiga kitobxонни puxta tayyorlagan shoir, kecha tasviri va “samo ahli” tavsifidan so‘ng, o‘quvchi diqqat-e’tiborini o‘z izmiga bo‘ysundirib, komillar komili – Rasulullohning yaqinlashib kelayotgan uchrashuv oldi hayajoni tasvirigao‘tadi:

Vasl xayolidin etib ko‘ngli jo‘sh,

¹ Комилов Н. Фақр нури порлаган қалб. – Тошкент: Маънавият, 2001. – Б. 94.

² Uludağ S. Tasavvuf terimleri sözlüğü. – Istanbul: Kabalcı Yayınevi, 1995. – S. 604.

Bahrdek ul jo‘sh ila aylab xurush¹.

Ko‘ngilning vasl xayoli bilan band bo‘lib, dengizdek jo‘sh urib hayqirgan paytdagi holati keyingi dostonlarda shunday keladi:

“*Farhod va Shirin*” dostonida:

Bu aqshom ul charog‘i olamafro‘z,

Ichinda vasl sham‘i o‘tidan so‘z.

Solib bir go‘shada partav nihoniy,

Kim, aylab mizbonlig‘ Ummahoni^y².

“*Layli va Majnun*” dostonida:

Bir xobgahi nihoni ichra,

Manzilgahi Ummahoni^y ichra.

Bor ishdin etib o‘zini ma’zul,

Mahbub xayoli birla mashg‘ul³.

“*Sab ‘ai sayyor*” dostonida:

Yuz tuman sabzpo‘shi ruhoni^y,

Zohir aylab falak shabistoni.

Bo‘yla tun ul mahi muniri jahon,

Ummahoni^y uyida erdi nihon.

Dahr sho‘ri sharidin osuda,

Ko‘ngli uyg‘og‘u ko‘zi uyquda⁴.

“*Saddi Iskandariy*” dostonida:

Quyoshdek ulusdin nihoniy bo‘lub,

Yeri hujrai Ummahoni^y bo‘lub⁵.

“*Lison ut-tayr*” dostonida:

Ul kechakim, ul shahi gardun maqom,

Kim oni Haq istadi gardunxirom.

¹ Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006. – B. 35.

² Alisher Navoiy. Farhod va Shirin. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006. – B. 15.

³ Alisher Navoiy. Layli va Majnun. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006. – B. 16.

⁴ Alisher Navoiy. Sabai sayyor. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006. – B. 16-17.

⁵ Alisher Navoiy. Saddi Iskandariy. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006. – B. 18.

Ummahoniy hujrasida erdi xush,
Dahri dun ashg‘olidin osudavash¹.

Yuqoridagi misralarda shoир, dastlab, beshlikning birinchi dostonida nabiyning me’roj oldi ruhiy holati tasvirini bersa, keyingi dostonlarda voqeа o‘rnি va qatnashchilari hamda undan keyingi voqealar tasviriga o‘tadi. Yorga intizorlik va u bilan uchrashishni mushtoqlik bilan kutgan oshiq – “Ummaxoniy hujrasida” “ulusdin nihoniy bo‘lub”, “dahri dun ashg‘olidin osudavash” bo‘lub, “mizbonlig‘ aylab”, “ko‘ngli uyg‘og‘u ko‘zi uyquda” “mahbub xayoli birla” xush bo‘lganligi tasviri keladi. “Muhaddislarning rivoyat qilishlaricha, Payg‘ambarimiz sollallohu alayhi va sallam xufton namozidan so‘ng Ummu Xoni’ bintu Abu Tolibning uyida yotganlarida Isro hodisasi boshlandi. O‘sha kecha Buroq nomli hayvonga minib, Bayt ul-Maqdisga bordilar. So‘ngra u yerdagи katta xarsangtosh ustida turganlarida Me’rojga ko‘tarildilar². Me’rojga oid ba’zi manbalarda Payg‘ambarimiz sollallohu alayhi va sallamni o‘sha tunda “Oltin tarnov”ning osti, Ka’ba orqasi – Hatimda yonboshlab yotganligi aytildi³.

Kim etib ul soyiri ulviy maqom,
Ilgida bir toyiri ulviy xirom.
Po‘yadi ko‘k sayricha orom anga,
Yerdin o‘lub ko‘kkacha bir gom anga⁴.

“Hayrat ul-abror” dostonidagi yuqoridagi tasvirlardan so‘ng Jabroilning ilohiy mujdani yetkazishi va Buroq haqidagi tasvirlarga o‘tiladi. Ayni shu tasvirlarga oid dastlabki fikr-qarashlar dostondan-dostonga rivojlantirilib, yangi-yangi ma’lumotlar bilan to‘ldirib boriladi. Har bir dostonda tarixiy haqiqatdan uzoqlashmagan badiiyat, yanada yorqinroq va aniq tasvirlar bilan boyitilgan navoiyona nazokat namoyon bo‘ladi, voqealar izchillilikda yuksalib boraveradi. Yana bir bor Qosidi qudsiyining

¹ Алишер Навоий. Лисон ут-тайр. – Тошкент: Faafur Fулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2019. – Б. 15.

² Шайх Мухаммад Содик Мухаммад Юсуф. Ҳадис ва Ҳаёт. 19-жуз. Оламларга раҳмат Пайғамбар. – Тошкент: “Sharq”, 2011. – Б. 185.

³ Алихонтўра Соғуний. Тарихий Мұхаммадий. – Тошкент: “Sharq”, 2011. – Б. 93.

⁴ Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006. – B. 35.

Haqdan salom yetkazishi hamda Buroq tasvirida nihoyatda nozik va ehtiyyotkorlik bilan qo‘llangan mubolag‘ali tashbehlarga guvoh bo‘lamiz (jadvalda ko‘rsatiladi).

4-jadval.

№	Doston nomi	Jabroil ta’rifi	Buroq tasviri	Haqning mujdasi
1.	“Hayr at ul-abror” da	Po‘yadi ko‘k sayricha orom anga, Yerdin o‘lub ko‘kkacha bir gom anga. Qosidi qudsiy salom aylabon, Haq soridin arzi payom aylabon.	Soyir o‘lub rokibi farruhjamol, Toyir o‘lub markabi farxundafol. Gardi bila borayi sur’atnoma, Yetkurubon aql ko‘ziga amo.	Debkim, ayo maxzani asrori shavq, Haqdin erur vaslingga izhori shavq.
2.	“Farhod va Shirin” da	Ki, yetti ul baridi homili roz, Qo‘linda bir Buroqi barqparvoz.	Biri payki nazardin tezdavroq, Biri raxshi gumondin garmravroq.	Ki: “Yetsun olam ahlidin nihoni, Muhib sarvaqtig‘a mahbubi joni”.
3.	“Layli va Majnunn”da	Kim yetti baridi nurbaxshi, Hamroh anga mahz nur raxshi.. Chun yetti ravandayi samoviy, Ul mehri samog‘a bo‘ldi roviy.	Bu raxshki barqi garmravdур, Yo‘q-yo‘qki, buroqi barqdavdур. Xilqat aro nurdan sirishti, Ne nur, farishtai bihishti. Yo‘q jismig‘a kimsa xamlidin dard, Ne kimsaki, anda ko‘rmayin gard.	Kim, vaslingga haqdur orzumand, Bo‘l sen dog‘i vaslidin barumand.
4.	“Sab’ ai sayyor”da	Kim, yetib qosidi jahonpaymo, Ilgida raxshi osmonpaymo.	Surdi chun rokibi humoyun fol, Ostida markabi humoyun bol. Tufrog‘u suv yuzidin aylab xez, O‘tti o‘t, yelidin o‘tu yeldek tez. Markabi urdi oy yuziga tuvog‘, O‘ylakim, qoldi jabhasi uza dog‘.	Haq salomin chu topti mahbubi, Bo‘ldi oshiq visoli matlubi.
5.	“Saddi Iskan dariy”da	Demay barqkim, toyiri barqsayr, Qo‘lida bir ul nav’kim barqtayr. Biri Arsh ayvonining toyiri, Biri xuld bo‘stonining soyiri... Kelib hosilan Jabraili amin, Yetib turfa tovusi xuldi barin.	Buroqi sabuksayri qudsiy sirisht, Bo‘lub jilvagohi riyozi bihisht. Falak sayridin tez orom anga, Ming illik falak sayri bir gom anga.	Ki, hijron bisotin tay etmak kerak, Qo‘pub Haq visolig‘a yetmak kerak.

6.	“Liso n ut-tayr” da	Kim yetishti ollig‘a Ruhul amin, Arz etib payg‘omi robbil olamin.	Ilkida erdi Buroqi barqvez, Barq oning birla qila olmay sitez. Dedikim, ey Tengriga joning qarib, Jism ila ham bo‘l, erursen chun habib. Rokib o‘lkim, kelturubturmen Buroq, Gardi rohing ayla bu firuza toq.

An’naviy takrorlardan qochgan shoir har bir dostonda Jabroil alayhissalomni “Soyiri ulviy maqom”, “Qosidi qudsiy” (“Hayrat ul-abror”), “Baridi homili roz” (“Farhod va Shirin”), “Baridi nur baxshi” (“Layli va Majnun”), “Qosidi jahonpaymo” (“Sab’ai sayyor”), “Arsh ayvonining toiri” va “Jabroili amin” (“Saddi Iskandariy”), Ruh ul-amin, “payk” (“Lison ut-tayr”) kabi yangi-yangi sifatlari bilan nomlaydi. Me’roj voqeasining asosiy qahramonlaridan biri – Buroq dostonlarda “toiri ulviy xirom”, “raxsh”, “markabi farxundafol”, “borai sur’atnamo”, “rahrav”, “tavsan” (“Hayrat ul-abror”), “Buroqi barqparvoz”, “garmrav”, “raxshi novard” (“Farhod va Shirin”), “mahzi nur raxshi”, “barqi garmrav”, “Buroqi barvdav”, “markab” (“Layli va Majnun”), “raxshi osmonpaymo”, “markabi humoyun bol” (“Sab’ai sayyor”), “barqtayr”, “xuld bo‘stonining soyiri”, “Buroqi sabuk sayri qudsiy sirisht” (“Saddi Iskandariy”), “Buroqi barqvez”, “markab” (“Lison ut-tayr”) kabi obrazli ibora va tavslifiy nomlar bilan keladi.

Buroq haqida islomiy manbalarda kelgan xabarlargaga ko‘ra, “buroq” arabcha “chaqnash”, “yalt etish”, “jilvalanish” ma’nolarini bildiruvchi “barq” so‘zidan yasalgan¹. Buroq oti “xachirdan kichikroq, eshakdin cho‘ngroq” bo‘lib “jannatdin keltirilgan edi”². Qur’oni karimda zikr qilinishicha (17:1), Muhammad sollallohu alayhi va sallam uni minib Makka shahridan “tungi sayr”da dastlab Quddusga, so‘ngra me’rojga chiqqanlar. Nabiy alayhissalomni Ka’ba oldiga kelib kutib turgan Buroq, avvaliga sarkashlik qilgan, hazrat Jabroil majbur etgandan so‘ng

¹ Олтин силсила: 5-жуз. Саҳиҳул Бухорий. – Тошкент: “HIOL-NASHR” нашриёти, 2020. – Б. 161.

² Алихонтура Согуний. Тарихий Мухаммадий. – Тошкент: “Sharq”, 2011. – Б. 93.

bo‘ysungan. Buroq boshqa payg‘ambarlar, chunonchi Ibrohim alayhissalom va Dovud alayhissalomga ham xizmat qilgan, deydilar. Buroq diniy manbalarda goh ot, goho xachir shaklida ifodalangan, oq rangli, bo‘yni cho‘ziq, qulqlari uzun, oyoqlarida qanoti bo‘lgan, - deb ta’riflangan¹. Shuningdek, “payki nazardin tezdavroq” (xayoldan tez chopadigan), “raxshi gumondin garmravroq” (gumondan ham tez yuguradigan) bo‘lgan Buroq – pok nurdan yaratilgan maxluq, u nigohi tushgan joygacha qadam tashlay oladigan darajada uchqur bo‘lgan. Navoiyshunos olim I.Haqqulov ta’kidlaganidek, “tasavvuf ahli uchun Buroqning sanoqsizligi qat’iy ishonchga aylangan. Va bu obraz moddiy olamdan ma’no olamiga o‘tish vositasi sifatida xarakterlanadi”².

Voqealar rivojidagi navbat samo ahli – sayyoralar, yetti qavat osmon va burjlar ta’rifu tavsifi bilan davom ettiriladi. “Navoiy osmon jismlarining intazorligini bayon etishdan oldin Rasululloh sollallohu alayhi va sallamning o‘z ichki kechinmalari – Tangri bilan muloqat mujdasidan yuragi beorom, joni ichiga sig‘may quvonishini ko‘rsatgan:

Chunki nabiy mujdai jonon topib,
Mujdai jonon chu topib, jon topib.
Payki oni qo‘ldabon otlandurub,
Raxshini kelgan sori – o‘q yondurub”³.

Koinot sarvarining Buroq otida oliy maqom sari Jabroil hamrohligida yo‘lga chiqishi, samo sayrining tasvirlari bilan bog‘liq o‘rinlarda shoirning samoviy jarayonlarni muayyan astronomik qonuniyatlarga muvofiq, mantiqqa mos tasavvur qilishga intilganidan falakiyot ilmiga oid bilimlarini ham mukammal egallaganligiga guvoh bo‘lamiz. Ma’lumki, o‘z vaqtida Alisher Navoiy Samarqandda Ulug‘bek rasadxonasi yaqinida joylashgan Fazlulloh Abullays madrasasida ta’lim olgan edi. O‘sha yillari u Ulug‘bek madrasasida ham bo‘lgan, albatta. Buni shoirning “Farhod va Shirin” dostonida Ulug‘bekka, uning

¹ <https://qomus.info/encyclopedia/cat-b/buroq-uz/>

² Ҳаккулов И. Ўзбек тасаввuf шеъриятининг шаклланиши ва тараққиёти. Докторлик дисс. – Тошкент, 1993. – Б. 258.

³ Мухиддинов М. Комил инсон – адабиёт идеали. – Тошкент: Маънавият, 2005. – Б. 47.

rasadxonisasiga, “Zij” asariga bag‘ishlangan she’riy satrlaridagi aniq bayonlardan ham bilsa bo‘ladi¹. Shuning uchun ham, bemalol aytish mumkinki, “Ulug‘bek ilmiy maktabi, aniqrog‘i, Samarqand va Hirot astronomik muhiti Alisher Navoiy kosmik dunyoqarashi shakllanishida muhim ahamiyatga ega bo‘ldi va bu uning ijodida o‘z aksini topdi”².

Sarvari koinot samo sari ilgarilarkan, bir yonlarida Jabroil alayhissalom, taglarida Buroq bilan yetti qavat osmonni birma-bir bosib o‘tdi. Bu yo‘lda tuynuk vazifasini bajargan Oy birinchi osmonda, Tiyri qalamzan – Atorud ikkinchi qavatda, uchinchi osmonda Zuhra, Quyosh to‘rtinchi osmonda, beshinchi osmon Bahrom amrida, oltinchi osmon Mushtariy rahbarligida, Yettinchi osmon Zuhal boshchiligida “Ul shahi gardunmaqom”ni katta xursandchilik bilan kutib oldilar:

Chun yetibon ko‘k sori tavsan anga,

Oy bo‘libon o‘tgali ravzan anga.

Tiyra qalamzan chu topib ul sharaf,

Buqalamunlug‘ni qilib bartaraf.

Zuhra tarab barbatini noz etib,

Zamzamai tahniyat og‘oz etib...

Mehrida Bahromki yakro‘ bo‘lub,

Tig‘i sharaf yuziga ko‘zgu bo‘lib.

Mavkibidin poya topib Mushtariy

Yo‘lida bir bo‘lib minbari...

Sham‘i Zuhal zulmatini nur etib

Zangiyi shabrangni kofur etib³.

Sakkizinch osmon tasviri haqida beshlikning “Farhod va Shirin”, “Sab’ai sayyor” va “Saddi Iskandariy” dostonlarida alohida to‘xtalsa, “Hayrat ul-abror” hamda “Layli va Majnun” dostonlarida bu osmon tasviridagi baytlarni uchratmaymiz.

¹ Азизов С. Алишер Навоий асарларида фалакиёт сирлари. – Тошкент: “O‘ZBEKISTON” НМИУ, 2018. – Б. 17.

² Yuqorida manba. – B. 3.

³ Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror. Nashrga tayyorlagan Vahob Rahmon. – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 2006. – B. 36.

Navoiy o‘zining barcha dostonlaridagi me’roj boblarning ushbu qismlarida, avvalo, Me’roj kechasingin tasviri, samoning Rasululloh yo‘lga chiqqunlarigacha va undan keyingi holati, koinot jismlari, sayyorayu burjlar, oy, quyosh, yer-u osmonni batafsil tasvirlaydi. Samo ahlining ushbu fayzli kechani intizorlik bilan kutayotgani, “Alloh habibining tashrifidan junbushga kelgan va xuddi jonli olamday bu hodisadan sarafroz”¹ ekanligini keng yoritadi.

4-jadval.

№	Dostonlar	Sayyoralar tasviri
1	“Hayrat ul-abror” dostonida	Ul zotning tashrifi sabab Oy tuynuk bo‘lsa, Tiyra qalamzan buqalamunlikni tashlab, Haqda qotti. Zuhra ohista kuy bilan tabriklasa, Mehr jamolin yashirdi. Bahrom birso‘z bo‘lib, sharaf tig‘iga ko‘zgu bo‘ldi. Mushtariy zina bo‘lsa, Zuhra yo‘llarini yorituvchi sham bo‘ldi.
2	“Farhod Shirin” dostonida	Ul zotning oti Qamarga yetarkan, uning yuzini yanada ravshan qildi. Atorud bu otni ko‘rishdan xursand bo‘lsa, uning dag‘dag‘asi Zuhrani sozidan ayirib, Quyoshni uyaltirib yerga kirgizdi. Bahrom sari yurarkan, Nahsi ag‘ar (xosiyatsiz kichik yulduz) Sa‘di akbar (xosiyatl yulduz)ga aylanib, yo‘lovchini Mushtariy sari yo‘llaydi. Yettinch qo‘rg‘on posboni qolib, sakkizinch gumbaz ostiga kirdi.
3	“Layli Majnun” dostonida	Ul zotning siymosini ko‘rgan Oy quyoshning minnatli ziyyosidan voz kechdi. Munshiy xatini qarosini kayvon yulduziga sochsa, Zuhra yo‘lida cholg‘uchi bo‘ldi. Quyosh libosi zarbaft-nurli bo‘ldi. Bahrom qilichin tashlab, uzangisin o‘pti. Birjisqa undan saodat topdi. Zuhal bu otliqqa soislikka chog‘landi.
4	“Sab’ai sayyor” dostonida	U kechada tulpor shu qadar tez uchganidan, Oy yuzida dog‘ bo‘lib, Atorudning qalami sindi. Ohangidan qo‘rqib Zuhra changini berkitsa, ul yulduzning ulug‘vorligidan Quyosh xijolat bo‘lub yerga kirib ketdi. Uning savlatini ko‘rib Bahrom qilichiga dam bergani qiniga solsa, Mushtariy minbaridan tushdi. Zuhal asboblarin hindudek yoydi.
5	“Saddi Iskandariy” dostonida	Tun tulpori butun anjomni bilan ko‘kka ko‘tarilarkan, Qamar bekatini nurlari bilan charog‘on qilib, Atorudning qalamini sindirib, ilmga mashg‘ul qildi. Zuhra aytayotgan qo‘shig‘ini to‘xtatib, sozini berkitib yo‘lni bo‘shatdi. Tun qorong‘uligini yorita olmay uyatdan yerga botgan Quyoshni malomatlar qildi. Beshinch falakka yetib, Bahromnni yengdi, ayovsiz xalqning qonini to‘kmasligi uchun qilichini qinga soldirdi. Oltinchi osmon egasi Mushtariy uning nomini xutbaga qo‘shib o‘qib, hukmdorligini e’lon qildi. Zuhal uning saodatidan bahramand bo‘ldi. Barcha yomonliklari yo‘qolib, tole’ unga yor bo‘ldi.
	“Lison ut-tayr” dostonida	Ul zot Oyning yonidan o‘tganida Oy badr (to‘linoy)ga aylandi. Atorud qalami durlar sochar, Zuhra anga ashkin ochar. Yulduzlar

¹ Комилов Н. Хизр чашмаси. – Тошкент: Маънавият, 2005. – Б. 213.

6	shohi Quyosh o‘ziga undan nur oldi. Beshinchi osmonga yetarkan, Nahsi ag‘ar (xosiyatsiz kichik yulduz) Sa’di akbar (xosiyatli yulduz)ga aylandi. Sa’di akbar tomon yurganda, u ham saodat nuridan bahra oldi. Bechora hindu (Zuhal)ni qo‘rib “Allohning nuri” dedi. Yana ikki vodiy sayr etgach, sakkizinchi osmon ko‘rindi. (Shoir keyingi 3 sayyoraning nomini aniq keltirmagan, ularning ta’rifi bilan cheklangan.)
----------	---

“Xamsa”ning har bir dostonida “payg‘ambarning yetti falakdan o‘tib borishi tasvirida o‘ziga xoslik namoyon qilgan. Oy, Atorud, Zuhra, Quyosh, Mirrix, Mushtariy, Zuhal va o‘n ikki burj payg‘ambardan fayz topib, uning kelganidan sururlanadi, o‘z navbatida, uning qarshisida xijolatda qoladi. Navoiyning bu tasvirlardagi asosiy maqsadi payg‘ambarning sayyid ul-mursalin ekanini ta’kidlash, shu bois ijodkor tazod va tashxis san’atlariga tayanib, butun koinotni shaxslantiradi va ularning so‘zi-yu harakatlarini asosiy maqsadga yo‘naltiradi”¹. Ayni damda, ushbu tasvirlardan maqsad birinchidan, “g‘oyat original tashbih va istiora, iyhomlar bilan osmon jismlarini ta’rif etish; ikkinchi tarafdan, osmon jismlari, yerdagi ashylolarni inson idrokiga, hayotga yaqinlashtirib, jonlantirib baytlar tuzish. Go‘yo samoviy jismlar ham obraz va ham moddiy mavjud ashyodek”² insonda taassurot qoldiradi.

Ilmi nujum fanidan bizga ma’lumki, barcha sayyoralar, yulduzlar turkumi yerning quyosh atrofidagi yo‘li bo‘ylab joylashgan. Yer o‘zining yillik harakati davomida ana shularning barchasini aylanib chiqadi. Natijada yerda fasllar, oylar va kecha-kunduzning doimiy ravishda almashinib turishi davom etadi. Ijodkor ana shu oylarning zimmasiga ham kecha tasviri bahonasida ulug‘ vazifani yuklaydi. Barchasi oliy maqomli sayyoh – Sarvari koinotning yo‘lida intizor, xizmatiga shay. Zuhal qorong‘ulikni yoritsa, Hamal bilan Savr jonini qurbon qilishga tayyor. Javzo, Saraton va Sher (Asad) bir bo‘lib, bir go‘shada xizmatga shay holda ko‘zini yo‘lga tikadi. Sunbula u zotning oti – Buroqqa ozuqa bo‘lsa, Palla uning yo‘lini o‘lchar edi. Aqrab davolash bilan band. Bu paytdan unumli foydalangan Qavs chillada o‘tirib

¹ И smoилов И. Алишер Навоий “Садди Искандарий” достони қиёсий таҳлили. PhD диссертацияси. – Тошкент, 2019. – Б. 56.

² Комилов Н. Хизр чашмаси. – Тошкент: Маънавият, 2005. – Б. 212.

duo qilishga sho‘ng‘igan. Jadiy esa uning roziligini olish bilan ovora. Ular shunday ovora bo‘lganida, koinot sarvari Dalvga Yusuf kabi qaramay, Hutda Yunus kabi to‘xtamay bir zumda o‘tdi-ketdi.

5-jadval.

№	Dostonlar	Burjlar tasviri
1.	“Hayrat ul-abror” dostonida	Tashrifga tashna Hamal bilan Savr ul zot yo‘lida o‘zini qurban qilishga tayyor tursa, Javzo kamarin tortib bog‘lagan paytda, Saraton tik turib jilva qilardi. Sher bir yer tutib tursa, Sunbula otiga oziq bo‘ldi. Palla ul zot yo‘lini o‘lchasa, Aqrab davolash bilan band bo‘ldi. Qavs chillada o‘tirib duo qilsa, Jadi unga ozuqa keltirdi. Dalvga Yusufdek nazar solmay, Hutda Yunusdek to‘xtamay o‘tib ketdi.
2.	“Farhod va Shirin” dostonida	Hamaldan ketib Savrga borarkan, ikkisi bosh egib “qaniydi senga qurban bo‘lsak” deb Ikki paykar qoshiga ta’zim qildi. Necha quvvatlig‘ Harchandlar lol bo‘lib, hatto Sheri nar o‘zini chetga oldi. Chayon Xo‘sha xirmonining Kaffasi ostini makon qilganda, Yoy o‘zini qurban qilsa, Jadi qurbanlik uchun shoxu payini muhayyo etdi. Dalv o‘zini jannat bulog‘i, Hut esa dengiz timsohi deb bildi.
3.	“Layli va Majnun” dostonida	Sarvari koinot ishqida Savru Hamal faryod chekib, jonini qurban qilishga shaylanganda, Javzo ul zot yo‘liga ko‘zi to‘rt bo‘ldi, Saraton ham nazardan bahramand bo‘ldi. Sher ham uni yo‘lning bir chetidan kuzatsa, Xo‘sha otining ozig‘i bo‘lgisi keldi. Tarozi uning ortidan jon o‘lchovchi bo‘lsa, Aqrab undan tiriltiruvchi dori topdi. Uning qoshida xijolatdan o‘zini Yoy chetga olsa, echki uning qadami sharafidan Qo‘chqor bo‘ldi. Qo‘bqan suvi obihayot bo‘lib, Hutga yangidan jon baxsh etti.
4.	“Sab’ai sayyor” dostonida	Ul zotga o‘z makonidan joy taklif qilib, ortidan Hamal bilan Savr yig‘lab qoldi. Yo‘liga ko‘zi to‘rt bo‘lgan Javzo , tulporni Saratonga besh oyog‘lab uchganidan xayron qoldi. Ov ustasi Asad uning yo‘liga Sunbulani nisor etti. Mezon adolatli hukmidan Aqrab ning zahri to‘kilib ketti. Qavs uning yo‘lida chillada o‘tirgan bo‘lsa, Jadi baland cho‘qqiga o‘z tiki. Dalv uning yo‘lida suv kechgan bo‘lsa, Hut suvsiz qolgan oy bo‘ldi.
5.	“Saddi Iskandariy” dostonida	Sakkizinchı samo sari yurib, o‘zining kelishidan xursand yulduzlarni ko‘rdi. Xursanchilikdan gulu nastarinlar sochdi. Hamal ul zotdek mehribonni ko‘rib, Musodek cho‘ponlikdan voz chekdi. Charx uyi xuddi Assordek atrofida sadoqat bilan aylanardi. Ikki paykar uning xizmatiga bel bog‘lab, qo‘lini ochib tursa, maqsadi hosil bo‘lgan Xarchang uning otiga g‘amxo‘rlik qilardi. Qari tulki sherni ko‘rsa qochganidek, Sher ham uni ko‘rib qochib qoldi. Xo‘sha donalar gavhar kabi, gavhar emas, yulduz kabi porlardi. Uning oyog‘i ostida Mezon ishiniadolat bilan yurgizar, nish urmoqchi bo‘lgan Chayon o‘zini o‘zi tamom qildi. Uchi qoshga ishora qilganidek, Yoy qobi qavsaynde xabar yetkazardi. O‘chkuning suti jonni shirasi kabi har bir donasi katta durri g‘altondek edi. Qo‘bqa yo‘liga suv sochar, suvi bo‘lmasa inju sochardi. Falak deb damidan tirligan Hut “pokdur ul o‘lmaydigan doim tirik zotdir” deb sano aytardi.
6.	“Lison ut-tayr” dostonida	Tungi suvoriy savlatidan Qo‘y bo‘ldi qo‘chqor, Savr esa asad dimog‘lik; Javzo uning xizmatiga kamar bog‘lasa, Saraton to‘g‘rilik mevasi bo‘ldi. Arslon it kabi oyog‘iga o‘zin tashlasa, Xo‘sha donolari dur bo‘ldi. Kaffa jon mezonini e‘lon qilganda, Chayon zahrini taryokka (zaharni kesuvchi dori)ga aylantirdi. Qoshining ishorasi Yoyni hilol qilganda,

		qadamining xosiyatidan Jadi – tog‘ echkisi zarrin g‘izol – kiyikka aylandi. Dalv nuktasidan (hikmatidan) quvvat olib, Hut nutqidan (ilohiyotdan so‘zlovchidan) tiriklik topdi.
--	--	---

“Qadimda osmon jismlari – sayyoralar, yulduz turkumlari, burjlar turli xislat va xususiyatlarga ega deb qaralgan. Ular inson taqdiri hamda hayot hodisalari bilan vobasta qilib tushuntirilgan va ko‘pining nomi hayvonlarning nomi (qisqichbaqa, ho‘kiz, baliq kabi) yoki insonga kerak ashyo – asboblar (dalv, tarozi) yoinki inson kasb-kori (kamon otuvchi kabi) bilan bog‘liq”¹. Shoir ayni shu misrlarda ta’rif-u tavsifni kuchaytirib, ohorli misralardagi sermazmun baytlarda tilimiz jozibasini yana bir bor namoyon etadi:

Farridan topti **Qo‘zi** qo‘chqorlig‘,

Savrg‘a yetti Asadkirdog‘lig‘ (*Lison t-tayr*).

Tarab aylab damo-dam **Ikki paykar**,

Qo‘yarg‘a ollida boshin mukarrar.

Topib quvvatlig‘ andog‘ necha **Xarchang**,

Ki, tortib ranjasidin sheri nar chang (*Farhod va Shirin*).

Arslon itdek oyogig‘a tushub,

Xo‘sha tuxmi dur bo‘lurg‘a yovushub (*Lison ut-tayr*).

Palla yo‘li gardidin iksirsanj,

Aqrab aro no‘shu davo, nishu ranj (*Hayratul abror*).

Bo‘lub qosh uchidin ishoratnamoy,

Berib qoba qavsayndin mujda **Yoy**.

Suti **O‘chkuning** shirai jon bo‘lub,

Aning qatrasi durri g‘alton bo‘lub (*Saddi Iskandariy*).

Qubqa suyi obi zindagoniy,

Ul suv bila toza **Hut** joni (*Layli va Majnun*).

Shoir burjlarni nomlashda turkiy tilning imkoniyatlaridan unumli foydalanadi, jumladan, Savmi Qo‘ziga, Javzoni Ikki paykarga o‘zgartirsa, Asad o‘rnida Arslonni

¹ Комилов Н. Хизр чашмаси. – Тошкент: Маънавият, 2005. – Б. 213.

qo‘llaydi. Mezonni Palla bilan, Aqrabni Chayon bilan almashtiradi. Qavsni Yoy, Jadini O‘chku, Dalvni Qo‘bqa deb ataydi.

6-jadval.

Nº	Hayrat ul-abror	Farhod va Shirin	Layli va Majnun	Sab’ai sayyor	Saddi Iskandariy	Lison ut-tayr
1.	Hamal	Hamal	Hamal	Hamal	Hamal	Qo‘zi
2.	Savr	Savr	Savr	Savr	Assor	Savr
3.	Javzo	Ikki paykar	Javzo	Javzo	Iki paykar	Javzo
4.	Saraton	Xarchang	Saraton	Saraton	Xarchang	Saraton
5.	Sher	Sheri nar	Sher	Asad	Sher	Arslon
6.	Sunbula	Xo‘sha	Xo‘sha	Sunbula	Xo‘sha	Xo‘sha
7.	Palla	Kaffa	Tarozu	Mezon	Mezon	Kaffa
8.	Aqrab	Chayon	Aqrab	Aqrab	Chayon	Chayon
9.	Qavs	Yoy	Yoy	Qavs	Yoy	Yoy
10.	Jadi	Jadi	Qo‘chqor	Jadi	O‘chku	Jadi
11.	Dalv	Dalv	Qo‘bqa	Dalv	Qubqa	Dalv
12.	Hut	Hut	Hut	Hut	Hut	Hut

Koinot va uning yaratilishi bilan bog‘liq qadim sharq folklorida uchraydigan miflardan, turk, fors va arab xalqlarining ilk kosmogenik tasavvurlari hamda turli manbalarda kelgan samoviy jismlar bilan bog‘liq qarashlaridan xabardor bo‘lgan Navoiy, burj va sayyoralarni poetik tasviri, obrazini yaratishda an’anaviy sharqona nomlash va tasavvurlardan mahorat bilan foydalanadi. Ayni paytda, me’roj boblarda qo‘llangan tasvirlar, burjlarning nomlanishi va tavsifi bilan bog‘liq o‘rinlarda shoirning kosmogenik qarashlaridan, nujum ilmiga oid bilimlarning bilimdoni bo‘lganidan xabardor bo‘lamiz.

Har bir asarida novatorlikka, yangilikka intilgan Navoiy an’anaviy qarashlarni navoiyona tasavvur va bilimlar bilan boyitadi. Jumladan, sayyoralarni nomlashda qat’iy sharqona tartibga amal qilsa, burjlarni nomlashda ijodiy yondashuvga guvoh bo‘lamiz. Dostonlarning tabiatи hamda shoirning ijodiy prinsiplariga ko‘ra burjlarni ba’zan bir baytda, ba’zan esa ikki burjni bir baytda tasvirlagan Hazrat Navoiy, sayyoralar tasviriga esa har bir masnaviyda bir baytdan, “Saddi Iskandariy” dostonida ikki baytdan o‘rin ajratgan. Shoir “Xamsa”ning yakunlovchi dostoni “Saddi Iskandariy”da qorong‘u kecha tasviri, oy, yulduzlar, sayyoralar, o‘n ikki burj

va yetti qavat osmon –“samo ahli”ning tasviriga keng o‘rin ajratar ekan, avvalo, dostondagi kelgusi voqealarga ishoralar qilib o‘tadi. Iskandarning sarguzashtlari bilan bog‘liq, ko‘plab badiiy tasvir vositalaridagi o‘xshashliklarni me’roj bobdagi baytlarda ham ko‘rishimiz mumkin. Qolaversa, ushbu baytlar olamning tuzilishi va koinot tartibi haqida bat afsil fikr yuritgan, shoir kosmogonik qarashlarining yaxlit namunasi bo‘lib, barcha dostonlar uchun yakunlovchi xarakterdagi qolaversa, o‘zining ham mifologik-kosmogonik qarashlarining umumlashtiruvchi adabiyestetik xulosalardir. Shoir o‘zining yuqorida kosmogonik qarashlarining badiiy xulosalagan bo‘lsa, keyingi baytlar bilan o‘zining diniy-tasavvufiy qarashlarini bayon eta boshlaydi. Ya’ni, Rasululloh sollallohu alayhi va sallam insoniyatga tanish, bilish va anglashi mumkin bo‘lgan olamdan chiqib, yo‘qlik olamiga safari boshlangan edi:

Bulardin chun biyik tortib amori,
Savobit durlarin aylab nisori.
Alardin yuqoriroq chun qilib mayl,
O‘pub yo‘lin maloyik yuz tuman xayl.
Qanot birla yo‘li gardin qilib pok,
Bu eldin qolmayin ul yo‘lda xoshok.
Berib chun Arshqa zoti tafoxur,
Bo‘lub Arsh afsar, ul afsar uza dur.
Chu Kursi to‘ridin piroya topib,
Biyik Lavhu Qalamdek poya topib¹.

Nihoyat to‘qqizinchi osmonga yetgan tungi soyir Arsh, Kursi, Lavh ul-mahfuz va Qalam makoniga keldi. Bu tashrifdan “Arshning ko‘ngli g‘ururga to‘ldi, Arsh toj bo‘lsa agar, u tojdagi dur bo‘ldi. Uning sharofati bilan Kursiy bezandi. Qadri Lavh-u Qalam kabi yuksaldi”².

“Farhod va Shirin” dostonidan keltirilgan ushbu baytlarda shoir doston

¹ Alisher Navoiy. Farhod va Shirin. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006. – B. 16.
² Алишер Навоий. Фарҳод ва Ширин. Тўлиқ насрий табдил муаллифи Манзар Абдулхайр. –Тошкент: Янги аср авлоди, 2021. – Б. 18.

qahramoni Farhodning kamolotga erishish yo‘lidagi voqealarga ishora qilib, o‘xshash tasvirlarni keltiradi. Ya’ni, Nabiy alayhissalom ishqibutun koinot Arshining tojidagi dur bo‘lsa, Farhod ishq mamlakatining tojdori edi,- degan fikrni ilgari suradi.

Dostonlardagi me’rojlarda sakkizinchisemon tasviriga kelib, yetti samoni bosib o‘tgan soyirning har bir maqomda yuksalib-poklanib, darajasi ortib, butunlay o‘zligidan kechgan oshiq – hur – komil insonga aylanganini tasvirlanadi va bu bilan shoir tariqatdagi yetti maqomni bosib o‘tgan so‘fiyni yodga solgandek bo‘ladi. Tasvirlardagi bu kabi qiyosiy nazarni “Farhod va Shirin” dostonida Farhod, “Layli va Majnun” dostonida Majnunga oid tavsif va tasvirlarda ham uchratamiz. Bu o‘rinlarda muallifning ishq, oshiq va ma’shuq haqidagi tasavvufiy qarashlari o‘z aksini topgan.

Me’roj kulminatsiyasi bo‘lgan ushbu voqeani har bir dostonda bat afsil, bo‘yoqdor va mehr-muhabbatga to‘la zavq-shavq bilan tasvirlagan Hazrat Navoiy “Hayrat ul-abror”da 16 baytda, “Farhod va Shirin”da 29 baytda, “Layli va Majnun”da 37 baytda, “Sab’ai sayyor”da 45 baytda, “Saddi Iskandariy”da 57 baytda va “Lison ut-tayr” da 24 baytda vasflaydi.

Rafraf uza po‘ya qilib chun kushod,
Hamrahu rahravg‘a etib xayrbod.
Qolmadi yo‘lida aslo chun makon,
Qildi makon bodiyai lomakon¹.

Rafraf makonida Jabroil va Buroq bilan xayrashgan Sarvari koinot Lomakon vodiysiga tashrif buyuradi. “Bu olam o‘zgaruvchanlik xususiyatidan begona, sobit va barqaror olam. Ma’lumki, moddiy olam harakat tufayli muayyan vaqt va makonda miqdar va sifat o‘zgarishlarga uchraydi. Ammo Lomakon olami vaqt va fazo bilan chegaralanmagan joy. Unda modda olamiga xos bo‘lgan me’yorlar o‘rniga ruhoniyat olamining o‘lchamlari mavjud bo‘lganligi va bu me’yorlar faqat Allohga ma’lum ekanligi sababli, Lomakon olamidagi safarni bat afsil tasvirlash

¹ Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006. – B. 16.

imkoni yo‘q”¹. Diniy manbalarda keltirilishicha, “Sidrat ul-muntaha” ya’ni “Tugash daraxti”ga yetgandan so‘ng, Jabroil alayhissalom Payg‘ambarimizga qolgan yo‘lni faqat yolg‘iz o‘zi bosib o‘tishini aytadi. “Bu daraxtning “Sidrat ul-muntaha” ya’ni “Tugash daraxti” deb nomlanishining sababi bor. Osmonda farishtalar o‘sha daraxt oldigacha bora olar ekanlar, xolos. Undan nariga o‘tolmas ekanlar. Undan narigi tomonda nima borligini Alloh taolodan o‘zga hech kim bilmas ekan.

Imom Ahmad Ibn Mas’uddan qilgan rivoyatlarida “Payg‘ambar alayhissalom Isro kechasi tugash daraxtiga borib yetdilar, u yettinchi osmonda edi. Yerdan chiqqan narsalar ham, osmonda tushgan narsalar ham unga yetib to‘xtaydi”², – deyiladi.

Azaliylik sifatiga ega bo‘lmagan Jabroil ham, Buroq ham Koinot sarvariga zamon va makondan tashqari bo‘lgan Yo‘qlik olamida hamrohlik qilolmaydi. Zamon va makon, vaqt va fazo kabi tushunchalardan, to‘rt unsur va olti jihatdan iborat moddiyat olami xususiyatlaridan xoli bo‘lgan Lomakon vodiysi, Navoiy talqinicha, ruhlar makoni bo‘lib, inson bilgan vaqt, makon tushunchalariga amal qilinmaydigan – Ilohiy olam. Allohga xos va uning o‘zigagina ma’lum bo‘lgan maqomdir. Ya’ni, uni inson aqli bilan idrok etolmaydi, a’zolari bilan his qilolmaydi.

Borlig‘ to‘nin egnidin solib chust,

Yo‘qlug‘ kamarini bog‘labon rust.

Davrida jihotdin asar yo‘q,

Unsurdin jismig‘a xabar yo‘q.

Ne davrida oltidin maosir,

Ne jismida to‘rtdin anosir.

Tan birla borib, vale borur chog‘,

Ne o‘tu ne suv, ne yel, ne tufrog³.

Ya’ni, Lomakonga qadam qo‘ygan soyir borliq to‘nini yechib, yo‘qlik

¹ Давлатов О. “Ҳайрат ул-аброр”да меъроj кечасининг тасвири// SHARQ MASH’ALI. 2015 йил, №3-4. – Б. 28.

² Шайх Мухаммад Содик Мухаммад Юсуф. Ҳадис ва Ҳаёт. 19-жуз. Оламларга раҳмат Пайғамбар. – Тошкент: “Sharq”, 2011. – Б. 196.

³ Alisher Navoiy. Layli va Majnun. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006. – B. 18.

kamarini bog‘ladi. Bu vodiy olti tomon – old-orqa, tepa-past, o‘ng-u so‘l yo‘q, to‘rt unsur – yer, suv, havo va olov mavjud bo‘lmagan Allohnинг xos, o‘zigagina ma’lum “Haram”i edi. “Layli va Majnun” dostonidan keltirilgan ushbu parchadagi tasvirlar Majnunni ishq yo‘lida borliq to‘nini yechib, yo‘qliq kamarini bog‘lab chekkan iztiroblari tasviri bilan hamohangdir.

U zot Buroqdan tushib, Rafrrafga minadilar va ko‘k pardalarini ochadi. Parvardigor huzuriga yaqinlashadilar. Bu dargoh Lomakon bo‘lib, Navoiy fikricha, bu joy ruhlar makonidir. Bu yerda inson bilgan vaqt, makon tushunchalariga amal qilinmaydi. Rasululloh yo‘qlik maqomi – fanoga qadam qo‘yadi. Fano arabcha so‘z bo‘lib, “o‘lmoq”, “yo‘q bo‘lmoq” ma’nolarini bildirib, tasavvufiy istiloh sifatida “...so‘fiy ko‘zidan narsalarni o‘chirish, banda o‘zining barcha dunyoviy manfaatlaridan yuz o‘girib, to‘liq inoyat bilan Allohnинг vahdat maskaniga yuzlanish”¹ idir.

“Hayrat ul-abror” dostonida Yo‘qlik vodiysiga qadam qo‘ygan payg‘ambarning holatlari shunday tasvirlanadi:

O‘zlugidin naqshi namudor yo‘q,

Naqshi namudoridin osor yo‘q.

Chun o‘zini aylab o‘zidin xalos,

Pardai izzatda qilib o‘zni xos.

Anda yetib gum bo‘libon o‘trusi,

Har necha ko‘z solsa, baqo ko‘zgusi.

Chun bo‘lub ul ko‘zguda suratnamo,

Ko‘zgusidin tashqari qolg‘on fano².

Ya’nikim, “bu joyda qadami yo‘qlik qadami, yo‘l yo‘qlik yo‘li edi. Payg‘ambariiz sollallohu alayhi va sallam o‘zliklaridan voz kechib, Izzat pardasiga xos bo‘ldilar. Atrofga boqib, hech narsani ko‘rmadilar, boqiylik ko‘zgusini ko‘rdilar. Boqiylik ko‘zgusida Rasululloh sollallohu alayhi va sallam bir suratga

¹ Uludağ S. Tasavvuf terimleri sözlüğü. – Istanbul, 1995. – S. 148.

² Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006. – B. 37.

o‘xshab qoldilar”¹, ko‘zgudan tashqari esa fano – yo‘qlik edi. Ayni shu tasvirlar “Farhod va Shirin” dostonida:

Chiqorib o‘zlugi tufrog‘idin gard,
Ne o‘zlukkim, o‘zidin ham bo‘lub fard.

Makoni bo‘lmayin juz bemakonliq,
Nishoni qolmayin juz benishonliq.

“Layli va Majnun” dostonida:

Solib o‘zin anda bexudona.
O‘zdin chiqibon bo‘lub ravona.

Qolib, o‘zi ul o‘zida qolmay,
Solib o‘zinu o‘zini solmay.

“Sab’ai sayyor” dostonida:

O‘zidin o‘zlugi dog‘i itti,
O‘zdin o‘zluk xayoli oritti...
O‘zlugidin dog‘i asar topmay,
Balki o‘zdin dog‘i xabar topmay.

“Saddi Iskandariy” dostonida:

O‘zidin chu jonida qolmay nishon,
Solib o‘zni jonon sori jonfishon.
O‘zidin o‘zin toki qilmay xalos,
Qila olmayin o‘zni jonong‘a xos.

“Lison ut-tayr” dostonida:

Egnidin solib anonyat to‘nin,
Oyirib o‘tdin basharlik uchqunin.
O‘zni o‘zluk qaydidin aylab xalos,
Topib o‘zdin o‘zgalikka ixtisos, – tarzida ifoda topgan.

O‘zligidan butunlay forig‘ bo‘lib, hatto o‘zidan fard bo‘lgan payg‘ambar, jonida jon qolmay, “jonon sari jonfishon” bo‘lib yolg‘iz o‘zi Yori azal huzuriga

¹Алишер Навоий. Ҳайрат ул-аббор. Биринчи китоб. –Тошкент: “Тамаддун” нашриёти, 2021. – Б. 197-98.

“bexudona ravona” bo‘ladi. Dostonlardagi ushbu o‘rinlarda tasvirning turli usullaridan foydalangan Navoiy poetik variatsiyaga murojaat qiladi. Poetik variatsiya – bir ma’noni ifodalashda takror va bir xillikdan qochib, turli tasvir vositalaridan foydalab, umumiyligi ma’noni yetkazishdir. Me’roj boblardagi yuqoridagi baytlarda ham har bir doston tabiatidagi xususiylik, shakldagi turfa xillik va yangi-yangi poetik ifodalar bilan tasvirlanib, umumiyligi ma’no ya’ni, Rasulullohning Lomakondagi jismoniy-ruhiy holati mahorat bilan tasvirlangan.

Bir yerga yetibki, aql yetmas,

Ul vajh ila aql bovar etmas¹.

Me’roj voqeasi va u bilan bog‘liq voqealar asosida yaratilgan badiiy, tasvvufiy, diniy-irfoniy va mavzudagi ko‘plab asarlarda Allah o‘z habibi bilan yetmish parda orqali muloqot qilganligi ta’kidlanadi. Muslim “Sahih”ida keltirgan: “Allohning nur va zulmatdan yetmishta hijobi bor, agar ular ochilsa, Uning xalqidan kimki nazar solsa, muhaqqaqki, yuzi va ko‘zi kuyib ketgay”². Navoiy bu pardani “Hayrat ul-abror”da “pardai izzat” – izzat pardasi, “Farhod va Shirin”da – “shodurvoni vahdat” ya’ni “yagonalik pardasi”³, “Layli va Majnun”da “pardai hijob” – hijob pardasi, “Sab’ai sayyor”da “hijobi pinhoniy” va “Saddi Iskandariy”da “vahdat saropardasi” – tanholik niqobi deb ataydi. Qolgan dostonlardan farqli o‘laroq, “Lison ut-tayr” dostonida bu pardaga maxsus to‘xtalmagan Navoiy “Saddi Iskandariy”da “vahdat saropardasi” tanholik niqobini “ko‘pragi zulmat”, “ozrog‘i ziyo” deb ta’riflaydi.

Bo‘lub raf o‘zluk aro pardasi,

Padid o‘ldi vahdat saropardasi.

Niqob anda yetmish ming yetti zuhur,

Aning ko‘pragi zulmat, ozrog‘i nur⁴.

¹ Alisher Navoiy. Layli va Majnun. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006. – B. 19.

² Qarang: Давлатов О. Алишер Навоий ижодида Қуръон оятлари ва ҳадисларнинг бадиий талқини. PhD дисс. – Самарқанд, 2017. – Б. 138.

³ Izoh O.Davlatovniki.

⁴ Alisher Navoiy. Layli va Majnun. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006. – B. 19.

“Tasavvuf firqalari Haqqa yetishishni turli xil ta’riflaganlar. Kimdir ittihoddan so‘z ochsa, kimdir hulul nazariyasining tarafdori. Hanafiya mazhabi negizida shakllangan naqshbandiylik tariqati tarafdorlari esa bu holatni vahdat – birlik, deb ataydilar”¹. Naqshbandiylik g‘oyalariga muvofiq ijod qilgan Alisher Navoiy ham me’rojni vahdatning oliy namunasi deb biladi.

Inoyat ilgi olamdin nihoni,
Harimi vahdat ichra chekti oni².

Fano vodiysini kezgan soyir (Nabiy alayhissalom – *F. I.*), “Ne o‘zlukkim, o‘zidin ham bo‘lub fard”, “O‘zni o‘zluk qaydidin aylab xalos”, “Topib o‘zdin o‘zgalikka ixtisos” o‘zidagi barcha yomon sifatlardan poklanib haqqa yaqinlashgan oshiq, “so‘ngra Alloh taolo qudratining zohir bo‘lishi sababli, Allohga bo‘lgan hurmati tufayli Allohdan rozilagini yo‘qotib, u bu zavqdan mahrum bo‘lganini ham bilmay, Allohnинг haqiqati uning butun nafsi va ongiga singib ketgan, tashqaridan kelayotgan hech qanday rag‘batni sezmaydigan va o‘zining borligidan bexabar bo‘ladi”³ gan fano fillahdan o‘tib baqoga yetdi. Baqo – tasavvuf mashoyixlari fikricha, Haqning jamoliga yetishadigan eng oxirgi daraja – maqom bo‘lib, bu maqomda so‘fiy faqat Allohnинг quvvat va ta’sirini ko‘rib, Allohdan boshqa hech narsani ko‘rmaslik holatida bo‘ladi. Baqo – “tasavvufda bandaning Allohnи hamma narsadan ustunligini ko‘rishdir. Yana ta’riflardan biri quyidagicha: bandaning o‘zida bo‘lgan narsadan o‘tishi va Allohnikidan omon qolishi. Baqo – nabiylarning maqomidir. Har qanday holat, ularning fazilatli bo‘lishlariga mone’ bo‘lolmaydi. Boqiy bo‘lgan banda butun ashyoda faqat Haqni ko‘radi. Baqo maqomiga erishgan zotning butun holi va harakatlari Haqqa ma’qul bo‘lish haddidadir. Banda haddan o‘tib Haqqa muxolif bo‘lish holatiga tushmaydi”⁴. Shoир Rasululloh sollallohu alayhi va sallamga berilgan buyuk maqom – me’roj – Haq bilan uchrashuvni tasvirlar ekan, bu mo‘jizani inson aqli qabul qilishi qiyin bo‘lgan, angolmaydigan

¹ Давлатов О. Алишер Навоий ижодида Қуръон оятлари ва хадисларнинг бадиий талқини. PhD дисс. – Самарқанд, 2017. – Б. 138.

² Alisher Navoiy. Farhod va Shirin. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. – B. 19.

³ <https://www.sabah.com.tr/sozluk/islamiyet/fena-nedir>

⁴ Uludağ S. Tasavvuf terimleri sözlüğü. – Istanbul: Kabalcı Yayınevi, 1995. – S. 54.

va til bilan ta’riflab bo‘lmaydigan mo‘jiza sifatida e’tirof etadi. Shoir ayni shu o‘rinlarda barcha dostonlarida Kalomullohga murojaat qiladi:

Yaqinroq sig‘indi visol istabon,
Visol avjiga ittisol istabon.
Nekim istabon aylar erdi havas,
Tamomig‘a Haq yetkurub dastras.
Yorub vasl xurshididin ayn anga,
Muayyan bo‘lub, “qobi kavsayn” anga.
Taallumg‘a yetmay “shadidul-quvo”
Ko‘zi topti “mo zog”, o‘zi “mo tog‘o”.
Necha ikilik naqshi nobud o‘lub,
Bir-o‘q vahdati sirf mavjud.
Qilib mayl ummat nizomig‘a ham
Yonib “Limaalloh” maqomig‘a ham¹.

“Isro voqeasi Islom da’vati tarixidagi eng mashaqqatli va og‘ir damlarda sodir bo‘ldi. Bu davrga kelib, Muhammad sollallohu alayhi va sallam boshchiligidagi oz sonli musulmonlarga nisbatan mushriklarning ozorlari, qiyonoqlari kuchaygan, ularni Allohnинг dinidan qaytarish yo‘lidagi chiranishlari haddidan oshgan edi. Payg‘ambarimiz sollallohu alayhi va sallamni mushriklarning hujumlaridan himoya qilib turgan amakilari Abu Tolib va pokiza zavjalari Hadicha onamiz vafot etishadi. Ana shunday mahzunlik, qayg‘u yilda Isro va Me’roj hodisasi bo‘lib o‘tdi”². Bu yaratgan tomonidan, o‘zining habibi va oz sonli sahabalariga, avvalo, iymon sinovi bo‘lib, qolaversa, tasalli berish, noumidlik kayfiyatini so‘ndirib, umid uchqunlarini alanga oldirish edi.

Ta’kidlash muhimki, “Isro hodisasi tush emas, ruhiy safar ham emas, balki Payg‘ambarimiz sollallohu alayhi vasallamning ham jasadlari, ham ruhlari bilan qilgan safarlaridir... Qur’oni karimda Isro mo‘jizasi Muhammad sollallohu alayhi va

¹ Alisher Navoiy. Saddi Iskandariy. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006. – B. 22.

² Алимов У. Тафсири ирфон. Куръони карим маъноларининг таржима ва тафсири. 13-16 жузлар. –Тошкент: Faafur Fyulom nomidagi нашриёт-матбаа ижодий уйи , 2016. – Б. 319.

sallam uchun ilohiy hurmat, ulug‘ martaba ekanligi aytildi, Alloh taoloning qudratiga dalil ekanligi tushuntiriladi. Shuning uchun ham, agar tush yoki ruhiy safar bo‘ladigan bo‘lsa, bu voqeaning mo‘jizaligi qolmas edi”¹.

Navoiy me’roj boblarida Muhammad sollallohu alayhi va sallamning Tangri huzuriga qay holatda borganligini tasvirlar ekan, aynan “**mo zog**” va “**mo tog‘o**” ya’ni, “**Ma zog‘al basaru va ma tag‘o**”(payg‘ambarning) ko‘zi(chetga) og‘gani ham yo‘q, o‘z haddidan oshgani ham yo‘q), qanday yaqinlikda roz aytishgani tasvirida esa “**qoba kavsayn**” ya’ni, “**Fa kana qoba qavsayni av adno**” (Bas, (Muhammadga) ikki kamon oralig‘idek yoki (undan ham) yaqinroq bo‘ldi)² oyatlardan foydalanadi.

Qoba qavsayn – ikki kamon o‘rtasi ma’nosini bildirib, tasavvufiy istiloh sifatida “oriflar nazdida ilohiy amrda ismlar orasidan qabul qilinganiga ko‘ra ilohiy va asmoiy qurb (yaqinlik) maqomi, bu ismlar ibdo, nuzul, uruj, qobiliyat kabilar bo‘lib, ularni vujud doirasi deb ataydilar. Agar solik borliq maqomidan tashqariga qadam qo‘ysa, foni bo‘ladi, Haq vujudiga singib ketadi va imkon doirasi vujub doirasiga yaqinlashadi hamda vujub va imkon birlik hosil qiladi”³. Bundan ham yaqinrog‘i – “**av adno**”(yanada yaqinroq) maqomi bor. “Qoba qavsayn” Haq bilan birlashish ittisol – yaqinlik deyilgan ajratishning baqosi bilan barobar, “av adno” esa ayni jamdagi zotiy ahadiyyatdan iborat. “Av adno”da ajratishlar va ahamiyati bo‘lgan ikkilik sof fano va komil butunlik sababli banda va Haq orasidan ko‘tariladi”⁴.

Toptilar vasl oshiqu ma’shuq,
Borchha xoliq aroda yo‘q maxluq.
Yor mavjudu anda yo‘q ag‘yor,
Yordin o‘zga, balki yo‘q dayor.
Chun karam bahri mavjzan yetti,

¹ Yuqoridagi asar. – B. 319.

² Куръони карим (маъноларининг таржимаси). Таржима ва изоҳлар муаллифи Абдулазиз Мансур. – Тошкент: Шарқ, 2001. – Б. 50.

³ عَجْدِي جَعْشُ. فَشْكُ اصطلاحِ تَعْجِيزاتِ عَشْبَى. – تِشَاعِي: طِهْسَى، ١٨٣٤ ص. ٢١١

⁴ Uludağ S. Tasavvuf terimleri sözlüğü. – Istanbul: Kabalcı Yayınevi, 1995. – S. 258.

Mehmon arzi iltimos etti.

Hech hojatda nukta topmay tul,
Istamasdin burun bo‘lub maqbul¹.

Muhammad alayhissalom me’roj kechasida Allohning qudratiga dalil bo‘luvchi ulkan belgilarni, jumladan, jannatni, do‘zaxni, Obod uy, ya’ni Bayt ul-ma’murni, o‘tgan payg‘ambarlarni, Jabroil alayhissalomning asl holatlarini va boshqalarni ko‘rdilar². Keyin Rafraf bilan uruj qilib, ul Holiqi a’zam, Jabbori akram ulug‘ dargohiga yetdilar. “Qoba qavsayni av adno” (ikki qosh orasi; qurb maqomi) maqomiga erishdilar. Endi bu o‘rinda ne sirlar o‘tdi, qandoq hollar ko‘rindi? Mana ulardin og‘iz ochmoqqa hech kimning haddi sig‘maydur. Bu ishlarga iymon kelturib, taslim bo‘lmoqlikdan boshqa haqqimiz yo‘qdur³. Ikki qosh orasi masofasida yoki undan ham yaqinroq joygacha borib, Tangri bilan roz aytishgan Habibulloh, Karamli zotning marhamat (avf) dengizi mavj urib turganini ko‘rib, Ummatlarining gunohidan o‘tishini so‘radi. Tangri taolo habibini istagini bajo aylab, bandalarga ularni gunohlardan poklovchi, mo‘min kishining me’roji bo‘lgan – namozni farz etti. Shuningdek, Me’roj orqali Alloh taolo Muhammad sollallohu alayhi va sallamning oddiy yo‘lboshchi emas, balki anbiyolar jamoasining a’zosi ekanliklarini e’lon qildi. U kishining ba’zi davlat yoki xalq uchun kurashadigan shunchaki bir boshliq emas, balki samoviy ta’limot orqali butun dunyoni ikki olam saodatiga boshlovchi Xotam ul-anbiyo ekanliklarini e’lon qildi⁴.

Har ne istab hayyi mutlaqdin topib,
Haq tilab, Haqdin tilab, Haqdin topib.
Hosil aylab ulcha imkonim murod,
Qaytib ul me’rojdin masruru shod⁵.

Mana shu misralarda biz me’rojning Navoiyga xos talqinini ko‘ramiz, undan

¹ Alisher Navoiy. Sab’ai sayyor. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006. – B. 19.

² Шайх Муҳаммад Содик Муҳаммад Юсуф. Ҳадис ва Ҳаёт. 19-жуз. Оламларга раҳмат Пайғамбар. – Тошкент: “Sharq”, 2011. – Б. 197.

³ Алихонтўра Соғуний. Тарихий Муҳаммадий. – Тошкент: “Sharq”, 2011. – Б. 95.

⁴ Шайх Муҳаммад Содик Муҳаммад Юсуф. Ҳадис ва Ҳаёт. 19-жуз. Оламларга раҳмат Пайғамбар. – Тошкент: “Sharq”, 2011. – Б. 197.

⁵ Алишер Навоий. Лисон ут-тайр. – Тошкент: Faafur Fулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2019. – Б. 15.

qattiq ta'sirlanamiz. Alisher Navoiy ushbu misralarda bir tomondan, komillar komilining u yerda nima ko'rgan bo'lsa, hammasi boqiy, nimaki foniy bo'lsa, hammasi tashqarida qolganligi, haqiqiy Yor vasliga yetishganidan xursandligini ko'rsatsa, ikkinchi tomondan, inson o'zidan, o'zligidan kechmay turib Yorga – Haqqa yetishmaydi, degan tasavvufiy g'oyani ilgari suradi.

Haqning huzurida har bir istagiga yetgan “Xojayi safariy” (ya’ni, payg‘ambar)ni vasl dengizidan serob bo‘lib qaytishi hamda surat va siyratidagi katta o‘zgarishlar u zotning ikki hamrohi – Jabroil va Buroqni hayratga soladi. Biri u zotni sharaflab, biri qo‘lini o‘psa, ikkinchisi oyog‘ini tavof qiladi:

Markabi birla hamrahig‘a yetib,
Yuzidin ikkisin musharraf etib.

Ikki horg‘on malak yo‘lida qo‘pub,
Biri ilgin, biri ayog‘in o‘pub¹.

“Sab’ai sayyor” dostonida Navoiy boshqa dostonlaridagi me’roj boblardan farqli o‘laroq, “Xojayi safariy”ning me’rojdan Makkaga qaytishi tasviriga bat afsil to‘xtaladi. Sarvari koinot markabi – tasavvuf ahli uchun moddiy olamdan ma’no olamiga o‘tish vositasi bo‘lgan Buroqqa o‘tirarkan, rahmat va ilohiy hikmatga to‘lgan muborak jismini ko‘targanida uning beli bukilib qoldi:

Markabi orqasini aylab xam
Kim, anga yuklanib iki olam².

“Mazkur baytda Borliqning barcha sir-asrorini o‘zida mujassam etgan “sug‘ro olami” – Hazrati Insonning shukuh va jaloli ifodalangan. Vahdat olamidan kasrat olamiga qaytishda”³ osmonning har bir qavati uning tushishi uchun zina bo‘ldi, nurli yuzidan falak zeb oldi. Yuz minglab farishta-yu hurlar u zotni muborakbod etib, boshidan gullar sochdilar. Har bir falakda uning istiqboliga peshvoz chiqib, shohlar atrofida yuradigan qo‘shindek ikki tomonda saf tortib, nurli yuzidan bahramand bo‘lib, xayri xohlik bilan ta’zim qilishib, to yergacha hamrohlik qildi:

¹ Alisher Navoiy. Sab’ai sayyor. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006. – B. 19.

² Yuqoridaq asar. – B. 19.

³ Давлатов О. Алишер Навоий ижодида Қуръон оятлари ва хадисларнинг бадиий талқини. PhD дисс. – Самарканд, 2017. – Б. 144.

Har falak tushmagiga bir poya,
Yuzidin ul falakka piroya...
Yuz tuman ming malak nechukkim hur,
Qo'llarida tabaq vale to'la nur.
Borcha xurramlik oshkor aylab,
Dam-badam boshig'a nisor aylab...
Girdida har taraf sipoh kibi,
Ul munungdek sipohda shoh kibi.
Har safar ul yergacha bo'lub hamroh,
Ki quyi amr qilmay andin iloh¹.

Me'rojdan qaytgan Rasululloh endi o'zini boshqacha tutardi. U zotda g'am-tashvishdan, qayg'u-g'ussadan asar ham qolmagandi. Ushbu o'rirlarda shoir **mubolag'a, o'xshatish va sifatlashdan** unumli foydalanib, nabiy holatini betakror shohbaytlarda tasvirlab beradi. Oy bo'lib ketgan bo'lsa, quyosh bo'lib, dur bo'lib ketgan bo'lsa, ummon bo'lib, g'uncha bo'lib ketsa, guliston bo'lib, zarra bo'lib ketgan bo'lsa, Quyosh bo'lib qaytgandi u zot:

G'uncha borib, toza guliston kelib,
Zarra borib, mehri daraxshon kelib².

Rasulullohning Makkadan Quddusga borishi, u yerdan osmonga ko'tarilishi, yetti qavat osmon ahlini, jannat va do'zaxni ko'rishi, Bayt ul-Ma'murda barcha payg'ambarlar bilan namoz o'qib Sidrat ul-muntahoga yetishi va Alloh bilan uchrashuvi, Muso alayhissalom bilan suhbatи hamda Tangri taolo va Kalomulloh o'rtasida bir necha bor borib-kelishi, so'ngra yerga qaytishiga ketgan vaqtini aql tasavvur qilolmaydi. Barcha dostonlarida me'rojning sodir bo'lish vaqtiga alohida e'tibor bergen Navoiy ushbu lahzalarni shunday tasvirlaydi:

Borg'onu kelgani bir on bo'lub,
Aql bu mansubada hayron o'lub.
Qayda xavoriq bila mu'jiz durur,

¹ Alisher Navoiy. Sab'ai sayyor. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006. – B. 19.
² Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006. – B. 37.

Aql aning idrokida ojiz durur.

Borg‘onu kelgan anga juzvi sag‘ir,

Kim emas ul juzv tajazziy pazir¹.

Ya’ni, uning Me’rojga chiqqani va qaytib kelgani bir onda yuz bergan bo‘lib, aql bunday tadbirdan hayron! Qayda ajoyibotlar va mo‘jizalar bo‘lsa, ularni idrok etishda aql bo‘ladi. U (payg‘ambar)ning chiqishi va qaytishiga ketgan vaqt kichikning kichigi bo‘lib, bu fursat tahlilga arzimaydi².

Payg‘ambarlar tarixiga bag‘ishlangan ko‘plab qissalar, jumladan, “Qisasi Rabg‘uziy”da nabiy alayhissalom me’roji va unga bog‘liq voqeа-hodisalarni batafsil bayon etilib, ushbu mo‘jizaning islom olamidagi ahamiyatiga alohida urg‘u beriladi. Rasulullohning Makkadan Quddusga, Quddusdan me’rojga ko‘tarilishi, yetti qavat osmondan o‘tib, Sidrat ul-muntahoga yetib borishi, undan so‘ng Haqning huzuriga yo‘l olishi, Haq bilan uchrashuvi, namozning farz bo‘lishi va yerga qaytishiga ketgan vaqtini juda qisqa ekanligini muallif: “Taqi o‘run to‘shagi sovumayin issig‘ erdi. Bu ishlar Izi azza va jalla qatinda ujb va mahol ermas”³, – deb izohlaydi.

Haqning visoliga yetishgan nabiy alayhissalomning yerga qaytishidagi tantavor tasvir va orombaxsh holati o‘rnini me’roj boblar so‘ngida shoirning tazarrusi va shafoat umididagi munojotlari egallaydi.

Ey g‘amzada qalblar davosi,

Motamzada jismlar shifosi.

Men xastaki xoru zor erurmen,

Lutfingdin umedvor erurmen.

Elga nazaring chu chorarasdur

Men xastag‘a bir ko‘z uchi basdur⁴.

Me’roj tuni payg‘ambarimizga berilgan eng katta maqomlardan biri – shafoat – Maqomi Mahmud bo‘lib, avvalgilar-u oxirgilar maqtaydigan Rasululloh sollallohu alayhi va sallamning “ulkan shafoat”idir.

¹ Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006. – B. 37.

² Yuqoridagi asar. – B. 262.

³ Носируддин Рабгузий. Қисаси Рабгузий. Иккинчи китоб. – Тошкент: Ёзувчи, 1990. – Б. 161..

⁴ Alisher Navoiy. Layli va Majnun. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006. – B. 37.

Alloh taolo o‘z habibiga ushbu maqomni berib, boshqa payg‘ambarlardan ustun qildi va: “Shoyadki, Robbing seni maqtovli maqomda tiriltirsa”¹, – deb Isro surasi 79-oyatida marhamat qildi.

Imom Ahmad va Imom Bayhaqiy Abu Hurayra roziyallohu anhudan keltirgan rivoyatda Rasululloh alayhissalomdan “Shoyadki, Robbing seni maqtovli maqomda tiriltirsa” oyati haqida so‘rashdi. U zot: “U – shafoatdir”, – dedilar.

Imom Buxoriy keltirgan rivoyatda Abdulloh ibn Umar roziyallohu anhumo aytadi: “Qiyomat kuni odamlar uyumga aylanadilar. Har bir ummat nabiyiga ergashib: “Ey falonchi, bizni shafoat qil. Ey falonchi, bizni shafoat qil”, deyishadi yolvorib. Shafoat (so‘rash) xabari Nabiy sollallohu alayhi va sallamgacha yetib keladi. Ana o‘sha kun Allah u zotga maqtovli maqomni ato etadigan kundir”².

Imom Ahmad va boshqalar Ibn Mas’ud roziyallohu anhudan rivoyat qilgan hadisda Rasululloh sollallohu alayhi vasallam aytadilar: “Men albatta maqtovli maqomda turaman”. Bu maqom u zotdan boshqa hech kimga nasib etmagan Arshning o‘ng tomonidagi maqomdir. Unga avvalgilar-u oxirgilar havas bilan qaraydilar³.

Alisher Navoiy me’roj boblarning yakunida, avvalo, Allohning rahmatidan umid qilib, qolaversa, katta shafoat egasi – payg‘ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi va sallamga “karam va lutf ila” murojaat qilib, uni ham Mahshar kuni himoyasiga olib, shafoat qilinganlar orasida bo‘lishini so‘rab iltijo qiladi:

Ilohiy, bu nubuvvat toji haqqi,

Aning bu sur’ati me’roji haqqi.

Kim andoqkim tilab ummat gunohin,

Sen etting afv alar fe’li tabohin.

Navoiyni demay, bir benavoni,

O‘kush jurmu gunahg‘a mubtaloni.

Aning ummatlig‘ig‘a qobil ayla,

¹ Куръони карим ва ўзбек тилидаги маънолар таржимаси. Шайх Мухаммад Содик Мухаммад Йосуф. – Тошкент: “Sharq”, 2011. – Б. 290.

² <https://siyrat.uz/maqola/10415>

³ <https://siyrat.uz/maqola/10415>

Shafoat qilg‘on elga doxil ayla.
Gar elga bahri g‘ufroning xavasdur,
Chu ul xasdur, anga bir qatra basdur¹.

Ya’ni, “Ey Xudo payg‘ambarlik toji haqqi, uning bu me’rojining tez yuz bergani haqqi, uning ummatlari gunohini so‘ragani uchun ular fe’lining buzuqligini sen afv etting. Navoiy demayman, oddiy bir bechorani, ko‘p-ko‘p ayb va gunohlarga botgan odamni mo‘min qobil qilib, uning ummatlari safiga kirit! Sening shafqat dengizing elning havasini keltirar ekan, Navoiy go‘yo bir xasdirki, unga bu dengizdan bir qatra ham yetarlidir”².

Isro va Me’roj nabiy alayhissalomga hayotining eng qiyin mahzunlik yillarida Yaratganning o‘z habibini mahzunlikdan chiqishi, Olamlarga rahmat ekanligi, o‘zi targ‘ib qilayotgan ilohiy ta’limot orqali butun dunyoga Xotam ul-anbiyo bo‘lib kelganliklarini e’lon qilish uchun berilgan buyuk rabboniy mukofatdir. Ayniqsa, ummatlarining gunohlari uchun shafoatchi bo‘lish imkonining berilishi nafaqat u zotni, balki barcha iymon ahlini nihoyatda xursand qildi. Bu xursandchilik asrlar davomida davom etib, shoirlarni me’rojdan ta’sirlanib go‘zal she’rlar bitishga, Rasululloh sollalohu alayhi va sallamni madh etishga, u zotga bo‘lgan muhabbatini ifodalash imkonini berdi. Ayni damda shoir adabiy qarashlarining islom asoslari bilan uyg‘unligi me’rojlarda yana bir bor o‘z tasdig‘ini topdi.

Zotan, shoir ijodining manbasi – cheksiz ilohiy haqiqatlar manbasi bo‘lgan Qur’on va hadislardir. Shunday qilib, Alisher Navoiy bu kabi misralar orqali, bir tomonidan, komillar komilining yerdagi ishlari, baqo va fanoga oid asosiy sifatlar, haqiqiy Yor vasliga yetishganidan mammunligini tasvirlasa, ikkinchi tomonidan, insonning kamolot yo‘li, u o‘zidan, o‘zligidan kechmay turib asliga yetisha olmasligi haqidagi ma’rifiy qarashlarini ilgari suradi.

¹ Alisher Navoiy. Farhod va Shirin. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006. – B. 18.
² Yuqorida manba. – B. 349.

III BOB BO‘YICHA XULOSALAR

1. “Ko‘tarilish”, “yuksalish” ma’nolarini anglatgan me’roj – payg‘ambarimizga berilgan eng buyuk maqom sifatida barcha ijodkorlar qatori Navoiyni ham hamisha inson kamolotining buyuk namunasi sifatida hayratga solib, ilhombaxsh mavzuga aylangan. Navoiy har bir dostonida ushbu ilhombaxsh kecha tasviri uchun alohida bob ajratib, mavzu va an’ana tarixida yangi adabiy hodisa yaratdi.

2. Me’rojlarda tun tasviri – yulduzlar, sayyoralar, burjlar va yetti qat osmon tavsifi vositasida sharq, xususan, arab, fors va turk xalqlari mifologiyasining badiiy talqini aks ettiriladi. Ayni damda, shoirning unga munosabati, kosmogonik va diniy-tasavvufiy qarashlarning keng o‘rin tutishi kuzatiladi.

3. Dostonlardagi me’rojlarda Navoiy me’roj voqeasini batafsil hikoya qilmaydi, balki bu voqeani badiiyat talablari asosida tashxis, tazod va iyhom she’riy san’atlari misolida tavsiflab tasvirlaydi. Me’rojga oid tasvirlarda shoir birlamchi manba bo‘lgan oyat va hadislarga tayanib, poetik talqinlar vositasida kitobxonni keng mushohada qilishga undaydi.

4. Navoiy ushbu me’roj boblarda salaflar izidan borib, an’anaviy mavzuning so‘fiyona talqiniga katta e’tibor beradi. Payg‘ambarimizning tungi sayri bilan bog‘liq an’anaviy poetik tasvirlarni navoiyonha uslub bilan boyitadi. Ayni paytda, ushbu tasvirlar orqali komil inson madh etiladi, o‘zining komillik va komil inson haqidagi diniy-tasavvufiy qarashlari hamda me’roj bilan bog‘liq tasavvurlarini bayon qiladi.

5. Sayyoralar tasvirida sharq mifologiyasi va kosmogonik qarashlaridan unumli foydalangan shoir, o‘zining va xalqimizning boy tafakkur tarzini, turkiy tilning boyligini namoyon etarkan, Savrni Qo‘ziga, Javzoni Ikki paykarga, Asadni Arslonga, Mizonni Pallaga, Aqrabni Chayonga, Qavsnii Yoyga, Jadini O‘chkuga, Dalvni Qo‘bqaga almashadiradi.

6. Ortiqcha bo‘yoqdorlik va takrorlardan qochish maqsadida Navoiy me’roj boblarda Nabiy alayhissalomni tungi soyir, “xojayi safariy” deb atasa,

Jabroil alayhissalomni “Soyiri ulviy maqom”, “Qosidi qudsiy” (“Hayrat ul-abror”), “Baridi xomili roz” (“Farhod va Shirin”), “Baridi nur baxshi” (“Layli va Majnun”), “Qosidi jahonpaymo” (“Sab’ai sayyor”), “Arsh ayvonining toiri” va “Jabroili amin” (“Saddi Iskandariy”), Ruhul amin, “payk” (“Lison ut-tayr”) deb nomlab, kitobxonga Ruh ul-qudsni yangi-yangi navoiyona sifatlar bilan tanishtiradi.

7. Buroqni “toiri ulviy xirom”, “raxsh”, “markabi farxundafol”, “borai sur’atnamo”, “rahrav”, “tavsan” (“Hayrat ul-abror”), “Buroqi barqparvoz”, “garmrav”, “raxshi novard” (“Farhod va Shirin”), “mahzi nur raxshi”, “barqi garmrav”, “Buroqi barvdav”, “markab” (“Layli va Majnun”), “raxshi osmonpaymo”, “markabi humoyun bol” (“Sab’ai sayyor”), “barqtayr”, “xuld bo’stonining soyiri”, “Buroqi sabuk sayri qudsiy sirisht” (“Saddi Iskandariy”), “Buroqi barqvez”, “markab” (“Lison ut-tayr”) kabi obrazli ifodalarni qo’llab ta’rif tavsiflaydi. Ushbu boblarda talmeh, tashxis, tazod, kitobat, tamsil va husni ta’lil kabi badiiy san’atlardan o‘zining g‘oyalarini ifodalashda o‘rinli foydalanadi.

UMUMIY XULOSA

1. Alisher Navoiy dostonlari mazmunini to‘g‘ri anglash, ularning mohiyatiga kirib borish uchun, avvalo, bu asarlarni shoir dunyoqarashi bilan uyg‘unlikda o‘rganish zarur. Dostonlarning muqaddima qismlari, ayniqsa, ulardagi hamd va na’t boblar bu jarayonda o‘ziga xos o‘ringa ega. Na’tlar poetikasini har bir doston misolida izchil o‘rganish Alisher Navoiyning diniy-tasavvufiy, ma’rifiy-axloqiy qarashlari va ularga xos badiiy tasvirning ustuvor xususiyatlarini aniqlashda, buyuk shoirning estetik ideali masalasini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi.

2. Arab adabiyotida dastlab madh sifatida shakllangan na’tlar, islom sharofati va payg‘ambarimizning fazilatlari bois shoirlarning sevimli mavzularidan biriga aylangan va nabiy madhiga bag‘ishlangan janr sifatida taraqqiy etgan. Dinning adabiyotga ta’siri, islom asoslarining adabiy g‘oyalar bilan mushtarakligi badiiy adabiyotni shakl va mazmun jihatidan boyitish bilan birga Sharqda o‘ziga xos kitobotchilik an’anasi rivojiga olib kelgan. Natijada na’tlar masnaviy va nasriy asarlarning an’anaviy kirish qismidan muqim joy olib, forsiy va turkiy adabiyotdagи barcha janrlar (doston, qasida, hikmat, g‘azal, qit’a va boshqalar)ga moslashuvchan mavzu sifatida asarlar tarkibidan joy olgan.

3. Ijodkorlar uchun ushbu mavzuda payg‘ambarning buyukligi, yuksak sharafi va ulug‘ maqomini madh yetish, bir tomondan, shoirlik burchi va ummatlik vazifasi bilan bog‘lansa, boshqa tomondan, bu – salaflarga munosib javob berish uchun katta adabiy sinov maydoni va ijodkorlar asarlarining mohiyatini tashkil etuvchi falsafiy-irfoniy, komil inson haqidagi qarashlarga xos o‘zak nuqtalarni aniqlashning asosiy me’zonlaridan biri edi.

4. Asarlardagi ushbu boblar badiiy mazmuni ifodasi uchun Qur’oni karim va hadislar birlamchi manba bo‘lib xizmat qilgan, ayni paytda, shoirga salaflar ijodi ilhom manbayi, sharqona an’anaviy ta’lifda ijodiy turtki edi. Shu jihatlariga ko‘ra, na’t boblar shoir ijodini o‘rganishda, tahlil va talqin qilishda, asarlariga to‘g‘ri baho berishda hamda ma’naviy olamini o‘rganishda muhim manba hisoblanadi.

5. Adabiyotimiz tarixida ilk bor Yusuf Xos Hojib tomonidan boshlab berilgan adabiy tasnif keyingi davr ijodkorlari, Ahmad Yugnakiy, Ahmad Yassaviy, Xorazmiy, Xo‘jandiy, Said Ahmad, Yusuf Amiriyy va Nosiruddin Rabg‘uziy tomonidan an’ana sifatida davom ettirilib, na’tlar mavzu va mazmun jihatdan boyitilgan, barcha janrlarga moslashadigan mavzu sifatida rivojlantirilgan.

6. Temuriylar davridagi bunyodkorlik, ma’naviy yuksalish kitobotchilikka ham o‘z ta’sirini ko‘rsatdi. Turkiy vasf va me’roj na’tlar bitish an’anasi Navoiy ijodida kamoliga yetdi. Shoirning vasfiy na’tlarida Payg‘ambarimiz sollallohu alayhi va sallam hayoti va payg‘ambarlik faoliyati, insoniy sifatlari, qilgan barcha amallarining butun insoniyatga ibrat sifatidagi badiiy talqini ifoda topgan bo‘lsa, me’roj na’tlarda u zotga berilgan buyuk maqom, Allohning in’omi me’roj hodisasining badiiy talqini, u sodir bo‘lgan tun – qorong‘u kechaning go‘zal tasviri asnosida shoirning diniy-so‘fiyona va kosmogonik qarashlari o‘z ifodasini topgan.

7. Alisher Navoiy dostonlaridagi na’tlar mavzu va an’ana tarixida yangi adabiy hodisa bo‘lib, Rasululloh haqidagi an’anaviy qarashlarning navoiyona ifodasi o‘laroq maydonga keldi. Nabiyl alayhissalomga bo‘lgan shoirning cheksiz muhabbati na’tlardagi xronologik tartib, tasvirdagi poetik mukammallik, mazmun bilan uyg‘unlikdagi betakror badiiyatda aks yetib, asarlarning originalligini ta’milagan.

8. Asosan, shoirning ideali – komil inson haqidagi qarashlar va tasavvurlari poetik talqin etilgan ushbu boblar asarning umumiy mazmuni bilan bog‘langan bo‘lib, kitobxonga asar haqidagi dastlabki axborotni beradi va umumiy tasavvurni shakllantiradi, muallifning individual pozitsiyasini tushunishga xizmat qiladi.

9. “Hayrat ul-abror” dostonidagi vasfiy na’tlarda hikmat adabiyotiga xos didaktika yetakchilik qiladi. Dunyoning yaratilishidan boshlab Rasuli akramning dunyoga kelishi, bolalik, yetuklik va payg‘ambarlik davrlari badiiy tasvirlanib, siyrati madh etiladi. Hayoti va ijtimoiy-siyosiy faoliyati insoniyatga ibrat o‘laroq, komil insonning yakka-yu yagona namunasi bo‘lib, komillik ideali ekanligi bot-bot e’tirof etiladi. “Farhod va Shirin”da Nabiyl alayhissalomning komil xulqlari, qiyofasi

hamda har qanday insoniy istak – nafsi ustidan hokim bo‘lgan ozod inson, buyuk xulq egasi sifatida tasvirlansa, “Layli va Majnun”da Rasulullohning buyuk payg‘ambarlik sifatlari vasflanadi. “Sab’ai sayyor” dostonida Rasulullohning barcha zamonlar uchun ideal rahbar,adolati hamma uchun o‘rnak qilib ko‘rsatilsa, “Saddi Iskandariy”da Sarvari koinotning payg‘ambarlar shohi, olamlarga rahmat, buyuk shafoat egasi bo‘lgan hukmdorlik sifatlariga alohida urg‘u qaratilgan.

10. Navoiy me’roj tasvirida salaflaridan farqli o‘laroq, Me’roj va Isro hodisasi tasvirini yaxlit, qat’iy tartibga amal qilgan holda voqealar rivoji – tun tasviri, Rasulullohning safar oldi holati, Jabroil va Buroq ta’rifi, samo tasviri, sayyora-yu burjlar, yetti qavat osmon va Sidrat ul-muntaho, fano filloh, Haqning huzuri va u makondan qaytish holati, borib-kelish vaqt va yakuniy xulosa tarzidagi ketma-ketlikda badiiyat mezonlariga asoslanib tasvirlagan. Ayni holat Navoiyning barcha dostonlaridagi na’tlar tasvirida qonuniyat o‘laroq takrorlangan.

11. Barcha ijodkorlar kabi Navoiyning ham ushbu na’t boblarni bitishdan maqsadi, avvalo, o‘zining Rasulullohga bo‘lgan muhabbatini izhor qilish, ummatlik burchini ado etish, qiyomat kuni uning shafoatiga umid qilib, Haqning jamoliga erishish, ayni paytda, salaflarning adabiy an’analarini davom ettirib, ularga munosib javob aytish, adabiy ta’sir va originallik hodisalarining mukammal namunasi edi. Shuningdek, Navoiy o‘z asarlari bilan ona tilining rivojiga ulkan hissa qo‘sghan shoir sifatida an’anaviy na’tlar bitishda ham turkiy tilning boyligi va jozibasidan samarali foydalangan.

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. Normativ-huquqiy hujjatlar va metodologik ahamiyatga molik nashrlar

1. Каримов И.А. Адабиётга эътибор – маънавиятга, келажакка эътибор. Тошкент: Ўзбекистон, 2009. – 40 б.
4. Мирзиёев Ш.М. “Буюк шоир ва мутафаккир Алишер Навоий таваллудининг 580 йиллигини кенг нишонлаш тўғрисида”ги Қарор // Қонун хужжатлари маълумотлари миллий базаси, 20.10.2020, 07/20/4865/1395-сон.
5. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргалиқда барпо этамиз. Ўзбекистон Республикаси Президенти лавозимиға киришиш тантанали маросимиға бағишлиланган Олий Мажлис палаталарининг қўшма мажлисидаги нутқ / Ш.М. Мирзиёев. – Тошкент: “Ўзбекистон” НМИУ, 2016. – 56 б.
6. Мирзиёев Ш.М. “Ўзбек мумтоз ва замонавий адабиётини ҳалқаро миқёсда ўрганиш ва тарғиб қилишнинг долзарб масалалари” мавзуидаги ҳалқаро конференция иштирокчиларига йўлланган табрик // Халқ сўзи, 2018 йил, 8 август.
7. Шавкат Мирзиёев. Туркий Кенгашнинг видеоконференция шаклида ўтказилган норасмий саммитидаги нутқи. “Янги Ўзбекистон” газетаси № 65 (321) 01.04.2021й сони.

II. Ilmiy-nazariy adabiyotlar

1) Milliy nashrlar

8. Abdurahmonov A. Turk adabiyotining qadimgi davri. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2005. – 376 б.
9. Абдуғафуров А. Навоий ижодида сатира. – Тошкент: Фан, 1972.– 260 б.
10. Абдуғафуров А. Буюк бешлик сабоқлари: Мақомлар. – Тошкент: Фоғур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1995. –184 б.
11. Абдуғафуров А. Эрк ва эзгулик куйчиси. – Тошкент: Фоғур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1979. –160 б.

12. Акромов Б. Фасоҳат мулкининг соҳибқирони. – Тошкент: Ўзбекистон, 1991. – 244 б.
13. Алибег Рустамий. Ҳазрати Навоийнинг эътиқоди. – Тошкент, 2010.
14. Азизов С. Алишер Навоий асарларида фалаккиёт сирлари. – Тошкент: O‘zbekiston, 2018. – 136 б.
15. Воҳидов Р. Алишер Навоий ва илоҳиёт. – Бухоро: Наврӯз, 1994. – 208 б.
16. Воҳидов Р. Алишер Навоийнинг ижод мактаби. – Бухоро, 1994. – 188 б.
17. Ҳайитметов А. Алишер Навоийнинг адабий-танқидий қарашлари. – Тошкент: Фан, 1959. – 196 б.
18. Ҳайитметов А. Навоийнинг ижодий методи масалалари. – Тошкент: Фан, 1963. – 173 б.
19. Ҳайитметов А. Навоий лирикаси. 2-нашр. – Тошкент: “O‘ZBEKISTON” НМИУ, 2015. – 328 б.
20. Ҳаққул И. Навоийга қайтиш 1. – Тошкент: Фан, 2007. – 224 б.
21. Ҳаққул И. Навоийга қайтиш 2. – Тошкент: Фан, 2011. – 200 б.
22. Ҳаққул И. Навоийга қайтиш 3. – Тошкент: Фан, 2016. – 200 б.
23. Ҳаққул И. Навоийга қайтиш 4. – Тошкент: “TAFAKKUR” нашриёти, 2021. – 240 б.
24. Ҳаққул И. Тасаввуф ва шеърият. – Тошкент: Ғофур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат, 1991. – 184 б.
25. Ҳожиахмедов А. Мумтоз бадиият малоҳати. – Тошкент: “Sharq”, 1999. – 240 б.
26. Имомназаров М. Навоийшуносликка кириш. – Тошкент, 2015. – 423 б.
27. Ismoilov I. Navoiy ijodida Iskandar obrazi talqinlari. – Toshkent: BAYOZ, 2020. – 128 b.
28. Исҳоқов Ё. Навоий поэтикаси. – Тошкент: Фан, 1983. – 168 б.
29. Исҳоқов Ё. Нақшбандия таълимоти ва ўзбек адабиёти. – Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2002. – 120 б.
30. Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. – Тошкент: O‘zbekiston, 2014. – 320 б.

31. Иззат Султон. Адабиёт назарияси. – Тошкент: Ўқитувчи. 1980. – 390 б.
32. Жабборов Н. Маоний аҳлининг соҳибқирони. – Тошкент: “ADABIYOT” нашриёти, 2021. – 256 б.
33. Жалолов Т. “Хамса” талқинлари. – Тошкент: Fafur Fулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1968. – 152 б.
34. Жумахўжа Н. Сатрлар силсиласидаги сехр. – Тошкент: Ўқитувчи, 1996. – 224 б.
35. Жўрақулов У. Назарий поэтика масалалари. – Тошкент: Fafur Fулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2015. – 356 б.
36. Караматов Ҳ. Қуръон ва ўзбек адабиёти. – Тошкент: Фан, 1993. – 96 б.
37. Каримова Ф. Ўзбек адабиётида дебоча. – Тошкент: “MUMTOZ SO‘Z”, 2008. – 112 б.
38. Комилов Н. Маънолар оламига сафар. Алишер Навоий ғазаллариға шарҳлар. – Тошкент: “Tamaddun”нашриёти, 2012. – 316 б.
39. Комилов Н. Фақр нури порлаган қалб. – Тошкент: Маънавият, 2001. – 96 б.
40. Комилов Н. Тасаввуф. – Тошкент: “Movarounnahr” - “O‘zbekiston”, 2009. – 448 б.
41. Комилов Н. Хизр чашмаси. – Тошкент: Маънавият, 2005. – 320 б.
42. Мадаев О. Навоий сұхбатлари. – Тошкент: “O‘QITUVCHI” НМИУ, 2018. – 248 б.
43. Маллаев Н. Алишер Навоий ва халқ ижодиёти. – Тошкент: Fafur Fулом номидаги нашриёт–матбаа ижодий уйи, 2015. – 431 б.
44. Маҳмуд Асъад Жўшон. Ислом, тасаввуф ва ахлоқ. – Тошкент: Истиқлол, 2000. – 240 б.
45. Мухаммаджон Маҳмуд. Навоий ижодига янгича қараш. – Тошкент: “MERIYUS” нашриёти, 2015. – 192 б.
46. Муҳиддинов М. Комил инсон – адабиёт идеали. – Тошкент: Маънавият, 2005. – 208 б.

47. Муллахўжаева К. Алишер Навоий ғазалиётида тасаввуфий тимсол ва бадиий санъатлар уйғунлиги. – Тошкент: Akademnashr, 2019. – 208 б.
48. Муллахўжаева К. Сўзни жаҳон баҳрида дурдона бил... (“Ҳайрат ул-аброр” муқаддимасига бир назар) / Бадиий уммон қатралари. – Тошкент: BAYOZ, 2015. – 112 б.
49. Навоий ва адабий таъсир масалалари. Мақолалар тўплами. Нашрга тайёрловчилар С.Ғаниева, А.Абдуғафуров. – Тошкент: Фан, 1968.
50. Олим Султонмурод. Нақшбанд ва Навоий. – Тошкент: Ўқитувчи, 1996. – 216 б.
51. Олим Султонмурод. Ишқ, ошиқ ва маъшук. – Тошкент: Фан, 1992. – 81 б.
52. Рустамов А. Навоийнинг бадиий маҳорати. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1979. – 216 б.
- 53.
54. Сирожиддинов Ш. Алишер Навоий: манбаларнинг қиёсий-типологик, текстологик таҳлили. – Тошкент: Akademnashr, 2011. – 326 б.
55. Сирожиддинов Ш. Ўзбек мумтоз адабиётининг фалсафий сарчашмалари. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2011. – 200 б.
56. Султон И. Навоийнинг қалб дафтари. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2010. – 376 б.
57. To‘xliyev B. Navoiyshunoslik. – Toshkent: BAYOZ, 2021. – 262 b.
58. Тўхлиев Б. Юсуф Ҳос Ҳожиб ва туркий халқлар фольклори. – Тошкент: BAYOZ, 2013. – 114 б.
59. Ғаниева С. Алишер Навоий (Ҳаёти ва ижоди). – Тошкент: Фан, 1968. – 148 б.
60. Ғаффорова Зиёда. Навоийнинг ҳамд ва наът ғазаллари. Тошкент: – Маънавият, 2001. – 62 б.
61. Шайх Аҳмад ибн Худайдод Тарозий. Фунун ул-балоға. – Тошкент: Ҳазина, 1996. – 212 б.

62. Шарафуддинов О. Алишер Навоий. – Тошкен: Ўздавнашр, 1948. – 79 б.
63. Шарипов М. Навоий ва адабий алоқалар. – Тошкент: Фан, 1968. – 251 б.
64. Шарипов С. Расулуллоҳда гўзал ўрнак бор. Тошкент: “HILOL-NASHR”, 2020. – 94 б.
65. Эркинов А. Навоий – пейзаж устаси. – Тошкент: Фан, 1988. – 64 б.
66. Эркинов С. Навоий “Фарҳод ва Ширин”и ва унинг қиёсий таҳлили. – Тошкент: Фан, 1971. – 276 б.
67. Юсупова Д. Алишер Навоий “Хамса”сида мазмун ва ритмнинг бадиий уйғулиги. – Тошкент: “MUMTOZ SO‘Z”, 2011. – 144 б.
68. Зиявуддина М. Мумтоз араб адабиёти. – Тошкент, 2012.
69. Зохидов В. Улуг шоир ижодининг қалби. – Тошкент: Фан, 1970. – 495 б.
70. Ўзбек адабиёти тарихи. Беш томлик. I том. Энг қадимги даврлардан XV асрнинг иккинчи ярмигача. – Тошкент: Фан, 1977. – 328 б.
71. Ўзбек адабиёти тарихи. Беш томлик. II том. XV асрнинг иккинчи ярми. – Тошкент: Фан, 1977. – 328 б.
72. Қаюмов А. Навоий “Хамса”си. Асарлар. Т. I, K.2. – Тошкент: “MUMTOZ SO‘Z”, 2008. – 400 б.
73. Қаюмов А. “Хамса” сарлавҳалари. Асарлар. 3-жилд. – Тошкент: “MUMTOZ SO‘Z”, 2009. – 384 б.
74. Қобилов У. Нубуват ҳақиқати – бадиий ижод руҳи. – Самарқанд: 2021. – 303 б.
75. Қурбонов А. “Хамса” сарлавҳалари бадиияти. – Тошкент: “MERIYUS” нашриёти, 2016. – 188 б.
76. Ғаффорова З. Навоийнинг ҳамд ва наът ғазаллари. – Тошкент: Маънавият, 2001. – 62 б.

2) Xorijiy nashrlar

77. Abdurrahman Güzel. Turk Halk Edebiyatı El Kitabı. – Ankara: Akçağ, 2003. – 455 s.

78. Абдуқодиров А. Адабий алоқа, анъана ва маҳорат. – Хуҷанд: Нури маърифат, 2017. – 115 с.
79. Абдуқодиров А. Алишер Навоий ва унинг салафлари ижодида вахдат ул-вужуд талқини. – Хўжанд: Р. Жалил номидаги Давлат нашриёти, 1996. –142 с.
80. Абдуқодиров А. Навоий ва нақшбандийлик. – Хўжанд, 1994. – 165 с.
81. Бертельс Е.Э. Избранные труды. Том 4. Навои и Джами. – Москва: Наука, 1965. – 499 с.
82. Бертельс Е.Э. Низами. Творческий путь поэта. – Москва: Наука, 1956. – 261 с.
83. Doktor Abbos al-Jarari. Marokash adabiyoti uning hodisalari va muammolari. – Kasablanka: An-Najah New Press, 1982. – 142 b.
84. Edîb Ahmed Yüknekî. Atebetü'l-Hakâyık.Yayına Hazırlayan Dr. Serkan Çakmak. – İstanbul: 2019.
85. Emine Yeniterzi, Divan Şiirinde Na't. Doktora tezi. Konya, 1989. – 930 s.
86. Emine Yeniterzi. Turk Edebiyatında Na'tlar: Antoloji. Turkiye Diyanet Vakfi Yayınları 99. – Ankara: Turkiye Diyanet Vakfi, 1993.
87. Eraslan, Kemal. “Hakim Ata ve Mi'rac-namesi,” Ataturk Üniversitesi Edebiyat Fakültesi Araştırmalar Dergisi 10: 243-304. – Ankara 1979.
88. Günümüz Dili’nde Hz. Muhammed'e na't'ler, Türkiye Diyanet Vakfı Yayınları, Nu. 68. – Ankara: Turkiye Diyanet Vakfi, 1991.
89. Grabar, Oleg and Mika Natif. The Story of the Portraits of the Prophet Muhammad, SI 96, 2003. – p. 19-37.
90. Ибн Касир. Рассказы о пророках(Кисас ул-анбиё). – Москва: Умма, 2012. – 987 с.
91. Ҷомӣ А. Шавоҳид-ун-нубувват. – Хуҷанд: Ношир, 2014. – 444 с.
92. Türk Dili ve Edebiyatı Ansiklopedisi. – Istanbul, 1986. C. VI, s. 529.
93. میشال عاصی ود. امیل بدیع یعقوب. قاموس اللغة المفضلة والأدب. ج 2. بیروت ، 1987 . - 33

ص.

زکی مبورک. مدح النبی فی الأدب العربي . مصر الجديدة ١٩٣٥ . ١٦٨ رهان . 94.

III. Diniy manbalar, adabiyotlar

95. Ал-Бухорий Абу Абдуллоҳ Мұхаммад ибн И smoil. Олтин силсила: 1 жуз. Саҳиҳул Бухорий. Тошкент: “HİLOL-NASHR”, 2020. – 672 б.
96. Ал-Бухорий Абу Абдуллоҳ Мұхаммад ибн И smoil. Олтин силсила: 4 жуз. Саҳиҳул Бухорий. Тошкент: “HİLOL-NASHR”, 2020. – 672 б.
97. Ал-Бухорий Абу Абдуллоҳ Мұхаммад ибн И smoil. Олтин силсила: 5 жуз. Саҳиҳул Бухорий. Тошкент: “HİLOL-NASHR”, 2020. – 672 б.
98. Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy. Al-jomi’ as-sahih. 1-jild. Toshkent: Qomuslar Bosh tahririyati, 1991. – 403 b.
99. Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy. Al-jomi’ as-sahih. 2-jild. Toshkent: Qomuslar Bosh tahririyati, 1992. – 432 b.
100. Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy. Al-jomi’ as-sahih. 3-jild. Toshkent: Qomuslar Bosh tahririyati, 1992. – 381 b.
101. Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy. Al-jomi’ as-sahih. 4-jild. Toshkent: Qomuslar Bosh tahririyati, 1992. – 361 b.
102. Абдулмалик инб Ҳишом Ал-Маъфирий. Ас-сийра Ан-набавийя. Икки жилдлик / Масъул мұхаррир: Н.Иброҳимов. I ж. Тошкент: “HIOL-NASHR”, 2020. – 383 б.
103. Абдулмалик инб Ҳишом Ал-Маъфирий. Ас-сийра Ан-набавийя. Икки жилдлик / Масъул мұхаррир: Н.Иброҳимов. II ж. Тошкент: “HIOL-NASHR”, 2020. – 398 б.
104. Алимов Усмонхон. Тафсири ирфон. 13-16 жуз. Тошкент: Faafur Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2016. – 718 б.
105. Алихонтўра Соғуний. Тарихи Мұхаммадий. Тошкент: “Sharq”, 2011. – 671 б.
106. Имом Абу Ийсо Мұхаммад Термизий. Шамоили Мұхаммадийя 1. – Тошкент: “Sharq”, 2020. – 301 б.

107. Имом Абу Ийсо Мұхаммад Термизий. Шамоили Мұхаммадийя 2. – Тошкент: “Sharq”, 2020. – 350 б.
108. Имом Мұхиддин Закарий ибн Шараф Нававий. Қирқ ҳадис. Тошкент: “Sharq”, 2021. – 200 б.
109. Имом Мұхиддин Закарий ибн Шараф Нававий. Қирқ ҳадис. Тошкент: “Sharq”, 2021. – 200 б.
110. Мұхаммад Зако Күнрапа. Мұхаммад солаллоҳу алайҳи васаллам ва ислом тарихи. Тошкент: “Sharq”, 2018. – 367 б.
111. Олтин силсила: 1-жуз. Саҳиҳул Бухорий. – Тошкент: “HIOL-NASHR”, 2020. – 672 б.
112. Олтин силсила: 4-жуз. Саҳиҳул Бухорий. – Тошкент: “HIOL-NASHR”, 2020. – 672 б.
113. Олтин силсила: 5-жуз. Саҳиҳул Бухорий. – Тошкент: “HIOL-NASHR”, 2020. – 672 б.
114. Сайид Жаъфар ибн Ҳасан Барзанжий. Мавлид. Таржима ва шарҳлар муаллифи Ҳасанхон Яҳё Абдулмажид. – Тошкент: “HIOL-NASHR”, 2015. – 334 б.
115. Сайид Мұхаммад Ҳасаний. Икки олам сарвари. Тошкент: Fafur Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2019. – 351 б.
116. Сафиюраҳмон Муборакфурий. Ар-рахиқ Ал-махтум. Самарқанд: Имом Бухорий маркази, 2019. – 506 б.
117. Шайх Мұхаммад Содик Мұхаммад Юсуф. Тафсири ҳилол. Олти жуз. Биринчи жуз. – Тошкент: “Sharq”, 2008. – 640 б.
118. Шайх Мұхаммад Содик Мұхаммад Юсуф. Тафсири ҳилол. Олти жуз. Иккинчи жуз. – Тошкент: “Sharq”, 2008. – 670 б.
119. Шайх Мұхаммад Содик Мұхаммад Юсуф. Тафсири ҳилол. Олти жуз. Учинчи жуз. – Тошкент: “Sharq”, 2008. – 670 б.
120. Шайх Мұхаммад Содик Мұхаммад Юсуф. Тафсири ҳилол. Олти жуз. Тўртинчи жуз. – Тошкент: “Sharq”, 2008. – 638 б.

121. Шайх Муҳаммад Содик Муҳаммад Юсуф. Тафсири ҳилол. Олти жуз. Бешинчи жуз. – Тошкент: “Sharq”, 2008. – 640 б.
122. Шайх Муҳаммад Содик Муҳаммад Юсуф. Тафсири ҳилол. Олти жуз. Олтинчи жуз. – Тошкент: “Sharq”, 2008. – 639 б.
123. Шайх Муҳаммаджон Рустам ўғли. Қуръони Карим оятлари маъноларининг изоҳли таржимаси. – Тошкент: “MUNIR” нашриёти, 2022. – 830 б.
124. Шайх Муҳаммад Содик Муҳаммад Юсуф. Ҳадис ва ҳаёт. Оламларга раҳмат пайғамбар. 19 жуз. – Тошкент: “Sharq”, 2011. – 584 б.
125. Шайх Муҳаммад Содик Муҳаммад Юсуф. Ҳадис ва Ҳаёт. 20 жуз. Анбиёлар қиссаси. – Тошкент: “HILOL-NASHR”, 2016. – 567 б.
126. Шайх Муҳаммад Содик Муҳаммад Юсуф. Ҳадис ва Ҳаёт. 34 жуз. Яхшилик ва ахлоқ. – Тошкент: “HILOL-NASHR”, 2016. – 454 б.
127. Шайх Муҳаммад Саиъд Рамазон Бутий. Сийратни англаш. – Тошкент: “Sharq”, 2020. – 445 б.
128. Қуръони Карим. Ўзбекча изоҳли таржима. Таржима ва изоҳлар муаллифи Алоуддин Мансур. – Тошкент: “Чўлпон” нашриёти, 1992. – 672 б.
129. Қуръони карим ва ўзбек тилидаги маънолар таржимаси. Шайх Муҳаммад Содик Муҳаммад Юсуф. – Тошкент: Sharq, 2011. – 640 б.
130. Қуръони карим (маъноларининг таржимаси). Таржима ва изоҳлар муаллифи Абдулазиз Мансур. – Тошкент: Тошкент ислом университети, 2001. – 617 б.
131. Фаззолий Абу Ҳомид. Кимёи саодат. – Тошкент: Адолат, 2005. – 160 б.
132. Фаззолий Абу Ҳомид. Мукошафат ул-қулуб. Миразиз Аъзам таржимаси. – Тошкент: Адолат, 2002. – 215 б.

IV. Lug‘atlar

133. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Фан, 1983. 1 жилд. – 656 б.

134. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. –Тошкент: Фан, 1983. 2 жилд. – 644 б.
135. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. –Тошкент: Фан, 1983. 3 жилд. – 624 б.
136. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. –Тошкент: Фан, 1983. 4 жилд. – 636 б.
137. Алишер Навоий: қомусий луғат. Икки жилдлик / Масъул мухаррир: Ш.Сирожиддинов. I ж. – Тошкент: “Sharq”, 2016. – 536 б.
138. Алишер Навоий: қомусий луғат. Икки жилдлик / Масъул мухаррир: Ш.Сирожиддинов. II ж. – Тошкент: “Sharq”, 2016. – 480 б.
139. Маҳмуд Кошғарий. Девону луғоти-т-турк[Туркий сўзлар девони]. – Тошкент: Faafur Fулом, 2017. – 482 б.
140. Муҳаммад Фиёсүддин. Фиёс ул-луғот. Иборат аз 3 жилд. Ж.1. – Душанбе: Адиб, 1987. – 480 с.
141. Uludağ S. Tasavvuf terimleri sözlüğü. – Istanbul: Kabalcı Yayınevi, 1995. – 604 s.
142. Фарҳангি забони тоҷикӣ (аз асри X то ибтидои асри XX). Иборат аз ду ҷилд. Дар зери таҳрири М.Шукуров ва д. Ҷилди I. – Москва: Советская энциклопедия, 1969. – 952 с.
143. Фарҳангি забони тоҷикӣ (аз асри X то ибтидои асри XX). Иборат аз ду ҷилд. Дар зери таҳрири М.Шукуров ва д. Ҷилди II. – Москва: Советская энциклопедия, 1969. – 952 с.
144. Ferit Develli oğlu. Osmanlıca-Türkçe ansiklopedik lügat. – Ankara:Aydın kitabevi, 1979. – S. 906
145. Şemşeddin Sami. Kamusı Türki. – Istanbul: İkdam Matbaası, 1978. – S. 1464
- ابن منظور. ليسونول عربي. دار نشر "بولاقي مصر الماتى الكبرى" مصر ، ٤٠٥ - ١٨٨٣ .
- ٢- س

V. Badiiy adabiyotlar

147. Ахмад Яссавий. Ҳикматлар. – Тошкент: Faafur Fulom nomidagi Adabiyet va san'at nashrieti, 1991. – 256 b.
148. Adib Ahmad Yugnakiy. Hibat ul-haqoyiq. Toshkent: Sharq, 2013. – 40 b.
149. Алишер Навоий “Навоийдан чу топқайлар навоие”. Нашрга тайёрловчи, изоҳ ва таржима муаллифлари Ҳасанхон ва Ҳусайнхон Яҳё Абдулмажид. – Тошкент: Hilol-nashr, 2014. – 240 б.
150. Alisher Navoiy. To‘la asarlar to‘plami. O‘n jildlik. 6 jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 2013. – 812 b.
151. Alisher Navoiy. To‘la asarlar to‘plami. O‘n jildlik. 7 jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013. – 696 b.
152. Alisher Navoiy. To‘la asarlar to‘plami. O‘n jildlik. 8 jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013. – 704 b.
153. Alisher Navoiy. To‘la asarlar to‘plami. O‘n jildlik. 9 jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013. – 768 b.
154. Alisher Navoiy. To‘la asarlar to‘plami. O‘n jildlik. 10 jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013. – 684 b.
155. Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006. – 391 b.
156. Alisher Navoiy. Farhod va Shirin. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006. – 534 b.
157. Alisher Navoiy. Layli va Majnun. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006. – 318 b.
158. Alisher Navoiy. Sab’ai sayyor. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006. – 439 b.
159. Alisher Navoiy. Saddi Iskandariy. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006. – 672 b.
160. Алишер Навоий. Ҳайрат ул-аббор. Биринчи китоб. Муқаддима боблар. – Тошкент: “Tamaddun” нашриёти, 2021. – 471 б.

161. Аҳмад Юғнакий. Ҳибатул ҳақойик. Баҳром Ғойиб табдили. – Тошкент, 2002. – 25 б.
162. Имом Бусирий. Қасидаи бурда. Таърифул ҳабиб. Масъул муҳаррир: Шайх Абдулазиз Мансур. Тошкент: “Sharq”, 2015. – 202 б.
163. Меържонома. Нашрга тайёрловчилар И.Ҳаққул, С.Раъфиддин. – Тошкент: Ёзувчи, 1995. – 96 б.
164. Навоий А. МАТ. 20 томлик. Т.7. – Тошкент: Фан, 1991. – 392 б.
165. Навоий А. МАТ. 20 томлик. Т.8. – Тошкент: Фан, 1991. – 544 б.
166. Навоий А. МАТ. 20 томлик. Т.9. – Тошкент: Фан, 1992. – 356 б.
167. Навоий А. МАТ. 20 томлик. Т.10. – Тошкент: Фан, 1992. – 448 б.
168. Навоий А. МАТ. 20 томлик. Т.11. – Тошкент: Фан, 1993. – 640 б.
169. Навоий А. МАТ. 20 томлик. Т.12. – Тошкент: Фан, 1996. – 326 б.
170. Навоий А. МАТ. 20 томлик. Т.15. – Тошкент: Фан, 1999. – 236 б.
171. Навоий А. МАТ. 20 томлик. Т.16. – Тошкент: Фан, 2000. – 336 б.
172. Навоий асарлари луғати. Тузувчилар Шамсиев П., Иброҳимов С. – Тошкент: Фоғур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1972. – 782 б.
173. Носридин Рабғузий. Қиссаси Рабғзий 1 китоб. Тошкент: Ёзувчи, 1990. - 240 б.
174. Носридин Рабғузий. Қиссаси Рабғзий 2 китоб. Тошкент: Ёзувчи, 1991. - 269 б.
175. Хондамир F. Макорим ул-ахлоқ. – Тошкент: Фоғур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2015. – 208 б.
176. Юсуф Ҳос Ҳожиб. Қутадғу билиг. – Тошкент: Фан, 1972. – 964 б.
177. Юсуф Ҳос Ҳожиб. Қутадғу билиг. Нашрга тайёрловчи Б.Тўхлиев. – Тошкент: Юлдузча, 1989. – 306 б.
178. Yusuf Has Hacib. Qutadg‘u bilig. I jild. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston milliy kutubxonasi nashriyoti, 2010. – 239 b.
179. Юсуф Ҳос Ҳожиб. Қутадғу билиг. Ҳозирги ўзбек тилига табдил қилувчи Ф. Равшанов. – Тошкент: Akademnashr, 2015. – 508 б.

180. Ўзбек мумтоз адабиёти намуналари. 11 жилдлик. II жилд. Тузувчи Насимхон Раҳим. – Тошкент: Фан, 2007. – 317 б.

181. Шайх Низомий Ганжавий. Махзанул асрор. Таржимон Жамол Камол. –Тошкент: “Zamin nashr”, 2016. – 260 б.

VI. Dissertatsiya va avtoreferatlar

182. Аҳмедов Н. Ўзбек адабиётида Алишер Навоий сиймосини талқин этиш муаммолари. Филол. фан. док. дисс. автореферати. – Т.: 1994. – 50 б.

183. Бекова Н. Алишер Навоийнинг ҳамд ғазаллари ва “Рух ул-қудс” қасидасининг бадиияти. Филол. фан. номз. дисс. – Тошкент, 2003. – 137 б.

184. Бозорова Н. Алишер Навоий ғазалларида кўнгил образи. Филол. фан. номз. дисс. – Тошкент, 2002. – 135 б.

185. Давлатов О. Алишер Навоий ижодида Қуръон оятлари ва ҳадисларнинг бадиий талқини. Филол. фан. бўйича PhD дисс. – Самарқанд, 2017. – 160 Б.

186. Эркабоева Н. Алишер Навоий ижодида муножат. Филол. фан. номз. дисс. – Тошкент, 2008. – 149 б.

187. Gruber Ch.J. The prophet Muhammad’s ascension (MI’RAJ) in islomic art and literature, ca. 1300-1600. PhD. diss. – Penn, 2005. – p. 547.

188. Эркинов А. Алишер Навоий “Хамса”си талқинининг XV – XX аср манбалари: Филол. фан. док. дисс. – Тошкент, 2008. – 282 б.

189. Ҳайитов А. Алишер Навоий “Хамса”сини насрийлаштириш: анъана, табдил ва талқин: Филол. фан. номз. дисс. – Тошкент, 2000. – 168 б.

190. Ҳамидова М. “Садди Искандарий” достонининг илмий-танқидий матни ва матний тадқиқи: Филол. фан. док. дисс. – Тошкент, 1994. – 173 б.

191. Жўракулов У. Алишер Навоий “Хамса”сида хронотоп поэтикаси. Филол. фан. док. дисс. – Тошкент, 2017. – 264 б.

192. Караматов Ҳ. Ўзбек адабиёти Қуръон мавзулари.(адабий-тариҳий таҳлил). Филол. фан. док. дисс. – Тошкент, 1993. – 280 б.

193. Исмоилов И. Алишер Навоий “Садди Искандарий” достони генезиси ва поэтикаси. Филол. фан. док. дисс. – Тошкент, 2022. – 290 б.
194. Исмоилов И. Алишер Навоий “Садди Искандарий” достонининг қиёсий таҳлили. Филол. фан. бўйича PhD. дисс. – Тошкент, 2019. – 162 б.
195. Муллахўжаева К. Алишер Навоий ғазалиётида тасаввуфий тимсол ва бадиий санъатлар уйғунлиги (“Бадоев ул-бидоя” девони асосида): Филол. фан. номз. дисс. – Тошкент, 2005. – 148 б.
196. Муҳиддинов М. Алишер Навоий ва унинг салафлари ижодида инсон концепцияси: Филол. фан. док. дисс. – Тошкент, 1995. – 288 б.
197. Салимов И. Алишер Навоийнинг бадиий образ яратиш маҳорати (“Садди Искандарий” мисолида): Филол. фан. номз. дисс. – Самарқанд, 1994. – 137 б.
198. Қобилов У. Ўзбек адабиётида нубувват мотиви ва образлар талқини(XIV-XV асрлар). Филол. фан. док.(DSc) дисс. автореферати. – Самарқанд, 2019. – Б. 76.
199. Қобилов У. Масих тимсолининг ўзбек мумтоз адабиётидаги бадиий талқини (XII-XV асрлар). Филол. фан. номз. дисс. – Самарқанд, 2001. – 135 б.
200. Халлиева Г. XX аср рус шарқшунослигига ўзбек мумтоз адабиёти тадқиқи. Филол. фан. док. дисс. автореферати. – Тошкент, 2016. – Б. 73.
201. Ўтанова С. Алишер Навоий ғазалётида ранг символикаси. Филол. фан. номз. дисс. – Тошкент, 2007. – 138 б.
202. Гаффоров Н. Алишер Навоий “Хамса”сида сўфийлар тимсоли. Филол. фан. номз. дисс. – Тошкент, 1999.
203. Шарипов Ш. Алишер Навоийнинг “Лисон ут-тайр” достонининг генезиси ва ғоявий-бадиий хусусиятлари. Филол. фан. номз. дисс. – Тошкент, 1978. – 153 б.

VII. Ilmiy to‘plam, jurnal va gazetalardagi maqolalar

204. Абдуллаев И. Араб адабиёти ва Навоий // Ўзбек тили ва адабиёти, 2001. – № 1. – Б. 12–18.
205. Давлатов О. “Ҳайрат ул-аброр”да меърож кечасининг тасвири // SHARQ MASH’ALI. 2015 йил, №3-4, – Б. 28-37.
206. Зоҳидов В. Навоий дунёқарашининг асосий манбалари // Навоий ва адабий таъсир масалалари. – Тошкент: Фан, 1968. – Б. 3– 28.
207. Имомназаров М. Жомий “Хамса” ёзганми ? // Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 2005 йил, № 51.
208. Исҳоқов Ё. Амир Хусрав ва ўзбек адабиёти // Ўзбек тили ва адабиёти, 1976. – № 4. – Б. 49–53.
209. Исҳоқов Ё. Навоий лирикасида сабабият // Навоийнинг бадиий маҳорати масалалари. – Тошкент: Фан, 1993. – Б. 13–26.
210. Исҳоқов Ё. Поэтик анъана ва индивидуал услуг // Ўзбек тили ва адабиёти, 1978. – №1. –Б. 33–39.
211. Исҳоқов Ё. “Хамса” поэтикасининг баъзи масалалари // Ўзбек тили ва адабиёти, 1985. – №1. – Б. 10 – 15.
212. Jo‘raqulov U. “Hayrat ul-abror”da na’t // Alisher Navoiy va XXI asr. Xalqaro ilmiy-nazariy anjuman materiallari. –Toshkent, 2020. – В. 78-83.
213. Комилов Н. Алишер Навоий ва Шарқ адабиёти // Алишер Навоий ижодий мероси ва унинг жаҳоншумул аҳамияти. – Тошкент: Фан, 2001. – Б. 25–26.
214. Комилов Н. Тафаккур тухфалари // Навоийнинг ижод олами. Мақолалар тўплами. - Т.: Фан, 2001. – Б. 25–26.
215. Mullaxo‘jayeva K. Navoiy va Jomiy g‘azallarida Rasululloh vasfi // Alisher Navoiy va XXI asr. Xalqaro ilmiy-nazariy anjuman materiallari. –Toshkent, 2020. – В. 259-265.
216. Навоийга армуғон. Илмий тўплам. Ҳ.Ҳомидов таҳрири остида. Низомий номидаги ТДПУ. – Тошкент, 2000-2001-2002-2003-2004-2005-2006.
217. Навоийнинг ижод олами. Мақолалар тўплами. – Тошкент: Фан,

2001.

218. Ойбек. Навоий гулшани. Навоий ҳақида мақолалар. – Тошкент: Гафур Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1967. – 150 б.
219. Эргашев Қ. Навоий насира матн композициясига доир // Навоийнинг ижод олами. – Тошкент: Фан, 2011. – Б. 39-45.
220. Эшонбобоев А. “Садди Искандарий”нинг бадиий хусусиятларига доир // Ўзбек тили ва адабиёти, 2018. – №1. – Б. 67 – 70.
221. Каюмов А. “Садди Искандарий” сарлавҳалари // Навоийнинг ижод олами. – Тошкент: Фан, 2001. – Б. 84–103.
222. Tilovov A. “... Sen erding quyosh...”(Alisher Navoiyning bir na't g'azali) // Alisher Navoiy va XXI asr. Xalqaro ilmiy-nazariy anjuman materiallari. – Toshkent, 2020. – В. 276-282.
223. Ҳайитметов А. Алишер Навоий ижодининг манбалари // Ўзбек тили ва адабиёти, 2001. – № 1. – Б. 5–12.
224. Ҳаққулов И. Анъана ва маҳорат // Навоий ва ижод сабоқлари. – Тошкент: Фан, 1981. – Б. 90–102.
225. Ҳаққулов И. Навоий ва юнон фалсафаси // Ўзбек тили ва адабиёти, 2012. – №1. – Б. 3-8.
226. Ҳаққулов И. “Хамса” бадииятига доир // Алишер Навоий “Хамса”си (тадқиқотлар). – Тошкент: Фан, 1986. – Б. 112-127.

VII. Internet manbalari

227. <https://islom.uz/>
228. <https://siyrat.uz/siyrat>
229. <https://hidoyat.uz//>
230. <http://tefasir.blogspot.com/p/tefsir-kitaplar.html>
231. <http://www.iranicaonline.org/articles/kamsa-of-nezami>
232. <https://www.islamveihsan.com/naat-nedir.html>
233. <http://www.edebiyatbilgileri.com/11/divan-edebiyati-nazim-turleri>

234. <https://www.sabah.com.tr/sozluk/islamiyet/fena-nedir>
235. <https://savollar.islom.uz/s/155721>
236. https://www.nidaulhind.com/2016/12/blog-post_31.html
237. <https://islamansiklopedisi.org.tr/nat>
238. <https://www.hindawi.org/books/categories/literary.criticism/12/>
239. <https://hawzah.net/fa/Article/View/98105/>
240. <https://edebiyatvesanatakademisi.com/Icerik.aspx?a=/e/YORUMLAR/>
241. <https://hadis.uz/>